

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**  
**MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXI KAFEDRASI**

**MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXI**

fanidan

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Bilim sohasi:** 100000 – Gumanitar soha  
**Ta‘lim sohasi:** 120000 – Gumanitar ta‘lim  
**Ta‘lim yo‘nalishi:** 5120300 – Tarix (Markaziy Osiyo xalqlari tarixi)

Toshkent – 2017

O‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan fanning namunaviy dasturi asosida ishlab chiqildi.

**T u z u v c h i l a r:**

1. Is‘hoqov Mirsodiq Mirsultonovich – “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasida professori, tarix fanlari doktori
2. Xudoynazarov Iso Boysoatovich - “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasida o‘qituvchisi

**T a q r i z c h i l a r:**

1. Alimova Rahima Risqulovna - TDSHI, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi
2. Imomov Xurshid Xudoyqulovich-O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tasarrufidagi Temuriylar tarixi Davlat muzeyi ilmiy xodimi

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Kengashining 20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi “\_\_”-sonli majlisida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan.

## MUNDARIJA:

	<b>Ma'ruza mashg'ulotlari</b>	bet
1.	“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” faniga kirish: fanning maqsadi, vazifalari, manbalari va metodolik asoslari	6
2.	Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi makoni, mintaqa xalqlarining tarixiy-madaniy mushtarakligi	10
3.	Markaziy Osiyoda paleolit va mezolit: tosh asri lokal (mahalliy) arxeologik madaniyatlarning antropogen xos va umumiy jihatlari	14
4.	Markaziy Osiyoda neolit va eneolit davrlari ilk sivilizasion bosqichlari (xo‘jalik tiplari taraqqiyoti dinamikasining tahlili)	22
5.	Bronza davrida nomadik va Markaziy Osiyo o‘troq madaniyatlari munosabatlari	29
6.	Markaziy Osiyoning janubiy, janubiy-g‘arbiy hududlarida bronzo davri madaniy-tarixiy markazlari: (Afg‘onistonning Dashli-I,III, Turkmanistonning Nomozgoh, Gonurtepa)	33
7.	Markaziy Osiyoda qadimiy diniy tasavvurlar: ibtidoiy diniy mifologik qarashlardan teologik tizimli diniy qarashlar sari. Zardushtiylik	36
8.	Ilk temir davrida Markaziy Osiyo hududiy davlatchilik jarayonlari: Xvarasmi, Suguda, Margush, Fragana	40
9.	Amudaryo va Sirdaryo havzalarida Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqriya: kulturogenез va taraqqiyot omillari	44
10.	Markaziy Osiyo tarixida Sharqiy Turkiston, Oltoy va Yettisuv o‘lkasining o‘rni	50
11.	Markaziy Osiyoning shimoliy mintaqalarida nomadik tarixiy-madaniy, efemer davlatchilik jarayonlari (Qirg‘iz hoqonligi va qozoqlarning usun davlatchiligi masalasi)	54
12.	Markaziy Osiyoning qadimgi yozuv madaniyati (sak, boxtar, so‘g‘d)	56
13.	Markaziy Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi kurashi (Ahamoniylar bosqinchiligi davrida Markaziy Osiyo)	59
14.	Aleksandrning sharqqa yurishlari davrida Markaziy Osiyo: istilochilik va uning oqibatlar	64
15.	Markaziy Osiyoda ellinizm: Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari	68
16.	Qadimgi Parfiya va uning Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga ta’siri	74
17.	Qangxa (kangyuy) va Markaziy Osiyo	75
18.	Markaziy Osiyo xalqlari va Xitoy munosabatalari tarixi (qadimiyat va ilk o‘rta asrlar)	78
19.	Xunlar va Markaziy Osiyo. Birinchi va Ikkinchi xunlar imperiyasi: yuksalishi va tanazzuli	86
20.	Markaziy Osiyo orqali kechgan qadimiy migrasion jarayonlar va	91

	ularning tarixiy hamda etno-madaniy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri	
21.	Markaziy Osiyoda Kushonlar imperiyasi: siyosiy-ijtimoiy va madaniy-tarixiy jarayonlar (Afg'oniston, Tojikiston va O'zbekiston hududlaridan topilgan arxeologik manzilgohlar tahlili)	96
22.	Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotidagi o'rni	104
23.	Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlardagi migrasion jarayonlar (avtohton, prototurk aholi va ko'chmanchilar o'rtasidagi munosabatlar. Xioniylar va kidarlar davlati)	107
24.	Markaziy Osiyoda eftaliylar davlati	109
25.	Buyuk Turon – Turkiston - Markaziy Osiyoda Turk hoqonligi	111
26.	Turk hoqonligi va uning boshqaruv tizimi. Markaziy hokimiyat va mahalliy hukmdorlar	112
27.	V-VIII asrlarda Turk-So'g'd madaniy, ijtimoiy simbiozi	116
28.	Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoning mahalliy davlatlari	120

<b>№</b>	<b>Amaliy mashg'ulotlari</b>	<b>124</b>
1	“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” fani manbalari	126
2	Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa davri	128
3	Markaziy Osiyoda qadimgi tosh davri manzilgohlari tahlili	126
4	Markaziy Osiyoda eneolit va bronza davri yodgorliklari. Ilk shaharchilik	131
5	Markaziy Osiyoda bronzo davri manzilgohlari tahlili	132
6	Markaziy Osiyoning eng qadimgi shahar-davlatlari	134
7	“Avesto”- Markaziy Osiyoning qadimgi yozma manbasi	137
8	Ilk temir asri yodgorliklari, MO temir asri madaniy qatlamlari tahlili	139
9	Markaziy Osiyoning qadimgi davr tarixshunosligi	141
10	Miloddan avvalgi I ming yillikning 2-yarmida Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Oltoy	142
11	Qirg'iz hoqonligi va usunlar davlati tarixiga oid ma'lumotlar tahlili	142
12	Markaziy Osiyoning qadimgi yozuvlari, arxeologik topilmalar	144
13	Markaziy Osiyo xalqlarining ozodlik uchun kurashi	145
14	Ellinizmning Markaziy Osiyoga ta'siri	146
15	Ellin davlatlari	147
16	Qadimgi Parfiya davlati, ma'lumotlar tahlili	149
17	Qang' davlati ijtimoiy iqtisodiy ahvoli. Diniy munosabatlar	150
18	Qadimgi Davan, Choch va Ustrushona tarixi tahlili	151
19	Xalqlarning buyuk ko'chish davrida Markaziy Osiyo	152
20	Turkiy xalqlarning Markaziy va O'rta Osiyoda ko'chish jarayonlaridagi o'rni	153
21	Kushonlar davrida pul, din va boshqa sohadagi islohotlar	154

22	Markaziy Osiyodan qadimgi yo‘llar: la‘l yo‘li, rodanitlar, shoh yo‘li	155
23	Xioniylar va kidariylar davlati tarixiga oid ma‘lumotlar tahlili	156
24	Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat	157
25	Turk hoqonligi davri manbalari	158
26	G‘arbiy va Sharqiy Turk hoqonliklari	160
27	V-VIII asrlarda Turk-So‘g‘d munosabatlari	162
28	Ilk o‘rta asrlarda Choch, Iloq va Tohariston	163
29	<b>Mustaqil ta‘lim topshiriqlari</b>	164
30	<b>Glossariy</b>	166
31	<b>Ilovalar</b>	182

**1-mavzu. “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” faniga kirish: fanning maqsadi, vazifalari, manbalari va metodologik asoslari**

Reja:


1. “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” fani va uning predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Fanning o‘quv rejasidagi fanlar buyicha umumiy nazariy va amaliy xususiyatlari.
3. “Markaziy Osiyo” tushunchasi va uning mohiyati.

**Tayanch so‘z va iboralar:**

“Markaziy Osiyo” tushunchasi, “O‘rta Osiyo” tushunchasi, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” tushunchasi, metodologiya va metodika, tarix va mafkura, tarixning uzluksizligi, Markaziy Osiyoning qadimgi nomlari.

Fanning bosh maqsadi – talabalarda Markaziy Osiyoda qadimdan yonma-yon va qo‘ni-qo‘shni bo‘lib kelgan aholi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, mintaqada tarixiy davlatlar, davlatchilik jarayonlarining yagonaligi va mahalliy xos xususiyatlari, boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ichki va tashqi siyosati bo‘yicha bilim berishdan iborat. Asosiy vazifa esa – talabalarga Markaziy Osiyo hududlari yagona tarixiy madaniy mintaqasi sifatida ko‘plab xalqlarning tarixiy taqdirini o‘zida birlashtirganligini e‘tiborga olib mintaqasi xalqlari tarixining umumiyligi, mushtarak ildizlari va yaxlit jarayon sifatida tushuntirishdir.


Ma‘lumki, Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy o‘choqlaridan bo‘lib, keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va ilmiy tadqiqot izlanishlari buni yana bir marta tasdiqladi. Yaponiya, Avstraliya, Fransiya va Rossiyalik arxeologlarning O‘zbekiston olimlari bilan hamkorlikda o‘tkazgan ilmiy ekspeditsiyalari juda samarali bo‘ldi. Shunisi e‘tiborliki, Markaziy Osiyo hududlarida ilk sivilizatsiya asoslari mezolit va neolit bosqichlariga borib taqaladi. Xuddi shu davrda dehqonchilik manzilgohlari paydo bo‘lgan. Eneolit davriga kelib sug‘orma dehqonchilikning vujudga kelishi mintaqasi taraqqiyotida keskin ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga yo‘l ochib berdi. Bronza davriga kelib esa shaharsozlik boshlandi. Ilk davlat uyushmalarining shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar, ya‘ni yer haydab dehqonchilik qilish, metal eritish va undan foydalanish yuksak tarqiy qilgan jamiyatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Aynan shu davrda mintaqada ilk yozuv



1.1-rasm. Markaziy Osiyo tarixiy xaritasi

elementlari yaratildi. Markaziy Osiyoning janubida, ya'ni Turkmaniston va O'zbekiston xududlarida mahalliy davlatchilik asoslari vujudga keldi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning boshiga kelib Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya kabi qudratli, yirik, markazlashgan davlatlar siyosiy maydonga chiqdi. "Avesto" yaratilganligining va Qarshi shaharining 2700, Samarqand shahrining 2750 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanganligi yuqoridagi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Ota-bobolarimiz Ahamoniy va yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uzoq yillar davomida shiddatli kurash olib bordi. Buning natijasi o'laroq mustaqil davlatlar: Qadimgi Xorazm, Choch, Parkana, Parfiya, Yunon-Baqtriya kabi davlatlar vujudga keldi, yuksaldi. Antik davrning buyuk davlatlari Qang', Kushon kabi saltanatlar nafaqat mintaqada balki, Sharq va G'arb mamlakatlari tarixida ham sezilarli iz qoldirdi. Jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan Buyuk Ipak yo'li aynan shu davrda shakllandi va rivojlandi. Ilk o'rta asrlarda mintaqa xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo, jahon tarixining keskin



1.2-rasm. Markaziy Osiyo hududi, UNESCO

burilishiga sabab bo'lgan xalqlarning buyuk ko'chishlari bilan bog'liqdir. Aynan shu davrda Markaziy Osiyoning o'troq hududlariga ko'chmanchi turkiy xalqlarning ommaviy ko'chib kelishlari yuz berdi. Natijada, mintaqa xalqlarining etnosida turkiylashuv jarayoni kuchaydi. Bunday o'zgarishlar oqibatida tarix sahnasiga Xiyoniylar, Sosoniylar, Kidariylar, Eftalitlar va Turk xoqonligi kabi yangi buyuk davlatlar chiqib keldi.

Tarixiy tadqiqot metodologiyasi tarixchi va faylasuflarning e'tibor beradigan obyektidir. Tarix fani metodologiyasi nazariy va amaliy faoliyatni qurish va tashkil qilish usullari, tamoyillari tizimi to'g'risidagi ta'limot tushunchasini bildiradi. Jahon tarixi fani tarixning yangi nazariyasi va metodologiyasi izlash, yangi tarixiy sintez,

aniq tarixiy materialni falsafiy-nazariy umumlashtirish jarayonini boshdan kechirmoqda. Shuningdek, tarix fanida yaqin kunlargaacha markistik konsepsiyaning tarixiy bilishda yagona va universal tushunchasi sifatidagi qarashdan voz kechish ijobiy hoi bo'ldi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab professional tarixchilar va gumanitar fanlar mutaxassislari tarixiy bilimning tushkunligi to'g'risidagi fikmi ayta boshladilar. Zamonaviy g'arb tarixshunosligi metodologiya, metodlarni «texnik» qo'llash yoki «tarix falsafasi» bilan cheklanadi. XX asrning 90-yillarida tarix fanining ko'pgina da'volaridan voz kechildi. Jumladan, tarixiy jarayonning xolisliyi, tarix qonunlarini ochish qobiliyati, kelajakni aytib berish va hokazo. Natijada tarix metodologiyasida ham o'zgarishlar ehtiyoji paydo bo'ldi. Shu bilan birga ilmiy bilish jarayonida tarixchining roli tushunarli bo'ldi.

Asr oxirida ilmiy-metodologik yondashuvlarning ko'pligi plyuralizmning bilish strategiyasini aniqlash vazifasi birinchi o'ringa chiqdi. Shunga mos ravishda tarixiy bilish nazariyasi alohida ahamiyat kasb etdi. Qator olimlarning fikriga ko'ra, u ilgarigi tarix falsafasida tegishli o'rinni egalladi. (Tarixni bilish nazariyasi sohasida hozir olib borilayotgan tadqiqotlar tarix fani asoslariga tegishli masalalami fundamental kategoriyalari: tarixiy dalil, tarixiy vaqt va kenglik, tarixiy qonuniyatlarni ochdi.



1.3-rasm. Qadimgi qurol

Markaziy Osiyo – Oltoy mintaqasi, Sharqiy Turkiston, Tibet, Mo'g'uliston, Dashti Qipchoq, O'rta Osiyo mintaqalaridagi davlatlar, xalqlar, elatlarning qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi kungacha bo'lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayoti tarixini qamraydi. Markaziy Osiyo mintaqasi yagona tarixiy geografik va tarixiy madaniy mintaqa sifatida har

tomonlama mushtarak xususiyatga ega. Etnomadaniy nuqtai nazardan ushbu mintaqa turkiy va eroniyzabon xalqlar taqdirini birlashtirgan. XXI asr bo'sag'asida Markaziy Osiyoning xalqaro hayotning mustaqil sub'ekti sifatida qayta tiklanishi, shubhasiz, olamshumul, o'zida muhim jarayonlarni ham ifodaluvchi, ham aks ettiruvchi hodisa bo'ldi.

«Markaziy Osiyo» atamasi birinchi marta taniqli nemis olimi, geograf Aleksandr fon Gumboldt tomonidan 1843 yili Parijda nashr etilgan uch jildli «Markaziy Osiyo. Tog' tizmalarini tadqiq qilish va iqlimlarni taqqoslash» asarida qo'llanilgan edi.

Unda olim ichki sug'orish sistemasini va tog' tizmalarini o'rganib, Markaziy Osiyoni alohida, o'ziga xos mintaqa sifatida ajratdi. Shundan so'ng «Markaziy Osiyo» tushunchasi uzoq vaqt mobaynida, to so'nggi davrgacha geosiyosiy tushuncha sifatida emas, balki asosan tarixiy yoki geografik atama sifatida qo'llanilib kelindi. Boz ustiga, mintaqaning chegaralari ham, uning tarkibi ham aniq



emas edi. Hatto uning nomi ham turli tarixiy davrlarda va xalqlarda har xil atalgan. Tarixan olganda, geografik omillar asosiy mezon bo'lib xizmat qilgan. Yunonlar va rimliklar uni «Transaksoniya» - Oxus daryosi (Amudaryo) ortidagi yer deb, xitoylar «G'arbiy o'lka» deb, arablar - «Movarounnahr» yoki ikki daryo oralig'i deb ataganlar. Eron «Turon»dan ajratilgan. Ba'zan mintaqa etnolingvistik asosda «Turkiston» deb atalgan. Ba'zan esa, u «Ichki Osiyo» (Inner Asia) deb kengaytirilgan tarzda talqin qilingan va unga Mo'g'uliston, G'arbiy Xitoy, Shimoliy Hindiston, Pokiston va Rossiya Sibirining janubiy qismi kiritilgan.

YuNESKO tomonidan nashr etilgan «Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi» kitobida mintaqa xuddi shunday ko'rinishga ega. Ba'zan aksincha, sobiq SSSRda bo'lganidek, mintaqa doirasi atigi to'rt respublika - Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni o'z ichiga olgan «O'rta Osiyo» tushunchasiga qadar toraytirildi. Ammo Markaziy Osiyo chegaralari har xil belgilanganligi va u har xil nomlar bilan atalganligiga qaramay, barcha tadqiqotchilar bir narsada yakdil edilar - mintaqa jahon taraqqiyotida tarixan juda muhim rol o'ynab kelgan. Arnold Toynbi o'zining monumental «Tarixni anglash» asarida Oks-Yaksart havzasi (ya'ni Amudaryo va Sirdaryo oralig'i), Yaqin Sharq kabi, yer yuzidagi barcha muhim yo'llar kesishadigan joy ekanligini, tabiiy shart-sharoitlar bu joylar xalqaro chorrahaga aylanishiga imkoniyat yaratganligini qayd etadi. Shuning uchun ham jahonning barcha asosiy dinlari yoki shu yerda vujudga kelgan, yoki qudratli rivoj topgan, deb ta'kidlaydi Toynbi. XXI asr bo'sag'asida yuz bergan geosiyosiy o'zgarishlar kuchlarning xalqaro balansida va sivilizatsiyalar o'rtasidagi aloqalarda Markaziy Osiyo muhim rol o'ynashini yana bir karra tasdiqladi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov, mintaqaning hozirgi zamon geosiyosiy sharoitdagi ahamiyati haqida gapirar ekan, ushbu ahamiyat shunchalik sezilarli va kattaki, «bu respublikalarda yuz berayotgan hodisalar jahondagi eng yirik davlatlar turli jo'g'rofiy-siyosiy tuzilmalarning manfaatlariga bevosita dahldordir», deb ta'kidlaydi. Mintaqada mutlaqo yangi geostrategik vaziyat yuzaga keldi. O'tgan asr mezonlari, ta'riflari va siyosiy xaritalari bugungi Markaziy Osiyoni tushunish va uning muammolarini anglash uchun to'g'ri kelmay qoldi. Mintaqaga yangicha, yanada kengroq yondashuvsiz u duch kelgan jiddiy muammolarning to'g'ri yechimini topish mumkin emas. Mintaqani madaniy, etnolingvistik, geosiyosiy va geoiqtisodiy tendensiyalar, shuningdek xavfsizlik muammolari majmui nuqtai nazaridan anglash, muqarrar tarzda Markaziy Osiyo faqatgina sobiq SSSRning besh respublikasidan iborat emas, degan xulosaga olib keladi. Afg'oniston hamda Xitoyning g'arbiy hududlari ham uzviy ravishda mintaqaning tarkibiy qismlaridir. Bugungi kunda mazkur mintaqani faqat geografiya, iqlim, umumiy tarixiy va sivilizasion ildizlar-gina birlashtirmaydi. Mintaqa mamlakatlari qarshi turgan xavf-xatarlar va muammolar ham umumiydir. Ularning kelib chiqishi va xususiyati Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari aynan shu kompozitsiyada birga ish olib borishini va hamkorlikni institutsiyaviylashtirishni taqozo etadi. Bundan mintaqadagi bir davlatning chetda turishi ham barcha harakatlarni yo'qqa chiqarishi mumkin. Xuddi shuningdek, ko'rsatilgan yetti mamlakat yaqin, institutsiyaviylashtirilgan hamkorlik

qilgan taqdirdagina mintaqaning strategik imtiyoz va afzalliklaridan to'laqonli va keng qamrovli ravishda foydalanish uchun imkoniyat yaratishi mumkin.

Markaziy Osiyo - eng qadim zamonlardan boshlab ko'plab xalqlarning taqdirini birlashtirgan, murakkab etnik va tarixiy jarayonlar kechgan tarixiy - geografik hudud hisoblanadi. Shuningdek, bu ulkan mintaqaja jahon antropogen jarayonlari ro'y bergan, insoniyatning ilk ajdodlari shakllangan makonlardan biridir. Ming yillar davomida Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan madaniyat o'chog'i sifatida dunyo ilm ahlining e'tiborini tortib kelgan. Bugungi kunda jahon siyosiy xaritasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berib, Markaziy Osiyoda O'zbekiston, Qozog'iston,



1.4-rasm. Paleolit davri odamlari

Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Ularning har biri o'z taraqqiyot yo'lini tanlab, istiqbol sari intilmoqda. Shu jumladan, O'zbekiston ham demokratik jamiyat qurish jarayonini boshdan kechirmoqda. O'zbekiston uchun qo'shni va uzoq mamlakatlar bilan keng qamrovli aloqalarni yo'lga qo-

yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlarning samarasini ta'minlash o'z navbatida kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liqdir. Ayni shu ma'noda Markaziy Osiyo – Oltoy mintaqasi, Sharqiy Turkiston, Mo'g'uliston, Dashti Qipchoq, Janubiy Osiyo va O'rta Osiyo mintaqalarida joylashgan o'nlab davlatlar, xalqlar, elatlar tarixini biladigan zamonaviy mutaxssislarni tayyorlash o'ta dolzarbdir. Tarixni bilish esa mamlakatimizning ushbu mintaqaja xalqlari bilan diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish va samarasini ta'minlashga xizmat qiladi.

## 2-mavzu. Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi makoni, mintaqaja xalqlarining tarixiy-madaniy mushtarakligi

### Reja:

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi makoni
- 3) Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy-madaniy mushtarakligi

**Tayanch so'z va iboralar:** sivilizatsiya, qadimgi makon, tarixiy-madaniy mushtarak, Sopollitepa, Gonurdepe, Janubiy Gonur, To'g'aloq.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasi qadim zamonlardan to hanuzgacha ko'plab xalqlarning boshini mushtarak taraqqiyot jarayonlari atrofida birlashtirib kelgan. Bu hududlar taqdirleri tutash turkiy va eroniyzabon xalqlar uchun ilk beshik vazifasini o'tagan. Shu sababli, tarixga oid xoh turkiy, xoh forsiy, xoh xitoyi yoki hindiy, yunoniy, arabiy, boringki, xar qanday yozma manbaga diqqat qilinsa, mazmuni va

bergan ma'lumotlariga ko'ra ular Markaziy Osiyo xalqlari o'tmishi uchun mushtarak bo'lib chiqadi. Buning tub mohiyati Markaziy Osiyoning qadim zamonlardan boshlab yagona tarixiy madaniy mintaqa bo'lib kelgani bilan izohlanadi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini mushtarak asoslarga ega yaxlit jarayon sifatida o'rganish bu mintaqada miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan boshlab amal qilgan mahalliy alifbeli (nutq tovush – harf shartli chizma belgi) yozuv tizimlarini tadqiq etish, o'sha yozuvlar bilan bitilgan ma'lumotlarni tarix masalalarini hal qilishga faol jalb qilish kabi muhim muammolarni o'rtaga qo'yadi. Binobarin, Markaziy Osiyo mintaqasida qadimiy yozuv madaniyatining o'chog 'i sifatida o'nlab alifbe tizimlari yaratilgan. Eng so'nggi arxeologik topilmalar orasida Jarqo'ton (Surxondaryo, Sherobod tumani)dan topilgan sopol buyumlar sirtidagi piktografik belgilar yozuvlarimiz tarixining ildizlarini bronza asrigacha yetakzayotgandek. Biroq miloddan avvalgi I ming yillikda Markaziy Osiyo yozuv madaniyati tarixida tub burilish ro'y bergan. Mahalliy sharoitda tub joy turkiy yozuv tizimi deb taxmin qilinayotgan "Issiq yozuv"ini mintaqamizda paydo bo'lgan ilk alifbeli yozuv deb hisoblash mumkin. Miloddan avvalgi IV-III asrlardan boshlab xorazmiy, sug 'diy, baqtriy, parfiyoniy alifbelari paydo bo'lgani mintaqa xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy (davlatchilik), madaniy, ma'naviy hayotidagi tub o'zgarishlar bilan izohlanadi.

Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Markaziy Osiyo bo'ylab zardushtiylik dinining tarqalishi, uning kitobi "Avesto"ning maxsus alifbe vositasida yozib olib, kitob qilinishi – bular qadimiy yozuv va kitobat ishining jamiyat hayotiga dadil kirib kelishi deb baholanishi mumkin.

"Avesta" faol yaratuvchanlik, ruhiy va jismoniy poklik, astoydil va barqaror e'tiqod, yovuzlikning barcha ko'rinishlariga qarshi kurash, oilaparvarlik, Vatanga muhabbat va uning boyluklarini ko'paytirishga da'vat kabi o'z davri uchun yuksak g'oyalari bilan ajdodlar hayotiga kirib kelgan. Bu qadriyatlar asrlar osha, hatto diniy qarashlar o'zgargan sharoitlarda ham transformatsiyalashgan holda saqlanib, avaylanib kelmoqda. Bu qadriyatlar el, elat, xalq, millat tushunchalaridan ustunligi bilan mintaqa xalqlarini ma'naviy uyushtiruvchi



2.1-rasm. Arxar shoxlari, ko'mish marosimi

muhim omil hamda bu mushtaraklikka, o'z navbatida millatlararo totuvlikka asos bo'lib qolaveradi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda yuqorida qayd etganimiz–manbashunoslik yo'nalishini hal qiluvchi soha sifatida alohida ta'kidlash lozim. Haqqoniy tarixni manbalar asosida, dalil va isbotli tarzda o'rganish muhim


metodologik talab sifatida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan olg'a surilgani bejiz emas. Binobarin, mintaqa tarixi mustaqillikka qadar sovetlar davri mafkurasi tazyiqida bor bo'y-bastini ko'rsata olmay kelgan edi. Xalqimiz o'tmishining eng yorqin sahifalari ataylab buzib ko'rsatilar edi. Hatto mustaqillik sharoitida ham dastlabki bir necha yil davomida, xususan, o'zbek xalqi tarixini yoritishda jur'atsiz tebranishlar kuzatilgani ma'lum. Biroq, 1998 yil 26 iyunida Birinchi Prezident Islom Karimovning bir guruh tarixchi olimlar bilan uchrashuvi chog'ida bayon etilgan jiddiy metodologik ahamiyatga ega fikrlar tarixshunoslikda burilish yasadi. O'zbekistonda tarix fanining davomiy rivojida Prezidentimizning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asari butun bir nazariy poklanish davrini boshlab berdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida milliy tarixlar tarixshunosligi masalasi ham bugungi kunda bir qator muammolarni o'rta qo'yimoqda. Qo'shni qardosh xalqlar tarixini yaratish jarayonida haqqoniy tarixni tiklashga urinish bilan barobar ayrim metodologik noto'g'ri yondashuvlar ko'zga tashlanmoqda. Bularning asosida ayrim olingan xalqlarni, ularning davlatchiligi tarixini mubolag'a darajasida, xatto besh ming yillik qadimiy qilib ko'rsatish, tarixiy hudud, madaniy ustunlik, haqidagi da'volar, ayrim o'rinlarda mifologik tasavvurlarga haqiqiy tarix "kiyimini kiygazish" (O'g'izxon boshchiligidagi "Anau impermyasi" kabi) va boshqa metodologik og'ishlar yotadi.

Ushbu vazifada Markaziy Osiyo xalqlari tarixini holisona o'rganish jiddiy nazariy tayyorgarlikka ega bo'lgan tarix masalasida haqni nohaqdan ajrata biladigan, qadimiy moddiy yodgorliklarga ma'no bera oladigan va, ayniqsa, yozma yodgorliklarni o'qiy oladigan, ularni to'g'ri talqin qila oladigan kadrlar tayyorlash masalasiga borib taqaladi. Tarixiy mushtaraklik haqida gap ketganda o'tmish jarayonlarini ayni tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqib xolisona yondashuvlar asosida o'rganmoq zarurdir. Tarix tadqiqotlarining turli metodologik yondashuv tamoyillari bo'lgani holda, ularning asosida xolisonalik, dalil va isbotlilik, voqea hodisalarga tarixiylik nuqtai nazaridan baho berish yotmog'i lozim.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi ilmiy tarixshunoslik jarayoni nuqtai nazaridan bir necha asrlar davomida u yoki bu manfaatlar talash maydonida qolib kelmoqda. Jumladan, Rossiya tarixshunosligi Markaziy Osiyoga ayniqsa, XIX-asrdan boshlab, imperiya manfaatlar nuqtai nazaridan yondashuv asoslarini ishlab chiqdi. Bu masalada mahalliy ziyolilarni ham ustalik bilan jalb etib, ularning ma'lumotlaridan ham keng foydalandi. Gap shunda ediki, Markaziy Osiyo, jumladan, Turkiston o'lkasi Yevropaning Angliya, Germaniya, Fransiya singari davlatlari hamda Rossiya o'rtasida manfaatlar kurashi mintaqasiga aylangan edi. Shu tufayli, xususan, Sharqiy Turkistonda bir vaqtning o'zida va ketma-ket mazkur davlatlarning turli maqsadlardagi ekspeditsiyalari va missiyalari ish olib borgani ma'lum. Maqsad esa bir xil edi: har bir davlat mintaqa xalqlari tarixini madaniyatini, xo'jalik xususiyatlarini, tabiiy resurlarini, hokazo, o'zicha o'rganishga va bilishga harakat qilardi. Rossiya S.Oldenbug rahbarligida, Angliya A.Steyn rahbarligida, Fransiya R.Pelo boshchiligidan o'lkani o'rganish va zarur manfaatli ma'lumotlarni to'plash uchun

ekspeditsiyalar uyushtirgan. Natijada o'lkasi tarixi va madaniyati to'g'risida katta miqdorda ma'lumotlar to'planib, Sankt-Peteburg, London, Berlin, Parij fondlariga joylashtirildi. Biroq, bu materiallardan foydalanish asnosida har bir mamlakat olimlari o'z yo'llaridan borib, siyosiy maqsadlariga mos talqinlarni o'rta qo'yib bordilar. Ushbu tarixiy materiallar to'planganini ularning saqlanib qolishiga ijobiy xizmat qilgani holda, ilmiy istifoda davomida mohiyatan buzib ko'rsatishlarga zamin bo'lib xizmat qildi. Qolaversa, yaqin vaqtlargacha ushbu son-sanoqsiz yozma va moddiy yodgorliklar o'z tarixiy egalari uchun qo'l yetmas holatda bo'ldi. Yaxshiki, keyingi o'n yilliklar davomida mazkur materialning turli xil nashrlari yuzaga kelishi ularning mahalliy tadqiqotchilar uchun ham "ochilishi"ga xizmat qilmoqda.



2.2-rasm. Paleolit qurollar, qatlam

XX-asr davomida Markaziy Osiyo xalqlari tarixini yoritishda yana turli metodologik og'ishlar kuchaydi. SSSR tarixi nuqtai nazaridan umummamlakat tarixining qismi qilib ko'rsatish tendensiyasi Markaziy Osiyoning g'arbiy qismida joylashgan o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqolpoq, oltoy xalqlari singarilarining tarixlarini yuzaki yoritishga olib keldi. Rus xalqi tarixini yetakchi o'ringa qo'ygan holda mazkur xalqlarning tarixlarini "qoloq o'lka"lar tarixi sifatida qarash g'oyasi singdirildi. Masalan, Drevneyshiy gosudarstvo na teretorii SSSR nomli kitobda O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy davlatchiligi haqida bir og'iz ham gap yo'q. Xolbuki, 1940 yillarning oxirlaridan boshlab Markaziy Osiyo xalqlari tarixining mafkurviy jihatdan SSSR tarixi konsepsiyasiga muvofiqlashtirilgan bo'lsada, milliy akademik tarixlari nashr qilingan edi.

### 3-mavzu. Markaziy Osiyoda paleolit va mezolit: tosh asri lokal (mahalliy) arxeologik madaniyatlarning antropogen xos va umumiy jihatlari

#### Reja:

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyoda paleolit davri tarixiga oid ma'lumotlar tahlili
- 3) Markaziy Osiyoda arxeologik madaniyatlarning antropogen xos va umumiy jihatlari

**Tayanch so'z va iboralar:** Ibtidoiy jamoa tuzumi, yodgorlik, texnologiya, davrlashtirish, musiqa, "Osiyo tipi", topilma, ashel, material, moddiy meroslar, Soan manzilgohi, migratsiya, arxeologiya, levellua, diffuziya.

Insoniyat yer yuzida qachon paydo bo'lganligi muammosi keskin bahslarga va tez-tez o'zgarib turuvchi taxminlarga sabab bo'lmoqda. Yaqin yillargacha Markaziy Osiyo hududida insoniyat 80-100 ming yillik tarixga ega deb hisoblanardi. Biroq, keyingi yillardagi tadqiqotlar Markaziy Osiyo hududining insoniyat ilk ajdodlari yashagan mintaqalar qatoriga kirishini ko'rsatmoqda. 1980 yillarda o'zbek olimlari




3.1-rasm. Arxeologlar ish jarayoni

Farg'ona vodiysidagi Selung'ur g'orida olib borgan izlanishlari natijasida insonlar bu yerda Ashel davrida yashaganlar degan fikrga keldilar. Kishilik tarixida insonning yer yuzida paydo bo'lgan davridan to ilk davlatlar va shaharlar paydo bo'lgungacha davri ibtidoiy jamoa tuzumi davri deyiladi. Bu davr eng uzoq vaqt davom etgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi moddiy madaniyat (arxeologiya) yodgorliklari asosida o'rganiladi. Tadqiqotchilar o'sha davr odamlari yaratgan mehnat qurollari va ularga ishlov texnikasiga qarab, ibtidoiy jamoa tuzumini quyidagi davrlarga bo'lganlar: 1. Paleolit (qadimga tosh asri, eramizdan avvalgi 1mln.yillardan – eramizdan avvalgi 12 ming yilliklargacha); 2. Mezolit (o'rta tosh asri, eramizdan avvalgi 12-7 ming yilliklar); 3. Neolit (yangi tosh asri, 7-5 ming yilliklar); 4. Eneolit (mis tosh asri, 4-3 ming yilliklar); 5. Bronza (3-1 ming yilliklar).

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy, madaniy mintaqa sifatida ibtidoiy davrlardan boshlab umumiy xususiyatlar atrofida turli etnoslarni birlashtirib kelgan. Shu munosabat bilan mintaqadagi arxeologik madaniyatlar majmuini turli mahalliy xususiyatlar va belgilar asosida o'rganish, shu bilan birga o'rganish ob'ektiga beriladigan tarixiy baho masalasida ayni ob'ektning o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiquvchi xulosalarga borish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo antropogen mintaqalar qatorida quyi paleolitdan boshlab inson uchun makon vazifasini o‘tab kelgan. Bugungi arxeologik tadqiqotlar o‘lkada insoniyat tarixini bir million yil atrofida belgilash imkonini bermoqda. Biroq bunday xulosa bir-ikki topilma asosida chiqarilishi yetarli darajada asosli bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli mazkur muammoni to‘g‘ri hal qilish uchun bugungi tarix va arxeologiya fanidagi texnik tashxis imkoniyatlarini ishga solmoq lozim bo‘ladi. Masalan, bir million yil avval mintaqaning iqlim sharoiti va geografik landshafti masalasini paleogeografik asosda tekshirmasdan turib xulosa chiqarish qiyin. Shu sohada qilingan tadqiqotlar



3.2-rasm. Qadimgi hayvon turlari

Selungur g‘orida hayot davom etgan davr uchun mo‘‘tadil subtropikal iqlim sharoiti mavjudligini ko‘rsatdi. Bundan tashqari million yillik da‘voni asoslash uchun radiokarbon tahlili, chirindi kukunlarni mikroskopik o‘rganish (pilseviy analiz), g‘ordan topilgan odam bosh chanog‘i suyagining rentgenologik tahlili singari ilmiy tekshirish usullari ishga solindi. Qolaversa, Selungur g‘orining quyi paleolit qatlamidan topilgan tosh qurollarga berilgan texnik ishlov izlari jahon miqyosidagi shunga teng yoshda bo‘lgan yodgorliklardagi ishlov usulidan farq qilmaydi. Bular asosan qo‘l cho‘qmori yirik uchurindilar ajratish hisobiga paydo qilingan qirradan foydalanish imkonini beruvchi qurollar edi. Bu kabi dag‘al ishlov usullari jahonda mashhur quyi paleolit yodgorliklari bilan umumiy qonuniyatlarga ega ekan. Demak, o‘sha qadimiyatdagi ibtidoiy odamning toshga ishlov berish imkoniyatlari deyarli bir xil bo‘lgan.

Quyi paleolitning Shel va Ashel bosqichlari bilan tengdosh bo‘lgan Ko‘lbuloq yodgorligidan topilgan tosh qurollar ishlov berish uslubiga ko‘ra ancha takomil topgan. Ya‘ni, ularga har tomonlama zarba berish usuli bilan uchqir qurol shakllari paydo qilingan. An‘anaviy keskich qirrali qurollar qatorida bu yangi tipdagi qurolning paydo bo‘lishi inson faoliyatining yo‘nalishlari ko‘payganidan dalolat beradi. O‘rta tosh asri yodgorliklarida esa vaziyat yanada boshqacha. Ulardagi tosh qurollarning xillari vazifalariga ko‘ra ko‘p tarmoqli bo‘la boshladi. Demak, must‘e davrida odamzod kesish, qirish, yanchish, ishqalash singari qator funksiyalarni tosh, yog‘och, mo‘giz, suyak singari qurol vositalaridan foydalanib bajarish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu topilmalarga beriladigan talqin must‘e odamlarini “soddalikda” kamsitishga yo‘l bermaydi. Chunki, O‘zbekiston hududlaridagi must‘e odamlari o‘z davri nuqtai nazaridan jahondagi me‘yoriy darajalarga bevosita yetishgan edilar.

Yuqori paleolit va mezolit davrlarida mintaqa bo‘ylab odamzod hayoti juda katta texnik va ma’naviy taraqqiyot bosqichini o‘tagan. Bu davrda toshga ishlov berishning murakkab usullari amal qilgan. Mezolit davrida yanada takomilga erishilgan. Endi toshni silliqlab pardozlash usullari o‘ylab topilgan. Shu usullar bilan yuqori paleolit davrida ilk bora odamzod o‘zi tasavvur etgan ilohiy zot obrazini, ayniqsa inson uchun tabiiy yaqin zot bo‘lmish ona timsolini toshdan yo‘nib, silliqlab haykalcha ko‘rinishida yasashga erishdi. Bu hodisa insonning ma’naviy takomiliga yaxshi misol bo‘la oladi.



3.3-rasm. Qadimgi qurol turlari

larda uzluksiz yog‘gan. Bu davr odamlarining mehnat qurollari asosan toshdan (uchi o‘tkir tosh) va hayvon suyaklaridan iborat bo‘lgan. Ular asosan g‘orlarda hayot kechirishgan va ilk bor shu davrda olovdan foydalanishni boshlaganlar. Bu kashfiyot odamlarga Ashel davrining so‘nggida ayniqsa juda yordam bergan.

Markaziy Osiyoda paleolit davrining o‘rta bosqichi miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. O‘rta paleolitda neandertal odam paydo bo‘lgan. Markaziy Osiyoda o‘rta paleolitga oid yodgorliklar ellikdan ortiq joyda topilgan. Fan olamida ayniqsa Teshiktosh, Obirahmat, Omonquton, Uchtut, Qorabura, Tossar, Georgiy do‘ngligi kabi yodgorliklar juda mashhur. O‘zbekiston hududida joydashgan Teshiktosh yodgorligi nafaqat Markaziy Osiyoda balki, jahonning shu davri yodgorliklari ichida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yodgorlikni o‘rganish o‘sha davr kishilari hayotida ovchilik muhim o‘rin egallaganligini va ularda diniy tasavvurlar shakllana boshlaganini ko‘rsatadi.

Bundan 35-40 ming yil burun paleolit davrining yuqori bosqichi boshlanadi. Markaziy Osiyoda bu davr so‘nggi paleolit miloddan avvalgi 13-10 ming yillarigacha davom etgan. Yuqori paleolitning eng muhim xususiyati – hozirgi tipdagi odam “xoma sapiens”(aqlli, ongli odam)ning shakllanganligidir. Mutaxassislar fikricha, aynan shu davrda irqlar paydo bo‘lgan. Inson ilk bora nayza, sanchqi (garpun) kabi ov qurollarini

Ashel davri yodgorliklari jumlasiga Ko‘lbuloq, Qoratov 1, Loxutiy 1 va Unarcha yodgorliklari ham kiradi. Ashel davri bundan 1 mln. yil oldin boshlanib, miloddan avvalgi 200-100 ming yillargacha davom etgan. Bu davrning boshlarida Markaziy Osiyoda iqlim yozda issiq va quruq bo‘lgan bo‘lsa, qishda sovuq va yog‘ingarchilik kam bo‘lgan. Ashel davrining oxirlariga kelib esa, havo keskin sovigan, tog‘ zonalarini muzliklar qoplagan, pasttekisliklarda esa yomg‘ir-



3.4-rasm. Teshiktosh odami



o'zlashtirgan. Janubiy hududlarda madaniyat shimolga qaraganda bir muncha farqliroq rivojlangan. Janubda tosh qurollarni ishlash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu yerda ularni topish osonroq bo'lganligi uchun ko'proq foyda bergan. Chamasi, janubda kamon va o'q ilgariroq paydo bo'lgan, ovchilik asosiy mashg'ulotlardan biri bo'lgan bo'lsa kerak. Bu yerda tabiatning tayyor mahsulotlarini o'zlashtirishdan ko'ra ularni ko'proq ishlab chiqarishni avzaltroq ko'rishgan. Shuning uchun ham mehnat qurollari va toshga ishlov berishning turli usullarini o'zlashtirish shimoliy o'lkalarga nisbatan erta boshlangan bo'lishi mumkin. Shu asosda, madaniy taraqqiyotda Shimol va Janub o'rtasida tafovutning paydo bo'lishi texnika va xo'jalikning rivojlanishiga bevosita bog'liq deb xulosa chiqarish mumkin.

Umuman, Markaziy Osiyoda bu davrga oid 50 dan ortiq yodgorliklar topilib o'rganilgan. Bu yodgorliklarda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar vaqtida o'sha davr odamlarining toshdan ishlangan mehnat qurollari, qo'lchuqmorlari, hayvon terisini shilishda ishlatilgan "tosh pichoqlar" ko'plab topilgan. Olimlar mazkur moddiy manbalarni o'rganish asosida Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida neandertalga zamondosh ajdodlarimiz ovchilik bilan, eng birinchi navbatda yirik hayvonlarni ovlash bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. So'nggi paleolit davrida Markaziy Osiyoda dunyoda keng tarqalgan uch irqdan biri, mongoloidlarni shakllanganligini arxeologik topilmalar isbot qilib berdi. Markaziy Osiyo ilk paleolit davriga oid madaniyatning elementlarini Hindistonning shimoliy hududida topilgan Soan manzilgohiga mansub mehnat qurollari bilan ayrim o'xshashligini ko'rish mumkin. Markaziy Osiyo paleolitining muhim xususiyatlaridan yana biri shundaki, ilk paleolitdayoq tosh o'zaklaridan parrakalar ajratishda levellua texnik uslubi mavjud bo'lgan. Bu jarayon paleolit yodgorliklarida turli xilda kuzatilishidan qat'iy nazar, mehnat qurollarini yaratishda qo'llanilgan taraqqiyot yo'lini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu texnik uslub, ayniqsa, o'rta paleolit davrida birmuncha rivoshlanganligini ko'ramiz. Markaziy Osiyo ilk paleolitga oid qo'l cho'qmorlari bilan bir qatorda qayroq kabi tosh qurollarining ishlatilganligi uning Hindistondagi Soan madaniyatiga yaqinligini ko'rsatadi. Ammo, bu madaniyatlarning o'zaro yaqinligi faqat migratsiya jarayoni sifatida emas, balki tub, mahalliy negizda ham rivojlanganligini etirof qilish zarur. Hindistondagi Soan madaniyatini Markaziy Osiyo paleolit madaniyatiga taqqoslaganimizda qiziqarli xulosalarga ega bo'lamiz. Eng avvalo mazkur yodgorliklarni katta maydonni egallaganligi, qo'pol, yirik toshdan yasalgan mehnat qurollari va o'sha davr hayvonot dunyosi qoldiqlaridagi o'xshashliklarni kuzatish mumkin. Ikkala madaniyatning o'zaro o'xshashlikni belgilovchi yana bir omil "Osiyo tipi"dagi mehnat qurollarini yaratish an'alarining mavjudligidir. Shu jihatdan Yevropa paleolit madaniyatidan farq qiladi. Bunga Hindiston va Markaziy Osiyoda paleolit davrida tabiiy sharoit, shuningdek, mehnat qurollarini yasash uchun tanlangan materiallarni o'xshashligida deb qarash mumkin.

Hind arxeologlarining Markaziy Osiyo paleolit madaniyatiga qiziqishi katta. Buning muhim sabablaridan biri, Hindistonda oʻrta paleolit birmuncha yaxshi tadqiq qilingan boʻlsa-da, soʻnggi paleolit davri yodgorliklari hamon – topilmaganligidadir.



3.5-rasm. Gʻor odamlari

Shu sababdan ham hind arxeologlari tomonidan Samarqand, Xoʻjamazgil, Kulbuloq, Shugʻnon kabi soʻnggi paleolit makonlarini qunt bilan oʻrganish, katta mintaqada yashagan jamoalarning oʻzaro madaniy aloqalarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Soʻnggi izlanishlar bu masalalarga yangi mazmun kiritishi mumkin.

Markaziy Osiyo paleolitini oʻrganar ekanmiz, bizga qoʻshni boʻlgan xorijiy sharq mamlakatlari yodgorliklarini taqqoslamasdan, tariximizning ilk jamoalari madaniyati va uning insoniyat moddiy-madaniyati tarixidagi oʻrni haqidagi fikr va xulosalarimiz toʻla boʻlmaydi, albatta. Shu boisdan ham qoʻshni mintaqalarda olib borilayotgan tadqiqotlarni kuzatib borish ham muhimdir. Tojikistonda va uning Xovaling, Qoratov tumanlarida hamda Qizilqum sahrolaridan topilgan arxeologik manbalarshular jumlashidandir. Bundan tashqari Kavkaz, Oltoy va Uzoq Sharq hududlarida paleolit davri yodgorliklari qidirib oʻrganildi va yetarli manbalar toʻplandi.

Hozirgi Markaziy Osiyo hududida bundan 12-15 ming yil muqaddam ibtidoiy jamiyat tarixida yangi davr boshlandi. Insoniyat tarixining paleolitdan keyingi davri mezolit (“oʻrta tosh”) deb nomlanadi. Soʻnggi paleolitning oxirlarida muzliklar erib, Markaziy Osiyo tabiati va hayvonot dunyosi hozirgi koʻrinishda shakllana boshlagan. Mezolit Markaziy Osiyoda taxminan 13-10 ming yillar avval boshlanib, miloddan avvalgi 7-6 ming yilliklargacha davom etgan deb qabul qilingan. Mezolitda oʻq-yoy kashf etiladi. Bu narsa endi nafaqat yirik hayvonlarni ovlash, balki mayda hayvonlarni ham ovlash imkoniyatini yaratadi. Bu davrda odamlar Markaziy Osiyoning deyarli barcha hududlarida hayot kechirishgan. Ularda diniy tasavvurlar keng tarqalgan. Shuningdek, ibtidoiy rassomchilik ham rivojlangan. Masalan, Qoʻhitogʻ togʻining Zarautsoy darasida ibtidoiy rassom tomonidan ustalik bilan chizilgan yovvoyi hayvonlar va ovchilarning ov manzarasi diqqatga sazovordir. Lekin bu davrda ham inson asosan tabiat ehsonlari hisobiga kun koʻrgan.

Oldin eslatib oʻtilganidek mezolit davrida ibtidoiy urugʻ jamoalari oʻq-yoyning kashf etilishi munosabati bilan butun eʼtiborini ovga qaratdilar. Ov ularning asosiy yashash manbaiga aylandi. Nisbatan uzoq masofadan turib oʻz oʻljasini nishonga olish imkoniyatiga ega boʻlgan ibtidoiy ovchilar endi ov hayvonining orqasidan ergashib, yangidan-yangi joylarni oʻzlashtirib bordilar. Ov qilinadigan joylar mezolit davri jamoalarining oʻz makonlarini tez-tez oʻzgartirib turishga, ovchilikka qulay boʻlgan hududlarni oʻzlashtirishga olib keldi. U davrida baliqchilik ham rivojlandi. Natijada

urug' jamoalari yangi hududlarni keng miqyosda o'zlashtira boshladilar. Markaziy Osiyo hududi mezolit davrida aholi yashashi uchun juda qulay geografik hududga aylandi. Bu holat bevosita ulug' muzlik davrini tugashi natijasida tabiatning, ya'ni flora va faunaning keskin o'zgarishi bilan bog'liq edi. Ayniqsa, Markaziy Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo oralig'i, kichik daryo va soylarning bo'ylari aholi joylashishi uchun juda qulay bo'lgan.

Markaziy Osiyoda mezolit davri bilan bog'liq bo'lgan o'nlab yodgorliklar topilgan. Markaziy Farg'ona hududida qadimshunos O'.Islomov va uning hamkasblari 1970-1980 yillarda dala-qidiruv ishlarini olib borib, juda ko'p mezolit davri yodgorliklarini topishga muvaffaq bo'ldilar. Vodiy bo'ylab oqib o'tgan Obishir soyining quyoshga qaragan tomonida bir necha ungurlar bo'lib, ulardan Obishir-1 va Obishir-5 deb atalgan makonlarda mezolit davri jamoalarining izlari topilgan. Dala-qidiruv ishlari Markaziy Farg'onada samarali bo'lgan. Hozirgi kunda bu zaminda yuzdan ortiq mezolit davri yodgorliklari ochilgan. Ular asosan soy va ariqlarning qirg'oq yoqalarida joylashgan.

Mezolit davriga oid boshqa guruh yodgorliklar Toshkent shahri hududida, uning Sariqqamish mavzesida, qadimgi Bo'zsuv havzasida topib o'rganildi. Bo'zsuv soyining ikki irmog'i qo'shilgan joy, xalq orasida "Qo'shilish" deb nomlangan. Huddi ana shu qo'shilish do'ngligining jar kesmasida 1967 yili arxeolog va geogloglar bir necha tosh qurollarini topdilar. Arxeolog O'.Islomov mazkur joyda qazishma ishlarini amalga oshirib, mezolit davriga oid jamoalar qarorgohi borligini aniqlagan. O'zbekistonning Surxondaryo viloyati qadimda ham hozirgidek odamzod yashashi uchun qulay o'lka bo'lgan. Iqlimning subtropik xususiyati natijasida



3.7-rasm. Shanidar odami

Arxeolog O'.Islomov 1970-1971 yillarda Machayda qazishma ishlarini yangidan



3.6-rasm. Qadim odam skleti

odamlar ovchilik xo'jaligi, ayniqsa, termachilikning yangi yo'nalishlarini rivojlantirish uchun zarur imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Aynan shunday tabiiy qulayliklar odamlarning diqqatini o'ziga tortgan. Keyingi yillarda bu viloyatning Ayritom, Katta-qo'rgon, Zaranchuq-tut, Dukanxona, Eski Termiz, Podaxona, Oqtosh kabi manzilgohlarida arxeologlar tomonidan topilgan mezolit davriga oid tosh qurollari fikrimizni isbotlaydi. Shuni alohida qayd etish kerakki, 1930 yillarning oxirlarida Qo'hitog'ning Machay soyi bo'yida joylashgan qoya ostidagi g'orda arxeolog G.V.Parfenov qazishmalar o'tkazib, Machay g'ori tosh davri

odamlarining makoni ekanligini aniqlagan edi.

tikladi va mezolit davrining soʻnggi bosqichlariga oid boʻlgan moddiy madaniyat qoldiqlarini aniqladi. Tadqiqotchilar bu yerda odamlar juda uzoq yashaganliklaridan guvohlik beruvchi madaniy qatlamlarini ochishga muvaffaq boʻldilar. U yerda hayvon suyaklarining parchalari, turli xil tosh va suyakdan ishlangan qurollar, kul qatlami va odam skeletlari topilgan. Machayliklarning ov hayvonlari asosan togʻ arxari va jayronlar boʻlgan. Topilgan mehnat qurollarining aksariyati ovchilik hayoti va hayvon terisini ishlash bilan bogʻliq boʻlganligi yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. Bular har xil shaklda tosh qirgʻichlar, pichoqlar, suyak bigiz va ignalar, terini pardozlash qurollari boʻlgan. Machayning koʻp sonli hayvon suyaklari ichida yirik hayvonlar, yaʼni xonakilashtirilgan sigir, koʻy, echkilarning ham suyaklari topilgan. Machay gʻoridan topilgan manbalarning tahlili mazkur yodgorlikni mezolit davri eng soʻnggi bosqichi va ilk neolit davriga tegishli ekanligini koʻrsatmoqda. Xuddi shu davrda Oʻrta Sharqda neolit davri madaniyatlari gullamoqda edi. Ibtidoiy jamoa odamlari ilk dehqonchilik va chorvachilik bilan tanish edilar, hatto bu davrda janubiy Turkmanistonda neolit davrining Joytun madaniyati mavjud boʻlganligini koʻrishimiz mumkin. Arxeologlarning fikricha, Joytunliklar Markaziy Osiyoda dastlabki dehqonchilik va chorvachilik bilan shugʻullangan urugʻ jamoalari hisoblanishgan. Ehtimol, chorvachilikning erta poydo boʻlishi uchun tabiiy qulayliklarga ega boʻlgan Surxondaryo viloyati aynan Joytunliklar taʼsirida yovvoyi hayvonlarni koʻlga oʻrgatgan boʻlishlari mumkin. Har qalay Machayda uy hayvonlarining paydo boʻlishi - bu soʻnggi mezolit davri odamlarining xoʻjalik sohasidagi buyuk inqilobiy oʻzgarish edi.

Markaziy Osiyo hududida oʻrganilgan mezolit davri yodgorliklarining yoshi bir xil emas, albatta. Olimlar topilgan tosh qurollariga qarab ularni yosh jihatdan uch guruhga boʻlishgan. Eng qadimiysi Qoʻshilish yodgorligi boʻlib, uning mutloq yil sanasi miloddan avvalgi 11-10 ming yilliklar bilan belgilangan. Ikkinchi guruh yodgorliklari fan olamiga Obishir madaniyati nomi bilan kiritildi. Ularning yoshi miloddan avvalgi 9-8 ming yilliklar bilan belgilanadi. Uchinchi guruh yodgorliklari Machay madaniyati deb yuritiladi. U miloddan avvalgi 7-6 ming yilliklarga tegishlidir.

Mezolit davri qurollari orasida oʻq-yoy (kamon va paykonlar), tayoq uchiga oʻtkir uchli nayzalar oʻrnatilgan nayza qurollari insonga katta foyda bergan. Oʻq-yoydan foydalanish insoniyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega boʻlib, ovchilikni insonlarning hayot manbaiga aylantirdi, ovdan keladigan oʻlja va zahiralar koʻpayib borishiga imkoniyat yaratdi. Oʻq-yoy odamning yolgʻiz oʻzi hayvonlarni ovlash va shu asosda jamoadan ajralib hayot kechirishiga yoʻl ochib berdi. Odamlar oʻsimliklarning ildizlarini isteʼmol qilishdan boshhoqlarni, mazali mevalarni isteʼmol qilishga oʻtganlar. Markaziy Fargʻonadagi koʻllarning sohillarida yashagan ilk mezolit davriga mansub qabilalar ovchilik bilan birga baliqchilik bilan ham shugʻullanganliklari maʼlum.

Mezolit davri jamoalarida diniy tasavvurlar ma'lum bir shaklga, ya'ni hayotiy normalarga aylanib borganliklarini ko'rish mumkin. Ashyoviy dalillar mezolit davriga oid mozorlar, inson qo'li bilan chizilgan qoyatosh suratlari fikrimizni isbotlaydi. Masalan, Qayla g'ori yaqinida joylashgan ikkita mozor o'rganilgan. Aniqlanishicha, mozorda skeletlar chalqanchasiga yotgan bo'lib, oyoqlari biroz bukilgan. Ko'mish vaqtida jasad ustiga qizil rang sepilgan. Shunisi qiziqarliki, ularning yonidan dengiz chig'anoqlaridan qilingan taqinchoqlar topgan.



3.8-rasm. Qadimgi kulba

Inson bosh suyagi ustida esa mayda tosh munchoqlar tizilib turibdi. Ehtimol, o'likning bosh kiyimi munchoqlar bilan bezatilgan bo'lsa kerak. O'rganilgan o'ndan ortiq mozor qoldiqlarida ham shu holatni kuzatish mumkin.

Mezolit davri jamoalari tasavvurida "narigi" dunyoga ishonishda olovga talpinish alohida ahamiyat kasb etgan. Qayla mozorida topilgan o'likka qizil rangini sepish odati bejiz bo'lmasa kerak. Mezolit davrida ibtidoiy rassomlar tabiatning u yoki bu kunlariga bo'lgan munosabatlarini, dunyoqarashlarini - diniymi yoki dunyoviyymi, bundan qati nazar, qoyalarga chizgan rangli suratlari orqali ifodalab berganlar Surxondaryoning Zarautsoy darasi qoyalariga ishlangan suratlar bunga misol bo'la oladi. Suratlarning bir qismi qizil rang bilan ishlangan. Qoya suratlari orasida «yovvoyi hayvonlarni ov qilish» deb nomlangan manzara diqqatga sazovordir. Bu manzarada bir poda yirik shohli hayvonlar orqasidan ovchilarning o'z itlari bilan quvib ketayotgani tasvirlangan. Ba'zi bir ovchilar ustiga chaylasimon yopinchiq yopib olgan. Ular o'q-yoy bilan, palaxmon toshlari bilan qurollangan. Boshqa bir qoyada ikki guruh ovchilarning yovvoyi buqani o'rab olish manzarasi chizilgan. Olimlar bu manzarani mezolit davrining so'nggi bosqichi va ilk neolit davriga oid ekanligini isbotlaganlar. Zarautsoy qoya suratlari mezolit davri rassomlarining fikr doirasini, diniy tasavvurlarini, umuman, o'sha davr mafkurasi darajasini tasviriy san'atda qanchalar aks ettira olganliklari haqida fikr yuritishga asos bo'la oladi.

Xulosa qidib aytgandi, mezolit davrida Markaziy Osiyoning deyarli barcha hududlari insonlar yashashi uchun tabiiy qulayliklarga ega bo'lganligini ko'rdik. Ulug' muzliklardan so'ng hosil bo'lgan katta va kichik ko'llar, ular atrofidagi qalin o'rmonlar va chakalakzorlar, tog' yon bag'rlarida o'sgan yovvoyi boshhoqli o'simliklar, dasht zonalarini qoplagan maysazorlar, yovvoyi hayvonlarning galagala bo'lib yurishlari, baliqchilikning rivojlanishi bunga keng imkoniyat bergan.

#### 4-mavzu. Markaziy Osiyoda neolit va eneolit davrlari ilk sivilizasion bosqichlari (xo‘jalik tiplari taraqqiyoti dinamikasining tahlili)



4.1-rasm. Qoyatosh suratlari

tarzi, xo‘jalik ijtimoiy munosabatlarining shakllanishi.

4. Markaziy Osiyoda neolit qo‘shni javmoachilik tamoyillarining paydo bo‘lishi va sivilizatsion jarayonlar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** neolit, yangi tosh asri, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik, qayir dehqonchiligi, ovchilik, baliqchilik, termachilik, Joytun, Xisor, Kaltaminor, Lavlakon, Kaptarning qumi, Tuzkon, Sazog‘on, eneolit, Sarazm, Lavlakon, Beshbuloq, Anov, Nomozgohtepa, metallurgiya, xumdon, sug‘orma dehqonchilik, ko‘p xonali uylar, misgarlik, degrezlik, kulba, xilxona, terrakota.

Vatanimiz sarhadlari nafaqat O‘rta Osiyo, balki ko‘hna Sharq miqyosida kishilik tarixining qadimgi madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. Xususan, bu mintaqa insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlari madaniyati va mazkur hududda sodir bo‘lgan sivilizatsiyaning ko‘hna ildizlarini ifodalovchi tarixiy-madaniy yodgorliklarga nihoyatda serob o‘lkadir. Bu tarixiy-madaniy yodgorliklarni tadqiq etish esa ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga ko‘shgan hissasini idrok etishda muhim ahamiyat kasb yetadi. Ayni kunlarda, mustaqil Respublikamiz rivojining barcha jabhalari jahon miqyosiga chiqayotgan bir paytda boy madaniy merosimizni jahon hamjamiyati oldida isbotlab berish dolzarb masaladir. Vatanimizning asl, haqqoniy tarixini bilish, xalqimizning boy madaniy merosini to‘laqonli o‘rganishga keng imkoniyatlarning yaratilishi Respublikamiz mustaqilligi ne‘matlaridan biri hisoblanadi.

Haqqoniy tarix faqatgina manbalarga tayanib yozilishini yurtboshimiz mamlakatning taniqli tarixchi olimlari bilan bo‘lgan uchrashuvida (1998 yil yozida) alohida ta‘kidlab, tarixchilar zimmasiga manba bilan ishlashdek ma‘suliyatni qo‘ygan edi.


Shu nuqtai nazardan, keyingi yillarda O‘zbekiston arxeologiyasi fani qo‘lga kirita-

#### Reja:

1. Neolit davrining insoniyat taraqqiyotidagi o‘rniga berilgan turli baholarning qiyosiy taxlili.

2. Markaziy Osiyo neolitining tarixiy geografik mintaqalari (Ustyurt neoliti, Markaziy Farg‘ona, Quyi Zarafshon, Quyi Amudaryo, Sazog‘on neolit manzillari)

3. Neolit jamoalarining turmush



4.2-rasm. Qadimgi qurollar

yotgan yutuqlar ham ahamiyatlidir. Vatanimiz sarhadlari Er kurrasi miqyosida antropogenez jarayoni ro‘y bergan mintaqalar sirasiga kirganligining isbotlanishi (Sel-Ungur g‘or makoni, «Farg‘ona odami»), kishilik tarixi tosh asri taraqqiyoti barcha bosqichlarida uzliksiz mahalliy madaniyatlar negizida, vorisiylik asosda madaniyat yaratilib kelinganligining aniqlanishi kabi masalalar shu yutuqlar jumlasiga kiradi. Mazkur tadqiqot ham shu nuqtai nazardan qaraganda dolzarb bo‘lib, unda mintaqamiz miqyosida tosh asrining so‘nggi, yakunlovchi bosqichi bo‘lgan neolit davri jamoalari madaniyatini yangi manbalar asosida yoritib berishga e‘tibor karatildi,

Geologik jihatdan davrlashtirilganda neolit davri, asosan, golotsen davriga to‘g‘ri keladi va bu davr o‘z tabiati, iqlim sharoiti, o‘simlik va hayvonot dunyosiga ko‘ra nisbatan hozirgi zamonga yaqinligi bilan xarakterlanadi. Shu nuqtai nazardan mintaqamiz sarhadlarida mezolit davri oxiri va neolit davrida odamzod yashashi uchun qulay ekologik muhit yuzaga kelgan («Lavlakon namgarchiligi») va u odamzod tomonidan jadal o‘zlashtirilgan. Natijada aholi soni oshgan va ular turli tabiiy, ekologik muhitlarga duchor bo‘lganki, bu holat ular turmush tarzini atrof-muhitga moslashishi zaruratini keltirib chiqargan. Oqibatda bu jarayon neolit davri jamoalarining turli, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan madaniyatlari mazmunida namoyon bo‘lgan.

Hozir Amudaryo va Zarafshon daryosi quyi yetaklari, Qizilqum hududlarida Kaltaminor tarixiy-madaniy jamoalari, Farg‘ona vohasida Markaziy Farg‘ona, O‘rta Zarafshon vohasida Sazog‘on hamda Ustyurt neolit jamoalari madaniyati tadqiq etilmokda. Bu tadqiqotlar natijalari neolit davri paleogeografik, paleoekologik va iqlim sharoitlari, jamoalar madaniyati o‘ziga xos xususiyatlari, jamoalar turmush tarzi va ma‘naviy kechinmalari, ijtimoiy munosabatlari, xo‘jalik mashg‘ulotlari, o‘zaro qo‘ni-qo‘shnichilik madaniy aloqalari hamda eng muhimi mazkur madaniyatlar kelib chiqish ildizlari borasida qimmatli ma‘lumotlarni bermoqtsa. Ushbu tadqiqot ham yangi arxeologik manbalar tahlili asosida shu masalalar echimiga ba-



4.3-rasm. Oltoyda arxeologlar

g‘ishlangan. Shuningdek, tadqiqotimizda mazkur neolit jamoalarining o‘zlariga xronologik jihatdan tengdosh bo‘lgan qo‘shni hududlarda yashagan joyitun, hisor jamoalari bilan yaqindan madaniy aloqada bo‘lib yashashganliklari masalasi ham imkoniyat darajasida yoritilgan. Neolit davrining o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat? Arxeologik davrlashtirish bo‘yicha bu davr tosh asrining so‘nggi yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Mazkur davrda ona urug‘chilik tuzumi gullab-yashnagan bo‘lib, tosh, suyak va yog‘ochlarga ananaviy ishlov berilish texnologiyasining takomillashgani va yuksaklikka erishganligi bilan xarakterlanadi. Toshni silliklash, parmalab teshish kabi yangi texnologiyalar

kashf etilib, kemasozlik, to‘qimachilik, tikuvchilik, kulolchilik sohalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi mazkur davr jamoalari o‘z turmush tarzida erishgan muhim yutuqlari sanaladi. Kishilik tarixi rivojining neolit davri bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim kashfiyotlaridan biri neolit jamoalarining xo‘jalik mashg‘ulotlarida ishlab chiqarish iqtisodiyotiga o‘tganligi va tom ma’noda dehqonchilik va xonaki chorvachilikning vujudga kelganligi bilan izohlanadi. Bu turdagi xo‘jalik asoslarining rivojlanishi esa neolit jamoalari turmush tarzining o‘troqlashishi, o‘zidan oldingi mezolit jamoalariga nisbatan ma’lum mintakalarda muqim yashab, o‘ziga xos moddiy madaniyat yaratilishiga olib kelgan. Ishlab chiqarish iqtisodiyotiga o‘tish jarayonining ilk rishtalari Yaqin Sharq hududi mezolit davri so‘nggi bosqichlari jamoalari turmushida sodir bo‘lib, keyinchalik neolit davrida ko‘shni mintakalar jamoalari xo‘jalik hayotiga ham kirib kelgan. Ishlab chiqarish iqtisodiyotiga o‘tish esa ibtidoiy jamoa tuzumining muhim ijtimoiy voqeligi bo‘lib, jamoalar ijtimoiy-iqtisodiy tarakqieti, kundalik gurmush tarzi, ma’naviy kechinmalarida keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan. Shuning uchun tanikli ingliz olimi G.Chayld bu jarayonni «neolig inqilobi» deb atamagan. Uning bu qarashlari soha mutaxassislari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Ishlab chiqarish iqtisodiyotiga o‘tish turli sharoitlarda turlicha sodir bo‘lib, bunda landshaft, ekologik va iqlimiy muhit ham muayyan omil sifatida rol o‘ynagan va bu jarayon neolit jamoalari moddiy madaniyatida sezilarli darajada namoyon bo‘lgan.

Miloddan avvalgi IV–III ming yilliklarga kelib Markaziy Osiyo sharoitida bir necha yuz ming yillar davom etgan kishilik tarixining tosh davri tugadi. Uning o‘rmini eneolit egalladi. Ibtidoiy jamoalar mehnat qurollarini yasashda dastlab misdan foydalanishdi. Shuning uchun ham bu davr eneolit mis-tosh davri deb ataladi. Eneolit yer sharining barcha mintaqalarida bir vaqtda boshlanmay, balki har bir hududning tabiiy-ekologik imkoniyatlariga mos ravishda turli davrlarda boshlangan. Masalan, Osiyo va Afrikaning qadimgi dehqonchilik mintaqalarida ibtidoiy jamoalar metall bilan avvalroq, boshqa mintaqalarda esa ancha keyinroq tanishishgan.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, mis eritib olish san’ati – metallurgiya mil. avv. VIII-VII va VII-VI ming yilliklar atrofida Yaqin Sharqda vujudga kelgan. Mis Mesopatamiya-ning tog‘li hududlarida mil. avv. IV minginchi yilliklardan ishlatila boshlanganligi fanda ma’lum.

Insonlar tomonidan metall qazib olish va uni o‘zlashtirishni kashf qilinishi kishilik tarixidagi buyuk voqealardandir. Metall jahonning deyarli barcha qit’alarida mavjud. Insoniyat tarixida odam avvalam bor qaysi metall bilan dastlab tanish bo‘lgan ekanligi masalasi olimlar orasida munozara bo‘lib kelindi. Ularning ayrimlari. avval mis kashf



4.4-rasm. Oltoydan topilgan qurollar



qilingan desalar, boshqalar esa qalay ekanligi haqida fikr bildirishadilar. Aslida, mis ruda tarkibida hamda alohida sof holda uchrashi mumkin. Qalay esa tabiatda ruda tarkibida uchraydi. Bularning qaysi biri dastlab kashf qilinganligi masalasi hozircha jumboq. Sof mis ochiq tabiatda uchraydi va undan qadimda bolg'alash yo'li bilan buyum yasash mumkin edi. To'g'ri, ayrim holatlarda mis boshqa ruda va metall tarkibida yashirin ravishda ham uchrashi mumkin. Mis bo'laklari sof holda uchratilsada, ammo uni mis rudasidan ajratib olish ancha murakkab edi. Qadimgi davrlarda kishilar dastlab mis eritmasidan foydalangan bo'lsa kerak degan taxminlar ham xaqiqatga yaqinroq ko'rinadi. Kishilar ko'p holatlarda gulxan - o'choq atroflaridagi ayrim toshlarning yumshoq holatga aylanganliklarini, toshni toshga urganda uning sinmasdan pachoqlanganligini kuzatgan, albatta. Xullas, kishilar ayrim tosh (misli tosh) jinslarining issiq harorat tufayli yumshashi yoki erishini payqab olishganlar. Mis rudasi qattiq jism bo'lib, undan qurilish materiali hamda o'choqlar qurish sifatida ham foydalanganlar. Demak, mis rudasi oddiy o'choq haroratida yumshashi, erishi kabi holatlar kuzatilgan.

Markaziy Osiyoda metall miloddan avvalgi IV ming yillikdan ma'lum. O'lkaning shimolida esa bu vaqtda neolit davriga oid Kaltaminor madaniyati jamoalari gullamoqda edi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Kaltaminor madaniyatini yaratgan ajdodlarimiz metall bilan birinchi bor miloddan avvalgi III ming yillikning oxirlarida tanishganlar.

Neolit davri insoniyat tarixida inqilobiy davr deb atalgan. Ma'nosi shundaki, odamzod ilk bora o'zi uchun zarur narsalarni mehnati bilan ishlab chiqarish mumkin ekanligini anglab yetdi. Bir tomondan dehqonchilik madaniyati kurtaklari, ikkinchi tomondan hayvonot dunyosini qo'lga o'rgatib, chorva xo'jaligi ishlab chiqarish usuli paydo bo'ldi. O'rta Osiyoda ushbu madaniyat bosqichining ilk yodgorligi Jaytun madaniyati nomi bilan ataladi. Ayni shu Jaytun madaniyati bosqichida – mil.avv. VI-V ming yilliklarda mintaqaning shimoliy qismi hali nisbatan qoloq ibtidoiy holatda edi. Shu tufayli Kaltaminor madaniyati neolitini baholashda uning paydo bo'lgan muhiti – shimoliy mintaqa iqlim va tabiiy sharoitlari hisobga olinmog'i shart. Shu sababli jaytunliklar dehqonchilik va ov xo'jaligi asosida yashagan bo'lsalar, kaltaminorliklar baliqchilik, ovchilik va termachilik asosida kun ko'rganlar.

4.5-rasm. Qadimgi tasviriy san'at



Neolit davridan boshlab sopol pishirish texnologiyasi o'zlashtirilgani holda janubiy mintaqa sopolsozligi shimolga nisbatan ilg'or tendensiyalarni namoyon etdi. Kaltaminorliklar loy g'o'laklarini ustma-ust yopishtirish usuli bilan va choklarini ho'l mato bilan ishqalash yordamida sopol buyumlarining asosini yaratishgan, ularni gulxanga qo'yib pishirishgan. Eneolit davri va bronza davri-ning boshiga kelib, sopol pishirish texnologiyasida inqilobiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Sopol charxi paydo bo'ldi. Demak, inson mexanik kuchni charx orqali uzatish texnologiyasini o'zlashtirgan.

Mezolit oxirida va neolit davrida terib-termalab ovqat topishdan yovvoyi o'simliklarni ekish va o'tkazish yo'li bilan madaniylashtirish orqali vujudga kelgan dehqonchilik eneolit zamonida yuqori xo'jalik turiga aylanib bordi. Dehqonchilik bilan uy chorvachiligi rivojlanishi ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishiga va shu asosda ayirboshlashni vujudga kelishiga asosiy omil bo'ldi. Markaziy Osiyo hududlarida quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog'liqdir:

1. Xo'jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda omoch (xaydama) dehqonchiligining ustunlik qilishi;

2. Toshidan ishlangan qurollar ko'p bo'lgan holda mis qurollarning paydo bo'lishi;

3. Katta-katta jamoalarning paxsadan va xom g'ishtdan tiklangan ko'p xonali va xashamatli uylarning qurila boshlashi;

4. Kulolchilikda muhim texnika yutug'i - xumdonlarning ishlatilishi;

5. O'troq xo'jalikning rivojlanishi, yirik aholi manzilgohlarining paydo bo'lishi (qishloqlarning) jamoa birlashmalarining uylari va qurilishida xom g'ishtning paydo bo'lishi;

6. Hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug'i tuzumiga (matriarxatga) xos bo'lgan turli haykalchalarining yasala boshlashi;

7. Rangdor, har xil tasvirlar ishlangan sopol buyumlarning mavjudligi.

Eneolit davrida Markaziy Osiyo aholisining madaniyati yuksaladi. Lekin, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu hududlardagi qabilalarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada emas edi. Qadimgi qabilalar mis-tosh davriga o'tgach, madaniy, xo'jalik va ishlab chiqarish taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanadi. Avvalgidek Turkmanistonning janubi-g'arbidagi qulay geografik sharoitda yangi xo'jalik turlari, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik yanada rivojlanadi. Quyi Zarafshon va Amudaryo havzalarida yashovchi qabilalar bilan madaniy o'simliklar o'stirishga o'tmagan edilar. Markaziy Osiyoning sharqiy qismidagi tog'li hududlar aholisi xo'jaligida ovchilik ustun edi. Demak, ilk va rivojlangan mis-tosh davrida Markaziy Osiyo qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida notekisliklar saqlanib qolgan.

Dasht va tog' hududlaridan topilgan moddiy topilmalarni o'rganish natijalari (sopol idishlar, tosh qurollar, hayvonlar va qushlar suyaklari) qabilalarning iqtisodiy hayotida qo'shimcha xo'jaliklar - ovchilik va baliqchilik asosiy manba bo'lganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga dasht odamlari tarixida chorvachilikning ilk bosqichi boshlandi deyish mumkin. Lekin, neolit davri an'analari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aholining asosiy

4.6-rasm. Qadimgi garpunlar



qismi daryolarning irmoqlari sohilida va ko‘llar atrofida yashagan.

Eneolit davriga oid muhim yodgorliklar Janubiy Turkmanistondagi Anov va Nomozgohtepa manzilgohlari hisoblanadi. Bu yerdagi uy-joylar xom g‘ishtdan qurilgan. Moddiy topilmalar orasida mis qurollar tosh qurollariga nisbatan kamchilikni tashkil etgan. Shuningdek, topilgan guldor sopol buyumlar kulolchilikning ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. Sirti qoraga bo‘yalgan, geometrik chiziqlar, hayvon (qush) rasmlari bilan bezatilgan bu topilmalar mil. avv. IV ming yillikka oiddir.

O‘zbekiston hududlarida eneolit davri yodgorliklari hozircha yaxshi o‘rganilmagan. Mil. avv. IV–III ming yillik boshlarida Amudaryo va Zarafshon daryolarining quyi oqimlarida Kaltaminor madaniyati tosh qurollari, sopol idishlari va uy-joylari keng tarqalgan. Markaziy Osiyoning shimoliy-sharqida joylashgan dashtlarda va Orol dengizi sohillarida ovchilik, baliqchilik va ilk chorvachilik xo‘jaliklari rivojlanganligini ko‘ramiz. Buxoro vohasidagi Lavlakon, Beshbuloq makonlari va Zamonbobo qabristonining eng pastki qatlamlari ham eneolit davriga oiddir. Bu yodgorliklardan Kaltaminor madaniyatining so‘nggi bosqichiga oid topilmalarga o‘xshash sopol idishlar bo‘laklari va chaqmoqtosh bilan birga misdan yasalgan ignalar, munchoqlar topilgan. Eneolit davriga kelib, insonlar mezolit davrida kashf etilgan ro‘zg‘or buyumlarini, qurollarni, uylarni qurish uslublarini yanada takomillashtirdilar. Insonlar dehqonchilik, chorvachilik, zargarlik bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Mazkur manzilgohlarning "metallurglari" metallni dastlab yer yuziga chiqib yotgan, keyinroq yer osti konlaridan qazib olingan rudalardan foydalanishni bilishgan.

Arxeologik topilmalar orasida nafaqat mis, balki qalay, qo‘rg‘oshin hatto oltindan yasalgan buyular ham uchraydi. Demak, mis eneolit davrida mavjud bo‘lgan yagona metall emas. Mis, qalay va qo‘rg‘oshinning kashf etilishi ibtidoiy jamoa xo‘jaligida ro‘y bergan buyuk madaniy xo‘jalik ixtiroi edi.

Markaziy Osiyo hududlarida eneolit davriga oid ko‘plab manzilgohlar aniqlanganligini ta’kidlab o‘tgan edik. Hozirgi Turkmaniston hududlarida miloddan avvalgi V ming yillikning oxiridan to III ming yillikning o‘rtalarigacha qadimgi dehqon jamoalarining Nomozgoh (Nomozgox I, II, III) madaniyati shakllangan. Zarafshon daryosining yuqori havzasida joylashgan va fanda “Sarazm madaniyati” nomi bilan mashhur bo‘lgan manzilgohda ham aynan shu dehqonchilik an‘analariga mos keladigan xo‘jalik ekanligi tadqiq etilgan.

Markaziy Osiyo arxeologiya fani tarixida eneolit, bronza va ilk temir davri manzilgohlarini birinchi bor mashhur olim G.Shmidt tadqiq etishga kirishdi va Janubiy Turkmanistonning Anov (Anov I – IV) manzilgohini davrlashtirishni taklif etdi. Ana shu davrlashtirish asosida tadqiqotchilar mazkur manzilgohda 50 yil davomida ilmiy tadqiqotlar olib borishdi. G.Shmidtning mazkur uslubi Nomozgohtepa manzilgohini umumiy bo‘lgan, ammo bir biridan farq qiluvchi 6ta izchil madaniy - xronologik bosqichlarga bo‘linishiga asos bo‘ldi. Natijada manzilgoh Nomozgoh I–VI deb yuritila boshlandi. Nomozgohtepa manzilgohining barcha bosqichlarida turarjoy qurilishida xom g‘ishtdan foydalanishgan va rangli naqsh berilgan. Kulolchilik buyumlarini ishlab

chiqarishi, mis va toshdan mehnat va ishlab chiqarish qurollari yasash, sug'orma dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan xo'jalikning mavjudligi mazkur madaniyatga xos xususiyatlardir.

Mazkur yodgorliklar asosan baland tepalarda joylashgan bo'lib, ular dehqon jamoalarining ko'p asrlik faoliyatidan guvohlik beradi. Bu tepaliklar Nomozgoh I davridan boshlab tog' daryolarining o'rta oqimida yuzaga kelgan. Nomozgoh II davridan boshlab esa eneolit qishloqlarida bir vaqtning o'zida bir xonali turar joylardan




рис. 33. Кельтеминарская культурная общность. Планы и реконструкции жилищ

- Дарбазакыр 1; 2-3 - Кават 7; 4-8 - Джанбас 4

ko'p xonali turar joylarga o'ta boshlagan. Qishloqlar atrofida mudofaa devorlari paydo bo'lgan. Bu devorlar ko'p burchakli bo'lib, har burchagida minoralar qad rostlab turgan. Nomozgoh III davrida (eneolitning so'nggi bosqichi) turar joylar, asosan ko'p xonali xonadonlardan iborat bo'lib, oshxonalar o'choq, yotoqxonalar esa sandallar bilan ta'minlangan. Hujralarida oziq-ovqatlar saqlangan. Har bir turar joy majmuasi o'zaro devor bilan ajratilgan bo'lib, ular tor yo'laklar va keng ko'chalar bo'ylab qurilgan. Turar joy majmualari o'rtasida hovlilar ham bo'lgan. Ko'p xonali uylar odatda yirik mahallalarni tashkil etgan, mahallalarni esa ko'chalar ajratib turgan. Xonadonlarning markaziy qismidagi xonalarning birida dumaloq shaklda mehrob qurilgan bo'lib, u muqaddas olov uchun mo'ljallangan.

Xo'jalik turlarining rivojlanib borishi bilan hunarmandchilik ham sertarmoq sohaga aylana borgan. Zero, hunarmandlar - to'qimachilik, temirchilik, degrizlik, misgarlik, zargarlik, kulolchilik, tosh yo'nish, suyakka ishlov berish, imorat solish va hokazo ishlar bilan band bo'lishgan.

Eneolit davri yodgorliklari Zarafshon vodiysida ham topilgan. Bu 90 gektar maydonni egallaydigan Sarazm manzilgohidir. Bu yerdagi xonadonlar guvala va xom g'ishtdan ishlangan bo'lib, bir va ko'p xonali qilib qurilgan. Ularda ham o'choq va mehroblu xonalar bo'lgan. Aholi asosan dehqonchilik va chorvachilik

bilan shug'ullangan. Shuningdek, bu yerda kulolchilik, to'qimachilik, zarqarlik ham rivoj topgan. Sarazm madaniyati xronologik jihatidan miloddan avvalgi V-III ming yilliklarni qamrab oladi.


Xulosa qilib aytganda, mehnat qurollarini yaratishda kishilar uzoq vaqt davomida sifatli, zarur tosh jismlaridan, ko'p holatlarda esa suyak va yog'ochlardan foydalanganlar. Keyinchalik bir necha ming yillik turmush tajribalariga tayanib dastlabki

metallni va undan foydalanishni kashf qildilar. Dastlab kishilar misni, keyinchalik esa qalay bilan mis eritmasi tarkibida jezni (bronza) kashf qilishdilar. Bu kashfiyot davrlari tarixan eneolit (mis-tosh) va bronza asrlari nomi bilan fanga kiritildi. Odamlar mis va jezdan turli ro'zg'or buyumlari, xususan, igna, juvoldiz, har xil ro'zg'or buyumlari, shuningdek, o'z davriga xos xilma-xil bezaklar ishlab chiqishni o'rgandilar. Metallning eng muhim afzalligi, avvalambor, ish unumdorligini oshirishda bo'lsa, so'ngra undan bolg'alash yo'li bilan xohlagan shaklda buyumlar yasash, sinib qolgudek bo'lsa, uni qaytadan qizdirish orqali yamash kabi xususiyatlardadir. So'ngra metallni turli qoliplarga qo'yish yo'li bilan qurollar va bezaklar yasash imkoniyati vujudga keldi. Bu esa, kishilik taraqqiyotini yanada jadal rivoshlanishini, "varvarlik" holatidan chiqib "sivilizatsiya"lashuviga yo'l ochib berdi.



4.8-rasm. Qadimgi qabr

## 5-mavzu. Bronza davrida nomadik va Markaziy Osiyo o'troq madaniyatlari munosabatlari



5.1-rasm. Gonur xarobasi

### Reja:

1. Mavzuning o'rganilganlik darajasi
2. Markaziy Osiyo bronza davrida nomadik madaniyat
3. Markaziy Osiyoda o'troq madaniyat tarixiga oid ma'lumotlar tahlili

### Tayanch so'z va iboralar:

Bronza, patriarxat, omoch dehqonchiligi, mehnatning dastlabki ijtimoiy taqsimoti, urbanizatsiya, sivilizatsiya, shahar tipidagi aholi punktlari, shaharsozlik.

Markaziy Osiyoda bronza asri o'ziga xos alohida bir davrni tashkil qilib, aholining deyarli bir yarim ming yillik turmush tarzini o'zida ifoda etadi (miloddan avvalgi III ming yillik o'rtalaridan to I ming yillikning boshlariga qadar). Bronza asri tosh asriga nisbatan juda qisqa davrni o'z ichiga oladi. Birinchi marta bronza mil. avv. III minginchi yillikda Old Osiyo va Hindistonda kashf etilgan. Arxeolog olimlari-mizning Markaziy Osiyo hududida olib borgan ilmiy ishlari shuni ko'rsatdiki, bronza davrida ovchilik va termachilik ijtimoiy va iqtisodiy hayotda o'zining dastlabki rolini asta-sekin yo'qotib borgan. Aholining asosiy yashash manbai dehqonchilik va chorvachilik bo'lib qoldi va bu esa metallga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Qadimgi "metallurglar" ma'lum davrdan so'ng qalayni misga qorishtirib bronza (jez) olishni kashf etganlar. Bronza egiluvchan metall bo'lsada, ammo misga nisbatan ancha mustahkam metall. Bronzadan keskir, ya'ni o'tkir tig' beradigan qurollar yasash mumkin bo'lgan. Aynan bronzaning shu xususiyatlari qadimgi "metallurglar" diqqatini jalb etgan. Natijada bronza ibtidoiy xo'jaliklarning hamma sohaslariga kirib kela boshlagan. Insonlar hayotida tub ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar, rivojlanishlar sodir bo'lgan. Bronza davriga xos ana shunday rivojlanishning belgilaridan biri sifatida - agrar xo'jalik va hunarmandchilik sohasidagi yangiliklarni ko'rsatish mumkin. Sug'orma dehqonchilik o'troq aholining uzviy turmush tarziga aylandi. An'anaviy dehqonchilik hududlarida bronza davri ikki bosqichni tashkil etadi. Markaziy Osiyoning janubi-g'arbidagi ilk dehqonchilik jamoalari tarixining birinchi bosqichi - Nomozgoh VI va V bosqichlariga to'g'ri kelsa, ikkinchi bosqichi Nomozgoh IV bosqichiga mos tushadi. Ilk bronza davri Nomozgohning ikkinchi bosqichiga to'g'ri keladi.

Rivojlangan bronza davri esa Nomozgoh III bosqichiga to'g'ri kelaydi. Bu davr sopol buyumlari odatda hech bir naqshsiz, kulolchilik dastgohida ishlangan. Kulolchilik charxi esa sopol ishlab chiqarishda Nomozgoh IV bosqichining so'nggi fazasida qo'llana boshlangan. Umuman, bu davr uchun muhtasham ibodatxona va saroy tipidagi monumental inshootlar qurilishi xarakterlidir.



5.2-rasm. Gonur xarobasi, altar

O'zbekiston hududida ham bronza davriga oid juda ko'plab manzilgohlar aniqlangan. Ayniqsa, qadimiy So'g'diyona mintaqasida ilk shahar madaniyatining ildizlarini o'zida aks ettirgan yodgorliklar arxeologlar tomonidan keng o'rganilgan. Shuni qayd qilish kerakki, qadimgi So'g'diyona haqida gap ketganda ko'z o'ngimizda vatanimizning to'rt viloyati—Samarqand, Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo gavdalanadi. So'g'diyonaning o'ziga xos tarixiy madaniy o'lka sifatida tarkib topishi, rivojlanishi va gullashida Zarafshon daryosining ahamiyati beqiyosdir. Zarafshon daryosi tufayli So'g'dlik bobodehqonlar bronza davridayoq o'troq manzilgohlari, ya'ni qishloqlarga

asos solishgan. Mazkur qishloqlarning qoldiqlari endilikda Zamonbobo va Sarazm madaniyatlari nomi bilan fanga kiritilgan.

Yaqin kunlarga So‘g‘dning bosh shaharlari bo‘lgan Samarqand va Buxoroning XXV asrlik tarixining ildizlari qaysi davrga borib taqalishini bilmas edik. Shuning uchun ham chet ellik ayrim tarixchilar o‘rtasida Samarqand va Buxoroga shahar madaniyati Eron ahamoniylari yoki yunonistonlik ellinlar tomonidan keltirilgan degan tasavvur paydo bo‘ldi. Zamonbobo va Sarazm yodgorliklarining topilishi ana shu g‘ayri ilmiy fikrlarga nuqta qo‘ydi va So‘g‘dning shahar madaniyati aynan shu o‘lkaning eneolit va bronza davri yodgorliklari - Sarazm va Zamonbobo madaniyatlari asosida kelib chiqqanligini isbotladi. Zamonbobo Zarafshonning quyi oqimi havzasida, uning qurib borayotgan o‘zanlaridan birining yoqasida hosil bo‘lgan ko‘lning nomidir. 1950 yilda akademik Ya.G‘.G‘ulomov ana shu ko‘lning shimoliy sohilida qadimgi qabristonga duch kelgan. Shuningdek, u ko‘l yoqasida, cho‘l shamoli uchirib ketgan taqirlikda, usti ochilib qolgan bir necha qabrlarni uchratadi. Eneolit va ilk bronza davriga oid bo‘lgan bu yodgorliklarda avval Ya.G‘.G‘ulomov, so‘ngra A.Asqarov qazishmalar olib bordi. Zamonboboda o‘tkazilgan qazishmalar davrida 45 ta qadimgi mozor qoldiqlari topib o‘rganildi. Qabrlar hozirgidek lahad shaklida bo‘lib, skeletlar o‘ng va chap yoni bilan huddi ona qornida yotgan chaqaloq singari g‘ujanak bo‘lib yotganligi aniqlandi.

So‘g‘diyonada ilk dehqonchilik madaniyatining boshqa bir buyuk yodgorligi qadimgi Sarazm qishlog‘i hisoblanadi. Hozirgi Sarazm qishlog‘i Samarqandning Tojikiston bilan chegaradosh tumanida joylashgan. Sarazmda qadimdan o‘zbeklari yashab kelgan. Shu qishloqning Avazali uchastkasida istiqomat qiluvchi Ashurali Toyloqov 1976 yilning kuzida o‘z tomorqasi va qo‘shnilari hovlisidan topilgan sopol siniqlari, bronza bolta va pichoqlaridan iborat ashyoviy dalillar bilan Panjikent muzeyiga murojaat qilgan. Bu yodgorlikda 1977 yildan buyon panjikentlik arxeolog



5.3-rasm. Gonur xarobasi buyumlari

Abdullo Isaqov arxeologik qazishmalar olib bormoqda. Kulbalar va xilxonalarni qazish vaqtida arxeologlar sirtiga rangli bezak solingan sopol parchalari, mis oyna, oltin va kumushdan yasalgan taqinchoqlar, qimmatbaho toshlar bronza, lazurit va serdalikdan yasalgan munchoqlar topganlar. Sarazmning birinchi bosqichga oid materiallar ko‘p jihatdan Janubiy Turkmanistonda topilgan va eneolit davriga oid yodgorliklarga aynan o‘xshab ketadi.

Sarazmning ikkinchi bosqichidan boshlab uy-joy qurulishida alohida xonalar o‘rtasida doira va to‘rtburchak shaklida ishlangan muqaddas otashkadalar (altarlar)ning paydo bo‘lishi qadimgi sarazmliklarning olovga sig‘inishidan darak beradi. Keyinchalik bu yerda ibodatxonalar qurila boshlagan.

Bronza davrida dehqonchilik vohalarida alohida-alohida aholining joylashish tuzumi shakllandi. Aynan shu narsa shahar tipidagi aholi punktlarining shakllanishiga shart-sharoitlarni yaratdi. Shahar tipidagi aholi punktlari yuzaga kelish omillarini bilish ham muhim ahamiyatga egadir. Birinchi omil - aholi zichligi va konsentratsiyalashuviga olib kelgan oziq-ovqat yetishtirish usulidir. Dehqonchilik vohalarida aholi zichligi ovchilik va termachilik davriga qaraganda deyarli 100 barobar zichroq bo'lgan. Shu sababli dehqonchilik jamiyatlarining ilk bosqichlaridagiga nisbatan yirik aholi markazlari paydo bo'ladi. Masalan, Turkmaniston miloddan avvalgi 4-3 ming yillardayoq aholisi 2000 yoki undan ortiq dehqonchilik qishloqlari mavjud bo'lgan.

Ikkinchi omil - hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi. Ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ayrim aholi punktlari asosan maxsus ishlab chikarish, ya'ni hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan aholi to'plana boshladi. Hunarmandchilikning ajralishi jarayoni bilan shaharlarning paydo bo'lishi jarayoni bir vaqtda borgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, dastlabki shahar tipidagi aholi punktlarida aholi hunarmandchilikdan ko'ra ko'proq dehqonchilik bilan shug'ulanganlar. Shaharlarning asta sekin rivojlanib borishi bilan hunarmandchilik shahar hayotida tobora muhim mavqe' uynay boshlagan. Hunarmandchilikning yangi sohalar paydo bo'la boshlagan. Umuman shahar va hunarmandchilik bir birlarining yuksalishiga sharoit yaratgan.

Uchinchi omil - jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish va shakllanib borgan boshqaruv organlaridir. To'rtinchi omil - o'zaro aloqalarning rivojlanishidir.

Beshinchi omil - esa diniy tushunchadir. Sababi turli ilohlarga atab qurilgan ibodatxonalar hamma aholi punktlari uchun markaz bo'lgan shaharlarda qad ko'targan. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda janubiy Turkmanistonda birinchi loydan ishlangan g'ildiraklar paydo bo'lgan. Transportning rivojlanishi shaharlarga qishloq xo'jaligi tumanining markazi, qo'shimcha mahsulot to'planadigan va taqsimlanadigan markaz vazifasini o'tash imkonini ham



5.4-rasm. Bronzo davri ashyolari

yaratdi. Shaharlarning tashkil topishi va rivojlanishi sivilizatsiyaning tarkibiy qismidir. Ma'lumki, sivilizatsiya kishilik jamiyati rivojining ma'lum davrida paydo bo'ladi. Sivilizatsiyaning yuzaga kelishida va rivojlanishida shahar yetakchi rol o'ynaydi. Sababi, shaharlar sivilizatsiya paydo bo'lishi va rivojlanishini ta'minlagan barcha jarayonlar kechgan markaz rolini bajargan. Shu sababli sivilizatsiya iqtisodiy, madaniy asoslarining va ilk tabaqaviy jamiyatlarning tashkil topishi shahar tipidagi aholi punktlarining tashkil topishi va rivojlanish bilan birga bog'liq jarayon sifatida qaraladi. Bu jarayon fanda «shahar inqilobi» deb ataladi.




Hunarmandchilikning ajralish jarayoni bilan shaharlarning paydo bo'lishi jarayoni bir vaqtda borgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, dastlab shahar tipidagi aholi punktlarida aholi hunarmandchilikdan ko'ra ko'proq dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Shaharlarning asta-sekin rivojlanib borishi bilan hunarmandchilik shahar hayotida tobora muhim mavqe' o'ynay boshlagan. Hunarmandchilikning yangi sohalari paydo bo'lgan. Umuman, shahar va hunarmandchilik bir-birlarining yuksalishiga sharoit yaratgan. Markaziy Osiyoda qadimgi shahar tipidagi aholi punktlarida hunarmandchilikning metallurgiya va kulolchilik kabi tarmoqlari rivojlangan. Bronza davriga oid manzilgohlar hozirgi Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlaridan ham topilib o'rganilgan. Amudaryo etaklaridagi Tozabog'yob kanali yaqinidan topilgan Tozabog'yob madaniyati, Amirobod kanali etaklaridan topilib o'rganilgan Amirobod madaniyati shular jumlasiga kiradi. Bu manzilgohda yashagan odamlar o'troq holda urug' jamoa bo'lib yashaganligi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligi aniqlandi. Mamlakatimizning shimolidagi cho'l va dasht joylarida chorvador urug' jamoalari va qabilalar yashagan. Ularda chorvachilik xo'jalikning asosiy tarmog'i bo'lgan. Otiqlar-cho'ponlar qoramol, ko'y, echkilardan iborat podalarii uzoq joydagi yavlovlarga haydab borganlar.

Bronza davri oxirlarida chorvador qabilalarning o'z podalarini haydab o'troq dehqon jamoalari yashaydigan vohalarga tinch yoki zo'rlik bilan kirib borganligi ham kuzatiladi. Natijada etnik jarayonlar kuchayib shimol va janub qabillarining dastlabki aralashuvi yuz berib, hozirgi zamon o'zbek va tojiklarining dastlabki etnik qatlami shakllana boshlagan.

## **6-mavzu. Markaziy Osiyoning janubiy, janubiy-g'arbiy hududlarida bronzo davri madaniy-tarixiy markazlari: (Afg'onistonning Dashli-I,III, Turkmanistonning Nomozgoh, Gonurtepa)**

### **Reja:**

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyoning janubiy-g'arbiy hududlarida bronzo davri
- 3) Dashli-I,III, Nomozgoh, Gonurtepa manzilgohlari tarixiga oid ma'lumotlar



### **Tayanch so'z va iboralar:**

Bronza, patriarxat, omoch dehqonchiligi, mehnatning dastlabki ijtimoiy taqsimoti, urbanizatsiya, sivilizatsiya, shahar tipidagi aholi punktlari, shaharsozlik.

6.1-rasm. Bronzo davri ashyolari, Turkmaniston, Gonur xarobasi

Chapter 3  
The Cult of Soma-Haoma


Markaziy Osiyoning janubi-gʻarbidagi ilk dehqonchilik jamoalari tarixining birinchi bosqichi - Nomozgoh VI va V bosqichlariga toʻgʻri kelsa, ikkinchi bosqichi Nomozgoh IV bosqichiga mos tushadi. Ilk bronza davri Nomozgohning ikkinchi bosqichiga toʻgʻri keladi. Rivojlangan bronza davri esa Nomozgoh III bosqichiga toʻgʻri keladi. Bu davr sopol buyumlari odatda hech bir naqshsiz, kulolchilik dastgohida ishlangan. Kulolchilik charxi esa sopol ishlab chiqarishda Nomozgoh IV bosqichining soʻnggi fazasida qoʻllana boshlangan. Umuman, bu davr uchun muhtasham ibodatxona va saroy tipidagi monumental inshootlar qurilishi xarakterlidir.

Hozirgi Turkmaniston hududlarida miloddan avvalgi V ming yillikning oxiridan to III ming yillikning oʻrtalarigacha qadimgi dehqon jamoalarining Nomozgoh (Nomozgoh I, II, III) madaniyati shakllangan. Zarafshon daryosining yuqori havzasida joylashgan va fanda “Sarazm madaniyati” nomi bilan mashhur boʻlgan manzilgohda ham aynan shu dehqonchilik anʼanalariga mos keladigan xoʻjalik ekanligi tadqiq etilgan.

Markaziy Osiyo arxeologiya fani tarixida eneolit, bronza va ilk temir davri manzilgohlarini birinchi bor mashhur olim G.Shmidt tadqiq etishga kirishdi va Janubiy Turkmanistonning Anov (Anov I – IV) manzilgohini davrlashtirishni taklif etdi. Ana shu davrlashtirish asosida tadqiqotchilar mazkur manzilgohda 50 yil davomida ilmiy tadqiqotlar olib borishdi. G.Shmidtning mazkur uslubi Nomozgohtepa manzilgohini umumiy boʻlgan, ammo bir biridan farq qiluvchi 6ta izchil madaniy - xronologik bosqichlarga boʻlinishiga asos boʻldi. Natijada manzilgoh Nomozgoh I–VI deb yuritila boshlandi. Nomozgohtepa manzilgohining barcha bosqichlarida turarjoy qurilishida xom gʻishtdan foydalanishgan va rangli naqsh berilgan. Kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarishi, mis va toshdan mehnat va ishlab chiqarish qurollari yasash, sugʻorma dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan xoʻjalikning mavjudligi mazkur madaniyatga xos xususiyatlardir.

Mazkur yodgorliklar asosan baland tepalarda joylashgan boʻlib, ular dehqon jamoalarining koʻp asrlik faoliyatidan guvohlik beradi. Bu tepaliklar Nomozgoh I davridan boshlab togʻ daryolarining oʻrta oqimida yuzaga kelgan. Nomozgoh II davridan boshlab esa eneolit qishloqlarida bir vaqtning oʻzida bir xonali turar joylardan koʻp xonali turar joylarga oʻta boshlagan. Qishloqlar atrofida mudofaa devorlari paydo boʻlgan. Bu devorlar koʻp burchakli boʻlib, har burchagida minoralar qad rostlab turgan.

Nomozgoh III davrida (eneolitning soʻnggi bosqichi) turar joylar, asosan koʻp xonali xonadonlardan iborat boʻlib, oshxonalar oʻchoq, yotoqxonalar esa sandallar bilan taʼminlangan. Hujralarida oziq-ovqatlar saqlangan. Har bir turar joy majmuasi



6.2-rasm. Turkmaniston, Gonur xarobasi

o‘zaro devor bilan ajratilgan bo‘lib, ular tor yo‘laklar va keng ko‘chalar bo‘ylab qurilgan. Turar joy majmualari o‘rtasida hovlilar ham bo‘lgan. Ko‘p xonali uylar odatda yirik mahallalarni tashkil etgan, mahallalarni esa ko‘chalar ajratib turgan. Xonadonlarning markaziy qismidagi xonalarning birida dumaloq shaklda mehrob qurilgan bo‘lib, u muqaddas olov uchun mo‘ljallangan.

Sopolli madaniyati hukm surgan davr tarixiy-madaniy jarayonlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mil. avv. II ming yillikda Amudaryoning o‘ng va chap qirg‘og‘ida ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha ikkita: Sopolli madaniyati va Dashli madaniyati yoki Sopolli-Dashli madaniyatining ikki xil ko‘rinishi keng tarqaladi.

Sopolli - Dashli madaniyatining kelib chiqishini tahlil etar ekan A.Asqarov va T.Shirinovlar O‘rta Osiyoning janubi, shimoli-sharqiy Eron, sharqiy Eron va shimoliy Afg‘oniston hududlaridagi o‘troq dehqonchilik shaklidagi arxeologik majmualarni umumiy madaniy jamoalar sifatida Namozgoh tarixiy-madaniy birligi (NIKO - Namazginskaya istoriko-kulturnaya obshnost) deb atashni taklif etadilar. Shuningdek ular NIKOda mahalliy ko‘rinishlar va hatto, alohida madaniyatlar bo‘lishi mumkinligini inkor etmaydilar. Agar ma‘lum hududlardagi tarixiy-madaniy jarayonlarning o‘ziga xosligini, geografik joylashuv va shart-sharoitlarni hisobga oladigan bo‘lsak, bu fikrga qo‘shilish mumkin.

Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida shakllangan Sopollitepa-bronza davridagi dastlabki o‘troq dehqonchilik qishlog‘i hisoblanadi. Ammo, keyinchalik, o‘troq dehqonchilik jamoalari shimoliy chegaralarining kengayishi munosabati bilan Sopollitepa o‘zining ilgarigi ahamiyatini yo‘qota boshlaydi va bo‘shab qoladi hamda asosiy markaz vazifasi esa, tog‘ darasidan chiquvchi yo‘l ustidagi mustahkam qal‘a sifatida paydo bo‘lgan Jarqo‘tonga o‘tadi.

Masalan, A.Asqarov va B.Abdullayevlar bronza davri rivojlanishining Jarqo‘ton bosqichini (mil. avv. II ming yillik o‘rtalari) ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilish davriga, Ko‘zali va Molali bosqichlarini (mil. avv. II ming yillikning oxirlari) esa mulkiy tengsizlik munosabatlari paydo bo‘lishi davriga oid deb hisoblaydilar. V.I.Sarianidi esa, aksincha, mil. avv. II ming yillikning oxiri I ming yillikning boshlarida davlat-



6.3-rasm. Arxeologik ekspeditsiya

chilik munosabatlari shakllana boshlagan Baqtriyaning umumiy ijtimoiy rivojlanish darajasini oshirib yubormaslikni taklif etadi. Mil. avv. II ming yillikning oxiri – I ming yillikning boshlarida O‘rta Osiyoning janubida bir necha kichik davlat uyushmalari vujudga kelgan bo‘lib Dashli 3, Gonur 1, To‘g‘oloq-1, Ulug‘tepa, Namozgohdepa, Oltindepa kabi Jarqo‘ton ham ulardan birining markazi bo‘lgan

bo'lishi mumkin. Ko'pchilik olimlarning e'tirof etishlaricha, O'rta Osiyoning janubida ilk shaharlar va davlat uyushmalarining paydo bo'lish jarayoni V.M.Masson tomonidan nisbatan aniqroq izohlangan. Tadqiqotchi bu jarayonda ikkita asosiy bosqichni ajratadi: 1) ma'lum vohalarda shahar-davlatlarning paydo bo'lishi; 2) ular asosida yirik ijtimoiy-siyosiy tizimning shakllanishi.

Mil. avv. II ming yillikning so'nggi choragida Shimoliy Baqtriya hududlarida yirik va mustahkamlangan markazlarga ega bo'lgan, nom yoki voha ko'rinishidagi davlatlarning boshlanish bosqichida bo'lgan hududiy-siyosiy birlashmalar shakllana boshlagan degan g'oyani ilgari surishimiz mumkin.

O'rta Osiyoning boshqa hududlari bilan qiyosiy tahlil etgan Yu.A. Zadneprovskiyning fikricha, qadimgi Farg'ona dehqonchilik markazlari bilan bir vaqtda O'rta Osiyoning o'rta joyida ham ana shunday markazlar paydo bo'ladi. Bularga Yoz, Yashilli (Turkmaniston), Kuchuktepa, Chiroqchi, Burg'uluk; Chust (O'zbekiston), Shahrison (Tojikiston) va boshqa dehqonchilik markazlari kiradi. Qal'alari bo'lgan yirik qishloqlarning (fundament) asos ustida rivojlanish an'analari Janubiy Turkmanistonda (Yozdepa, Aravalidepa) ko'zatiladi, ammo, bunday qishloqlar o'zluksiz, bir tekis himoya devorlariga ega emas edi. Bu belgilariga ko'ra, bunday reja ma'lum ma'noda bronza davriga borib taqaladi. So'nggi bronza va ilk temir davriga kelib aholi soni va zichligining o'sib borishi, hosildor yer maydonlarining o'zlashtirilishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning jadallik bilan rivojlanishi aholi joylashuvining hayotiy zarur hududlarga bo'linib ketishiga olib keladi. Bunday sharoitda chorvador aholining ma'lum qismi xo'jalikning yarim o'troq va chorvachilik shakliga o'tishga majbur bo'ladilar. Shuning uchun ham O'rta Osiyodagi miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid ko'chmanchilar yodgorliklari o'troq aholi hududlari chegaralarida (Orolbo'yi, shimoliy Turkmaniston, Zarafshonning quyi oqimi, Pomir va boshq.) joylashganligi tasodifiy hol emas.

## **7-mavzu. Markaziy Osiyoda qadimiy diniy tasavvurlar: ibtidoiy diniy mifologik qarashlardan teologik tizimli diniy qarashlar sari. Zardushtiylik**

### **Reja:**

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyoda qadimiy diniy tasavvurlar
- 3) Markaziy Osiyoda zardushtiylik

**Tayanch so'z va iboralar:** fetishizm, Zand, Denkart, Mitra, Yasht, Zaroastr, Axriman, Vata, dahyu, nmana, nmanapati, zantu, sastar, vis, Vendidot, Visparat, Yasna, ostodon, katakombo.

Urug'chilik jamoasi o'z taraqqiyotida asosan ikki bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqich urug' ijtimoiy ishlab chiqarishga asoslangan. Bu davrda mulk tub ma'noda jamoaniki edi. Ishlab chiqarish jamoalarini boshqarish mo'tabar zotlar - oqsoqollar (nmanishilar) qo'lida bo'lib, ular jamoa hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni oqsoqollar kengashi (anjumani) orqali hal qilganlar. Oqsoqollar kengashi qo'lida diniy



7.1-rasm. Qadimgi qal'a

oldingi II mingyillik o'rtalarida yashagan turkiylar, forsiylar, hindular, saklar, debriklar, oslar, toxarlar, daxlar, massagetlar, baqtriyaliklar, parkanaliklar, chochliklar va boshqa qavmlarning aksariyat ko'pchiligi chorvador ko'chmanchilikdan o'troq hayotga o'tib, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullana boshlashgan.

«Avesto» Markaziy Osiyoning tarixan ajralmas qismi bo'lgan Turon zamin hududlarida shakllangan eng qadimiy din - zardushtiylikning muqaddas kitobidir. Unda o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg'on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy ilohiy tasavvurlari, koinot va Yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-axloqiy qarashlar o'z aksini topgan. Davlatni qavm yani muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarni o'zida mujassamlashtirgan shoh boshqargan. "Kavi"ning davlatni boshqarish huquqining belgilanishida "farr" ("Avesto" tilida "xvarno") prinsipiga qonuniy asos sifatida amal qilingan. "Avesto"da "Xvarno" shoh hokimiyati ramzini bildirib, shohlik ulug'vorligi bilan bog'lanib ketadi. U "Kavi"ga ilohiy farog'atni va xukmronlik uchun qonuniy huquqni ta'minlaydi.

«Avesto»la aks etgan asosiy qonun qoidalar, diniy e'tiqodning yetakchi tushunchalari tarixiy shaxs Zaratushtra nomi bilan bog'liq. U bundan taxminan 2700 yillar avval yashagan. O'sha kadar ibtidoiy ajdodlarimiz turli-tuman qabilaviy diniy tasavvurlarga amal qilib yashaganlar. Zaratushtra ham ana shunday mahalliy qabilaviy dinlarning rohiblaridan biri bo'lgan. Lekin Zardusht yashagan zamon ibtidoiy munosabatlar o'rnini sinfiy jamiyat, qadimiy davlatchilik asoslari egallayotgan davr edi. Bu davrning shakllanishi uchun kuchli g'oyaviy mafkura zarur bo'lib, mahalliy qabilaviy dinlar jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichiga to'sqinlik qiluvchi kuchga aylangan edi. Bu murakkab zamonda o'lkaning turli qabilalarining birlashtirish, bu orqali ularni ilk davlatchilik g'oyasi atrofiga uyushtirish zaruriyati tug'ildi. Ana shunday zaruriyati tushungan ilg'or kishilardan biri sifatida Zardusht chiqdi. U ko'p xudolik tasavvuriga, tabiat hodisalariga sig'iniishga qarshi chiqib, yakka xudolikni targ'ib qildi. U ezgulik xudosi Axuramazda bilan odamlar o'rtasidagi vakil sifatida maydoniga chiqdi. Zaratushtra eroncha so'z bo'lib "ushtra" – tuya, "zarat" - sariq, ya'ni keksa tuyachi – tuyachilar avlodi degan ma'nolarni bildiradi. Zardushtning boshqalan

va dunyoviy hokimiyat birlashgan, ya'ni ular jamoaning kundalik faoliyatidagi xo'jalik masalalarini hal etganlar. Katta oila jamoasining oqsoqoli bir vaqtning o'zida oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshlik, piru ustoz va murabbiy bo'lgan. Qabila-qishloq oqsoqoli esa oliy kengashning boshlig'i sifatida butun qishloq ahlining ana shunday boshlig'i hisoblangan. Mo'tabar shaxslarning topshiriq va buyruqlari jamoa a'zolari uchun qonun edi. "Avesto"da bayon etilishicha, eramizdan

farqi shundaki, u o'ta iste'dodli shoir, ilohiyot bilimdoni, faylasuf olim edi. Yagona xudoga ishonishga jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tara oladi, deb hisoblar edi u. Shu yo'lda Zardusht Navro'z kunlaridan birida koinlar boshchiligida muqaddasi ichimlik bo'lgan jamoa tayyorlashga kirishadi.



7.2-rasm. Xorazm ekspeditsiyasi

Axuramazdaning rasmiy tus olishiga qadar uning Zardusht orqali vahiy qilgan ilohiy xabarlar Eron va Turon zamin xalqi orasida asrlar davomida namoz, turli diniy marosimlar, duo-yu takbirlar, madhu alqovlar va surayu oyatlar sifatida yig'ila boshlagan edi. Ko'p miqdordagi duo-yu takbirlar, sura-yu oyatlar, madhu alkovlar tartibga solinib, Zardushtning o'limidan keyingi muayyan muqaddas kitobga to'plangan. Natijada Axuramazda dini yanada qadr va ravnaq topib, Zardushtga nozil bo'lgan barcha matnlar yig'ilgan. Paydo bo'lgan kitobga «Avesto» deb nom berilgan. Bu so'zining ma'nosi «o'rnatgan, kat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar» demakdir.

Zardusht orqali vaxiy qilingan Axuramazda dini haqidagi xabarlar qadimgi davrdan boshlab to o'rta asrlargacha sezilgan ko'plab tarixiy, ilmiy, adabiy manbalarda uchrab keladi. Masalan, qator qadimgi yunon mualliflari Zoroastr, Zaratushtra ko'rinishlarida Zardusht nomini qayd etishgan. Uning diniy ta'limoti haqida ayrim xabarlarini qoldirishgan. «Avesto» haqidagi eng muhim manba IX asrga oid o'rta fors tilida yartilgan «Denkard - din amallari» nomli qomusiy asardir. Unda «Avesto»ning 21 kitobi mukammal holida ta'riflab berilgan. Savobli ishlar yo'riqnomasi, diniy marosimlar, rasm-rusmlar qoidasi, mazda dini (zardushtiylik) ta'limoti asoslari; dunyoning Axuramazda tomonidan yaratilishi va buning haq ekanligi, oxirat kuni, oxiratdagi hisob-kitob haqida, falakkiyot, ilmi nujum haqida ma'lumotlar; ijtimoiy-xuquqiy qonun-qoidalar, Gushtasining Axuramazda dini qabul qilish tarixi; Gopat shox, Avliyo cho'pon; Zardushtning tug'ilishi va bolaligi; haq yo'lini tutmoq va taraqqiyotning haq yo'li haqida, jamiyat a'zolarining haq-huquklari; harbiy ishlarning Axuramazda dini haqligiga xizmat qilish haqida; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o'qiladigan duoyu-takbirlar, qaytariqlar va amallar tafsilotlari va boshqalar shular jumlasidandir. Yevropa olimlaridan dastlab 1755 yili yosh fransuz sharqshunosi A.Dyuperron Parij kutubxonasiga borib qolgan «Avesto» matni parchalari bilan tanishadi. Unda bu sirli

kitobning o'zini topish va uni mukammal o'rganish ishtiyoqi tug'iladi. A.Dyuperron Hindistonning istilo qilgan qo'shinlar bilan birgalikda zardushtiy forslar sohasiga yetib oladi. O'z dini va muqaddasi kitobini begonalardan qattiq asragan forslar A.Dyuperronni dastlab noxush va ishonchsizlik bilan qabul qiladilar. Yosh olim forslar ichida olti yil yashaydi.

Ularning urf-odatlarini, gujarotiy tilini, diniy rasm-rusmlarni o'rganib, kohinlar orasida ishonch qozonadi. «Avesto»ning yozuvini o'rganadi. Matnlarning mazmuniga tushuna boshlaydi. A. Dyuperron «Avesto»ning bir necha qo'lyozma nusxalarini sotib olishga erishadi. 1761 yili u mashaqqatli sayohatidan qaytib Angliyaga keladi. Keltirgan «Avesto» kitobining qismlarini Angliya kutubxonasidagi qo'lyozma parchalar bilan qiyoslab, dastlabki ilmiy xulosalarni chiqaradi. 1762 yili A.Dyuperron o'z vataniga qaytib, Fransiya milliy kutubxonasiga «Avesto»ning asl matnlarini fors tilidagi tafsir (sharh)lar bo'lmish«3and» parchalarini, «Avesto»ning gujarotiy, hindi va fors tillariga qilingan tarjimalaridan iborat parchalarini topshiradi. Uni esa «Avesto»ni fransuz tiliga tarjima qilishga kirishadi. A.Dyuperronning ulkan matonati, ilmiy jasorati natijasi bo'lmish uch jildlik tarjima 1771 nashr etiladi. Zardusht ta'limotida olov, yer, tuproq, suv va havo muqaddas hisoblanadi. Ularni iflos qilish katta gunoh deb qaralgan.

O'sha davrlarda tabiiy va ijtimoiy hayotning alohida sohalarini boshqarib turuvchi tangrilar mavjud deb hisoblangan. Masalan: Parendi – sokinlik, ijtimoiy barqarorlik. farovonlik ma'budi; Vayu – shamol va bo'ronlar, to'fonlar, o'lim tangrisi; Mozon devlari – qadimgi yashlarda uzoq shimoldagi tog'lar ortida, abadiy muzliklarda turib har biri tabiat va ijtimoiy hayotning alohida sohalarini boshqarib turuvchi qudratli, kahri qattiq va bahaybat mahluq, Vatan – Zardushtgacha bo'lgan davrlarda yomg'irli bulutlarni haydab olib keluvchi shamol tangrisi; Bushyasta – kishilarda dangasalik, yalqovlikni kuchaytiruvchi va ularni o'z homiyligiga olgan dev qiyofasidagi iblis. U o'zining uzun qo'llari bilan odamlarni to'shakda tutib turuvchi va to'shakdan turishga xalaqit beruvchi qudrat sifatida tasavvur qilinadi; Marshavan dev kishilarning xotirasini yo'q qilishga esdan chiqarishga undaydigan iblis qiyofalik dev va hokazo. «Avesto»da tabiat va halollik hukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir Axuramazda nozillarining to'g'riligiga imon keltirishga doir duolar bor. Unda imonli bo'lish, buning uchun doimo toza, pok yurish, yovuzlikni qoralayotgan paytda tananing toza bo'lishi, shayton-iblislarga qarshi harakatlar qilish, gunoh qilmaslik, Axuramazdadan kechirim so'rashga doir duolar keltirilgan.

«Avesto»da olam qarama-qarshiliklardan iborat. Yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik, adolatli qonunlar va qonunsizliklar o'rtasidagi kurash unda o'z ifodasini topgan. Zardushtning diniy ta'limotida ezgulikni qaror toptirish ruhi (Axuramazda) bilan yovuzlik ruhi (Axriman) o'rtasidagi kurash ta'riflanadi. Axuramazda ezgulikni vujudga keltirishda odamlarni imonli bo'lishiga undayveradi, Axriman esa unga qarshi odamlarni yomon ishga boshlaydi. Zardushtiylik dinida imon uch tayanchga asoslanadi: 1) fikrlar sofligi, 2) so'zning sobitligi, 3) amallarning insoniyligi.

Ahuramazda tarafdori bo'lgan, yaxshilik, ezgulik urug'ini sochuvchi tangri (xudo)lardan biri, shubhasiz, Roman nomi bilan ataluvchi tangri bo'lgan. Roman - ko'pxudolik davrida tinchlik va osoyishtalikning, ijtimoiy barqarorlikning, chorva mollarning homiysi bo'lgan tangri deb hisoblangan. Shunday qilib, «Avesto» dunyodagi eng qadimgi din bo'lgan zardushtiylik ta'limotini asoslab bergan kitobdir. Lekin bu kitob faqat diniy emas, balki keng ma'noda tarixiy, falsafiy, adabiy manba sifatida ham g'oyat va tafakkur taraqqiyotining qomusiy yig'indisidir. "Avesto"ning eng qadimiy qismi bo'lgan "Yasht"larda bu tangrilar, ma'bud va ma'budalar ham mohiyatiga ko'ra ikki guruhga ajrala boshlangan. Kishilarga dahshat urug'ini sochib yuraklariga g'ulg'ula soladigan qaxri qattiq Axriman boshliq yovuz kuchlarga va odamlarga ezgulik tarqatuvchi, yaxshilik tilovchi, yordam beruvchi Axuramazda boshchiligidagi tangrilar guruhiga ajrata boshlangan. Keyinchalik Zardusht ta'limotida Ahuramazda Oliy tangri sifatida e'tirof etilib, qolganlari farishtalarga aylantirilgan. "Mangu yashashga molik bu muqaddas ruhlar" Axuramazda bilan birgalikda barcha mavjudlikning turli sohalarini o'zida mujassam etadilar va insonlar hayoti uchun eng zarur bo'lgan narsalar – olov, yer, osmon, suv, chorva va nabodot (o'simliklar) dunyosiga homiylik qiladilar. Bu ruhlar ("Avesto" bitiklarida ularni "Amesha Spenta" deb aytiladi) jami oltita bo'lib: 1) Voxu Manu - ezgu fikr; 2) Asha Vaxishta – eng oliy haqiqat; 3) Spenta Armantiya – muqaddas e'tiqod, diyonatga sodiqlik; 4) Xishatra-Varya – hukmronlik xohishi; 5) Harvatag - yaxlitlik; 6) Amereta' mangulik, ular muqaddas ruh Spenta Manyu yordamida vujudga keltiriladi.

## **8-mavzu. Ilk temir davrida Markaziy Osiyo hududiy davlatchilik jarayonlari: Xvarasmi, Suguda, Margush, Fragana**

### **Reja:**

- 1) Markaziy Osiyoda Xvarasmi
- 2) Suguda, Margush tarixiga oid ma'lumotlar
- 3) Markaziy Osiyoda Fragana tarixiga oid ma'lumotlar tahlili

**Tayanch so'z va iboralar:** Xvarasmi, Suguda, Margush, Fragana, qadimgi davlat uyushmalari, davlatchilik, ilk shahar ko'rinishidagi manzilgohlar, shaharlar, davlat, mudofaa devorlari, ijtimoiy tabaqalanish, ortiqcha mahsulot, mehnat taqsimoti, hunarmandchilik, kulolchilik, chorvachilik, ishlab chiqaruvchi xo'jalik, harbiy zodagonlar, koxinlar, "Avesta" ma'lumotlari, o'troq dehqonchilik va ko'chmanchi chorvachilik, Qiziltepa, Kuchuktepa, Beshqo'ton, Talashqon, Jondavlat, Bandixon, Qizilcha, Obishir, Sho'rtepa, Avesto, Baqtriya, Parfiya, Qang', Davan (Parkana) Kushon,



8.1-rasm. Xorazm qal'alari



Daratepa, Afrosiyob, Ko‘zaliqir, Dalvarzin.

O‘rta Osiyo hududidagi dastlabki podshohliklar Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya podshohliklari shu tariqa eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda paydo bo‘lgan. Ular O‘rta Osiyoning kattagina qismini o‘z ichiga olgan. Ushbu davlatlar mustaqil rivojlanish jarayoni ahamoniylar bosqini natijasida eramizdan avvalgi VI asrda barham topadi.

Bu podshohliklar darsliklarda hanuz tariximizdagi eng qadimgi davlatlar deb kelinmoqda. Biroq, biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, ular davlatchilik tariximizning ikkinchi bosqichiga tegishli davlatlardir. Ularning tarixi biroz yozma manbalarda yoritilgan bo‘lsada, biroq ularning yechilmagan muammolari anchagina. Biz quyida ularni atroflicha ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.



8.2-rasm. Oltintepe xarobasi

Yunon mualliflari (Gerodot, Gekatey)ning xabariga ko‘ra, bu zaminda qabilalar konfederatsiyasi asosida tarkib topgan dastlabki davlatlar mavjud bo‘lgan. «Katta Xorazm» va «Baqtriya podshohligi» harbiy demokratik prinsiplar asosida tarkib topgan. Afsuski, yozma manbalarda ular haqida uzun-yuluq va juda qisqa ma’lumotlar uchraydi. Ularning ba’zilari esa afsonaviy xarakterda, zardushtiylik dini

ning bosh islohotchisi Zaratushtra nomi bilan bog‘liq xolda eslatiladi. «Avesto» berilgan ma’lumotlarni mashhur xorazmshunos olim S.P.Tolstov, Yevropa olimlaridan V.Xenning hamda I.Gershovichlar arxeologik izlanishlar va tarixiy-geografik ma’lumotlarni solishtirib, «Katta Xorazm» davlati haqidagi o‘z qarashlarini bayon etganlar. Masalan, S.P.Tolstov fikricha, «Avesto»da Zaratushtraning vatani Aranem Vayjo mamlakati bo‘ylab oqib o‘tgan Daitya daryosi – hozirgi Amudaryodir. Natijada qadimgi Xorazm Amudaryo xavzasida joylashgan viloyat ekan, Zaratushtra o‘z ta’limotini shu zamindan chiqib boshqa viloyatlarga tarqatgan, degan xulosaga keladi. Biroq I.I.Xlopin «Katta Xorazm»ning yirik siyosiy birlashma sifatida ahamoniylardan oldingi davrda mavjud bo‘lganligi va Oksning Tajan-Xerirud daryosi bilan bir ekanligi haqidagi fikrni asossiz deb hisoblanishni shubha ostiga olgan. Oksni Atrek daryosiga to‘g‘ri keladi deb hisoblagan. Uning fikricha, «Ahamoniylardan oldingi davrda Markaziy Osiyo hududida xalqlarning xorazmiylar boshchiligida hech qanday ilk davlat birlashmalari yo‘q edi». Shu bilan bir qatorda u ahamoniylardan oldingi davrda Markaziy Osiyoning janubida «bir nechta uncha katta bo‘lmagan markazlar», shu jumladan, Baqtriya mavjud bo‘lgan bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi. Ammo «Katta Xorazm» Markaziy Osiyoning bapoyon kengliklarini, ya’ni Oroidan Tajan (Xerirud) daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan hududlarni qamrab olgan, Markaziy Osiyodagi ilk davlatlardan biri, siyosiy birlashma bo‘lganligiga hech qanday shudha bo‘lishi mumkin emas. Masalan, «Avesto»da «Katta Xorazm»ga tegishli viloyatlar

sanab o‘tiladi. Bunga ko‘ra, Markaziy Osiyoning deyarli katta qismi «Katta Xorazm» tarkibiga kirganligini ko‘rishimiz mumkin.

8.3-rasm. Oltintepa xarobasi

Mazkur ma‘lumotni yunon mualliflari tomonidan ham tasdiqlanadi. Gerodot «Katta Xorazm» davlatining ekin maydonlarini sug‘orish uchun Oks daryosiga to‘g‘on qurilganini bayon qilib o‘tgan. Olimlar Oksni Tejen daryosi bilan solishtirib, Hirot va Marv viloyatlari «Katta Xorazm» davlati tarkibida bo‘lgan, degan g‘oyani olg‘a suradilar. Demak, yunon tarixchisi Gerodotning ma‘lumotiga



ko‘ra, miloddan avvalgi XIII-XII asrlarda Oks-Tejan vohasi hozirgi Turkmaniston - qadimgi xorazmliklarga qaragan. Manbalardan birida yuqorida aytib o‘tilgan ma‘lumotlarga o‘xshash fikrlar uchraydi. Markaziy Osiyoda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan viloyatlarida ilk davlat uyushmalari shakllana boshlagan. Aynan shu davlat uyushmalari "Avesto"da «daxiyusasti» deb nomlanadi.

Gerodot «Osiyoda shunday tekislik bo‘lib, u har tomondan tepalik bilan tutashgan, tepalikda esa beshta dara mavjud. Qachonlardir bu yerlar xorasmiylarga tegishli bo‘lgan va ayni xorasmiylarning girkanlarning, parfiyaliklarning, saranglarning va tamanlar yerlarining chegaralarida yotardi. Tekislikning tepalik bilan tutashgan yeridan katta Akes daryosi oqib o‘tardi. Dastlab daryo besh tarmoqqa bo‘lingan va u shu yerda yashovchi "xalq"larning yerlarini ko‘kartirardi» degan.

Gerodotning Osiyo haqidagi bunday ta‘rifini Markaziy Osiyo tarixiy geografiasini o‘rgangan tarixchi olim, geograf V.V Bartold inkor etgan va bu malumotni tahlil qilishdan voz kechgan.

Aksariyat tadqiqotchilar bu ma‘lumotga ijobiy yondashadilar. Gerodot aytib o‘tgan Oks daryosini barcha tadqiqotchilar Tejen bilan tenglashtiradilar. Bu haqida Gerodotdan ham avvalroq yozib qoldirgan yunon muallifi Gekatey (er.avv. taxminan 500y.) xorazmiylarni qisman tekislikda, qisman tog‘liklarda, parfiyaliklardan sharqda yashagan deydi. Bu zamonaviy Xorazm emas, balki Marvning bir rayoni bo‘lganligi aniq.

I.Markvart yuqoridagi aytib o‘tilgan «Avesto»dagi Aranem-Vayjoni «Eron (oriy) yalangligi» degan ma‘noni anglatib, «Katta Xorazm» bilan aynan o‘xshash degan nazariyani olg‘a suradi. Uning aytishicha, «Katta Xorazm» Datya daryosi (Amudaryo) bo‘yida joylagan va u yerda qish 10 oyga cho‘ziladi, ya‘ni qish kattiq keladi degan edi. Biroq «Katta Xorazm» davlatining qachon inqirozga yuz tutganligi haqida biror fikr bildirish qiyin. Ammo shunisi aniqki, «Katta Xorazm»ga tegishli qator Janubiy viloyatlar Midiya davlati davridayok undan ajralib ketgan va keyinchalik Ahamoniylar davlati tomonidan bosib olingan. Miloddan avvalgi IV asrga kelib «Katta Xorazm»ning shimoliy qismida, Amudaryosining quyi xavzasidagi hududlarda Qadimgi Xorazm davlati tashkil topgan.

Mil.avv. VI-IV asrlar Farg‘ona va Chirchiq-Angren vohalarining Ahamoniylar davlati tarkibiga kirganligi haqida ma’lumotlar saqlanmagan. Ushbu hududlardagi bu davrga oid yodgorliklarning madaniy an’analari boshqa hududlarga nisbatan boshqacharoq kechgan. Bu davrga kelib Chirchiq-Angren vohasidagi Burgulik madaniyati inqirozga uchraydi. Bu madaniyat manzilgohlari yarim yerto‘la va xom g‘isht qurilishlar bilan izohlanadi. Ayrim tadqiqotchilar Jo‘nariq bo‘yidagi Shosh-tepani mil.avv. VI-IV asrlarga oid deb hisoblab, Burgulik madaniyatining so‘nggi bosqichiga xos degan fikrni bildiradilar. Agar bu fikr to‘g‘ri bo‘lsa, Shoshtepa ushbu hududlardagi dastlabki qadimgi dehqonchilik manzilgohidir.

Mil.avv. VI-IV asrlarga oid yodgorliklar Farg‘ona vodiysidan nisbatan ko‘proq aniqlagan bo‘lib, ular manzilgohlar va mozor-qo‘rg‘onlardan iborat. Ular orasida nisbatan yaxshi o‘rganilganlari Eylaton ko‘hna shahri, Oqtom, Kungay va Niyozbotir hisoblanadi.

Eylaton ko‘hna shahri xarobalari Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi Iloton qishlog‘i yonida joylashgan. Mahalliy aholi orasida bu ko‘hna shahar Shahri Xayber nomi bilan mashhurdir. Mil.avv. VI-IV asrlarga oid bu ko‘hna shahar nisbatan yaxshiroq o‘rganilgan bo‘lib, Eylaton madaniyati yodgorliklari vodiyni deyarli barcha hududlaridan aniqlangan. Eylaton ko‘hna shahri ikki qismdan iborat. Ichki qism devorlar bilan o‘ralgan, 20 gektardan iborat, lekin istehkomi yo‘q. Tashqi qism, 200 gektardan iborat bo‘lib bu hududda qurilishlar qurilmagan. Bu qism ham uyum-devorlar bilan o‘rab olingan. Qazishmalar natijasida doimiy turar-joylar, xo‘jalik xonalari, sopol idishlar, mehnat va jangovar qurollar, taqinchoqlar topib o‘rganilgan. Ushbu topilmalarga qarab xulosa chiqaradigan bo‘lsak, faqat Farg‘onaning o‘zida Eylatondan topilgan ashyoviy dalillarga davr jihatdan yaqin yodgorliklar Sho‘rabashot, Simtepa va OzgorII lardir. Sho‘rabashotdan olingan arxeologik ashyolarning asosiy xususiyati bu yerda och rangli sopol idishlarning qizil rangli sopol idishlar bilan bir majmuada uchrashi hisoblanadi. Shuningdek, Sho‘rabashotda ko‘za va qadahlar ham uchraydi. Undan tashqari Sho‘rabashot ko‘hna shahri tuzilishi ham Eylaton ko‘hna shahri tuzilishiga o‘xshaydi. Shundan xulosa chiqargan S. Qudratov Sho‘rabashot ko‘hna shahrining bir qismini mil.avv. III-II asrlar bilan belgilash lozim degan taklifni ilgari suradi.

Bu davr vodiydagi dehqonchilik madaniyati mozor-qo‘rg‘onlar topilmalari bilan bevosita bog‘liqlikdir. Shunday qo‘rg‘onlardan biri Oqtom Farg‘onadan 9 km janubda joylashgan. Bu yerdan 31 ta qabr ochib o‘rganilgan. Topilgan topishmalarga qarab Oqtom qabilalarining katta ko‘pchiligi dehqonchilik bilan shug‘ullangan degan fikrlar ham bildirilgan. Oqtom qabilalarining dehqonchilik bilan shug‘ullanishga o‘tishi quyidagi jarayonlarga asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin: Farg‘ona sharoitida doimiy manzilgohlar qurilishi va bu manzilgohlarda sobiq chorvadorlarning xom g‘isht me‘morchiligi; o‘troq dehqonchilik aholisi ustidan sak-chorvador aholisining siyosiy ustunlik qilishi; Farg‘onada dastlabki davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi va ma‘muriy markazlarning shakllanishi hamda bularda ham siyosiy ustunlik. Shuningdek, harbiy harakatlar paytida asir olingan qo‘llarning mavjudligi

ko'p sonli odamlarni, jumladan, tajribali mutaxassislarni yirik qurilish ishlariga jalb etish imkonini bergan.

Ushbu jarayonlarning barchasi Farg'onada Eylatonga o'xshash manzilgohlarning paydo bo'lishi uchun zamin yaratgan bo'lishi mumkin. Keyinroq esa, o'troq dehqonchilik tumanlari chegarasida joylashgan bunday ma'muriy markazlar asta-sekinlik bilan hunarmandchilik va savdo markaziga aylanadi. Ular ichida turli qurilishlar rivojlanib (Marhamat ko'hna shahri misolida) shaharlarga aylanib boradi. G. Ivanovning fikricha, balki, zodagonlar va boshqaruv ma'muriyati xizmatkor ahlining ko'payishi asosida paydo bo'ladi. Xullas, Eylaton-Oqtom topidagi manzilgohlar va mozor-qo'rg'onlardagi topilmalardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, mil.avv. VI-IV asrlar Farg'onada Chochda bo'lgani kabi o'troq dehqonchilik aholisi yashagan. Ammo, bu aholining madaniy an'analari Baqtriya, Sug'd, Marg'iyona va Xorazmnikiga nisbatan boshqaroq edi. Ushbu madaniyatning ildizlari mil.avv. II-I ming yillik boshlari bronza davri mahalliy Farg'ona madaniyatiga borib taqaladi. Mil.avv. VI-IV asrlar Farg'ona yodgorliklari esa qadimgi Farg'ona mahalliy madaniyatining yangi bosqichi hisoblanadi.


## 9-mavzu. Amudaryo va Sirdaryo havzalarida Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqriya: kulturogenез va taraqqiyot omillari

### Reja:

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Amudaryo va Sirdaryo havzalarida Qadimgi Xorazm tarixiga oid ma'lumotlar tahlili
- 3) Qadimgi Baqriya, kulturogenез

**Tayanch so'z va iboralar:** Temir asri, ilk davlat uyushmasi, "Katta Xorazm", qadimgi Baqtriya, Aranem Vayjo, Oks, Vavilon (Bobil), "daxyusasti", Bandixon, Qizilcha, Obishir, Sho'rtepa, Avesto, Baqtriya, Parfiya, Qang', Davan (Parkana) Kushon, Daratepa, Afrosiyob, Ko'zaliqir, Dalvarzin.

Miloddan avvalgi I ming yillikda Markaziy Osiyo hududlarida temirning ishlatilishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada ishlab chiqarishning yuksalishi, mehnat unumdorligining oshishi, ortiqcha mahsulotning ko'payishiga, aholi o'rtasidagi mulkiy tabaqalanishning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Bu esa o'z navbatida Markaziy Osiyo hududlarida qabila va xalqlarning ijtimoiy-siyosiy birlashmasi sifatida qadimgi davlat uyushmalarining shakllanishiga asos bo'ldi. Baqtriya, Marg'iyona va Katta Xorazm Markaziy Osiyodagi ilk davlat uyushmalari sifatida e'tirof etiladi.



Yirik davlat uyushmalarining tashkil topishida ichki ijtimoiy-iqtisodiy omillardan tashqari, tashqi sub'ektiv omillar ham muayyan rol o'ynaganligini ko'ramiz.

Zardushtiylarning diniy kitobi bo'lgan "Avesto"da Markaziy Osiyo va Sharqiy Eron hududlarida Ahamoniylar imperiyasi tashkil topgan vaqtga qadar qandaydir davlat tizimi bo'lganligi haqida dastlabki ma'lumotlar uchraydi. Ular harbiy-demokratiya tipidagi qabilalar ittifoqidan o'sib chiqqan dastlabki davlatlar edi.

Markaziy Osiyo hududida Ahamoniylarga qadar tashkil topgan ikkinchi davlat bu Baqtriya podsholidir. Bu davlat haqidagi dastlabki ma'lumotlar yunonistonlik Ktesiyda uchraydi. Boshqa bir yunon solnomachisi Diodor esa, Ktesiy hikoyalari asoslangan holda Ossuriya podsxosi Ninning Baqtriyaga qilgan harbiy yurishlari haqida xabar beradi. Ktesiyning hikoyalari tarixiy haqiqat bor. Uning ma'lumotlari miloddan avvalgi XIII–VI asrlarga oid bo'lib, ularda Baqtriyaning qudrati, shon-shuhrati, ming minglab shahar va qishloqlari, serunum yerlari va ko'p sonli chorvalari haqida hikoya qilinadi.

Keyingi yillarda qadimgi Baqtriya hududida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari yunon mualliflarining «Qadimgi Baqtriya podsholigi» haqidagi hikoyalari zaminida tarixiy haqiqat borligiga ishora qiladi. Bunga misol qilib Janubiy Baqriyada Oltin-1 va Oltin-10 hamda Baqtra shahri vayronalarini, Shimoliy Baqriyada esa Kuchuktepa, Qiziltepa, Tallashkantepa, Bandixon-2 kabi yodgorliklarni ko'rsatish mumkin. Ularning har birida mahalliy hokimliklarning o'rdasi bo'lgan. Qadimgi Baktriya podsholigi esa ana shu tuman va viloyatlarni birlashtiruvchi harbiy-demokratik tipidagi konfederatsiya edi.

Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda bir butun yirik madaniyat markazi sifatida shakllangan yurtlardan biri Baqtriyadir. Uning hududini O'zbekistonning Surxondaryo viloyati, Janubiy- G'arbiy Tojikiston yerlari, Shimoliy Afg'oniston tashkil etadi. Bu yurt o'z vaqtida Eron ahamoniylar davlatiga tobe sifatida katta jarima to'lardi.



9.2-rasm. Sopollitepa


Shunday davlat uyushmalaridan yana biri Qadimgi Baqtriya saltanati bo'lgan. «Avesto»da Baqtriya «go'zal, tog'lari yuksak ko'tarilgan» deb tasvirlanadi. Baqtriya haqida eng qadimgi ma'lumotlar ahamoniylar bitiklarida, xususan, dunyoga mashhur Naqshi Rostam maqbarisi va Bexustun qoyasida uchraydi.

Persepolda saroyidagi ganchkor rasmlarda baqtriyaliklar o'n beshinchi qatorda idish ko'targan holda va ikki o'rkachli Baqtriya tuyalari bilan tasvirlangan. Baqtriya mustaqil satraplik sifatida Ahamoniylar imperiyasining iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. U haqidagi xilma xil malumotlar qadimgi yunon tarixchilari – Gerodot, Ktesiy, Strabon, Diador, Arrian, Kursiy Ruf, Gekatey, Skilak va boshqalarning asarlarida mavjuddir. Mualliflarning ta'kidlashicha, mazkur mamlakatning qadimiy bo'lib, madaniyati yuksak darajada rivojlangan. Masalan, Ktesiy Ossuriya

podsxosi Ninning Baqtriyaga qilgan yurishi, Baqtriya podsxosi Oksiart va uning xazinasi haqida xabar beradi. Ktesiy tomonidan tasvirlangan xalqlar orasida baqtriyaliklar birinchilardan bo‘lib tilga olingan. Baqtriyaning o‘zini esa u sharqqa joylashtiradi, g‘arb tomonidan Baqtriya «tekisligiga» boradigan yo‘lni «tog‘lar» to‘sib turishi, ulardan faqat «dovonlar» orqali o‘tib borilishi haqida yozib qoldirgan. Baqtriya Tanaisdan Xind daryosigacha cho‘zilgan. Tanais uni Yevropadan ajratib turadi. Bundan tashqari «Baqtriya» nomi Esxilning miloddan avvalgi 472 yilda sahnaga qo‘yilgan «Forslar» tragediyasida, shuningdek Gekatey, Skilak asarlarida ham uchraydi. Tadqiqotlarning chuqur tahlili qadimgi Baqtriya saltanatning hududlari Baqtriya o‘lkasi hududlaridan katta ekanligini ko‘rsatadi. Uning tarkibiga Marg‘iyona va So‘g‘d ham kirgan degan fikrni tasdiqlaydi. Shunisi e‘tiborliki, Baqtriya tabiiy boyliklari mamlakatning tashqarisiga, hatto Old Osiyogacha ma‘lum bo‘lgan. Ayniqsa, Badaxshon la‘li barcha Sharq hukmdorlari orasida yuksak qadrlangan.

Shunday qilib, arxeologik va yozma manbalarning tahlili miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlarida, Ahamoniylarning bosqinchiliklaridan ancha oldin qudratli harbiy-siyosiy uyushmalar, ilk davlatlar bo‘lganligini ko‘rsatadi. Mintaqadagi o‘troq va ko‘chmanchi xalqlarni birlashtirgan mazkur siyosiy uyushmalar ichki taraqqiyot natijasida va shuningdek g‘arbdan eramizdan 9-7 asrlarda mavjud bo‘lgan qudratli Ossuriya va Midiya davlatlarining bosqiniga qarshi ittifoq sifatida tashkil topgan degan xulosaga kelish mumkin. Keyingi yillarda mamlakatimizda va xalqaro jamoatchilikda “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligi Qarshi shahri tashkil topganligining 2700 yilligi, Samarqand shahrining 2700 yilligi keng nishonlanganligi hududimizda sivilizatsiya asoslari bundan uch ming yillar oldin shakllanganligini aniq isbotlaydi.

Bizga ma‘lum tarixiy manbalar hozirgi O‘zbekiston hududlarida eng qadimgi siyosiy uyushmalardan bo‘lgan «Katta Xorazm» haqida ma‘lumot bersada, arxeologik tadqiqotlar natijalari boshqacharoq xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xususan, miloddan avvalgi IX-VII asrlarga oid Baqtriya, Marg‘iyona va Sug‘diyona topilmalari (qishloqlar, qo‘hna shaharlar qoldiqlari, moddiy madaniyat buyumlari va hok.) janubiy hududlarda rivojlanish jarayoni birmuncha ilgariroq ro‘y berganidan dalolat beradi. Eng so‘nggi arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil etar ekanmiz, Kuchuktepa, Qiziltepa (Surxondaryo), Yoztepa (Turkmaniston), O‘zunqir, yerqo‘rg‘on (Qashqadaryo), Afrosiyob, Ko‘ktepa (Samarqand) kabi qo‘hna shahar va manzilgohlar sopol buyumlari bir-biriga nihoyatda o‘xshash ekanligining guvohi bo‘lamiz. Demak, yuqorida eslatilgan hududlar o‘rtasida hech bo‘lmaganda, tarixiy-madaniy birlik



9.3-rasm. Sopollitepa

rivojlanish jarayoni birmuncha ilgariroq ro‘y berganidan dalolat beradi. Eng so‘nggi arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil etar ekanmiz, Kuchuktepa, Qiziltepa (Surxondaryo), Yoztepa (Turkmaniston), O‘zunqir, yerqo‘rg‘on (Qashqadaryo), Afrosiyob, Ko‘ktepa (Samarqand) kabi qo‘hna shahar va manzilgohlar sopol buyumlari bir-biriga nihoyatda o‘xshash ekanligining guvohi bo‘lamiz. Demak, yuqorida eslatilgan hududlar o‘rtasida hech bo‘lmaganda, tarixiy-madaniy birlik

mavjud edi. So‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqodlar natijasida ochilgan manzilgohlar, qo‘hna shaharlar va ulardan topilgan topilmalar hamda ushbu ma'lumotlarni yozma manbalar bilan solishtirish natijasida O‘rta Osiyo ilk davlatchiligi paydo bo‘lishi muammolariga biroz aniqliklar kiritildi. Bu o‘rinda Sug‘diyona davlatchiligi masalalariga bag‘ishlangan Sh.Odilovning so‘nggi ilmiy tadqiqodlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Tadqiqotchi Sug‘diyona, xususan Buxoro va Zarafshon vohalarida topib tekshirilgan ilk temir davriga oid arxeologik ma'lumotlarni boshqa hududlar bilan solishtirib chuqur tahlil etadi. Buxoro hududlaridan topilgan «ahamoniylar davri» yodgorliklari uncha katta bo‘lmagan hududlarda joylashgan bo‘lib, bu yerlarni keng hududlarga yoyilgan etno-madaniy viloyat tarkibiga kiritish lozimki, ilk temir davrida bu hududlarda tashqi ko‘rinishi bir xil bo‘lgan dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Bu etno-madaniy viloyat dastavval Amudaryo vohasi (Xorazm, Marg‘iyona, Baqtriya-Toxariston), Janubiy Sug‘d, Markaziy Sug‘dning bir qismi, Buxoro Sug‘dining shimoli-g‘arbiy va shimoli-sharqiy hududlari, shuningdek, Ustro‘shana kabi tarixiy viloyatlarni o‘z ichiga olgan.

M.X.Isomiddinovning so‘nggi yillardagi xulosalariga ko‘ra, mil. avv. VIII-VII asrlarga oid Samarqand va janubiy Sug‘d arxeologik materiallari Baqtriya materiallari bilan yaqin o‘xshashlik topadi. Bunday o‘xshashlik Buxoro Sug‘dida hozircha aniqlanmagan. Sug‘d hududlarida davlat uyushmasi bu hududlar Ahamoniylar davlati tarkibiga kirgunga qadar faqat Janubiy va Samarqand Sug‘dida mavjud bo‘lgan. Chunki Sug‘d hududlaridagi jamiyat taraqqiyoti darajasi bu hududlardagi yirik ko‘hna shaharlar - yerqo‘rg‘on, Afrosiyob, Ko‘ktepa va O‘zunqir kabilarning tashkil topishi va davlatchilik rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratgan edi.



9.4-rasm. Xorazm qal‘alari

“Xorazm” atamasining kelib chiqishi haqida ko‘plab fikrlar mavjud. Olimlarning katta guruhi “Xorazm” atamasining ikkinchi komponenti –zmi, - zamni hind-yevropa tillariga mansub – zemo – yer, o‘lka, mamlakat ma'nosini beradi degan xulosaga kelganlar. So‘zning birinchi komponentiga kelganda olimlar fikrlaridagi yakdillik yo‘qoladi va u turlicha-“Ozuqaga boy mamlakat”, “Unumdor yer” (ye.Byurnuf, E.Zaxau,

U.Geyger, U.Tomashek), “Go‘zal mamlakat” (F.Yusti), “Unumsiz, yomon yer” (F.Shpigel), “Pastlik yer” (P.Lerx, N.Veselovskiy, X.Klipert), “Quyoshli yoki Sharqiy o‘lka” (S.Tolstov, P.Savelev, F.Sulaymonova), “Sharqiy zamin”, “Kunchiqar mamlakat” (I.Mo‘minov) tarzida talqin etiladi.

Yana bir guruh olimlar “Xorazm” atamasi uch leksima asosida (Uvarizami, u – “yaxshi”+ vara – “qal'a”, “qo‘rg‘on”+zimi-“yer”) paydo bo‘lgan deb hisoblab, mazkur tarixiy atamaning ma'nosini “yaxshi qo‘rali yer”, “Ajoyib qal'ali o‘lka” yoki “Mustahkam qo‘rg‘onli diyor” (Bogolyubov, A.Muhammadjonov) tarjima qiladilar.

So‘ngi tadqiqodlarda “Xorazm” atamasining o‘zagi qadimgi turkiy asoslarga ega bo‘lishi mumkin degan fikrlar ilgari surilib (“Xuar” (“Suvar”) – “suv”(“xu”) – suv, “Ar”-yer, odam, “m”- birinchi shaxs qo‘shimchasi) va u “Suv (daryo) odamlari” yoki “suv egalari” (M.Zakiev, Sh.Kamoliddin, O‘.Nosirov) deb tarjima qilingan.

Olimlarning ta'kidlashicha, Avestoda tilga olingan Aryoshayona yoki Aryanam Vaychax shu manbada eslatilgan Kavi Vishtaspning podsholigi bo‘lib, milloddan avvalgi IX-VIII asrlarda Drang‘iyona, Satagadiya, Ariya, Marg‘yona va Amudaryoning o‘rta oqimidagi viloyatlarni birlashtirgan. G‘arb tadqiqotchilari V.Xenning va I.Gershevichlar Avestodagi Kavi Vishtapsning davlati Marv va Xirof atrofida joylashgan “Katta Xorazm” deb hisoblaydilar. “Katta Xorazm” muammosi Gerodot ma'lumotlaridan boshlangan. U “Tarix” asarining uchinchi kitobida quyidagicha ma'lumot beradi: “Osiyoda bir vodiya bor. Uning barcha tomoni tog‘ bilan o‘ralgan, tog‘ni esa beshta dara kesib turadi. Bir vaqtlar bu vodiya xorasmiylarga tegishli bo‘lib, xorasmiylar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarga chegaradosh yerlarda joylashgan. Vodiyni o‘rab turgan tog‘dan Akes nomli yirik daryo boshlanadi”.

Gerodotdan sal oldinroq yashab o‘tgan Gekatey parfiyaliklarning sharqiy tomonida joylashgan “Xorasmiya”ni, “bir qismi tekisliklarda, bir qismi tog‘larda yashovchi xorazmliklarni” eslatib o‘tadi. Tadqiqotchi V.A.Livshits ham bu “Katta Xorazm”ni Marv va Hirotning to‘rtta rayoniga joylashtiradi. Agar “Katta Xorazm” davlati Marv va Hirot atroflarida joylashgan taxmin rost bo‘lsa, A.S.Sagdullaevning fikricha, bu davlat forslar podshosi Kir II tamonidan bo‘ysundirilganidan so‘ng xorasmiylar Quyi Amudaryoning Xorazm hududlariga ko‘chib borganlar deb faraz qilinadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, miloddan avvalgi VI asr qadimgi forslar xorasmiylarni janubdan quyi Amudaryo yerlariga siqib chiqargan.

S.P.Tolstov va Ya.G‘ulomovlar bu nazariyaga qarshi bo‘lib, xorazmliklar O‘rta Osiyoning janubidan ko‘chib kelmaganlar balki, Xorazm davlati Quyi Amudaryoda qadimgi zamonlardayoq vujudga kelgan deb xulosa qilganlar. Ammo bu davlatning chegaralari hozirgi Xorazm viloyati hududlaridan ancha keng bo‘lgan.

O‘rta Osiyoning tarixiy geografiyasi bilan shug‘ullanuvchi olim I.N.Xlopin “Katta Xorazm”ning yirik siyosiy birlashma sifatida Ahamoniylardan oldingi davrda mavjud bo‘lganligi va Akesning Tajan-Xerirud daryosi bilan bir ekanligi haqidagi fikrlarni asossiz deb hisoblaydi. Olimning ta'kidlashicha, “Ahamoniylardan oldingi davrda O‘rta Osiyo hududida xalqlarning xorasmiylar boshchiligida hech qanday ilk davlat birlashmalari yo‘q edi”. Shu bilan birga u Ahamoniylardan oldingi davrda O‘rta Osiyoning janubida, “bir necha uncha katta bo‘lmagan markazlar” mavjud bo‘lgan bo‘lishi mumkinligini e‘tirof etadi.

Arxeologik manbalarning ma'lumot berishicha, ilk temir davriga kelib Xorazm hududlarida paydo bo‘lgan Amirobod madaniyati davrida janubiy Xorazm aholisi Amudaryo quyi havzasining o‘zanlari bo‘ylab barpo etilgan keng va sayoz kanallar yordamida ziroatchilikka qo‘lay joylarda dehqonchilik qila boshlaydilar hamda o‘troq hayot asta-sekin ularning turmush tarziga aylana boshlaydi. Ammo, Amudaryoning quyi havzalari, uning to‘qayzor va qamishzor keng maydonlari, serunum yaylovlari chorvachilik xo‘jaligining taraqqiy etishi uchun juda qo‘lay edi.



Shuning uchun ham qadimgi Xorazmda Quyi Sirdaryo sak-chorvadorlarning Quysisoy madaniyati keng rivojlangan.

Yunon geografi Strabon xorazmiylarning ajdodlari massagetlarga borib taqalishi haqida ma'lumotlar beradi. S.P.Tolstovning fikricha, Xorazm tarixining massagetlarga bo'lgan davrida bu zaminda Suvyorgan va Tozabog'yob madaniyatlari aralashuvidan tarkib topgan Qovunchi (Qaundi) qabilalari yashar edilar. Ular milloddan avvalgi II ming yillikning so'nggi choragida qadimgi Xorazmning massaget nomi ostida yuritilgan ko'chmanchi qabilalarining asosini tashkil etgan.

Arxeologik ma'lumotlar, yozma manbalar va ularni etnogeografik tahlillaridan xulosa chiqargan A.A.Asqarov, xorazmiylarning dastlabki vatani Baqtriyadan junubda, hozirgi Hirot vodiysida bo'lganligini e'tirof etadi. Olimning ta'kidlashicha, Ahamoniy podsholari tazyiq o'tkazish orqali sharqiy Eron qabilalaridan yiliga katta boj olish maqsadida Hilmend tog' daralaridan oqib chiqadigan soylarga to'g'onlar qurdirib, suv yo'llarini qadimgi Hilmend, hozirgi Hirot vodiysiga-xorazimiylar yurtiga burib yuborganlar. Natijada, vodiya ko'l hosil bo'lib, xorazmiylar noilojlikdan vatanlarini tark etib, Amudaryoning quyi havzalariga ko'chishga majbur bo'lganlar. A.Asqarovning xulosalariga ko'ra, Amudaryoning quyi havzalarida uzoq asrlar davomida Amu suvlari oqizib kelgan loyqa yotqiziqlari tufayli hosil bo'lgan dehqonchilikka qo'lay, tekis va unumdor yerlar hamda havza irmoqlari suvlaridan dehqonchilikda foydalanishning qo'layligi, ziroatchilikda boy tajribaga ega bo'lgan xorazmiy qabilalarining yangi joyga moslashishini tezlashtirgan.

Qadimgi Xorazm xo'jalik tartibining tuzilishi janubiy hududlardagi sug'orish tizimini eslatsa-da, o'lchamlari jihatdan ancha kichik. M.A.Itinaning fikricha, bu davrda urug'doshlarning qishloqlari bo'lishi mumkin bo'lgan manzilgohlarning maydonlari kengayganligi ko'zatiladi. Bu manzilgohlarda katta oilalar yashagan bo'lib, ular bir vaqtning o'zida xo'jalik vazifalari, jumladan, sug'orish tarmoqlarini saqlash va rivojlantirish bilan shug'ullanganlar. So'nggi bronza davrida ham qadimgi Xorazm xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri chorvachilik xo'jaligi edi. Bu davrga oid makonlardan juda ko'plab turli hayvonlarning suyak qoldiqlari topib o'rganilgan. Chorvachilik xo'jaligida ot asosiy o'rinda bo'lib ulardan yuk tashish va safarga chiqishda foydalanilgan. Ayrim manzilgohlardan ot anjomlarining topilishi shu jarayondan dalolat beradi. Bu o'rinda ta'kidlash joizki, olimlar orasida massaget qabilalari totemlarida ot kulti markaziy o'rinda turishi haqidagi fikrlar ham bor.

O'troq dehqonchilik qabilalarining chorvachiligi uy chorvachiligi xususiyatiga ega edi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil. avv. I ming yillikning boshlariga kelib Orol bo'yidagi xo'jaligi asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan qabilalar o'rtasida farqlar shakllana boshlaydi. Mil. avv. VII-VI asrlarga kelib esa, ular madaniyati o'rtasidagi farqlanish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Fikrimizcha, aynan mana shu davrdan boshlab, Sharqiy Orol bo'yida yarim ko'chmanchi chorvador xo'jalik madaniy shakli ustunlik qilgan bo'lsa, Amudaryoning janubiy o'zanlarida esa yuqori darajadagi sun'iy sug'orishga asoslangan o'troq dehqonchilik xo'jaliklarining ahamiyati ortib boradi. Mil. avv. I ming yillikning ikkinchi choragiga kelib Orol bo'yida hunarmandchilik ajralib chiqishining

dastlabki belgilari ko‘zatiladi. Ortiqcha mahsulotning ko‘payishi esa mulkiy va ijtimoiy tabaqalanish uchun imkoniyatlar yaratadi. Mil. avv. I ming yillikning o‘rtalariga kelib qadimgi Xorazm hududlarida sug‘orma dehqonchilikning taraqqiy etishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida ibtidoiy jamoa munosabatlari o‘rniga davlatchilik tizimi shakllana boshlaydi. Ushbu tizimning shakllanishida qadimgi shaharlarning ahamiyati nihoyatda katta bo‘ldi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, qadimgi Xorazm shaharlarining rejaviy uslublari – ichki va tashqi tuzilishi, himoya inshootlari, tabiiy joylashuvi nuqtai nazaridan ko‘p hollarda bir-biri bilan o‘xshashlik topadi. Tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan Xorazmning eng qadimgi shahar-qal’alaridan biri bo‘lgan Ko‘zaliqirning quyi madaniy qatlamlarini S.P.Tolstov mil.avv VII-VI asrlar bilan, V. Masson esa mil. avv. V-IV asrlar boshlari bilan belgilagan edi.

### **10-mavzu. Markaziy Osiyo tarixida Sharqiy Turkiston, Oltoy va Yettisuv o‘lkasining o‘rni**

#### **Reja:**

- 1) Mavzuning o‘rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyo tarixida Sharqiy Turkiston
- 3) Qadimda Oltoy va Yettisuv tarixiga oid ma’lumotlar tahlili

**Tayanch so‘z va iboralar:** Bronza davri, Oltoy Kureyka 3, ko‘za siniqlari, nayza uchlari, tog‘li - Oltoy , Baliktiyul, Andronova madaniyati, Yettisuv, Karasuk madaniyati, Mo‘g‘iliston, Sharqiy Turkiston.


Oldingi mavzuda ta’kidlab o‘tganimizdek, Markaziy Osiyoda bronza davri miloddan avvalgi 3 ming yillikdan to I mingyillikkacha davom etgan. Umuman olganda, Markaziy Osiyo hududida bronza miloddan avvalgi 3 ming yillik oxiri va 2 ming yillik boshlaridan ishlatila boshlangan. Markaziy Osiyoning tarkibiy qismi bo‘lgan Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo‘g‘iliston hududlarida bronza davrida taraqqiyot qay darajada bo‘lganligini ko‘rib chiqish mavzumizning asosiy vazifasidir.



10.1-rasm. Oltoy, g‘or

Bronza davrida Oltoy hududi bronza davrini o‘rganishda olimlar asosan ikki qismga bo‘lishni taklif qilishgan: Birinchisi, Tog‘li-Oltoy hududi bo‘lib, unga asosan Ob daryosining janubi-sharqiy irmoqlari atrofidagi hududlar kiradi. Ikkinchisi, Oltoy vodiysi bo‘lib, bunga Oltoy vodiysi, Shimoli-sharqiy Qozog‘iston kiradi. Tog‘li Oltoy hududida “Afanasev madaniyati” keng tarqalgan. Afanasev

madaniyatning o'ziga xos jihati bu hududlarda bronzaga qaraganda tosh buyumlari keng tarqalgan. Oltoy vodiysida esa ko'proq "Andronova madaniyati" ta'siri sezilib turadi. Bu yerlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha bronzadan yasalgan buyumlar ko'plab topilgan. Shu bilan birgalikda ko'pdan ko'p qabrlar ham uchraydi. Sharqiy Turkistonda bronza davrini o'rganish bo'yicha olimlar keng ko'lamli izlanishlar olib borganlar. Natijada mintaqaning madaniyat va xo'jalik shakllarini chuqur o'rganishdi. 1947 yili mazkur hududda arxeologik tadqiqotlar olib borgan olim A.N.Berneshtam shunday yozgan edi: "Bu hududdagi qadimgi madaniyat o'zining keramik buyumlarga boyligi bilan alohida xarakterga ega. Sharqiy Turkiston chegaralari shimolda Oltoy hududi va Irtish daryosi, janub va sharqda Xitoy hududi, G'arbda Ili daryosining sharqiy irmoqlarigacha cho'zilgan. Sharqiy Turkistonda bronza




10.2-rasm. Oltoy, g'or og'zi

davrda "Andronova madaniyati" keng tarqalgan. Miloddan avvalgi II ming yillik oxiri va I ming yillikning boshlariga oid manzilgohlardan topilgan keramik buyumlar Qozog'iston va Farg'ona vodiysigacha bo'lgan hududlarda Andronova madaniyati rivojlanganligini ko'rsatadi". Bundan tashqari Markaziy Osiyoning sharqiy qismlari, shimoliy Pomir, Markaziy Tyan-Shan hududlarida ham mazkur madaniyat izlarining mavjud bo'lganligini ko'ramiz. Mo'g'ilistonda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu hududda "Karasuk madaniyati" tipi mavjud bo'lganligi aniqlandi. Karasuk madaniyati Markaziy Osiyoda sak qabilalaridan oldingi davrda milloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida shakllangan madaniyat shakli hisoblangan. Bu madaniyag Markaziy Osiyoning Sharqiy Turkiston, Tuva, Baykalgacha bo'lgan yerlarda va yuqori, quyi Mo'g'iliston hududlarida keng tarqalgan. Janubiy Sibir, Qozog'iston va Markaziy Osiyoda ilmiy izlanishlar olib borgan olim M.P.Gryaznov fikricha, Karasuk madaniyati Andronova madaniyatidan oldin Janubiy Sibir hududlaridan kirib kelgan. S.V.Kiselyov birinchi bo'lib Mo'g'iliston muzeyidagi bronza qurollarini turlarga bo'lgan va Shimoliy Xitoy hududidan topilgan bronza buyumlarini o'rgangan. Sibir hududida vujudga kelgan Karasuk madaniyatini Mo'g'ilistonning janubiy-sharqiy hududi bilan aloqadorligini aniqlagan.

Sharqiy Turkiston hududidan bronza davriga oid juda ko'p manzilgohlar topilgan bo'lib, ular asosan, uch guruhga bo'linadi:

1. Mikrolit qurollar topilgan manzilgohlar: Nishan, Urumchi, Aksu, Turfan., Muney va boshqalar.
2. Keramik buyumlar topilgan manzilgohlar: Kucha Ikin, Titay, Barkul, Hami va boshqalar.
3. Bronza davriga oid qurollar topilgan manzilgohlar: Shufu, Tarip daryosining o'rta oqimdagı yerlar.

Yettisuv hududida asosan Andronova madaniyati keng tarqalgan. Yettisuv hududi sharqda Sharqiy Turkiston, janubda Chu daryosi etaklar, g'arbda Qozog'iston cho'llari, shimolda Irtish daryosi bilan chegaralanadi. Bu hududdan asosan qabrlar topilgan. Qabrlarni o'rganish chog'ida olimlar Andronova madaniyatiga xos bo'lgan elementlarga guvoh bo'lishgan. Tadqiqotlar katta mintaqada yashagan turli xalqlar o'rtasida o'zaro mustahkam aloqalar bo'lganligini isbotlaydi. Yettisuvdan topilgan ko'za siniqlari o'zining yasalish usullari bilan farq qiladi. Bu hududdan topilgan ko'zalar ikki quloqli ko'rinishga ega. Mehnat qurollari esa Oltoy hududlaridan topilgan mehnat qurollaridan keskin farq qiladi. Bu hududdan topilgan ketmonchalarning uchlari keng ko'rinishga ega bo'lgan xolda, Oltoy hududidan topilgan ketmonchalarning uchlari uchqur ko'rinishga ega. Chu daryosi bo'yida 20 ga yaqin qabrlar topilgan bo'lib, murdalar kuydirilgan xolda dafn qilinganini kuzatishimiz mumkin. Mozor atrofida turli taqinchoq va hayvon suyaklari topilgan.



10.3-rasm. Oltoy g'orlari

Bronza davrida migratsiya to'liqini Markaziy Osiyoning tog'li hududlari, Yenisey daryosining shimoliy-g'arbiy qismi va Mo'g'ilistonning g'arbiy hududlarida yashagan aholilarning o'zaro etnik aloqadorligini ko'satadi.

Mo'g'iliston hududida bronza davriga oid manzilgohlarga kam uchraydi. 1971 yil Uburxangay viloyatining janubida Tevsh-ull tog'ida toshga o'yib ishlangan ko'plab rasmlarni topishga muvaffaq bo'lishdi. Bundan tashqari miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi va I ming yillikning oxiriga oid qabrlar ham topilgan

bo'lib, ular Karasuk madaniyati davriga to'g'ri keladi. Qabrlarni o'rganish vaqtida 500 ga yaqin marjonlar, 200 ta yarim oy shaklidagi bronza buyumlari topilgan.

Arxeolog Ye.V.Kiselyov Mo'g'ilistondan Karasuk madaniyatiga xos bo'lgan topilgan pichoqlarni klassifikatsiya qilib chiqqan va ularni ikki guruhga bo'lgan:

Birinchi guruhga kiruvchi pichoqlarning uchlari qo'ziqorin ko'rinishida bo'lib, asosan Mo'g'ilistonning janubi va Shimoliy Xitoydan topilgan. Ikkinchi guruhga kiruvchi pichoqlar o'zining kattaligi bilan ajralib turadi. Ularning uzunligi 15-16 va 20-25 santimetrgacha yetadi. Bundan tashqari xanjarlar ham topilgan bo'lib, ular asosan Shimoliy Xitoy va G'arbiy Mo'g'ilistondan topilgan.

Oltoy hududidagi ham bronza davriga oid ko'plab manzilgohlar topilgan. 1985 yil bahorida Oltoy hududida Kureyka ko'prigi qurulishi paytida bronza davriga oid manzilgoh topilgan. Bu manzilgoh Kureyka-3 deb nomlangan. U yerdan so'nggi bronza davriga oid ko'za siniqlari, bronzadan yasalgan nayza uchlari va ilk bronza davriga oid katta bo'lmagan tosh qurollari qoldirlari topilgan. Ko'za siniqlari asosan 3 ga bo'lingan: Birinchi tipga oid ko'za siniqlari o'zining kattaligi va bezaklarining qo'polligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi tipga oid ko'za siniqlari birinchi tipga qaraganda kichikroq va bezaklari nafisroq ko'rinishga ega. Uchinchi tipga oid ko'za siniqlari ancha mukammalroq bezaklari ham nafis ishlangan. Shuningdek, topilgan nayza uchlari e'tibor beradigan bo'lsak, uzunligi - 25.2 sm, eni - 5,5 sm ni tashkil yetgan. Nayza uchlari yaxshi saqlangan. Bundan tashqari Tog'li Oltoy hududidan 1980 yili bronza davriga oid qabr topilgan. Qabr Baljtiob daryosining chap qirg'og'ida topilgan bo'lib, 80 metr kvadrat maydonni egallaydi. Qabr yonidan ko'za siniqlari va hayvon suyaklari topilgan. Bu yerdan topilgan ko'za siniqlari qizil yoki qizg'ish rangga bo'yalganini ko'ramiz.

Manzilgohlarni o'rganish maqsadida bir qancha ekspeditsiyalar uyushtirildi. F.Bergaman boshchiligidagi ekspeditsiya Hami tumanidan 85 km janubiy sharqda 100 metrlik maydondan keramik buyumlarni topdi. Keramik buyumlarning qalinligi 3-13 millimetrni tashkil etgan bo'lib, qizil va qizil-sarg'ish ranglarga ega. Bezaklariga to'xtaladigan bo'lsak, ingichka va qizil chiziqlar chizilgan. Keyin esa shved olimlari tomonidan ikkinchi ekspeditsiya uyushtirildi. Shved olimlari Turfandan 33 km. sharqda Sengim Aguzey manzilgohini o'rganishdi. Bu yerdan ham asosan keramik buyumlar topilgan bo'lib, ular ham qizil rangga ega edi. Bundan tashqari oddiy keramik buyumlar ham mavjud bo'lib, bular faqat qora chiziqlardan iborat edi. Bu keramik buyumlar miloddan avvalgi birinchi ming yilning birinchi yarmiga oid ekanligi aniqlandi.

Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo'g'iliston hududida bronza davrida aholi qanday turmush kechirgan, nima bilan mashg'ul bo'lganligi barchada qiziqish uyg'otsa ajab emas. Mo'g'iliston hududida aholi mashg'uloti faqat ovchilik bo'lmasdan, chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Manzilgohlardan topilgan yovvoyi va xonaki hayvonlarning suyaklari fikrimizga yaqqol dalili bo'la oladi. Aholi asosan go'sht, sut va baliq mahsulotlarini iste'mol qilishgan. Qiziqarli jihati shundaki, mazkur hududda yashagan qabilalar oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat saqlash sirlarini yaxshi bilishgan. Aholining diniy e'tiqodi asosan tatimistik qarashlarga

asoslangan. Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududida asosan aholi chorvachilik bilan shugʻullangan. Shuningdek, hunarmandchilik asosiy xoʻjalik turi sifatida keng tarqalgan. Qablardan topilgan koʻplab koʻza siniqlari fikrimizni tasdiqlaydi. Oltoy hududidan topilgan mehnat va ov qurolari yaxshi saqlanib qolgan. Togʻli Oltoydan topilgan ketmonchaga oʻxshash mehnat qurollari aholining dehqonchilik bilan mashgʻul boʻlganligini koʻrsatadi. Bundan tashqari qabilalar chorvachilik, hunarmandchilik, ovchilik bilan ham shugʻullangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Moʻgʻiliston hududlarida bronza davri oʻziga xos rivojlanish bosqichi boʻlgan.



Киргизы, VIII-IX в.в.  
1: Воин, VIII в.  
2: Воин-скиты, IX в.  
3: Киргиз-кочевники, IX в.

## 11-mavzu. Markaziy Osiyoning shimoliy mintaqalarida nomadik tarixiy-madaniy, efemer davlatchilik jarayonlari (Qirgʻiz hoqonligi va qozoqlarning usun davlatchiligi masalasi)

### Reja:


- 1) Mavzuning oʻrganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyoning shimoliy mintaqalarida efemer davlatchilik jarayonlari
- 3) Qirgʻiz hoqonligi va qozoqlarning usun davlatchiligi masalasi

**Tayanch soʻz va iboralar:** nomadik, efemer davlatchilik jarayonlari, ilk shahar koʻrinishidagi manzilgohlar, shaharlar, davlat, mudofaa devorlari, ijtimoiy tabaqalanish, ortiqcha mahsulot, mehnat taqsimoti, hunarmandchilik, kulolchilik, chorvachilik, ishlab chiqaruvchi xoʻjalik, harbiy zodagonlar, usun davlatchiligi.



11.1-rasm. Qadimgi saklar

unda Xitoy yerlarini qariyb 10000 liga kengaytirish mumkinligani yozgan. Xitoyga



11.2-rasm. Qadimgi elatlar

kelgandan so'ng Chjan Szyan, shuningdek uning hamrohi yuqori mansab, so'ngra, xunlar bilan bo'lgan urushdagi muvaffaqiyatlari uchun Bovan-xeu knyazlik unvonini hamda Syaoyuy va Vey-yuy harbiy mansablarini (ma'lum ko'shin qismi boshlig'i) olgan. Biroq, bu barcha mansablar va unvonlardan Chjan Szyan eramizdan avvalgi 122 yilda mahrum bo'lgan, unga ishonib topshirilgan ko'shin

xitoyliklar bilan xunlar o'rtasida jang bo'ladigan joyga kechikib kelgan, buning natijasida xitoyliklarning katta qismi kurshab olingan va kirib tashlangan, Chjan Szyanning o'zi esa, boshini tanasidan judo qilishga hukm kilingan, lekin afv etilgan. Chjan Szyanning kahr-g'azabga mahkumligi bir necha yil davom etgan, bu vakt ichida xitoyliklar bir necha janglarda xunlarni yanchib tashlaganlar va Sho'r ko'l-Lobnorgacha yetib kelganlar, ularning oldida Markaziy Osiyo tomon to'g'ri yo'l ochilgan. Shu munosabat bilan Xan imperatori Markaziy Osiyo yerlari, Daxya va Usun hamda ularning Xitoyga ko'shib olinishi bilan yana kiziqqa boshlagan. Chjan Szyan imperator bilan suhbatga chakirilgan, u usunliklarning axvolini batafsil ifoda etuvchi ma'lumotlarni imperator uchun tuzib bergan. U jumladan, Usun hukmdori Gunmo xunlar ta'kibidan qutula olganligi, agar siyosat to'g'ri olib borilsa Usunni, so'ngra esa Daxya va boshqa Markaziy Osiyo o'lkalarini Xitoyga ko'shib olish mumkinligini yozgan. yetkazilgan bu ma'lumotlar Chjan Szyanning xun pristavi etib tayinlanishida hal qiluvchi rol o'ynagan, unga har birida ikkitadan ot bo'lgan 300 ta jangchi va 10.000 boshgacha qaramol hamda qo'ylar yordam tarikasida berilgan, u katta miqdordagi sovg'alar bilan ta'minlangan.

Chjan Szyan bilan birga Usunga turli O'rta Osiyo o'lkalariga vakil kilib tayinlangan tug'lari bo'lgan ko'p sonli yordamchilar jo'nagan. Biroq, Usunlarning oliy xukmdori Gunmo bilan bo'lgan muzokaralar Xitoy uchun kutilgan natijalarni bermagan, chunki Usun o'lkasi uch kismga ajralgan va ularning hukmdorlari mustaqil siyosat yurgizayotgan bo'lganlar. Shunday bo'lsa-da, Chjan Szyan usunliklar huzurida bo'lgan paytida Xitoy vakillarini Dovon (Farg'ona), Kanpoy (So'g'd, Xorazm), Daxya (Baktriya), Katta Yuechji (Shimoliy Baktriya), Ansi (Buxoro yoki Baktriya)ga jo'natishni tashkil etishga muvaffaq bo'lgan. Shundan so'ng u rahbariga Gunmo xitoyliklar hayoti hakida imkon kadar ko'prok. ma'lumot yig'ishni topshirgan unchalik katta bo'lmagan Usun elchilari guruhi hamrohligida Xitoyga qaytgan. Xitoyga kaytgandan so'ng oradan bir yil o'tgach, eramizdan avvalgi 104 yoki 103 yilda o'sha paytda muhim davlat mansabini egallab turgan Chjan Szyan vafot etgan. Yana oradan bir yil o'tgach, Chjan Szyan tomonidan turli xil topshiriklar bilan yukrrida ko'rsatilgan o'lkalarga jo'natilgan vakillar Xitoyga

qaytishgan, ular bilan birga Xitoyga o'sha o'lkalarning elchilari ham kelishgan. Bu O'rta Osiyodaga birinchi diplomatik elchilar edi. Aynan shu vaktdan O'rta Osiyo davlatlari va Xitoyning ko'p asrlar davom etgan turli xil intensiv aloqalari davri boshlanagan, va bu Chjan Szyan missiyasining yana bir muhim yakunidir.



11.3-rasm. Qadimgi qirg'izlar o'tovlari

## 12-mavzu. Markaziy Osiyoning qadimgi yozuv madaniyati (sak, boxtar, so'g'd)

### Reja:

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyoning qadimgi yozuvlari tarixiga oid ma'lumotlar tahlili
- 3) Qadimgi yozuvlar: sak, boxtar, so'g'd, issiq

**Tayanch so'z va iboralar:** qadimgi yozuvlar, sak yozuvi, boxtar yozuvi, so'g'd yozuvi, issiq yozuvi.

Yozuv insoniyat yaratgan buyuk kashfiyotlar qatorida alohida o'rin tutadi. Yozuv bo'lmaganda kishilik tarixi cheksiz chegarasiz zamon oqimlarida lahzalik, oniy va albatta unutilishga mahkum hodisa bo'lib qolar edi. Ayni yozuv insoniyat to'plagan bilim va tajribalarni, hayot ibratlarini masofa hamda zamonlar osha uzatish vositasi sifatida beqiyos ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Yozuv madaniyatining ilk bosqichlari inson fikrini tasvir orqali, suratlar shaklida ifoda etishdek sodda va ibtidoiy holatda bo'lgan. Bu xususiyat yozuv tarixida ming yillar davomida kuzatiladi. Jumladan, Misrning qadimgi ieroglif yozuvi, qadimgi Hindistonda topilgan ilk davr yozuv yodgorliklari, Mezoamerika "hindu" qabilalari kashf etgan yozuvlar, ba'zi Afrika qabilalarida uchraydigan surat



– voqeanomalar kabilarda mavjud. Shu qatorda qadimgi ikki daryo oralig‘i-Mesopotamiya “ponasimon” yozuvi, Xitoy ieroglif tizimi kabi yozuvlar asosida ham aslida suratlar bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan ilk suratlar turli silizatsiyalarga uchrab, daslabki tasviriy ko‘rinishdan uzoqlasha brogan. Nihoyat ular uzoq o‘tmishdagi tasviriy asosga ishorat qiluvchi shartli chiziqlar (ponasimon shakllar)ning turli kombinatsiyasiga aylanganlar. Bu turdagi yozuvlar tipologik jihatdan “mixxat” ham deyiladi. Shunday qilib, Mesopotamiya Shumer-Akkad “mixxat” madaniyati qo‘shni mintaqalarga ta’sir omiliga ham aylangan.



12.1-rasm. Qadimgi saklar

Shumerda kotiblik kasbini otalar bobolariga orzu qilganlar va hokazo. Qolaversa, mixxatlar davriga kelib, hayot ko‘rsatdiki, bu tipdagi yozuv jamiyatning jadallashib boruvchi ehtiyojlarini qanoatlantira olmas edi: belgilar soni ko‘p, ularning kombinatsiyasi murakkab. Uning ustiga yozuv materiali – loy. Xat o‘yib tushiriladi va xumdonda pishiriladi va hokazo.

Ahamoniylar davrida saltanat chegaralari Misrdan shimoliy Hindistongacha, Fors ko‘rfazidan Sirdaryogacha ulkan hududlarni birlashtirgan edi. 26 hududiy birlik – satrapliklarning barchasida ahamoniylar oramiy kotiblari xizmatidan foydalanishgan. Eron mixxati asosan monumental (xotirot) birliklarda ishlatilgan. Chunki mixxatning belgilar soni ko‘p, har bir belgi kombinatsiyasi so‘zlarni bo‘g‘inlab ko‘rsatar, shu tufayli bu yozuvdan tezkor mahkama ishlarida foydalanishning iloji yo‘q edi. Shunday qilib, oramiy alifboli yozuvi qadimiy Parfiya, Xorazm, Sug‘d, Boxtar yerlarida tarqaldi. Tez orada oramiy alifbosi mahalliy tillarga moslanib, harflarning ichki ma’nosi (funksiyasi)da siljishlar bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar oramiy alifbosi asosida mahalliy alifbolar paydo bo‘lishi edi. O‘rta Fors – pahlaviy, parfiyoniy, xorazmiy, sug‘diy, boxtariy, kharoshthi, brahmi yozuvi kabilar Markaziy Osiyo yozuv madaniyatining qadimiy avj davrini shular orasida tashkil etdi.

Qadimiy parfiyoniy alifbe. Bu mavzu asosida parfiyoniy alifbe tarkibi harflar qatori, ularning soni, tartibi o‘rganiladi. Yozuvning geterografik belgilari (so‘z-

Midiya va qadimgi Eron mixxat tizimlari shunday genetik asosga ega. Yozuv madaniyati tarixida ierogliflar hamda mixxat tiplari-ning itsiqboli bo‘lmadi. Chunki ularning chizma shakllarini o‘zlashtirish maxsus kasbiy tayyorgarlikni talab etar edi. Shuning uchun ham Misr ierogliflarining kotiblari jamiyatida alohida nufuzga ega bo‘lganlar.



12.2-rasm. Qadimgi saklar libosi

signal elementlari) haqida tushuncha beriladi. Parfioniy yozuv yodgorliklari haqida to'liq ma'lumot beriladi. Ayrim namunalari ustida amaliy mashg'ulot tashkil etiladi. Eski Nisa-parfioniy hujjatlari arxivi materiallari asosida Mustaqil va auditoriya amaliyoti mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Qadimiy xorazmiy yozuv. Paydo bo'lish shart-sharoitlar. Alifbesi. Grafik xususiyatlari. Alifbe tarikibi va tarkibining funksional xususiyatlari. Ularning manbaviy ahamiyati. Tuproqqala arxivi, Tuqqala ossuariylaridagi yozuvlar, Mizdahkan ossuariylari epigrafikasi materiallari asosida amaliy Mustaqil va auditoriya mashg'ulotlari.

Sug'd yozuvi. "Milliy sug'd", Surioniy sug'd, moniycha sug'd yozuvlari. Har uch alifbe tizimlarining grafik asoslari, genezisi, tarkibi va tartibi. Sug'd yozuvlarining yodgorliklari. Ularning tarixiy, adabiy manbaviy ahamiyati. sug'd yozma yodgorliklari bo'yicha Mustaqil va auditoriya mashqlari (Mug' tog'i arxivi, buddaviy asarlar, moniycha matnlar, suryoniy xritsian diniy matnlari).

Bohtariy (oromiy-boxtariysi) va yunon-baxtariy yozuvi. Oramiy-boxtariy alifbesi, taqdiri, yunon-boxtar yozuvi, alifbesi, funksional xususiyatlari. Yodgorliklari. Tarixiy manbaviy tahlili va talqini. Surx-ko'tal, Ayritom bitiklari, Ravatak arxivi materiallari utsida amaliy mashg'ulotlar.

Qadimgi turkiy yozuv va yozuv madaniyati. qadimgi turkiy yozuvning paydo bo'lishi. Issiq yozuvining identifikatsiyasi masalasi. "O'rxun-Yenasoy" turkiy yozuv alifbesining shakllanishi. Tarkibi va tartibi. Funksional xususiyatlari. Yodgorliklari. Tarixiy manbashunoslik uchun ahamiyati. muhim namunalari utsida amaliy mashg'ulotlar va Mustaqil ish.

Yeski uyg'ur turkiy yozuvi. Kelib chiqishi. Alifbesi. Harf tizimining funksional tahlili. Grafik xususiyatlari. Imlosi. Muhim yodgorliklari, ularning tarixiy va adabiy manbaviy ahamiyati. Uyg'ur-turkiy matnlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar.

Buyuk ipak yo'li bo'ylab yozuv madaniyati alifbeli harf-tovush tizimlarining tarqalishi. Mug'ul, manjur va koreys alifbe tizimlarining genetik asoslari birligi. Xalqaro munosabatlarda sug'd yozuvining vositachilik roli va ajdod yozuv sifatidagi tarixiy o'rni.



12.3-rasm. Qadimgi taqinchoq, Turkmaiston

### 13-mavzu. Markaziy Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi kurashi (Ahamoniylar bosqinchiligi davrida Markaziy Osiyo)

#### Reja:

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Ahamoniylar bosqinchiligi davrida Markaziy Osiyo
- 3) Bosqinchilarga qarshi qo'zg'olonlar (Frada, Skunxa) tarixiga oid ma'lumotlar tahlili

**Tayanch so'z va iboralar:** Ahamon, Kir, Kambiz, Kir II, Parsumash, Anshan, Suza, Midiya, Lidiya, Marg'iyona, Xorazm, So'g'diyona, Ariya, Bobil, Garpog, Ashshurbanipal.

Mil.avv. VI asrning o'rtalariga kelib shafqatsiz kurashlar natijasida Midiya podsholigi o'rnida Ahamoniylar davlati tashkil topadi. Ko'pchilik ilmiy – tarixiy adabiyotlarda Kir II Ahamoniylar davlatining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Ahamoniylarning Kir II, Kambiz, Doro I, Kserks kabi hukmdorlari qadimgi Sharqdagi



13.1-rasm.Ahamoniylar dariki


juda ko'plab mamlakatlar ustidan o'z hokimiyatini o'rnatishni rejalashtirilganlar va shunday siyosat olib borganlar. Qadimgi dunyo mualliflari Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Yustin kabilarning ma'lumotlaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Kir II mil.avv. 545-539 yillarda Sharqiy Eron va O'rta Osiyo viloyatlarini bosib oladi. Doro I davrida (mil.avv. 522-486 yy. ) Ahamoniylar sulolasi Hind vodiysidan O'rta Yer dengiziga qadar bo'lgan keng hududga o'z hukmronligini o'rnatgan. Juda ko'psonli davlatlar, viloyatlar, shaharlar va xalqlarni birlashtirgan Ahamoniylar saltanati tarixda birinchi yirik dunyo davlati hisoblanadi.



13.2-rasm.Ahamoniylar bayrog'i

Ahamoniylar hukmdorlarining O'rta Osiy viloyatlarini bosib olishi ilmiy-tarixiy adabiyotlarda keng yoritilgan va alohida mavzu hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu bo'limda davlatchilik tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lgan Ahamoniylar davlatining tuzilishi, boshqaruv tartibi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, bu davr shaharlari masalalariga batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Markaziy boshqaruv organlari. Ahamoniylar davlatining oliy hokimiyati tepasida shohlar shohi-shahanshoh turgan. Hokimiyat ierarxiyasida fors zodagonlarining oila boshliqlari, asosiy o'rin egallaganlar. Shahanshoh saroyida Kengash mavjud bo'lib, bu

kengashga fors zodagonlarining oila boshliqlari, yuqori martabali amaldorlar, noiblar, saroy amaldorlari kirganlar. Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan barcha masalalar ushbu kengashda ko'rib chiqilsada, hal qiluvchi qarorni shahanshoh qabul qilgan.



13.3-rasm.Behustun qoyatoshlari

Shohlar shohidan keyingi o'rindagi ikkinchi shaxs xazarpat (mingboshi) deb atalgan. U podsho gvardiyasi va davlat boshqaruvida shahanshohning asosiy yordamchisi hisoblangan. Ahamoniylar davlatining bosh ma'muriy markazi So'za shahri edi. Bu yerda shoh devonxonasi mavjud bo'lib, unda barcha davlat hujjatlari-shahanshoh farmonlari, nomalar, farmoyishlar, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga doir hujjatlar saqlangan. Shoh devonxonasi boshlig'i dapirpant (mirzo boshi) deb atalgan. Uning qo'l ostidagi devonxonada bosh xazinachilar, hisobchilar, huquqshunoslar, mirzalar kabilar xizmat qilganlar.


Hududiy bo'linish. mil.avv VI asrlarning o'rtalarida tashkil topgan ulkan ahamoniylar davlati tarkibiga hozirgi Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, Shimoliy Hindiston, Yaqin Sharq, Kichik Osiyo, Misr kabi hududlar kirgan edi. Bu ulkan davlat ma'muriy-qaram o'lkalar- satrapiyalarga bo'lingan edi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bu an'ana Midiya davlatidan qabul qilingan bo'lib, Doro I davrida ma'muriy boshqaruvda islohatlar o'tkazilib, butun davlat 20 ta ma'muriy-qaram satrapiyalarga bo'linadi. Ularni satraplar (shahanshoh noiblari) boshqargan. Satrapiyalar ancha yirik bo'lib, ayrim hollardi bir necha o'lka va viloyatlarni birlashtirgan. Misol uchun, Parfiya, Girkaniya, Oriylar o'lkasi, Xorazm va Sug'diyona bitta satrapiya hisoblangan. Satrapiyalarning chegaralari doimiy o'zgarib turgan. Ta'kidlash lozimki, satrapiyalar hududlardagi xalqlarning etnik kelib chiqishiga qarab emas, balki hududlarning iqtisodiy salohiyatiga qarab tashkil etilgan. Satraplar asosan forslardan shahanshoh tomonidan tayinlangan.

Satrapning saroyi va boshqaruv apparati qisqartirilgan ko'rinishda shahanshoh saroyi va markaziy boshqaruv apparatini takrorlagan. Satrapning ikkita yordamchisi,

devonxonasi va mirzalari bo‘lgan. Satrap o‘ziga berilgan hududlarning bosh qozisi ham hisoblangan. Satraplarning faoliyati doimiy ravishda markazdan nazorat qilib turilgan.

Qo‘shinlar. Ahamoniylarda asosini 10 ming qo‘shindan iborat polk tashkil etuvchi muntazam “o‘lmas” armiya mavjud bo‘lgan. Armiyaning oliy bosh qo‘mondoni shahanshoh hisoblangan. Undan keyingi o‘rinda xazarpat-mingboshi turgan, Qo‘shinlar quyidagi qismlardan iborat bo‘lgan: 1-“o‘lmas” polk; 2- piyoda qushinlar; 3-otliq suvoriylar; 4-satrapiyalar qo‘shinlari; 5-yunon yollanma qo‘shinlari; 6-ko‘ngillilar qo‘shinlari. Qo‘shinlar 10,100, 1000 va 10000 kishilik qismlarga bo‘lingan bo‘lib, har bir qismning o‘z boshlig‘i bo‘lgan. Shahanshohning shaxsan o‘zi har yili bir marta qo‘shinlarni ko‘rikdan o‘tkazib turgan.

Butun davlat hududi 4 ta harbiy okrugga bo‘lingan. Har bir okrugging harbiy boshlig‘i bo‘lib, u bevosita shahanshohga bo‘ysungan. Bo‘ysundirilgan o‘lkalar va chegara tumanlarida harbiy garnizonlar joylashtirilgan. Harbiy boshliqlarning deyarli barchasi forslardan tayinlangan.



Gerodot ma‘lumotlariga ko‘ra, ulkan Ahamoniylar saltanati alohida viloyatlar (o‘lkalar) – satrapiyalarga bo‘lingan bo‘lib, ularning soni 20 ta edi. Har bir satrapiya har yili ma‘lum miqdorda soliq to‘lab turishi shart edi. Soliqlarning miqdori ko‘p hollarda kumush talant (talant – pul birligi, bir talant 30 kg kumushga teng bo‘lgan) bilan belgilangan. Soliqlar kelib tushishini tizimga solish uchun Doro I yagona tanga tartibini joriy etadi. Bu tartibning asosini og‘irligi 8,4 g keladigan oltin darik tashkil etardi. Oltin darikni bir donasini og‘irligi 5,6 g bo‘lgan 20 ta kumush tangaga almashtirish mumkin bo‘lgan. Oltin darik faqat podsho tomonidan, kumush tangalar esa ayrim viloyatlar hukmdorlari tomonidan zarb etilgan.

Qaram o‘lkalar pul solig‘idan tashqari mahsulot bilan ham soliqlar to‘laganlar. Ushbu soliqlar hisobidan Persepolda, So‘zada va Ekbatanda fors podsholarining hashamatli saroylari qad ko‘targan. Misol uchun, So‘zadagi saroyni qurish haqida

Doro I yozuvlarida shunday xabar beriladi: «Bu yerda ishlatilgan oltin Lidiya va Baqtridan keltirilgan. Ko'k tosh «kapa-utaka» (lojuvard) va «sinkabrush» (yarim qimmatbaho tosh-serdolik) Sug'ddan keltirilgan. «Axshayna» toshi (fero'za) Xorazmdan keltirilgan». Shuningdek, Gerodot Ahamoniylar davridagi yana bir soliq turi – sun'iy ko'llardan dalalar uchun olinadigan suv puli haqida ham ma'lumot beradi. Tarixchining ta'kidlashicha, ko'llarning to'g'onini ochgani uchun fors podshosi «odatdagi soliqdan tashqari katta pul oladi».

Ahamoniylar davlatida majburiy harbiy xizmat ham muhim ahamiyatga ega edi. Elefantin orolidagi (Misrning janubiy chegaralari yaqinida) garnizon arxividan ma'lumki, bu yerda mil.avv. V asr oxirida xorazmlik jangchi Dargamon xizmat qilgan. Sak jangchilari haykalchalarining topilishi Misrdagi yirik harbiy bazalardan biri bo'lgan forslarning Memfis garnizoni tarkibida sak otliqlari ham bo'lganligidan guvohlik beradi. Iarga qarshi chiqqan Kserks qo'shinlari tarkibini sanab o'tar ekan Gerodot, baqtriylar, sak-amorglar, parfiyonlar, xorazmiylar, Sug'diylar va saklarni ham tilga oladi.

Mil.avv. VI asrning o'rtalariga kelib shafqatsiz kurashlar natijasida Midiya podsholigi o'rnida Ahamoniylar davlati tashkil topadi. Ko'pchilik ilmiy – tarixiy adabiyotlarda Kir II Ahamoniylar davlatining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Ahamoniylarning Kir II, Kambiz, Doro I, Kserks kabi hukmdorlari qadimgi Sharqdagi juda ko'plab mamlakatlar ustidan o'z hokimiyatini o'rnatishni rejalashtirilganlar va shunday siyosat olib borganlar. Qadimgi dunyo mualliflari Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Yustin kabilarning ma'lumotlaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Kir II mil.avv. 545-539 yillarda Sharqiy Eron va O'rta Osiyo viloyatlarini bosib oladi. Doro I davrida (mil.avv. 522-486 yy.) Ahamoniylar sulolasi Hind vodiysidan O'rta yer dengiziga qadar bo'lgan keng hududga o'z hukmronligini o'rnatgan. Juda ko'p sonli davlatlar, viloyatlar, shaharlar va xalqlarni birlashtirgan Ahamoniylar saltanati tarixda birinchi yirik dunyo davlati hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijalaridan xulosa chiqarib Ahamoniylar davriga oid Janubiy Sug'ddagi quyidagi inshootlar shakllarini belgilash mumkin: rejaviy tuzilishi to'g'ri burchakli va ikki qator devor bilan mustahkamlanib maydoni 3 gektar bo'lgan alohida qal'a qo'rg'on (Sangirtepa); qishloq ho'jalik vohasi aholisi uchun harbiy boshpana vazifasini bajaruvchi va madoni 34-70 gektar bo'lgan yirik qal'alar (yerqo'rg'on, O'zunqir); paxsa – xom g'ishtlari bo'lmagan hamda maydoni 2 gektargacha bo'lgan yarim yerto'la va yerto'lalardan iborat qal'alar (Qo'rg'ontepa, Somontepa, Ko'zatepa, To'rtburchaktepa va boshqalar); tabiiy-geografik qurilishlarga asoslanib, alohida turar-joylarga ega bo'lgan manzilgohlar (Daratepa, Qorovultepa); qishloq uy-qo'rg'onlari (Saroytepa, Sho'rob, Choshtepa). Vohadagi eng yirik yodgorliklardan biri bo'lgan O'zunqir ko'hna shahri Ahamoniylar davrida o'zida barcha himoyalani belgilarini aks ettiruvchi mustahkam devor bilan o'rab olinadi. O'zunqir va uning atroflaridagi me'morchilik va himoya inshootlari (70 gektarga yaqin) yuqori darajadagi shaharsozlik madaniyatidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda Tojikiston qadimiyati bilan shug'ullanuvchi olimlar tomonidan Sirdaryo o'rta oqimining chap qirg'og'i hududlaridagi Xo'jand va uning va

troflaridan (oʻrta asrlardagi Ustrushona) mil.avv. VI-IV asrlarga oid yodgorliklar ochib oʻrganilgan. Xoʻjand shahrini oʻrgangan tadqiqotchilar koʻhna shahar istehkomining pastki qatlamlarini, xususan, umumiy maydoni 20 gektarga yaqin boʻlgan (shundan istehkom 1 gektarga yaqin) toʻrtburchak shaklidagi shahar maydonini oʻrab turgan qalʼa devori qoldiqlarini mil.avv. VI-IV asrlarga oid deb hisoblaydilar. Bu davr madaniy qatlamlari Shirin, Mugʻtepa (Oʻratepa shahrida) va Nurtepa (Oʻratepa shahridan shimolroqda) koʻhna shaharlardan ham aniqlangan.

Nurtepa koʻhna shahri baland togʻ tepaligida joylashgan. N. Negmatov va boshqalarning fikricha, koʻhna shahar oʻrnidagi manzilgoh mil.avv. VII asrda paydo boʻlgan. Mil.avv. VI-IV asrlarda esa Nurtepa umumiy maydoni 18 gektar boʻlgan paxsa va xom gʻisht devorlardan qad koʻtargan qalʼa hamda himoya devorlari boʻlgan shahar hisoblanar edi. Bu yerdan topilgan koʻplab topilmalarga qarab shunday xulosa chiqarish mumkinki, Nurtepa aholisi asosan dehqonchilik va hunarmandchilik ishlab chiqarish bilan shugʻullangan. Xoʻjand va Nurtepa koʻhna shaharlari makedoniyalik Aleksandr yurishlari davrida tayanch nuqtalar boʻlgan boʻlishi mumkin.

Mil.avv. VII-VI asrlarda Baqtriya hududlarida himoya devorlari bilan oʻrab olingan shaharlar shakllana boshlaydi. Oltindiriyor (Aorn), Baqtra, Qiziltepa kabilar bu hududlardagi yirik shaharlar edi. Ahamoniylar davri Shimoliy Baqtriya haqida toʻgʻridan toʻgʻri yozma manbalarda maʼlumotlar berilmasa ham arxeologik tadqiqotlar bu masalaga koʻpgina aniqliklar kiritadi. Tadqiqotchilarning fikricha, Baqtriya Kir II ning mil.avv. 539-530 yoki 547-539 yillardagi yurishlaridan soʻng Ahamoniylar davlatiga boʻysuntiriladi. Ayrim tadqiqotchilar bu davrda Baqtriya-ning shimoli-gʻarbiy chegeralaridagi Temir darvoza atroflarida Sisimifr qalʼasi boʻlgan deb hisoblaydilar. I. V. Pyankovning fikricha, bu yerda Baqtriya va Sugʻdiyona oʻrtasidagi chegarani belgilaydigan hamda katta yoʻlni nazorat qilib turadigan punkt joylashgan boʻlishi mumkin. Ammo, bu taxminlar arxeologik tadqiqotlar bilan tasdiqlanmaydi. Shu bilan birga Amudaryodan kechuv joyida va bu kechuvga keluvchi yoʻllar ustida mil.avv. I ming yillik oʻrtalarida qalʼalar (Shoʻrtepa, Talashkan I, Termiz, Xirmontepa) bunyod etiladi. Bu jarayon Ahamoniylarning Baqtriyadan Sugʻdiyona oʻtuvchi barcha yoʻllarni qatʼiy nazorat ostiga olganlaridan dalolat beradi.



## 14-mavzu. Aleksandrning sharqqa yurishlari davrida Markaziy Osiyo: istilochilik va uning oqibatlari

### Reja:

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Makedoniyalik Aleksandrning sharqqa yurishlari
- 3) Markaziy Osiyo xalqlarining yunonlarga qarshi kurashi tarixiga oid ma'lumotlar tahlili

**Tayanch so'z va iboralar:** Makedoniya, Filipp II, Aristotel, Doro III, Granik, Iss, Gavgamel, falangga, Bobil, Baqtriya, Aleksandr saltanati, Satibarzan, sagaris, Raksana, Spitamen jasorati, ellinizm.

14.1-rasm. Aleksandr buyusti



Sirdaryo etagida Aleksandr suv orti saklari sakatigraxaudalar elchisini qabul qiladi. Bu payt So'g'diyonada Spitamen qo'z-g'aloni boshlanadi. Bunga sabab, Aleksandr Baqtriyadagi Zariaspa qabila boshliqlarini yig'ib, xoinona qatl etmoqchi degan gap tarqalgandi. Diodor O'rta Osiyo xalqlari ning ozodlik kurashini 3 ga bo'lib o'rganishni taklif



etgan: 1) Aleksandr qo'zg'alon ko'targan so'g'diylarni yengib, 120 ming aholini qirib yubordi. 2) U baqtriyaliklarga jazo berib, so'g'diylarni qaytadan o'ziga bo'ysundirdi. 3) So'g'diylar qo'zg'alon ko'taradi, tog'larga yashirinadi, asirlikka olinadi.

Aholi Sirdaryo bo'yidagi yettita qal'ada jon saqladi. Aleksandr beshta qal'ani katta narvon va shturm mashinasi bilan olgan. Ikkitasini hiyla ishlatib, lahm kavlab olgan. Kiroshat qal'asi mameken qabilasi qattiq qarshilik ko'rsatgan. Bu paytda Spitamen Maroqandda yunon lashkarini yengdi. Aleksandr Spitamenga qarshi maxalliy tilni bilgan Farnuxni yuborib, o'zi Xo'jand va Bekobod oralig'ida 17 kunda Aleksandriya-Esxatani qurdiradi. Sirdaryo bo'yicha sollar bilan o'tib saklar bilan jang qiladi. U 1000 askar, 1500 yarador qoldirgan. Aleksandr qo'shinida yurak burug'i kasalligi tarqalgan edi.

Daryo ortidan saklar elchisi keladi, urush niyati yo'qligini aytadi, Aleksandr 150 ta asirni qatarib beradi. Aleksandr Kiropoldan 1 qism armiyasini olib Spitamenga qarshi Maroqandga qo'yadi, shundan so'ng Spitamen Maroqanddan chekinib, Basilati (Shox shahri)ga qarab yuradi. Farnux Spitamenni cho'l tomon quvadi, ammo o'zi halok bo'ladi. Spitamen yana daxlar va maxalliy ko'chmanchilar yordamida Maroqandni qamal qiladi. Aleksandr kelayotganini bilib, Zarafshonag chekinadi, Aleksandr 120 ming axoli qirib, bog'larni toptab, xonadonlarni yoqadi.



Akinak xanjar, sagaris- bolta, bargustuvon ot ko'kragi – temir, palaxmon, o'q-yoy Afrosiyob, Qiziltepa, Tallashkan, Uzunkir, burj-boru bo'lgan. Aleksandr So'g'diyonaga qo'shin qoldirib, qishlash uchun Baqtriyaga ketadi. 1-bosqich tugaydi. Mil.avv 328 yil Baqtriyaga Xorazm shohi Farasman elchilari keladi, amozonkalar va kolxlarga qarshi yurish qilishni taklif etadi. Spitamenga qarshi yana yurish boshlanadi. Spitamen shimolda massagetlar orasida edi. Spitamen so'g'diy Bag shahrini massagetlar bilan qamal qiladi. Uni Aleksandr ta'qib qiladi. Uning o'limi bilan ozodlik kurashi 2-bosqichi tugaydi. Kursiy Ruf aytishicha, Aleksandr maxalliy aholini yunonlar bilan qo'shish uchun mil.avv 327 yilda Murg'ob vohasida 6 ta shahar qurdirgan. 3-yurish o'ziga qo'shilganlar, yollanganlarni kechirish, bo'ysunmaganlarni Diodor "tog' qal'alarga qochganlarni asir olish" degan.

So'g'd qal'asida (Xisor) Oksiart yashagan, uning Roksana qizi, bu qal'ada Xorien xam bo'lgan. Ular o'z ixtiyori bilan taslim bo'lishgan. Mil. avv 327 yilda Aleksandr sharqiy xududlarni o'g'li Aleksandrga berdi, Regentlar Perdikka va Antipatr edi. Diodor xabariga ko'ra, ml.avv 325 yilda Aleksandr o'lgani xaqida yolg'on xabar tarqaladi. Baqtriyada qolgan yunonlar Afinadorni shox deb saylaydi. Oksiart Aleksandrga odam yuboradi. 323 yil 20 ming askar, 3 ming otliq Yunonistonga qaytish uchun g'alayon ko'taradi. Perdikka Baqtriyaga va So'g'diyonaga yangi satrap Filippni tayinlaydi.



14.2-rasm. Aleksandr falangasi

Mahalliy ayonlar va yunonlar kelishaolmay, 21 ta osiyo satraplari 72 tagacha parchalanib ketadi. Perdikka buni oldini olaolmaydi. Mil avv 315 yilda Perdikka xamma satraplarni almashtirib, o'rniga yunonlarni qo'yadi. Faqat o'z qaynotasi Atropat va Oksiartni satraplikdan almashtirmaydi. Mil. avv 312 yilda Aleksandrning tan soqchisi Salavka Sirdaryodan Bobilgacha 64-yilgacha turgan saltanatga asos soladi. Ular davrida satrapliklar eparxiya, eparxiya-giparxiyaga, giparxiyalar statmoslarga bo'lingan. Salavk 75 ta shahar qurdirgan ekan, eng uzog'i Yaksartdagi Antioxiyadir. Sababi. Baqtriya va Sug'diyona Antioxga berilgan edi.

Markaziy Osiyoning Sug'diyona, Baqtriya, Marg'iyona va Parfiya Aleksandrning davlatiga qo'shib, keyinchalik ularning hududida ayrim yunon-makedon davlatlari vujudga keladi.

Aleksandr bosib olgan hududlarda uning boshqaruv faoliyati dastlab Gresiya-ning ayrim demokratik an'analariga (harbiy yo'dboshchilar kengashi, qo'shinlar yig'ini) asoslangan edi. Qo'shinlar yig'inida sud ishlari ko'rib chiqilib, jinoyat va jazo masalalari qat'iy muhokama qilingan. Jinoyat turlari ichida eng og'irlari-podshoga qarshi fitna, xiyonat, isyonga da'vat etish hisoblanib, ushbu harkatlar uchun yagona jazo – o'lim jazosi belgilangan. Qatl etish haqidagi qaror qo'shinlar yig'inida qabul qilingan. Sharqqa qilgan yurishlari tugaganidan so'ng Aleksandr bu hududlarda barpo etgan o'z saltanatida Ahamoniylar davlat boshqaruvidagi idora-

tartib usullarini o'zgartirmagan. Ya'ni, satraplik boshqaruvi va soliqlar yig'ib olish tizimi o'zining ilgarigi ahamiyatini saqlab qolgan.

O'rta Osiyoda istilo etilgan viloyatlar va shaharlarni boshqarish uchun yunon-makedon sarkardalari bilan birga mahalliy hokimlar ham jalb etilgan. Yozma manbalarning ma'lumot berishicha, Aleksandr davrida mahalliy aholi vakillaridan Fratafarn-Girkaniyada, Artaboz-Baqtriyada, Oksiart va Xorien-Sug'diyona viloyatlariga hokimlik qilganlar. Mil.avv. 325 yilda Oksiart qo'l ostiga Paropamis-Hindiqush viloyati topshiriladi.



14.3-rasm. Doro III

Mil.avv. 325-324 yillarda makedonlar yaroq-aslahalari bilan qurollangan mahalliy aholi qo'shinlari yunon-makedon armiyasi safiga jalb etiladi. Aleksandr mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan maqsadli siyosat olib borgan. Mil. avv. 324 yilda So'za shahrida o'n mingta yunon-makedon askarlari mahalliy ayollarga uylanadilar. Aleksandrning o'zi va sarkarda Gefestion Doro III ning qizlarini hamda sarkarda Salavka Spitamanning qizi Apamani xotinlikka oladilar.

A. Sagdullaevning fikricha, bunday yondoshuv aniq siyosiy maqsad – yangi davlatchilik barpo etish g'oyasi bilan bog'langan edi. Bu davlat nafaqat turli halqlarning siyosiy birlashmasi bo'libgina qolmay, balki uning kelajakda makedonlar va Sharq zodagonlari qon-qarindoshligi vorisligiga tayangan davlatga aylanishi rejalashtirilgan edi.

Ko'plab xalqlar va mamlakatlarni birlashtirib yagona davlat barpo etish g'oyasi, insonlarni umumiy ong va yagona tafakkurga bo'ysundirish g'oyasi yangilik emas edi. Bunday g'oyani qadimgi fors podsholari ham o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar va oqibatda mil.avv. 490 yilda yunon-fors urushlari boshlangan.

Aleksandrning harbiy yurishlari Sharq va G'arb o'rtasidagi keng savdosiyoq va madaniy aloqalarning rivojlanishiga olib keldi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi natijasida mahalliy va yunon madaniyatining qo'shilish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonning ta'sirini moddiy madaniyatning rivojlanishida, qurilish va me'morchilik, kulolchilik va tasviriy san'at, yangi yozuvlarning tarqalishi, tangashunoslik hamda diniy e'tiqodlarda ko'rish mumkin. Yunonlar o'z navbatida qadimgi Sharqning juda ko'plab madaniy yutuqlarini qabul qiladilar hamda mahalliy aholi madaniyatiga ham ta'sir o'tkazadilar. Aleksandr davridan boshlab, bir necha asrlar davomida,



14.4-rasm. Bobil, mil.avv 329 yil

Sharqning siyosiy tarixi (davlat tizimi, boshqaruv usullari, qonunlar va huquq) da turli an'analarning qo'shib rivojlanganligini ko'zatingiz mumkin.



14.5-rasm. Gavgamej jangi

yaqin sarkardalari – diadoxlar o'rtasidagi tinimsiz urushlar tufayli bo'lib o'tdi. Diadoxlar o'rtasida 40 yildan ziyodroq davom etgan jangu-jadallar natijasida Aleksandr mulklari bo'lib olinadi.

Aleksandr Makedonskiy mulklariga egalik qilish shu bilan yakunlandiki, mil.avv. 306 yilda nisbatan kuchli bo'lgan diadoxlar – Antigon Birko'zli (Odnog-laziy), Demetriy Poliorket, Ptolomey Lag, Lazimax, Salavka, Kassandrlar o'zlarini podsho deb e'lon qildilar hamda bu bilan Aleksandr davlati xarobalarida o'z davlatlarini barpo etishni ma'lum qildilar. Shu tariqa tarix sahnasida G'arb va Sharq an'analarini uyg'unlashtirgan ellinistik davlatlar paydo bo'ldi. Ana shunday yirik davlatlardan biri-Salavkiylar davlati edi.

O'zining eng gullab – yashnagan davrida bu davlat ilgari Aleksandr saltanatiga kirgan katta hududlarni egallab, g'arbda Egey dengizidan Sharqda Hind subkontinentigacha cho'zilgan hamda Kichik Osiyoning janubiy qismini, Suriya, Shimoliy Mesopotamiya, Bobil, Eron, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari va Afg'onistonning katta qismini o'z ichiga olgan edi. Bu ulkan davlatning asoschisi – dastavval Aleksandrning tansoqchisi, keyinroq yirik sarkardasi bo'lgan Salavka edi.



14.6-rasm. Roksana

Yunon tarixchisi Pompey Trogning yozishicha, «Salavka ba'zi bir o'lkalarni mo'zokaralar yo'li bilan egalladi, ammo Baqtriya, Parfiya, Sug'd yerlarida u qattiq qarshilikka uchradi va og'ir janglar olib borishiga to'g'ri keldi». Bu ma'lumotni qadimgi tarixchi Arrian ham tasdiqlaydi. Ya'ni u shunday xabar beradi: «Salavka I baqtriyaliklar, Sug'diylar, parfiyaliklar va girkaniyaliklar bilan ko'p urushlar olib borgach, ular yerlariga hukmronlik qila boshladi». Tadqiqotchilarning fikricha,

Oʻrta Osiyo yerlarining Salavka tomonidan bosib olinishi mil.avv. 306-301 yillarga toʻgʻri keladi.

Mil.avv. 293 yilda Salavka oʻgʻli Antiox I ni Sharqiy satraplarga yaʼni, Oʻrta Osiyo viloyatlariga oʻzining noibi etib tayinlaydi. Salavka I va Antiox I (mil.avv. 281-261 yillar mustaqil) hukmronligi davrida Salavkiylar davlati siyosatining asosiy yoʻnalishlari shakllanadi. Salavkiylar uchta mintaqada – Janubiy Suriya, Kichik Osiyo va Sharqda faol tashqi siyosat olib borishga majbur boʻlgan edilar. Janubiy Suriya va Kichik Osiyo uchun Ptolemeylar (Ptolomey Lag asos solgan Oʻrta yer dengizining sharqidagi davlat sulolasi) bilan tinimsiz urushlar boʻlib turgan. Chunki bu hududlarda muhim savdo yoʻllari tugab, gullab-yashnagan port-shaharlar mavjud edi. Kichik Osiyoning yunon shaharlari ham muhim ahamiyatga ega edi.

Sharqiy viloyatlarda xususan, Oʻrta Osiyodagi ahvol birmuncha murakkabroq vaziyatda edi. Birinchidan, bu hudud boshqaruv markazlaridan ancha uzoqda joylashgan boʻlib, bu viloyatlar bilan aloqa qilishda qiyinchiliklar mavjud edi. Ikkinchidan, Salavkiylar davlatining chegaralarida joylashgan koʻchmanchilarning doimiy xavfi mavjud edi. Mil.avv. III asrdan boshlab koʻchmanchilarning koʻchishlari boshlanishi natijasida chegaralardagi bu xavf yanada kuchayadi.

Salavkiylar davlatida ichki siyosiy boshqaruv masalalari ham ancha murakkab edi. Katta hududlarni qamrab olgan bu davlatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va jamiyat siyosiy tashkiloti turlicha boʻlgan koʻplab viloyatlar mavjud boʻlib, bu holat ushbu kuchlarni yagona davlatga birlashtirib turishni ancha qiyinlashtirar edi. Bu davlatning oʻziga xos xususiyatlaridan biri u faqat harbiy yurishlar natijasida, kuch ishlatish yoʻli bilan paydo boʻlgan edi. Shuning uchun ham davlatning asosiy vazifalaridan biri qaram etilgan xalqlarni zoʻravonlik bilan ushlab turish yoki birlashtirib turish edi. Sharq xalqlari mahalliy zodagonlaridan bir qismi yoki ayrimlari boshqaruv tizimiga jalb etilgan boʻlsa-da, asosiy boshqaruvchilar makedonlar va yunonlardan iborat boʻlgan.

## **15-mavzu. Markaziy Osiyoda ellinizm: Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari**

### **Reja:**

- 1) Mavzuning oʻrganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyoda ellinizm
- 3) Markaziy Osiyoda Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari tarixiga oid maʼlumotlar tahlili

**Tayanch soʻz va iboralar:** Baqtriya, Aleksandr saltanati, Satibarzan, sagaris, Raksana, Spitamen jasorati, ellinizm, Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlati, Evtidem, satraplik, Antiox, Apamani.

Markaziy Osiyoning Sug‘diyona, Baqtriya, Marg‘iyona va Parfiya Aleksandrning davlatiga qo‘shilib, keyinchalik ularning hududida ayrim yunon-makedon davlatlari vujudga keladi.

Aleksandr bosib olgan hududlarda uning boshqaruv faoliyati dastlab Gresiyaning ayrim demokratik an‘analariga (harbiy yo‘dboshchilar kengashi, qo‘shinlar yig‘ini) asoslangan edi. Qo‘shinlar yig‘inida sud ishlari ko‘rib chiqilib, jinoyat va jazo masalalari qat‘iy muhokama qilingan. Jinoyat turlari ichida eng og‘irlari-podshoga qarshi fitna, xiyonat, isyonga da‘vat etish hisoblanib, ushbu harkatlar uchun yagona jazo – o‘lim jazosi belgilangan. Qatl etish haqidagi qaror qo‘shinlar yig‘inida qabul qilingan. Sharqqa qilgan yurishlari tugaganidan so‘ng Aleksandr bu hududlarda barpo etgan o‘z saltanatida Ahamoniylar davlat boshqaruvidagi idora-tartib usullarini o‘zgartirmagan. Ya‘ni, satraplik boshqaruvi va soliqlar yig‘ib olish tizimi o‘zining ilgari ahamiyatini saqlab qolgan.



O‘rta Osiyoda istilo etilgan viloyatlar va shaharlarni boshqarish uchun yunon-makedon sarkardalari bilan birga mahalliy hokimlar ham jalb etilgan. Yozma manbalarning ma‘lumot berishicha, Aleksandr davrida mahalliy aholi vakillaridan Fratafarn-Girkaniyada, Artaboz-Baqtriyada, Oksiart va Xorien-Sug‘diyona viloyatlariga hokimlik qilganlar. Mil.avv. 325 yilda Oksiart qo‘l ostiga Paropamis-Hindiqush viloyati topshiriladi.

Mil.avv. 325-324 yillarda makedonlar yaroq-aslahalari bilan qurollangan mahalliy aholi qo‘shinlari yunon-makedon armiyasi safiga jalb etiladi. Aleksandr mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan maqsadli siyosat olib borgan. Mil. avv 324 yilda So‘za shahrida o‘n mingta yunon-makedon askarlari mahalliy ayollarga uylanadilar. Aleksandrning o‘zi va sarkarda Gefestion Doro III ning qizlarini hamda sarkarda Salavka Spitamanning qizi Apamani xotinlikka oladilar.

Mil.avv. 325-324 yillarda makedonlar yaroq-aslahalari bilan qurollangan mahalliy aholi qo‘shinlari yunon-makedon armiyasi safiga jalb etiladi. Aleksandr mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan maqsadli siyosat olib borgan. Mil. avv 324 yilda So‘za shahrida o‘n mingta yunon-makedon askarlari mahalliy ayollarga uylanadilar. Aleksandrning o‘zi va sarkarda Gefestion Doro III ning qizlarini hamda sarkarda Salavka Spitamanning qizi Apamani xotinlikka oladilar.

A. Sagdullaevning fikricha, bunday yondoshuv aniq siyosiy maqsad – yangi davlatchilik barpo etish g‘oyasi bilan bog‘langan edi. Bu davlat nafaqat turli halqlarning siyosiy birlashmasi bo‘libgina qolmay, balki uning kelajakda makedonlar va Sharq zodagonlari qon-qarindoshligi vorisligiga tayangan davlatga aylanishi rejalashtirilgan edi. Ko‘plab xalqlar va mamlakatlarni birlashtirib yagona davlat barpo etish g‘oyasi, insonlarni umumiy ong va yagona tafakkurga bo‘ysundirish g‘oyasi yangilik emas edi. Bunday g‘oyani qadimgi fors podsholari ham o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yganlar va oqibatda mil.avv. 490 yilda yunon-fors urushlari boshlangan.

Aleksandrning harbiy yurishlari Sharq va G‘arb o‘rtasidagi keng savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojlanishiga olib keldi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishi natijasida mahalliy va yunon madaniyatining qo‘shilish

jarayoni boshlanadi. Bu jarayonning ta'sirini moddiy madaniyatning rivojlanishida, qurilish va me'morchilik, kulolchilik va tasviriy san'at, yangi yozuvlarning tarqalishi, tangashunoslik hamda diniy e'tiqodlarda ko'rish mumkin. Yunonlar o'z navbatida qadimgi Sharqning juda ko'plab madaniy yutuqlarini qabul qiladilar hamda mahalliy aholi madaniyatiga ham ta'sir o'tkazadilar. Aleksandr davridan boshlab, bir necha asrlar davomida, Sharqning siyosiy tarixi (davlat tizimi, boshqaruv usullari, qonunlar va huquq) da turli an'analarning qo'shib rivojlanganligini ko'zatishimiz mumkin.



Mil.avv. 323 yilda Aleksandr Bobilda to'satdan vafot etdi. Uning vafot etishi bilanoq davlatdagi markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollashuvi natijasida Aleksandr to'zgan davlat parchalanib uning o'rniga nisbatan barqarorroq bo'lgan davlat uyushmalari paydo bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Aleksandr davlatining parchalanishi va uning xarobalarida yangi davlatlar tizimining paydo bo'lishi tinchlik yo'li bilan emas balki, Aleksandr-

ning Makedonskiyning yaqin sarkardalari – diadoxlar o'rtasidagi tinimsiz urushlar tufayli bo'lib o'tdi. Diadoxlar o'rtasida 40 yildan ziyodroq davom etgan jangujadallar natijasida Aleksandr mulklari bo'lib olinadi.

Aleksandr Makedonskiy mulklariga egalik qilish shu bilan yakunlandiki, mil.avv. 306 yilda nisbatan kuchli bo'lgan diadoxlar – Antigon Birko'zli (Odnoglaziy), Demetriy Poliorket, Ptolomey Lag, Lazimax, Salavka, Kassandrlar o'zlarini podsho deb e'lon qildilar hamda bu bilan Aleksandr davlati xarobalarida o'z davlatlarini barpo etishni ma'lum qildilar. Shu tariqa tarix sahnasida G'arb va Sharq an'analari uyg'unlashtirgan ellinistik davlatlar paydo bo'ldi. Ana shunday yirik davlatlardan biri-Salavkiylar davlati edi.

O'zining eng gullab – yashnagan davrida bu davlat ilgari Aleksandr saltanatiga kirgan katta hududlarni egallab, g'arbda Egey dengizidan Sharqda Hind subkontinentigacha cho'zilgan hamda Kichik Osiyoning janubiy qismini, Suriya, Shimoliy Mesopotamiya, Bobil, Eron, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari va Afg'onistonning katta qismini o'z ichiga olgan edi. Bu ulkan davlatning asoschisi – dastavval Aleksandrning tansoqchisi, keyinroq yirik sarkardasi bo'lgan Salavka edi.

Yunon tarixchisi Pompey Trogning yozishicha, «Salavka ba'zi bir o'lkalarni mo'zokaralar yo'li bilan egalladi, ammo Baqtriya, Parfiya, Sug'd yerlarida u qattiq qarshilikka uchradi va og'ir janglar olib borishiga to'g'ri keldi». Bu ma'lumotni qadimgi tarixchi Arrian ham tasdiqlaydi. Ya'ni u shunday xabar beradi: «Salavka I baqtriyaliklar, Sug'diyalar, parfiyaliklar va girkaniyaliklar bilan ko'p urushlar olib borgach, ular yerlariga hukmronlik qila boshladi». Tadqiqotchilarning fikricha, O'rta Osiyo yerlarining Salavka tomonidan bosib olinishi mil.avv. 306-301 yillarga to'g'ri keladi.

Mil.avv. 293 yilda Salavka o'g'li Antiox I ni Sharqiy satraplarga ya'ni, O'rta Osiyo viloyatlariga o'zining noibi etib tayinlaydi. Salavka I va Antiox I (mil.avv. 281-261 yillar mustaqil) hukmronligi davrida Salavkiylar davlati siyosatining asosiy yo'nalishlari shakllanadi. Salavkiylar uchta mintaqada – Janubiy Suriya, Kichik Osiyo va Sharqda faol tashqi siyosat olib borishga majbur bo'lgan edilar. Janubiy Suriya va Kichik Osiyo uchun Ptolemeylar (Ptolomey Lag asos solgan O'rta yer dengizining sharqidagi davlat sulolasi) bilan tinimsiz urushlar bo'lib turgan. Chunki bu hududlarda muhim savdo yo'llari tugab, gullab-yashnagan port-shaharlar mavjud edi. Kichik Osiyoning yunon shaharlari ham muhim ahamiyatga ega edi.



Sharqiy viloyatlarda xususan, O'rta Osiyodagi ahvol birmuncha murakkabroq vaziyatda edi. Birinchidan, bu hudud boshqaruv markazlaridan ancha uzoqda joylashgan bo'lib, bu viloyatlar bilan aloqa qilishda qiyinchiliklar mavjud edi. Ikkinchidan, Salavkiylar davlatining chegaralarida joylashgan ko'chmanchilarning doimiy xavfi mavjud edi. Mil.avv. III asrdan boshlab ko'chmanchilarning ko'chishlari boshlanishi natijasida chegaralardagi bu xavf yanada kuchayadi.

Salavkiylar davlatida ichki siyosiy boshqaruv masalalari ham ancha murakkab edi. Katta hududlarni qamrab olgan bu davlatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va jamiyat siyosiy tashkiloti turlicha bo'lgan ko'plab viloyatlar mavjud bo'lib, bu holat ushbu kuchlarni yagona davlatga birlashtirib turishni ancha qiyinlashtirar edi. Bu davlatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri u faqat harbiy yurishlar natijasida, kuch ishlatish yo'li bilan paydo bo'lgan edi. Shuning uchun ham davlatning asosiy vazifalaridan biri qaram etilgan xalqlarni zo'ravonlik bilan ushlab turish yoki birlashtirib turish edi. Sharq xalqlari mahalliy zodagonlaridan bir qismi yoki ayrimlari boshqaruv tizimiga jalb etilgan bo'lsa-da, asosiy boshqaruvchilar makedonlar va yunonlardan iborat bo'lgan.

Salavkiylar sulolasida davlat boshlig'i podsho bo'lib, uning hokimiyati mutlaq edi. Podsho bir vaqtning o'zida fuqarolar ma'muriyati oliy boshlig'i, qo'shinlarning bosh qo'mondoni, oliy sudya va hatto, bosh qonun chiqaruvchi vazifalarini bajargan. Manbalarning ma'lumot berishicha, sulola asoschisi Salavka I, «Podsho tomonidan buyurilgan barcha narsalar doimo adolatlidir», degan tamoyilga qat'iy amal qilgan. Salavkiylar sulolasi podsholari qo'yidagi ikkita huquqiy asosga ega edilar: 1. Bosib olish huquqi. 2. Hokimiyatni otadan bolaga meros qoldirish huquqi. Ko'p hollarda salavkiylar podsholari ilohiylashtirilgan. Masalan, tangashunoslik ma'lumotlari Soter-Qutqaruvchi, Dikayos-Adolatparvar, Everget-Ezgulik kabi podsholar bo'lganligini tasdiqlaydi.

Davlatning nihoyatda katta hududlarni qamrab olganligi ayrim hollarda ma'muriy nazoratning susayib ketishiga olib kelgan. Manbalarning guvohlik berishicha, bir nechta mahalliy siyosiy uyushmalar (alohida qabilalar, yunon polislari, ibodatxona jamoalari, mahalliy sulolalar) ichki ishlarda mustaqil siyosat olib borishga harakat qilganlar.



Manbalarning ma'lumot berishicha, Salavka I Ptolomeylar bilan hokimiyat talashib Sharqiy hududlar va Kichik Osiyo uchun kurash olib borish jarayonidayoq o'z hokimiyatida boshqaruv tartibini joriy eta boshlagan edi. U Aleksandr an'analariga sodiq qolganligini ko'rsatish maqsadida satrapiyalarni yirik viloyat uyushmalari sifatida saqlab qoldi. Tangashunoslik ma'lumotlariga qaraganda, Salavka I davlati Ahamoniylar va Aleksandr davlatiga nisbatan ancha kichik bo'lib, hokimiyat 27-28 ta satrapiyaga bo'lingan.

Har qaysi satrapiyani podsho tomonidan tayinlanib qo'yilgan satrap yoki strateg mansabidagi shaxs boshqargan. Fors satraplaridan farq qilgan holda ular ham ma'muriy, ham harbiy boshqaruvni qo'lga olganlar. Satrap-strateg ma'muriy boshqaruvda eng yaqin odamlaridan o'ziga yordamchi tanlagan. Bu yordamchi soliq yig'uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo, xo'jalik hayotini nazorat qilib borgan.

Tarixiy manbalarda salavkiylar satrap-strateglari yunoncha nomda (Stratonik, Aleksandr, Gieraks, Antiox va boshqalar) tilga olinadi. Demak, salavkiylar hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy zodagonlardan tayinlangan. Tadqiqotchilarning fikricha, O'rta Osiyoda yunon hokimlari va ular atrofida to'plangan yunon zodagonlari bilan birga mahalliy zodagonlar ham hokimlik qilar edilar. Salavkiylar hokimiyati O'rta Osiyodagi harbiy punktlarda (katoykiyalar) joylashgan harbiy kuchlarga tayangan edi.

Salavkiylar davri Baqtriya, Marg'iyona, Sug'diyona va Parfiya hududlarida ko'p aholili shaharlar ko'p edi. Maroqand, Baqtra, Niso kabi ko'plab qadimgi shahar xarobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan topilmalar bu hududlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va xo'jalik ishlari rivojlanganligidan dalolat beradi.

Salavkiylar davlati ma'lum bir xalq yoki elatlardan iborat bo'lmay, ko'pdan ko'p etnik guruhlarni harbiy yo'l bilan birlashtirishdan tashkil topgan uyushma edi. Davlat boshqaruvining barcha siyosiy, huquqiy va ijtimoiy yo'nalishlari podsho saroyi bilan bog'liq bo'lib, bu holat davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ahamoniylar davlatida bo'lgani kabi salavkiylar davlatida ham ko'pgina davlat ishlarini olib boruvchi devonxona mavjud bo'lgan. Ayrim manbalar salavkiylar saroyidagi xat-hujjat ishlarining boshlig'i lavozimi haqida ma'lumotlar beradi. Tadqiqotchilarning fikricha, salavkiylar davrida anchagina murakab soliq



tartibi joriy qilingan bo'lib, salavkiylar hukmdorlari o'zlarigacha mavjud bo'lgan soliq tartibini o'zlashtirgan holda unga o'zgartirishlar kiritib, mukammallashtirganlar. Dehqonlardan yer solig'ini yig'ib olish satrap-strateglarning vazifasi bo'lgan. Bunday soliqlarning miqdori aniq belgilangan bo'lib, viloyatlardan keladigan soliqlarning umumiy miqdori qishloq jamoalaridan to'shadigan soliqlarga bog'liq bo'lgan.

Mil.avv. III asrning 60-50-yillariga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida Salavkiy hukmdorlari o'rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Natijada salavkiylar davlatining sharqiy viloyatlarida siyosiy vaziyat o'zgarib markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollashadi. Mil.avv. 250 yilda kelib dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari salavkiylar davlatidan ajralib chiqib o'zlarini mustaqil deb e'lon qiladilar.

Yunon-Baqtriyada davlat podsho tomonidan boshqarilgan bo'lib, tangashunoslik ma'lumotlari Diodot I,II,III, Yevtidem I,II, Demetriy, Geliokl, Platon kabi podsholari haqida xabar beradi. Salavkiylar kabi Yunon-Baqtriya podsholari ham davlatni satrapliklarga bo'lib idora etganlar.



Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Yunon-Baqtriya mulklarining chegaralar doimiy mustahkam

bo'lmasdan, harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turgan. Mil.avv. III asrning oxirlari O'rta Osiyo janubidagi harbiy-siyosiy vaziyat haqida Polibiy ma'lumotlar beradi. Uning yozishicha, salavkiylar tomonidan Baqtrada qamal qilingan Yevtidem ularning hukmdori Antiox III ga «chegarada ko'chmanchi qabilalar turganligi va ular chegaradan o'tadigan bo'lsa har ikkala tomonning ham ahvoli og'ir bo'lishi mumkinligini» bildiradi. Polibiy ma'lumot bergan ushbu ko'chmanchilar mil.avv. III asrning oxirlarida Zarafshon daryosiga qadar deyarli butun Sug'dni egallagan bo'lib, bu hududlar Yunon-Baqtriya davlatining vaqtinchalik shimoliy chegarasi bo'lib qoladi. Shuningdek, g'arbiy Hisor tog'lari ham shimoliy chegaralar bo'lgan bo'lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya davlatining gullab yashnagan davri III asrning ikkinchi yarmi va mil.avv. II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Janubiy hududlardan bu davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar), Oyxonim, Qorabog'tepa kabi yodgorliklardan hokimlar saroylari, ibodatxonalar, turar-joylar, mehnat va jangovar qurollar, turli hunarmandchilik buyumlari hamda ko'plab tanga pullarning topilishi bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon-Baqtriya markazlashgan davlat bo'lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat bir nechta viloyat (satrapiya) larga bo'lingan bo'lib, bu viloyatlar

boshqaruvchilari yoki hokimlari podshoga bo'ysunar edilar. Ammo, bu davrda davlat nechta satrapiyalar bo'lganligi va ular qanday nomlanganligi ma'lum emas. Strabon ma'lumotlariga ko'ra, satrapiyalarga noib satraplarni tayinlashda qarindoshchilik an'analarga amal qilingan bo'lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya podsholigi davlat tuzilishining muhim tomoni – qo'shin va uni tashkil etish edi. Avvalo, ta'kidlash lozimki, yunon-baqtriya qo'shinlarining katta qismini baqtriyaliklar va boshqa mahalliy aholi tashkil etgan. Qo'shinning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari otliq-suvoriylardan iborat bo'lgan. Qo'shinlar tarkibida harbiy fillar ham bo'lgan.

O'z vaqtida V. V. Grigorev Baqtriyadagi yunon hokimiyati yagona monarxiya tomonidan amalga oshirilmay davlatlar uyushmasi (ittifoqi) tomonidan amalga oshirilgani dastavval, nisbatan kuchlilar, ular orasidan «baqtriyaliklar», keyin esa «ularga tobe bo'lganlar» haqidagi konsepsiyani ilgari surgan edi. Hozirgi vaqtda ko'pchilik tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya podsholarining boshqargan hududlari Shimoliy Afg'oniston, Janubiy O'zbekiston va Hindiqushdan janubdagi ayrim viloyatlar bo'lganligini e'tirof etadilar. Bu hududlardagi markazlashagn davlatda Diodot I, keyin esa Yevtidem I (ya'ni, mil.avv. III asrning ikkinchi yarmi) davrlarida kuchli podsho hokimiyati mavjud edi. Mil.avv. II asrning ikkinchi choragidan boshlab Yunon-Baqtriya podsholigining inqiroziga qadar davlatda mutlaq birlik va barqarorlik bo'lmagan.

So'nggi yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan juda ko'plab arxeologik topilmalar Amudaryo o'rta oqimining o'ng va chap qirg'og'i aholisining mil.avv. III-II asrlardagi o'zaro aloqalaridan darak beribgina qolmay, bu yerlarni Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. E.V.Rtveladzening fikricha, mil.avv. 250-140/130 yillar davomida Yunon-Baqtriya davlati mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lib, bu davrda Diodot, Yevtidem, Yevkratid, Geliokl kabi podsholar hokimiyatni boshqarganlar. Mil.avv. II asrning ikkinchi yarmiga kelib ko'chmanchilar zarbalari va o'zaro taxt uchun kurashlar natijasida Yunon-Baqtriya davlati inqirozga uchradi.

## **16-mavzu. Qadimgi Parfiya va uning Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga ta'siri**

### **Reja:**

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Qadimgi Parfiya davlatining tashkil topishi
- 3) Qadimgi Parfiya davlati tarixiga oid ma'lumotlar tahlili

**Tayanch so'z va iboralar:** Baqtriya, ellinizm, Yunon-Baqtriya davlati, satraplik, Apamani, Miridat.



## Qangxa (kangyuy) va Markaziy Osiyo

### Reja:

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyoda Qangxa (kangyuy) davlati
- 3) Qangxa davlati tarixiga oid arxeologik manzilgohlar

**Tayanch tushuncha va iboralar:** nom davlatlar, siyosiy hokimiyat, mahalliy va umumbashariy madaniyatlar, Sharq yo'li, jamiyatning birlamchi yacheykasi, prinsipial boshqaruvlar tabaqasi, Yevropa yo'li, polislari, ijtimoiy va hududiy birlik, qishloq jamoalari, ishlab chiqaruvchi xo'jalik, qo'shimcha mahsulot, qadimgi davlatlar tipologiyasi, aholi soni va zichligining o'sishi, davlatchilik tushunchasi

Antik davr O'zbekiston hududlarida tarqqiy etgan davlatlardan biri – Qang' davlatidir. Qadimgi Xitoy manbalarida Qang' davlati mavjud bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar mil.avv. III asr oxiri – II asr boshlariga to'g'ri keladi. Ammo, Qang' davlati va qang'arlar tarixining mashhur bilimdoni K. Sh. Shoniyozovning fikricha, bu davlat mil. avv III asrning boshlarida paydo bo'ladi. Keyinroq esa, Yunon-Baqtriya davlati va qo'shni ko'chmanchi qabilalar bilan bo'lgan kurashlar natijasida Qang' davlati yanada mustahkamlanadi hamda manbalarda O'rta Osiyodagi yirik davlatlardan biri sifatida tilga olinadi.

Qang' davlati asosini tashkil etgan qabilalar Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida istiqomat qilganlar. Davlat tashkil topgan dastlabki davrda uning hududiy asosini Toshkent vohasi tashkil etgan. Tashqi harbiy hujumlar tufayli Qang' davlati nafaqat mustahkamlanib oladi, balki o'z chegaralarini ham kengaytirib boradi. Ya'ni, mil.avv. II va milodiy I asrda Qang' davlatining hududi ancha kengayib Toshkent vohasi, O'rta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi va Chu daryosining quyi oqimidagi yerlarni o'z ichiga olar edi.

Qang' davlati haqida bizgacha yetib kelgan manbalarda bu davlat hokimiyati qanday idora qilingani, boshqaruv tartibi va shakllari haqida aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Katta Xan sulolasi tarixida (mil.avv. 202-mil. 25 yy) Qang' podshosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi haqida ma'lumot beriladi. Bundan xulosa chiqargan tadqiqotchilar o'sha davrda tashkil topgan Qang' davlatida kengash muhim rol o'ynaganligini, davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganliklarini hamda ularning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaydilar. Demak, o'sha davrlarda podsho saroyi qoshida kengash mavjud bo'lib, podshoning ichki hamda tashqi siyosati va boshqa barcha davlat ishlari va boshqaruvi bilan bog'liq masalalar ana shu kengash yig'ilishida hal qilingan. Qang' davlatiga qarashli yerlar bir nechta viloyatlarga (yoki mulklarga) bo'lingan bo'lib, ularning har birini jobg'u yoki yobg'u (qad. Xitoy manbalarida – chjaovu) deb nomlangan xokimlar boshqargan. Jobg'ular mamlakat boshqaruvida Qang' podsholarining asosiy tayanchi hisoblangan.

Jobg'ular podsholarga yaqin kishilardan, ularning qarindoshlaridan, yirik urug'-qabila boshliqlaridan tayinlangan.

M.I. Filanovichning fikricha, siyosiy tuzilma sifatida Qang', ehtimol, mil. avv II asrgacha shakllangan ko'chmanchi va yarim o'troq qabilalarning Qang' yo'l boshchilari qo'l ostida birlashtirilgan turli-tuman ittifoqlaridan iborat bo'lgan. Dastlab u uncha katta bo'lmagan qabilalar ittifoqidan iborat bo'lib, janubda yuechjilar hokimiyatiga bo'ysunsa, sharqda xunnlariga qaram edi. Ammo, mil. avv. II-mil. II asrda asta-sekinlik bilan u qudratli davlatga aylanadi. Bu davrda Qang' davlati manbalarda 120 ming deb ko'rsatiluvchi kuchli qo'shinga ega bo'lgan va qo'shni Xitoyga nisbatan g'oyatda mustaqil siyosat olib borgan.

Arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, Qang' qo'shinlaridagi otliv suvoriylar yuechji suvoriylari kabi yubka shaklidagi burmali sovut, ko'krakka taqiladigan qalqon kiyishgan. Baland po'lat yoqalar ularning bo'ynini himoya qilsa, dubulg'alar boshni omon saqlagan. Qurollardan qilichlar, nayzalar, jangovar boltalar, kamon va o'qlar keng tarqalgan edi. Har bir bo'linma ajdar shaklidagi o'zining maxsus tug'iga ega bo'lgan. Demak, Qang' davlati qo'shinlarida qurollanish va harbiy san'atga alohida e'tibor berilgan.

Katta Xan sulolasi tarixida «qang'lilar mamlakati podshosining turar joyi Loyuenidagi Bityan shahrida» deb ma'lumot beriladi. Boshqa tarixiy manbalarda Loyueni nomi uchramaydi. Binobarin, uning qaerda joylashganligi aniqlanmagan. K. Shoniyozov Bityan shahrini Toshkent vohasida joylashgan deb hisoblaydi. Chunki tarixiy manbalarda aytilishicha, Yaksart-Sirdaryo bo'yida qadimgi Kanha – Kanka shahri xarobalari joylashgan. Yu. Buryakov uzoq yillik arxeologik tadqiqotlar olib borish natijasida Kanxa shahri mil. avv. III-II asrlarda paydo bo'lganligini aniqladi. Demak, manbalarda eslatilgan Bityanning tashkil topgan vaqti Kanka shahri paydo bo'lgan davrga mos keladi. Bu nomlar bitta shaharning ikki xil nomlanishidir. Ushbu shahar Sirdaryoning o'ng irmoqlaridan biri Ohangaronning quyi oqimida (hozirgi Toshkent vil. Oqqo'rg'on tumani hududida) joylashgan.

Kanka haqida dastlabki ma'lumotlar Avestoning eng eski qismlari bo'lgan Yashtlarda Turon qabilalarining turar-joylari sifatida eslatiladi. Sosoniylar davri (224-651 yy.) manbalarida bu shahar «Qandesh» yoki «Qandiz» shaklida tilga olinadi. Shuningdek, Firdavsiyning «Shohnoma» asarida ham Kanka shahri bir nechta marta tilga olinadi. Undan tashqari o'rta asrlar geograflari asarlarida bu ko'hna shahar «Kenkrak», «Xarashkent», «Tarband» nomlari bilan eslatib o'tiladi.

Yuqorida eslatilgan Katta Xan sulolasi tarixida «Qang' podshosining yozgi qarorgohi Loyuenidan yetti kun yo'l yurib boriladigan yerda joylashgan» degan ma'lumot beriladi. Shi-gu solnomalarida ta'kidlanishicha «Qang' hokimi qishda (sovuqda), yozda (issiq paytlarda) bir yerda yashamas edi». Bu bilan bu fasllarda ularning turar-joylari boshqa-boshqa yerda bo'lishi o'qtirib o'tiladi. K. Shoniyozovning fikricha, keltirilgan axborotdan Qang' davlati o'sha davrlarda (mil. avv. III-I, mil. I-Vasrlar) asosan yarim o'troq qabilalar davlati ekanligini tushunib olish qiyin emas. O'troq aholidan tashqari Qang' davlatining chegarasida bir qancha qabilalar mavjud bo'lib, ular dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham

shugʻullanib kelganlar. Ular bahor va yoz oylarida oʻz chorvalari bilan koʻchib yozgi yaylovlarda yashaganlar. Qishda esa anʻanaviy qishlov joylariga koʻchganlar.

Antik davrda Qangʻ podsholarining yozgi qarorgohlari anʻanaviy qishlov joylaridan shimolda oʻrta asrlardagi Oʻror shahri oʻrnida hozirgi Qozogʻistonig Aris va Turkiston shaharlari oʻrtasida joylashgan. Keyinroq, yaʼni, ilk oʻrta asrlar davriga kelib yarim mustaqil Choch hukmdorlari Oʻtrorni oʻz qoʻllarida saqlab qolganlar. Bu shahar ularning yozgi qarorgohi hisoblangan.

Mil.avv. II-I asrlarga kelib Qangʻ davlati kuchayishi natijasida bir qancha viloyatlar unga tobe etiladi. N. Ya. Bichurin, Xitoy solnomalarida qangʻlilarga tegishli qoʻyidagi beshta viloyatlar haqida maʼlumotlar borligini taʼkidlaydi: Suse (Susye), Fumu, Yuni, Gi, Yuegyan. Ushbu viloyatlarning qaysi hududlarda joylashganligi haqida tadqiqotchilar orasida yagona fikr yoʻq. Ayrim tadqiqotchilar (V. V. Bartold, M. Ye. Mason, S. P. Tolstov) Suseni-Kesh (Shaxrisabz), Fumuni-Zarafshondagi Kushoniya, Yunini-Toshkent, Gini-Buxoro, Yuegyanni-Urganch va uning atroflari bilan aynan bir deb hisoblaydilar. Ammo, Qangʻga tobe viloyatlarning bunday joylashtirish toʻla holda ilmiy asoslanmagan boʻlib, munozarali hisoblanadi.

Qangʻ davlatining etnik tarkibi xilma-xil boʻlib, uning anchagina katta hududlarida Sugʻdiyona, Xorazm va Toshkent vohasida yashovchi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shugʻullanib kelgan oʻtroq aholi bilan birgalikda koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi chorvadar qabilalar (saklar, massagetlar, toharlar, alanlar va boshqalar) istiqomat qilganlar. Sirdaryoning oʻrta oqimida yashagan qangʻlilar Qangʻ davlati tashkil topishida asosiy oʻrinni egallagan boʻlib, Qangʻ podsholari asosan qangʻlilar boʻlgan.

Mil.avv. II - mil. II asrlarda Qangʻ davlati oʻz rivojlanishining yuqori choʻqqisiga koʻtariladi. Qangʻ podsholariga boʻysunuvchi yarim mustaqil viloyatlarni birlashtirgan bu davlat oʻz vaqtida anchagina kuchli boʻlib, oʻzbek davlatchiligi tarixida oʻz oʻrniga egadir. Agarda antik davrda Oʻrta Osiyoning janubida shakllangan Kushon va Parfiya davlatlari Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar asos solgan davlatlar anʼanalarini oʻzlashtirib taraqqiy etgan boʻlsa, Qangʻ davlati taraqqiyotida koʻchmanchilar davlatchiligi belgilari borligi bilan ajralib turadi.

Bizga qadar yetib kelgan yozma manbalar va bugunga qadar olingan arxeologik maʼlumotlarga asoslangan tadqiqotchilar Qangʻ davlati, uning tarkibi, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tarixini yoritishga, mazkur siyosiy birlashmada davlatchilik boshqaruvining shakllanishi va rivojlanishi xususida oʻz munosabatlarini bildiradilar.

Manbalar Qangʻ podsholarining nomlari haqida maʼlumotlar bermaydi. Faqat shu narsa maʼlumki, ular oʻz nomlari bilan birgalikda urugʻ nomini ham qoʻllaganlar va «Qangʻ xonadoni hukmdori» deb atalganlar. Qangʻda saylangan hukmdorning hokimiyati oqsoqollar kengashiga tayangani va ayni paytda kengash tomonidan cheklab qoʻyilganini koʻzatish mumkin. Qangʻ hukmdorlarining qanday unvon bilan atalganligi maʼlum. Ammo, kengashdagi zodagonlar vakillari qanday

atalganligi turli bahslarga sabab bo'lgan. Antik davrdagi usunlar, yuechjilar va qang'larning hukmdorlari yabg'u unvoni bilan atalgan.

Qang' davlati olib borgan tashqi siyosat qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish, keskinlashgan vaziyatning oldini olish va o'z chegarasida osoyishtalik o'rnatishga qaratilgan edi. Shu bilan birgalikda, payti kelganda atrofda kuchsizlanib qolgan qabilalarga, vohalarga, viloyatlar ustiga hujum qilib, ularni o'ziga qaram qilish ayrim hollarda tashqi siyosatni belgilab berar edi.

Arxeologiya yodgorliklari va topilmalardan ma'lum bo'lishicha bu davrda hunarmandchilik, ayniqsa kulolchilik, misgarlik, zargarlik va qurolsozlik taraqqiy etadi. Hunarmandchilik mahsulotlarining ortishi bilan ichki va tashqi, xususan, chorvador aholi bilan savdo aloqalari avj oladi. Kushon podshohligining Xan davlati va Rim saltanati bilan iqtisodiy va elchilik munosabatlari yuksak darajaga ko'tariladi. Kuchli tabaqalanish oqibatida yuzaga kelgan qo'zg'olonlarning avj olishi natijasida III asr o'rtalarida Kushon podshohligi parchalanib, barham topadi.

Miloddan avvalgi I asrda yuechji kabilari uyushmasida Guyshuan (Kushon) xokimligi ancha kuchaydi. Olimlar fikriga kura, dastlab guyshuan kabilasi Surxon voxasida joy-lashgan va ularning poytaxti Dalvarzin shaxri (Shurchi tumani) bulgan. Podsho Kujula Kadfiz davrida Kushon xokimligi xududi ancha kengayib, davlat tarkibiga Janu-biy Tojikiston, Afgoniston va Kashmir yerlari kushib olingan.


## **18-mavzu. Markaziy Osiyo xalqlari va Xitoy munosabatalari tarixi (qadimiyat va ilk o'rta asrlar)**

### **Reja:**

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyo xalqlari va Xitoy munosabatalari
- 3) Xitoy manbalarida Markaziy Osiyo haqidagi ma'lumotlar

**Tayanch so'z va iboralar:** Xitoy manbalari, mahalliy va umumbashariy madaniyatlar, Sharq yo'li, jamiyatning birlamchi yacheykasi, prinsipial boshqaruvlar tabaqasi, ijtimoiy va hududiy birlik, qishloq jamoalari, ishlab chiqaruvchi xo'jalik, qo'shimcha mahsulot, qadimgi davlatlar tipologiyasi, aholi soni va zichligining o'sishi.

O'rta Osiyoning Sharqida, Sirdaryoning yuqori havzasida joylashgan qadimgi Farg'ona antik davr o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Farg'ona haqida yunon-rim mualliflari ma'lumotlar bermaydilar. Bu davlat haqidagi yozma ma'lumotlar asosan Xitoy manbalarida – Chjan Syan ma'lumotlarida, Sima Syanning «Tarixiy xotiralar», Ban Gunning «Birinchi xan sulolasi tarixi» asarlarida beriladi. Bu manbalarda ushbu davlat «Dayuan» yoki «Davan» nomi ostida eslatiladi. Farg'ona so'zi Sug'd manbalarida «Fragonik» shaklida



yoziqib «tog‘lar orasidagi vodiyl, atrofi berk soylik» ma'nosini beradi. Xitoy manbalaridagi Dayyuan ham «tog‘lar orasidagi vodiyl» ma'nosini beradi.

Davan davlati tarixi bo‘yicha uzoq yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borilib, so‘nggi yillarda o‘zbek olimlaridan A.Asqarov, A.Xo‘jaev, B.Matboboev, A.Anorboev, S.Qudratov, B.Abulg‘ozieva, B.Abdullaev, Abduholiq Abdurasul o‘g‘li kabilar arxeologik ma'lumotlarni yozma manbalar bilan qiyosiy o‘rganish asosida samarali ishlar olib borayotgan bo‘lishlariga qaramay, bu yo‘nalishda hali ko‘pgina masalalar o‘z yechimini topmagan. Davan davlati shaharlarining aniq joylashuvi, davlat tizimi va boshqaruvi, davlatning chegaralari, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlar, mahalliy madaniyatning qo‘shni madaniyatlar bilan munosabatlari masalalari shular jumlasidandir.

Qadimgi Farg‘ona aholisi bronza davridayoq buloq suvlari birlashuvidan paydo bo‘lgan Qoradaryo tarmoqlari havzalarida o‘ziga xos sug‘orma dehqonchilik madaniyatini yaratadilar. Avvalo o‘troq dehqonchilik, keyinchalik ilk shaharsozlik va nihoyat ilk davlatchilikka asos bo‘lgan bu madaniyat fanda «Chust madaniyati» nomi bilan mashhur bo‘lib, qadimgi Farg‘onaning shimoli-sharqiy hududlaridan bu madaniyatga oid 80 dan ortiq yodgorliklar majmui aniqlanib o‘rganilgan. Ulardan ilk shahar madaniyati belgilari Dalvarzintepada (Andijon viloyati) va Buonamozorda (Namangan viloyati) aniqlangan. Undan tashqari Chust madaniyatini Sho‘rabashot va Eylaton madaniyatlarini davom ettiradi.

Ilk temir va antik davrga kelib Farg‘onada mahalliy madaniyatlar an‘analari asosida taraqqiy etayotgan qadimgi dehqonchilik madaniyatlarini butun vodiyni qamrab oladi va aholining o‘troq hayot tarzi jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mil.avv. III asrdan boshlab butun Farg‘ona vodiysida shaharsozlik madaniyati keng yoyiladi. Aynan mana shu davrda Farg‘ona vodiysi orqali o‘tgan Buyuk ipak yo‘li tarmoqlari bo‘ylab Axsikent, Marhamat, Kubo, Marg‘ilon, Bob (Pop) kabi ko‘hna shaharlar paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham mil.avv. II asrga oid Xitoy manbalari Farg‘onada 70 ta katta-kichik shaharlar borligi haqida ma'lumot beradi.

Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» asarida Davanning ikkita poytaxti – Ershi va Yuchen bo‘lganligi haqida xabar beriladi. Bu shaharlarning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yo‘q. Ular O‘zgan, Mingtepa (Marhamat), Qo‘qon, Koson, Axsikent, O‘ratepa yoki Jizzax o‘rnida joylashtiriladi.

Eng qadimgi yozma manbalar O‘rta Osiyodagi ayrim ilk davlat uyushmalari haqida ma'lumotlar bersada, Farg‘ona haqida bunday ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan Yu.A.Zadneprovskiy Qadimgi Farg‘ona (Davan) podsholigining mavjud bo‘lganligining taxmin qiladi. A. Asqarovning fikricha, mil.avv. I ming yillikning o‘rtalaridan oldingi davrdagi Farg‘ona haqida so‘z yuritilganda odatda faqat «chifdom» (voha) shaklidagi qadimgi davlat asoslarining paydo bo‘lishi anglashiladi. Olimning fikricha, mana shu holatni hisobga olib Farg‘onada davlatchilik, aftidan, mil. avv V-IV asrlarda paydo bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

B.Matboboevning fikricha, A. Asqarovning bu xulosasi ikkita tarixiy dalilga asoslangan. Birinchisi, aynan mana shu davrga oid arxeologik topilmalar (Sho‘ra-

bashot madaniyati) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi (mahsulot ishlab chiqarish va savdo sotiqning o'sishi) haqidagi taxminlarni ilgari surish imkonini beradi. Ikkinchisi, mil.avv. II asrdayoq Farg'onada ko'p sonli shaharlar mavjudligi haqida ma'lumotlar bor.

Mil. avv II asrdan boshlab Qashg'ardan Davanga shimoliy yo'ldan karvon yo'li harakati boshlanadi. Bu yo'ldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Davan aholisi ko'paya boshlaydi va ko'plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo'ladi. Savdo yo'lida Davan muhim ahamiyatga ega bo'lib boradi. Tadqiqotchilarning fikricha, Yassa va Qoradaryo vohalarida ko'pgina qal'alar savdo yo'lini qo'riqlash maqsadida barpo etiladi.

Mil.avv. 125 yilda Davanga kelgan Xitoy elchisi Chjan Syan bu yerda qishloq va shaharlari obod, sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik xo'jaliklari yuksak rivojlangan, kuchli harbiy kuchlarga ega davlatni ko'radi. Chjan Syan Davanning qishloq xo'jaligi haqida ma'lumot berib, shunday yozadi: «O'troq aholi yer haydaydi, g'alla va sholi ekadi, ularda musallas navli o'zum, juda ko'plab yaxshi otlar bor. Davanning barcha joylarida o'zum vinosi tayyorlaydilar. Boy xonadonlar uni katta miqdorda tayyorlaydi, bu ichimlik xumlarda bir necha o'n yillarda ham bo'zilmay saqlanadi». Shuningdek bu elchi, bu davlat aholisi juda xushmuomala, mehmondo'st, ko'ngli ochiq odamlar ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Xitoy manbalari qadimgi Farg'onada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Xitoyliklarni ayniqsa, o'zlari uchun notanish bo'lgan beda va o'zum hayratga solgan. Manbalarda yana shunday ma'lumot bor: «Xitoy elchisi urug' keltirdi, shunda osmon farzandi (Xitoy imperatori) unumdor yerga beda va o'zum ekdi». Davanliklarning bog'larida o'zumdan tashqari anor, o'rik va boshqa mevali daraxtlar ko'p bo'lgan. Xitoy tarixchilari bu mevalarning Xitoyda paydo bo'lishini Davan bilan bog'laydilar.

Xitoy manbalari, shuningdek, qadimgi Farg'ona chorvachiligining o'ziga xos tomoni bo'lgan yilqichilikning yuqori darajada rovojlanganligi haqida ham ma'lumotlar beradi. Davan davlati antik davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, ularni yetishtirish bilan o'troq aholi shug'ullangan. «Davanda yaxshi otlar bo'lib, ular Ershi shahridadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi bo'lmaydilar». Davanning mashhur «samoviy otlari» tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Xususan, O'shdan 8 km uzoqlikdagi Ayrimchatovning qoya adirlarida 30ta chiroyli zotdor otlarning tasvirlari bor. Xuddi shunga o'xshash tasvirlar Marhamat yaqinidagi Aravon qoyasidan, Navqat vohasi va Obishirsoydan ham topilgan. Bu tasvirlar Davan o'zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo'lganligini tasdiqlabgina qolmay, farg'onaliklarning yuksak san'at sohiblari bo'lganliklaridan ham dalolat beradi. Manbalarning guvohlik berishicha, qo'shni davlatlar, xususan, Xitoy imperatorlari Davan otlarini nihoyatda qadrlaganlar.



Davan davlati ma'lum bir siyosiy uyushmani tashkil etgan bo'lib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda «Van» (podsho) unvoni bilan ish yuritgani eslatiladi. Manbalarda «Van» unvoniga ega bo'lgan Motsay, Chan Fin, Mug'ua, Yan'lyu kabi hukmdorlarning nomlari saqlanib qolgan. Yagona hukmdor bo'lgan podsho, ya'ni, «Van» davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarni oqsoqollar kengashiga suyangan holda olib borgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, podshoga yaqin kishilar (odatda uning qarindoshlari) orasidan yordamchilar – bita katta yordamchi (Fu van) va bitta kichik yordamchi (Fu-go-van), tayinlangan. Davlat hukmdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu jarayonda oqsoqollar kengashining ham ahamiyati kam bo'lmagan. Oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, ba'zan ular hukmdorning taqdirini ham hal qilganlar. Misol uchun, manbalarda qayd etilishicha, urushda mag'lubiyatga uchraganligi uchun hukmdor Van Motsay oqsoqollar kengashidagi umumiy ovoz berishda aybdor deb topilgan va qatl qilingan.

Davan davlati hududlari shaharlar va vohalarga bo'lingan holda idora etilgan bo'lishi mumkin. Chunki manbalarning ma'lumot berishicha, Yuchen shahrining hokimi Xitoy qo'shiniga oziq-ovqat yetkazib berishdan bosh tortgan. Tadqiqotchi N. Gorbunova har bir shaharning, ehtimol, vohaning o'z hokimi bo'lganligi haqidagi taxminni ilgari suradi. Olimaning fikricha, aynan mana shu hokimlar oqsoqollar kengashi tarkibiga kirgan va unda hal qiluvchi mavqiyega ega bo'lgan. A. Asqarovning fikricha, oqsoqollar kengashi oldida podsho-hukmdorning huquqlari cheklangan edi. Ayniqsa, urush va tinchlik, diplomatik masalalarda hal etuvchi kuch va huquq oqsoqollar kengashi qo'lida edi.

So'nggi yillarda Davan davlati tarixi bo'yicha samarali ish olib borayotgan B.X.Matboboevning yozishicha, ichki tartibni saqlash va mamlakatni tashqi dushmandan himoya qilish uchun Davan davlatida asosan piyoda askarlar va otliq suvoriylardan iborat bo'lgan 60 ming kishilik qo'shin mavjud edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, davanliklar «otda ketayotib o'q otishda mohir bo'lganlar». Jangchilarning qurollari o'q-yoy va nayzadan iborat bo'lgan. Davan qo'shinlari ochiq jangga kirishga ham, uzoq muddatli mudofaa urushlari olib borishga ham qodir bo'lgan.

Davanning «samoviy otlari» va davlatning serunum yerlari uchun mil. avv II asrning oxirlarida Xitoy va Davan o'rtasida harbiy to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Chjan Syan va Sima Syanlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy imperatorlari Davanga ikki marta yurish qiladilar. Birinchi yurish mil.avv. 104 yilda uyushtirilib, xitoyliklar Davanning markazi Ershiga yetib kela olmay Lobnorda qattiq qarshilikka uchraydilar. Undan tashqari O'zganda katta talofat ko'rgan Xitoy qo'shinlari o'z yurtlariga qaytib ketishga majbur bo'ladilar. Ammo, qang'lilardan yordam kelayotganini eshitgan imperator qo'shinlari davanliklardan 3 mingta «samoviy tulpor»ni olib Xitoyga qaytishga majbur bo'ladilar. Shunday qilib Davan davlati xitoyliklardan o'z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

O'zining butun tarixi davomida Davan davlati yirik imperatorlar va kuchli davlatlar ta'siri ostiga tushmasdan o'z siyosiy erkinligini saqlab qolgan. Arxeologik topilmalar ham qadimgi Davanning o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Misol uchun, Farg'ona vodiysi mil. avv. VI-IV asrlarda Eron Ahamoniylari va Aleksandr Makedonskiy bosqinlaridan chetga qolgan. Aleksandr faqat Xo'jand shahrigacha kelganligi taxmin qilinadi.

O'rta Osiyo mamlakatlarining Xitoy bilan Xan sulolasi hukmronligi (eramizdan avvalgi 206 yil-eramizning 222 yili) davrida diplomatiya munosabatlari Birinchi davr (eramizdan avvalgi II asr oxiri -eramizning I asri birinchi yarmi). Xan imperiyasi o'zining tashkil topgan paytidan boshlab o'zi egallab turgan Xuanxe va Yanszi daryolari oralig'idagi unchalik katta bo'lmagan hududdan tashqariga chiqishga intilib agressiv ekspansionistik siyosatni olib borgan. Bu yo'nalish ayniqsa g'arbiy hududlarga katta e'tibor qaratilgan imperator U-di (eramizgacha bo'lgan 140-87 yillar) davrida kuchaygan. Chjan Szyan missiyasi. G'arbiy o'lka - Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkiston, hisoblashlaricha, xitoyliklar uchun Chjan Szyanning sayohatiga qadar noma'lumligicha krlgan. Biroq, bu degani ular o'zlaridan g'arbda ko'p sonli xalqlar istiqomat qiladigan ulkan o'lka mavjud ekanligini mutlak bilmaganlar, degan ma'noni bildirmaydi.

Mazkur sayohatga qadar Kangoy viloyatidan Xitoyga elchilar jo'natilgani to'g'risida ma'lumot bor. Biroq, shu narsa ham ayonki, fakat Xan imperatori U-di hukmronligi davrida (eramizgacha bo'lgan 140-87 yillar) bu o'lkalalarda yashovchi xalqlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga faol urinishlar, karvon yo'llarini uni mustamlaka qilish hamda g'arbga yanada ilgarilash maqsadida razvedka qilishga harakat qilingan. Xitoyning g'arbiy o'lka bilan dastlabki diplomatik aloqalariga eramizgacha bo'lgan II asrning birinchi yarmida

O'rta Osiyoning ikkita ancha qudratli kabilalari xunlar bilan Yuechjiylar yani, Yunon manbalarida atalishicha toxarlar o'rtasida kelib chiqqan urush sabab bo'lgan. Bu urushda Yuechjiylar mag'lubiyatga uchraganlar va o'zlarining hozirgi Gansu provinsiyasidagi ular dastlab yashagan xududning katga kismidan yettisivga ko'chishga majbur bo'lganlar. Ammo bu yerda ham xunlar yuechjiylarni quvib yetganlar, ularning yo'l boshchisini katl etganlar, bosh chanog'idan ichimlik ichish uchun loklangan idish yasaganlar. Yuechjiylar O'rta Osiyo janubiga - Baqtriya tomonga yo'l olganlar, bu yerda ular boshka kabilalar bilan bir qatorda Yunon - Baktriya podsholigini qulatiimda ishtirok etganlar, ko'p yillar o'tgandan so'ng esa, ularning avlodlari Kushon imperiyasini yaratganlar. Yuechjiylar xunlardan cho'chib ularga qarshi kurashda o'zlariga shtifoqchilar izlaganlar. O'z navbatida, xunlarning bosqinchiligidan tez-tez aziyat chekib turgan Xan Xitoyi Yuechjiylarning istagidan xabar topib, shunday ittifoqchilik munosabatlarini o'rnatish uchun yo'l-yo'riqlar kidira boshlagan.

Bu missiyani amalga oshirishga Xan Chjun viloyatida yashovchi, ehtimol o'zining obro'-e'tibori bilan boshqa da'vogarlar ichidan tanlangan Chjan Szyan ismli darvoza krovullari boshlig'i bel bog'lagan. Chjan Szyanning bu missiyasi to'g'risida Shitszada hikoya kilingan. Chjan Szyan g'arbga tomon xun kuzatuvchisi

Tani Xunuganfu bilan birga otlangan. Birok, yoʻlda u xunlar tomonidan koʻlga olingan va ular tomonidan oʻzlarining knyazlari huzuriga keltirilgan, knyaz mutlakr asosli ravishda Chjan Szyandan Xitoy imperatorining xun yerlari orqali yuechjiylarga elchi yuborishga qanday haqi borligini soʻragan. Chjan Szyan qoʻlga olingan va xunlar asirligida qariyb oʻn yil kelib ketgan, uni xun ayoliga uylantirib qoʻyganlar, bu nikohdan oʻgʻil tugʻilgan. Ammo, oʻziga berilgan erkinlikdan foydalanib, u oʻz sheriklari bilan gʻarbga ketgan va bir necha oʻnlab kunlardan soʻng qadimgi tarixiy-madaniy viloyat, Fargʻonaga mos keluvchi Dovonga kelgan. Dovon hukmdorlari Chjan Szyan bilan suhbatda oʻzlarining Dom Xan bilan diplomatii munosabatlar oʻrnatish istagini bildirganlar. U agar uni Yuechjiylarga kuzatib qoʻysalar, Xitoyga qaytgandan soʻng imperator Dovon hukmdorini koʻp sovgʻa-salomlar bilan siylashini bildirgan. Keyinchalik Chjan Szyan oʻzining imperatorga yozgan maktubida dovonliklarning dehkrcnchilik qilishlari, sholi va bugʻdoy ekishlari, ularda uzum va may koʻp ekanligini yozgan. Dovonda 20 taga yaqin katga va kichik shaharlar boʻlgan. Birinchi missiyasida Chjan Szyan Dovondan unta ajratilgan maxsus kuzatuvchilar hamrohligida dastavval Markaziy Osiyo ikki daryo oraligʻidagi shimoliy va markaziy qismning keng hududini hamda Sirdaryoning oʻng tomonidagi yerni egallagan koʻp qabilalik egaligidagi Kanpoyga yuborilgan. Chjan Szyan Kanpoydan eramizdan avvalgi 128 yoki 126 yilda oʻz hamrohlari bilan Katta Yuechjiyga joʻnagan. Bu vaktga kelib yuechjiylar xunlardan yana magʻlubiyatga uchranganlar, ular yuechjiylar hukmdorini oʻldirganlar, taxtga esa uning toʻngʻich oʻgʻlini oʻtqazganlar. U xunlar bilan yangi toʻqnashuvlardan hadiksirab, oʻzining ilgarigi makonini oʻzgartirishga qaror qilgan hamda oʻz kabilasi bilan birga Guyshuy - Amudaryoning shimolini, taxminan hozirgi Uzbekistonning Surxondaryo viloyati va Tojikiston janubini zabt etib janubga ketgan, soʻngra esa bu daryoning janubidagi viloyatni bosib olgan, u Xitoy manbalarida Daxya deb atalgan, mahalliy aholi Baqtriya, yunonlar Baktriana deb ataganlar. Eramizgacha boʻlgan II asrning oʻrtasida yoki ikkinchi yarmining boshida Baqtriya sakaravl, asiy, pasian va toxar koʻchmanchi qabilalari tomonidan bosib olingan. Ehtimol, toxar xalqi nomining xitoychada buzilishidan Daxya soʻzi kelib chiqqan. Ancha keyingi manbalarda bu viloyatning nomi Toxariston - toxarlar mamlakati sifatida berilagan. Shitszada koʻrsatilishicha, «Daxya Dovondan 2000 li janubiy-gʻarbiy uzoqlikda, Guyshuy daryosining janubida joylashgan. U yerda oʻtroq turmush kechiradilar, shaharlar va uylarga egadirlar». Bu vaqtga kelib yuechjiy hukmdori oʻz qabilasi joy lashgan yangi hududlardagi tinch turmush tarzini afzal bilib, xunlardan oʻch olishdan voz kechgan. Chjan Szyan Baktriyada bir yiddan ortik. turgan va biron narsaga erisha olmagach, janubiy yoʻl bilan Xitoyga kaytib borishga harakat qilgan, ammo yana xunlar tomonidan asir olingan. Yangi asirlikdan Chjan Szyan xotini va kuzatuvchisi Tanganfu bilan oradan bir yil oʻtgach, xunlar oʻrtasidagi oʻzaro janjallardan foydalanib krchishga muvaffak boʻlgan va Xitoyga yetib kelgan.

Uning gʻarbiy oʻlkaga birinchi missiyasi 13 yil davom etgan, biroq Xitoyga joʻnagan yuzta hamrohlaridan esa, faqat ikkitasi - Chjan Szyanning oʻzi va uning kuzatuvchisi qaytib kelgan. Chjan Szyan Xitoyga qaytgandan soʻng oʻzi boʻlgan

mamlakatlar to'g'risida, mahalliy aholidan eshitganlari haqida imperatorga batafsil ma'lumotnoma yozib bergan. Jumladan, u g'arbiy O'rta yer dengizi, Tyaoji - Kichik Osiyo yoki Sharqiy O'rta yer dengizi va Lichan, ehtimol, xitoyliklar shuningdek Folin yoki Datsin deb atagan Misr yoki Qadimgi Rim to'g'risida birinchi ma'lumotlarni keltirgan. Chjan Szyan o'z yozmalarida Markaziy Osiyo o'lkalari Dovon, Usun, Kanpoy, Daxya, Yansay, Katta Yuechji, ularning joylashgan o'rni, poytaxtlari, yo'llari va masofalari, mashg'ulot turlari, odatlari, aholi va ko'shinlari soni haqida to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni keltirgan. Jumladan u Kanpoy va Katta Yuechji kuchli ko'shinga ega ekanligi, ularni xizmatga yollash mumkinligi, agar ularni fuqarolikka moyillik holati bo'lsa, unda Xitoy yerlarini qariyb 10000 liga kengaytirish mumkinligani yozgan. Xitoyga kelgandan so'ng Chjan Szyan, shuningdek uning hamrohi yuqori mansab, so'ngra, xunlar bilan bo'lgan urushdagi muvaffakiyatlari uchun Bovan-xeu knyazlik unvonini hamda Syaoyuy va Vey-yuy harbiy mansablarini (ma'lum ko'shin qismi boshlig'i) olgan. Biroq, bu barcha mansablar va unvonlardan Chjan Szyan eramizdan avvalgi 122 yilda mahrum bo'lgan, unga ishonib topshirilgan ko'shin xitoyliklar bilan xunlar o'rtasida jang bo'ladigan joyga kechikib kelgan, buning natijasida xitoyliklarning katta qismi kurshab olingan va kirib tashlangan, Chjan Szyanning o'zi esa, boshini tanasidan judo qilishga hukm kilingan, lekin afv etilgan. Chjan Szyanning kahr-g'azabga mahkumligi bir necha yil davom etgan, bu vakt ichida xitoyliklar bir necha janglarda xunlarni yanchib tashlaganlar va Sho'r ko'l-Lobnorgacha yetib kelganlar, ularning oldida Markaziy Osiyo tomon to'g'ri yo'l ochilgan. Shu munosabat bilan Xan imperatori Markaziy Osiyo yerlari, Daxya va Usun hamda ularning Xitoyga ko'shib olinishi bilan yana kiziqqa boshlagan. Chjan Szyan imperator bilan suhbatga chakirilgan, u usunliklarning axvolini batafsil ifoda etuvchi ma'lumotlarni imperator uchun tuzib bergan. U jumladan, Usun hukmdori Gunmo xunlar ta'kibidan qutula olganligi, agar siyosat to'g'ri olib borilsa Usunni, so'ngra esa Daxya va boshqa Markaziy Osiyo o'lkalarini Xitoyga ko'shib olish mumkinligini yozgan. yetkazilgan bu ma'lumotlar Chjan Szyanning xun pristavi etib tayinlanishida hal qiluvchi rol o'ynagan, unga har birida ikkitadan ot bo'lgan 300 ta jangchi va 10.000 boshgacha qaramol hamda qo'ylar yordam tarikasida berilgan, u katta miqdordagi sovg'alar bilan ta'minlangan. Chjan Szyan bilan birga Usunga turli O'rta Osiyo o'lkalariga vakil kilib tayinlangan tug'lari bo'lgan ko'p sonli yordamchilar jo'nagan. Biroq, Usunlarning oliy xukmdori Gunmo bilan bo'lgan muzokaralar Xitoy uchun kutilgan natijalarni bermagan, chunki Usun o'lkasi uch kismga ajralgan va ularning hukmdorlari mustaqil siyosat yurgizayotgan bo'lganlar. Shunday bo'lsa-da, Chjan Szyan usunliklar huzurida bo'lgan paytida Xitoy vakillarini Dovon (Farg'ona), Kanpoy (So'g'd, Xorazm), Daxya (Baqtriya), Katta Yuechji (Shimoliy Baqtriya), Ansi (Buxoro yoki Baqtriya)ga jo'natishni tashkil etishga muvaffaq bo'lgan. Shundan so'ng u rahbariga Gunmo xitoyliklar hayoti hakida imkon kadar ko'prok. ma'lumot yig'ishni topshirgan unchalik katta bo'lmagan Usun elchilari guruhi hamrohligida Xitoyga qaytgan. Xitoyga kaytgandan so'ng oradan bir yil o'tgach, eramizdan avvalgi 104 yoki 103 yilda o'sha paytda muhim davlat mansabini egallab

turgan Chjan Szyan vafot etgan. Yana oradan bir yil o'tgach, Chjan Szyan tomonidan turli xil topshiriklar bilan yukrida ko'rsatilgan o'lkalarga jo'natilgan vakillar Xitoyga qaytishgan, ular bilan birga Xitoyga o'sha o'lkalarning elchilari ham kelishgan. Bu O'rta Osiyodaga birinchi diplomatik elchilar edi. Aynan shu vaktidan O'rta Osiyo davlatlari va Xitoyning ko'p asrlar davom etgan turli xil intensiv aloqalari davri boshlanagan, va bu Chjan Szyan missiyasining yana bir muhim yakunidir. U o'z umrining o'n to'rt yilini shak-shubhasiz obro'-e'tibor qozongan holda O'rta Osiyo xalklari orasida o'tkazgan. Shitszada shunday deyilganki, «Bov-xeu Chjan Szyan xorijliklar qalbiga yo'l topishning uddasidan chiqa oddi hamda shu sababdan chet elliklar ham unga ishonch bildirdilar». Xitoy-Farg'ona diplomatik munosabatlari Bu mintakada Xitoy diplomatik munosabatlar o'rnatgan, dastavval ancha keskin munosabatlar kasb etgan, birinchi mamlakat Dovon - Farg'ona bo'lgan. Bunda ikki mamlakat o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlarning asosiy sabablaridan biri imperator U-di Chjan Szyan hikoyalaridan bilib olgan Farg'onaning mashhur «samoviy otlari» bo'lgan. Shitszaning takidlashicha, U-di Dovon hukmdoriga 100 ldan oltin va oltin ot bilan maxsus elchi yuborgan va unga ushbu ehsonlar evaziga Dovon arg'umoqlaridan yuborishni iltimos qilgan. Ammo Dovon hukmdori otlarni berishni istamay zlichining iltimosini rad etgan, bunda u Xitoyning juda olisda joylashganini inobatga olib o'z qo'shinlarini Dovonga yubora olmaydi, deb hisoblagan. Bu elchining jaxlini chiqargan hamda u Dovon hukmdorining bu javobiga kupollik bilan javob qaytargan. Hozirgi zamon tili bilan ifodalaganda, mojaro kelib chiqqan va elchi o'ldirilgan (ko'rinib turibdiki, o'sha paytda hali diplomatik daxlsizlik tushunchasi mavjud bo'lmagan), uning buyumlari esa, Dovon hukmdori foydasiga musodara etilgan. Bu harakatga javoban xitoy imperatori Farg'onaga qo'mondon Li Guan-li boshchiligidagi qariyb yuz ming kishilik qo'shinni yuborgan. To'rt yil davom etgan va Dovonning mag'lubiyati bilan yakunlangan Xitoy-Dovon urushi boshlangan. Li Guan-li buyrug'iga ko'ra qatl etilgan sobiq hukmdor Mugua o'rniga qariyalardan biri Motsay o'tkazilgan va xitoyliklar 3000 ta otni olib ortlariga kaytganlar. Oradan bir yil o'tgach Dovon oksoqrlari Motsayni xitoyparastligi uchun o'ldirganlar, taxtga esa uning Kenja o'g'li Chjan-finni o'tkazganlar. Chjan-fin o'z o'g'lini garovga jo'natib va har yili Xitoyga bir juft «samoviy zotli» otlarni yuborishni o'z zimmasiga olib, Xitoy bilan tinchlik shartnomasini tuzgan (bu ushbu mamlakat bilan O'rta Osiyo mamlakatlaridan biri o'rtasida tuzilgan birinchi shartnoma edi). Bunga javoban imperator qarorgohi Dovon bilan tinchlik munosabatlarini mustahkamlash uchun bu yerga sovg'a-salomlar bilan elchi yuborgan. Dovondan orqaga jo'nab ketayotganda Xitoy elchisi o'zi bilan uzum va Musu o'simligi urug'ini olgan, so'ngra ular Xitoy imperatori tomonidan katta hududda ko'paytirilgan. Shunday qilib, Xitoy birinchi marta uzum va beda kabi katta ahamiyatga ega qishloq xo'jaligi ekinlari bilan tanishgan. Dovon-Xitoy urushi tugagandan keyin Xitoyning g'arbiy o'lkadagi diplomatik faoliyati juda tez rivojlangan. «Xan katta uyining tarixi» guvoxlik berishicha, U-di imperatorligi davrida O'rta Osiyoning turli davlatlariga har yili o'ntadan kam bo'lmagan elchilar jo'natilgan.

## 19-mavzu. Xunlar va Markaziy Osiyo. Birinchi va Ikkinchi xunlar imperiyasi: yuksalishi va tanazzuli

### Reja:

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Xunlar va Markaziy Osiyo
- 3) Birinchi va Ikkinchi xunlar imperiyasi tarixi

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Xunlar, Birinchi va Ikkinchi xunlar imperiyasi, xalqlarning ko'chishi.

Xunlarning kelib chiqishi haqidagi qarashlar:


Mil.avv. 2 ming yillikning o'rtalarida Xuanxe daryosi o'rta oqimida shakllangan o'troq dehqonchilik markazining shimolida qadimgi xitoylardan madaniy jihatdan farq qiluvchi ko'plab qabilalar va ularning uyushmalari yashagan. Ular haqida In davriga oid fol ochish maqsadida sopol parchalari va boshqa ash'yolar yuzasiga yozilgan bitiklarda xabarlar yetib kelgan. Mil.avv. VI asrda bu qabilalar ko'chmanchi chorva xo'jaligi yurituvchi xalqlarga aylangan. Biroq, yolg'iz ko'chmanchi chorva xo'jalik tipi bu xalqlarning kundalik ehtiyojlarini qoplashga yetarli emas edi. Ular doimiy ravishda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, ayniqsa, xitoyliklarda yaxshi rivojlangan to'qimachilik mahsulotlariga muxtoj edilar. Tinch munosabatlar doirasida ko'chmanchi qo'shnilar bilan xitoyliklar o'rtasida har ikki xo'jalik ukladlari o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'ya boshladilar.



Mazkur shimol qabilalrining etnik mansubligi masalasi xitoy manbalarida dastlab aniq nomlarga ega emas. Masalaning chuqur tarixiy aspektlarini e'tiborga olmagan holda Yevropa tarixchiligida chiqarilgan xulosalarga ko'ra mil. avv. III asrda mazkur hududlarda yashagan va Xitoyga doimiy xavf solib turgan xunlar haqidagi ma'lumotlar yetakchi o'rin ola boshlaydi. Holbuki, eng qadimgi (mil. avv.) III-II ming yilliklarga oid yodgorliklarda prototurkiy xalqlarni ifoda etuvchi ierogliflar bo'lgan. Ularning grafik shakllari va talaffuzi haqida xitoyshunos tarixchi olim A.Xo'jaev maxsus tadqi-

qotlar olib borgan. Ularning natijasi shuni ko'rsatadiki, mil. avv. II ming yillikda mazkur hududlarda *di*, *tiek*, *dinli*, *te-le* singari atalgan xalqlar bo'lgan. Bu xalqlarning asosiy yadrosi (o'zagi) prototurkiy xalqlar bo'lgan va ular turli etnik tarmoqlarga ham bo'lingan. Ulardan biri xunlar bo'lib, ayni mil.avv. III asrdan boshlab xitoy manbalarida alohida ajratib ko'rsatiladi. Bu davr xitoyliklar uchun asosiy xavf xunlar tomonidan edi. Chunki xunlar mil.avv. III asrda g'arbiy tomoni Tyanshan, Pomirga taqalgan, sharqiy tomoni Koreyagacha cho'zilgan,

janubi esa, Xitoy bilan yuzma-yuz ulkan davlat tuzib, uning tarikibida turkiy xalqlarni va tungus-manjur va boshqa xalqlarning ajdodlarini birlashtirishga erishgan edilar. Xitoy esa, xunnlarning hujumlaridan himoya uchun buyuk xitoy devorini qurish bilan ovora edi.



Xitoy manbalarida xunnlarning tashkiliy-siyosiy ijtimoiy tuzumi haqida ma'lumotlar bor. Xunnlarning oliy hukmdorining mansabi xitoy manbalarida shanyuy deb ataladi. Birinchi nomi qayd etilgan shanyuy Touman (Tuman). Touman bu ml.avv. III asrda Ordosni o'ziga bo'ysundirgan. Xitoy Ordosni qaytarib olishga harakat qilgan va Buyuk Xitoy devorini qurishni boshlagan. Toumandan keyin Xunn imperiyasining hukmdori shanyuy Maodun bo'lib, 300 ming nafar askar-

dan iborat qo'shin bilan sharqiy qo'shnisi bo'lmish dunxu va g'arbiy qo'shnisi bo'lgan yuechjilarni bo'ysundirgan. Natijada xunnlarning davlati Sharqiy Turkistondan Uzoq Sharqqacha ulkan hududni egallagan.

Shu davrda Xunn imperiyasi Xitoyga bir necha marta qattiq zarba bergan. Xitoy Maodundan sulh so'rab ml.avv 198 yilda elchilik missiyasini yuborgan va qarindoshchilik o'rnatish niyatida Maodunga Xitoy malikasini taklif etgan. Mag'rur Maodun bu taklifni rad etgan. Xitoy tarixchilari Sima Szyan, Ban Gu, Fan Ye "Shi szi", "Syan Xanshu", "Xouxan-shu" kitoblarida xunnlarning ijtimoiy hayoti haqida qiziqarli ma'lumotlar qoldirishgan. 300 ming askar to'plagan qo'shin aholining 5/1 hisobidan olingan. Shundan kelib chiqilsa, xunnlarning umumiy soni 1,5 million kishidan iborat bo'lgan. Shanyuy hokimiyatini tariflab, Ban Gu uni osmonga o'xshatgan va shanyuyning Xitoy imperatoriga yozgan xatidan misol keltiradi. Shanyuy bunday yozgan: "Osmon va yerdan bunyod bo'lgan, quyosh va oydan yerga tushirilgan, xunnuning buyuk shanyuyi". Shu kabi yozilgan shanyuy xatiga Xitoy imperatorining javobi: ".....kamina imperator chuqur hurmat bilan buyuk shanyuyning sog'liqlarini so'rab turibdi."

Xunnu shanyuylarining hokimiyati merosiy bo'lgan. Odatda otadan keyin hokimiyat katta o'g'ilgan o'tgan. Bu odatga qat'iy amal qilingan, ba'zan istisno zaruriyati bilan boshqacha qaror qabul qilish mumkin bo'lgan. Keyinchalik, hokimiyatga bo'lgan huquq o'g'illarning yosh jihatdan ketma-ketligi bo'yicha kattadan kichikka tomon taqsimlanadigan odat paydo bo'lgan. Ba'zi hollarda shanyuy va uning birodarlari o'rtasida ham hokimiyat taqsimlanishi bo'lgan. Shanyuyning hokimiyati cheksiz hisoblangan. U oliy qo'mondon, oliy sudya vazifalarini ham bajargan. Sababi xunlar doimiy urush bilan mashg'ul bo'lgan. Xunlar o'zining davlati himosiga ham katta ahamiyat berishgan. Bir so'z bilan aytganda shanyuy davlat hokimiyati va harbiy hokimiyatni o'zida birlashtirgan.

Xunlar jamiyati 24 oqsoqol tomonidan boshqarilgan. Oqsoqollar esa, xunlarning 24 katta qabila uyushmalari nomidan ish ko'rishgan. Bunday ijtimoiy bo'linish bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Masalan, 24 ota, 92 urug' o'zbeklar, Oqmon turkmanlarining 6 ota, 24 urug' uyushmasi kabilar. Oqsoqollarning martabasi 10 ming aholi hisobidan boshqaruvda ishtirok etuvchi vakil sifatida tuman so'zidan tumnaboshi deb hisoblangan. Ban Gu tumanboshilar boshqargan hudud nomini xitoycha "go" deb ataydi. Buning ma'nosi davlat demakdir. Ya'ni, tuman boshilarning mahalliy hokimiyati o'z ichki ishlarida markaziy hokimiyatdan nisbiy mustaqil bo'lishgan. O'zlari qo'shin tuzishlari, pul zarb qilishlari mumkin bo'lgan. Tumanboshilarni xitoy manbalari ba'zan kichik shanyuylar deb ataydi. Tumanboshilikka tayinlash oliy shanyuyning vazifasi hisoblangan. Ko'chmanchi aholining birinchi vazifasi harbiy xizmat deb hisoblangan. Tumanboshilar shanyuy ko'rsatmasi bilan harbiy yurishlar qilib turishgan va zarur bo'lganda shanyuy qo'shiniga o'z lashkarlari bilan kelib qo'shilishgan. Tumanboshilar mahalliy soliq yig'inlarini aholi demografik hisobini ham olib borishgan. Mol-mulkning sanog'i va undan keladigan daromad solig'larini hisob-kitobini olishgan, boshqarishgan. Oliy shanyuyning qarindosh urug'lari bir yilda uch marotaba qurultoyga yig'ilishgan. Davlat ishlarini muhokama qilish bilan barobar, ular ishtirokida katta hayr-ehson amallari bajarilgan. Diniy marosimlar hamda bayramona ko'pkari marosimlarini o'tkazishgan.

Xunlarda ijro hokimiyati vazifalarining taqsimoti haqida ma'lumotlar kam. Biroq, an'analarning davomiyligi jihatdan keyingi davrlarda turkiy xalqlardagi boshqaruv tizimi asli xunlar davrida shakllangan deb taxmin qilish mumkin. O'z vaqtida mashhur tarixchi xitoyshunos B.Ya.Vladimirsov shunday xulosaga kelgan edi. Xunlar davlatining iqtisodiy asosi yaylovlarga va chorvaga egalik bilan o'lchangan.

Mil.avv.III-II asrlarda xunlar bilan Xitoy munosabatlari murakkab kechgan. Xunlar tinimsiz ravishda Xitoyning turli obod hududlariga hujum qilib turgan. Xunlar davlatini Xitoy imperatorlari o'z davlatlari bilan teng hisoblab, shanyuylarni o'z birodarlari deb atashga majbur bo'lishgan. Xunlar bilan qudachilik diplomatiyasi ham natija bermagan. Shanyuyning o'g'li Xitoy malikasiga uylangan chog'ida ham xunlarning Xitoyga bosqinlari davom etavergan. Mil.avv.162 yilda Xitoy xunlar bilan tinchlik bitimi tuzishga majbur bo'lgan. Bitimga ko'ra Xitoy Xunnuga katta miqdorda har yili o'lpon to'lab turish majburiyatini olgan.

Mil. avv. 140 yilda taxtga o'tirgan Xitoy imperatori U-di xunlardan qasos olishni rejalashtiradi. Harbiy tashabbusni qo'lga kiritib, Ordosni qaytarib olishni niyat qiladi. Chunki xunlar Xitoyga doimo Ordos orqali hujum qilishgan. Nihoyat ml.avv. 127 yilda Ordosni Xitoy xunlardan qaytib olgan. Sin Shixuan davrida qurilgan buyuk xitoy devori bo'lagi tiklangan. Ordosga 100 ming xitoy dehqoni qo'chirib o'tkazilgan. Xunnu shimol tomonga Gobi cho'liga chekingan. Xitoy imperatori Ordosdan keyin Gansu o'lkasini bosib olishga kirishgan. Mil.avv 121 yilda bu viloyat ham Xitoyga bo'ysundirilgan. Shundan keyin, Xitoy xunlarga



shimoliy yoʻnalishda zarba berishga tayyorlanib, ml.avv 119 yilda harbiy yurish boshlagan. Bu yurish natija bermagan.

Ml.avv II asr oxiri va 1 asr boshida Xitoy Xan imperiyasi qoʻshinlari xunlarning qanotini chetlab oʻtib Tyanshan togʻigacha yetib keldilar, Fargʻonaga (Ershi qalʼasi) hujum uyushtirdilar. Biroq bu yurish Xitoy kutgan natijani bermagan. Biroq,

1) Turkolog tarixchi olim M.Volidov mil.avvalgi 1-2 hamda milodiy 1-5 asrlarda yashagan yunon olimlari Ptolomey, Ammian Marsellin, vizantiyalik Feofan, Menandr ma'lumotiga koʻra Kaspiy dengizning sharqiy qirgʻogʻidan tortib to butun Maraziy Osiyoda skif nomi bilan yashagan xalqlarning asosini xunlar tashkil etgan. Yunon olimlari saklar bilan Xunlarning etnografik xususiyatlari oʻxshash ekanligini taʼkidlaganlar. Skiflar xunlar deb atalgan turkiy xalqlarning ajdodlari ekanligiga shubha koldirmaydi.

2) Xunlar qabilaviy ittifoqining tashkil topishi haqida boshqa bir qarash mavjud: Gumilev, Taskin, Bichurin, Viktorova kabi olimlar bu imperiyani miloddan avvalgi II ming yillikga borib taqaladi, deb hisoblashadi.

Xunlarning ajdodlari kimlar ekanligi haqida aniq ma'lumotlar yoʻq. Ba'zi olimlar Xunlarning arxeologik madaniyatlariga doir plitali qabrlarini Mongoliya va Baykal oldi hududlaridan topishgan. Zamonaviy arxeologik ma'lumotlar plitali qabrlarni Xun madaniyatiga etnik jihatidan yaqinligini isbotlashmoqda.

Miloddan avvalgi V-III asrlarda Xunlarda koʻchmanchi imperiya tashkil topgan edi. Buning asosida quyidagi holatlar kelib chiqadi:

Xun imperiyasi deb nomlangan katta siyosiy imperiyaning tashkil topishida etnik-siyosiy baza mavjud boʻlganligini koʻrsatadi. Koʻp yillar davomida siyosiy integratsiya va imperiyalar konfederatsiyasi oʻrtasida bogʻliqlik boʻlgan;

Xun siyosati Mo Di hukmronligi davriga toʻgʻri keladi. Bu esa ierarxik tuzum mavjudligini koʻrsatadi;

Soʻnggi izlanishlar natijalari Xitoy Xun arxeologik yodgorliklarini "kura-shuvchi qirorliklar" davriga toʻgʻri kelishini koʻrsatadi;

Miloddan avvalgi III asr oʻrtalaridayoq Xunlar janubiy qoʻshnilar uchun katta xatar toʻgʻdirardi va Xitoy hududi chegaralaridagi davlatlarni talon-taroj qilishardi. Gumilev fikricha, Xunlardan keyin hukumat tepasiga Dunxular keladi. Ba'zi manbalarga qaraganda, xunlar turli yozuv shakllaridan foydalanishgan. Bu orqali dastlabki Xitoy yozuvini ifoda etishgan. Shaklan Xitoy yozuvi va tili asosida boʻlsa ham, talaffuzda oʻz tillariga moslab oʻqishgan. Shuningdek, milodning 250 yili Xun hukumdorlaridan biri Chunggu xoqoni Qangʻtoy degan kishi boshchiligida Kambodja mamlakatiga elchi yuboradi. Elchi Kambodjaliklar yozuvi xunlar xatiga oʻxshaydi deb, ma'lumot bergan. U paytda Kambodjada sanskrit yozuvidan foydalanligi ehtimoldan xoli emas.

Xunlar san'at bobida turkiy xalqlarda qoʻllangan bed, nogʻoro, nay kabi musiqa asboblariidan foydalanishgan. Xunlarda ham mansablar turkiy nom bilan ifodalan-gan, yigirma toʻrt xil amal boʻlgan. Oʻng koʻl bilgaxan, soʻl qoʻl kutigʻi, oʻng qoʻlxan, soʻl koʻlxan, oʻng qoʻl ulugʻ sangʻun, soʻl qoʻl ulugʻ sangʻun, oʻng qoʻl

ulug' tutugbag', so'l qo'l ulug' tutug'bag', batisxan, tumanboshi. mingboshi (yuzboshi), yuzboshi, o'nboshi. kabi amaldorlar hamda harbiy unvonlar joriy qilingan. Umuman hokimiyat boshlig'i bo'lgan xoqon Tangriqut nomi bilan atalgan. Xunlar asosan shamanlikka (kam, kaman) sig'inganlar. Unga ko'ra quyosh xudosi, oy xudosi, osmon xudosi, yer xudosi, yulduzlar xudosi kabi ko'p xudoli mavjud edi. Xunlar tong saxarlab quyoshga sajda qilishgan, tunda oyga sig'inishgan, muhim jiddiy ishlarni oy va yulduzlarga qarab hal qilishgan, oy to'lganda dushmanlarga hujum qilishgan, oy tutilganda chekinishgan. Ko'k tangrisi bilan yer tangrisi, butun hayotni yaratgan quyosh tangrisi bilan oy tangrisi tomonidan hukmronlik taxti ato qilingan deb hisoblangan. Uy, chodirlarning eshiklari sharq tomonga qaratib qurilgan. Xunlar ko'pxudolik tufayli, turli ma'dan va yog'ochlardan sanamlar yasashgan, butparstlik kuchaygan. Shamanlikka ko'ra, sharq - ko'k rang, janub - qizil rang, g'arb - oq rang, shimol esa qora rang bilan ifodalangan.

Turkiy xalqlarning qadimiy ajdodlaridan bo'lgan xunlar mil.avvalgi dastlabki ming yillikning boshlarida paydo bo'lib, so'ngra besh yuz yillar chamasi vaqt o'tgach tarix sahnasida faol ko'rinda boshlaydi va katta kuchga aylanadi. Xunlar Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi bo'ylari hamda Shimoliy Kavkazgacha cho'zilgan hududda yashashgan. Miloddan avvalgi 207 yildan to milodning 216 yiligacha, ya'ni 423 yil Ulug' Xun imperiyasi hukmronlik qilgan. Bu imperiyaning hududi sharqiy Xun imperiyasi ma'muriy markazining nomi Tumanbaliq atalib, ichki Mo'g'ulistonda joylashgan edi. Ulug' Xun imperiyasi g'arbiy qismining hukmronlik yillari miloddan avvalgi 216 yildan boshlanib to'rtinchi asr oxirlarigacha davom etib, ichki ziddiyatlar hamda tashqi kuchlar (Xitoy) ta'siri natijasida yemirildi.

Ikkinchi Xun imperiyasining yemirilishi oqibatida hamda xunlarga qarshi kuchlar ta'qibi tufayli bir guruh xun avlodlari Sharqiy va G'arbiy yevropaga siljib milodning 374 yildan 469 yilgacha yevropada Xunlar imperiyasini tuzdi. Yevropada Xunlar imperiyasining asoschisi Balamir (374-400 yillar) hisoblanadi. Xun imperiyasi hukmdorlari orasida Attila (434-53 yillar) nomi yevropa tarixida hozirga qadar mashhur. Hatto hozirgi Volga daryosining nomi ham Atilmuran. Itil muran Idil suvi atamasi sifatida Attila ismiga nisbat berilgan. Maxmud Qoshg'ariy o'z asarida "Itil suvi oqa turur" deb eslatib o'tgan.

Miloddan avvalgi Xun hukmdorlari: Tuman (240-210). Batur Tangri Qut (210-174. O'g'izxon deb ko'rsatilgan), Kayuk (174-161), Kunchin (161-126), Uvay (126-114), Uyshilur (105-102), Qulig'u (101-96), Guliku (96-85), G'uyondi (85-68), Shuliy Qanuy (68-60), Uyonquti (60-58), Kig'ushar (58-31), Qutiyush (41-20), Suchiyanuti (20-12), Uchulunuti (8-1, milodiy - 13). Ulunuti (milodiy 13-18), G'uti Arshi Davganuti (milodiy 18-46), Udatg'u (46-48).

Sharqiy Xun tangrikutlari (hukmdorlari: milodiy sana): Shilushyuti (43-46). Chiyuquti (56-57), Ilg'a Paluti (57-59), Xitungshi (59-63), Gushi Shuxuti (63-85), Iltu Uluti (85-88), Shulan Shuquti (88-93), Arg'u (93-94), Tandur Shuquti (94-98), Vanchi (Banchi) Shisuti (98-124), Uchg'u Shisuti (124-128), Qutunu Shisuchuti

(128-140), G'ullannushi Suchu (143-147), Illinis Suchu (147-172), Utinushi Suchu (172-178), G'uchin (178-179), Qamquyi (179-195).

G'arbiy Xun tangriqutlari (milodiy sana): Panu (46-83), Sanmu (83-84), Ulut (84-89). Shimolay (89-91), Panku (93-118). Yevropa Xun hukmdorlari (milodiy sana): Balamir (374-400). Yulduz (400-410). Qaratun (410-415), Bunchuk (415-422), Ruyo (422-434), Atilla (434-453). Tilik (453-454). Danggizbag (454-469). Ko'rsatilgan Xun hukmdorlarining asoschisi Chunvey (Cho'ngbag) hozirgi davrdagi uch ming ikki yuz yil ilgari yashaganligi hakida ma'lumot uchraydi.


## **20-mavzu. Markaziy Osiyo orqali kechgan qadimiy migrasion jarayonlar va ularning tarixiy hamda etno-madaniy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri**

### **Reja:**


- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyo orqali kechgan qadimiy migrasion jarayonlar
- 3) "Xalqlarning buyuk ko'chishi" tarixi

**Tayanch so'z va iboralar:** qadimiy migrasion jarayonlar, ariylar migrasiyasi, xunlar, xalqlarning buyuk ko'chishi, etno-madaniy jarayonlar

Turkiy xalqlar tarixini yevropa tarixshunosligi bir necha asrlar davomida faqat Oltoy mintaqasi, Ichki Osiyo, hatto Uzoq Sharq o'lkalari bilan bog'liq holda ta'riflab keladi. Bunday qarash zamirida yevropa olimlari xizmat qilgan mafkura ta'siri yotadi. Ya'ni, hind-yevropa nazariyasi ijtimoiy fanlarga, ayniqsa, tilshunoslikka nisbatan faol ishga solingan paytlardan boshlab, Markaziy Osiyoni, xususan, O'rta Osiyo mintaqasini faqat eroniy xalqlar makoni qilib ko'rsatishga urinib kelingan. Holbuki, turkiy xalqlar qadim zamonlardan boshlab, ayniqsa, eneolit va bronza davrlaridan boshlab, O'rta Osiyoning tubjoy aholisi bo'lgan va prototurkiy bosqichda o'troq dehqonchilik madaniyatiga asos solgan. Ushbu fikr yevropa fani zo'r berib da'vo qilib kelayotgan ariylar migratsiyasining davri orqali isbotlanishi mumkin. Binobarin, ariylar migratsiyasi ro'y bergan mil. avv. II ming yillik o'rtalariga qadar O'rta Osiyoda yuksak rivojlangan sug'orma dehqonchilik madaniyati hamda ilk shaharsozlik jarayoni mintaqaning qadimiy tubjoy aholisi prototurklarga tegishli edi. Ariylar esa, yevroosiyo cho'l mintaqasining chorvador aholisi edi. Aholi nufusining ortib borishi, yaylov tanqisligi, tabiatning davriy qurg'oqlanish (aridizatsiya) hodisasi sababli ariylar yangi makon izlab ulkan ko'chkinchilik jarayoniga kirishgan.



Oʻrta Osiyoda ular dehqonchilik madaniyati bilan yuzma-yuz keldilar. Avesto kitobida bu jarayon oʻz aksini topgan. Koʻchmanchilarning hujumlari, mollarni haydab ketish, odamlarni qullikka olib ketish kabi lavhalar Videvdot kitobining 3-fragardida quyuq boʻyoqlarda tasvirlangan. Bu manzara choʻl va oʻtroq madaniyat mintaqalari oʻrtasidagi azaliy muammo boʻlib kelgan. Ariylar eroniyzabon (hindu-eron) til bosqichidagi qabilalar ittifoqi edi. Oʻrta Osiyoda prototurk til uyushmasi bilan ariylar qorishuvi mintaqadagi eroniyzabon va turkiy tilli bilingvistik munosabatlar mil. avv. II ming yillik oʻrtalaridan boshlangan deyishga toʻla asos bor



Turkiychilikning qadimiy asoslari haqida gap ketganda, ayniqsa, turkiy xalqlarining oʻtroq madaniyati, shaharchilik turmush tarzi ildizlarining qadimiyligi masalalari xanuz rus va yevropa olimlari tomonidan baxs va munozara masalasi sifatida oʻrtaga qoʻyib kelinmoqda. Bu kabi chiqishlar ruhida masalaga yevropasentrizm ta'siri yaqqol koʻrinib turadi.

Markaziy Osiyo tarixiy geografik madaniy oʻlkalarining uzoq oʻtmishdan boshlab umumiy taraqqiyot yoʻllari tutash va baqamti ekanligini fan allaqachon isbotlagan. Geografik oʻrniga koʻra Markaziy Osiyo nisbatan quruq kontinental iqlimli mintaqaga boʻlib, uzoq tarixiy jarayonlarda ikki yirik xoʻjalik ukladlari – nomadik

ko'chmanchi chorva hamda sug'orma dehqonchilik o'troq xo'jalik madaniyatining uyg'unligi asosida taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirgan. Etno-madaniy jihatdan mintaqa xalqlari qadim zamonlardan boshlab asosan turkiy va eroniy xalqlarning yetakchi mavqyeda bo'lgani bilan belgilidir. Ushbu etnik qatlamdan tashqari tibet xalqi uzoq tarixda xitoy manbalarida "syan"lar deb atalib, til jihatdan alohida mavqyeni tashkil etadi. Tibet tili tibet-birma tillari guruhiga kirib, tarixiy izolyasiya tufayli nisbatan mustaqil rivojlanib kelgan. Lekin, tibetliklar Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlarida qadimdan faol qatnashib kelganlar. Ayniqsa, melodiy 8-asrda yirik va kuchli davlatga aylangan Tibet Markaziy Osiyo hamda Uzoq Sharq siyosiy jarayonlarida tutgan mavqyelarini bir necha asrgacha saqlab kelganlar. Hatto, tibetliklar oyrat-hashaut-jung'or-qalmaq istibdodining Markaziy Osiyoda tugatilishida (1628-1757) muhim rol o'ynaganliklari ham ma'lum.

Demak, tarixiy mushtaraklik haqida gap ketganda o'tmish jarayonlarini ayni tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqib xolisona yondashuvlar asosida o'rganmoq zarurdir. Tarix tadqiqotlarining turli metodologik yondashuv tamoyillari bo'lgani holda, ularning asosida xolisonalik, dalil va isbotlilik, voqyea hodisalarga tarixiylik nuqtai nazaridan baho berish yotmog'i lozim.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi ilmiy tarixshunoslik jarayoni nuqtai nazaridan bir necha asrlar davomida u yoki bu manfaatlar talash maydonida qolib kelmoqda. Jumladan, Rossiya tarixshunosligi Markaziy Osiyoga ayniqsa, 19-asrdan boshlab, imperiya manfaatlari nuqtai nazaridan yondashuv asoslarini ishlab chiqdi. Bu masalada mahalliy ziyolilarni ham ustalik bilan jalb etib, ularning ma'lumotlaridan ham keng foydalandi. Gap shunda ediki, Markaziy Osiyo, jumladan, Turkiston o'lkasi yevropaning Angliya, Germaniya, Fransiya singari davlatlari hamda Rossiya o'rtasida manfaatlar kurashi mintaqasiga aylangan edi. Shu tufayli, xususan, Sharqiy Turkistonda bir vaqtning o'zida va ketma-ket mazkur davlatlarning turli maqsadlardagi ekspeditsiyalari va missiyalari ish olib borgani ma'lum. Maqsad esa bir xil edi: har bir davlat mintaqa xalqlari tarixini madaniyatini, xo'jalik xususiyatlarini, tabiiy resurlarini, hokazo, o'zicha o'rganishga va bilishga harakat qilardi. Rossiya S.Oldenbug rahbarligida, Angliya A.Steyn rahbarligida, Fransiya R.Pelo boshchiligidagi o'lkani o'rganish va zarur manfaatli ma'lumotlarni to'plash uchun ekspeditsiyalar uyushtirgan. Natijada o'lka tarixi va madaniyati to'g'risida katta miqdorda ma'lumotlar to'planib, Sankt-Peteburg, London, Berlin, Parij fondlariga joylashtirildi. Biroq, bu materiallardan foydalanish asnosida har bir mamlakat olimlari o'z yo'llaridan borib, siyosiy maqsadlariga mos talqinlarni o'rta qo'yib bordilar. Ushbu tarixiy materiallar to'plangani ularning saqlanib qolishiga ijobiy xizmat qilgani holda, ilmiy istifoda davomida mohiyatan buzib ko'rsatishlarga zamin bo'lib xizmat qildi. Qolaversa, yaqin vaqtlargacha ushbu son-sanoqsiz yozma va moddiy yodgorliklar o'z tarixiy egalari uchun qo'l yetmas holatda bo'ldi. Yaxshiki, keyingi o'n yilliklar davomida mazkur materialning turli xil nashrlari yuzaga kelishi ularning mahalliy tadqiqotchilar uchun ham "ochilishi"ga xizmat qilmoqda.

Metodolik og'ishlarning maxsus tizimi Markaziy Osiyo tarixiga nisbatan ataylab joriy etilgan desak xato bo'lmaydi. Ulardan biri 6-o'rtasida tashkil topgan

Turk xoqonligi Markaziy Osiyo hududlarini to'liq qamrab olgan holda o'z tarkibida bir qator mahalliy davlat uyushmalarini nisbiy avtonom holda ushlab turgani ya'ni Buyuk Turk hoqonligining yaxlitligi to'g'risidagi tarixiy haqiqatni e'tirof etishni mazkur metodologiya xush ko'rmas edi. Xuddi shu masalada So'g'd davlati misolini alohida ko'rsatish mumkin. Sovet davri nashrlarida So'g'dni asosan mustaqil davlat sifatida talqin qilishga urinish yaqqol sezilib turadi. Yoki, Choch o'lkasini faqat Turk xoqonligi tarkibida deb tushunilgan. Choch esa, tudunning vakolatli hokimligi hamda tekin nazoratidagi yarim mustaqil va o'z an'anaviy hokimi bor bo'lgan o'lka edi.

O'rta asrlar tarixini talqin etishda ham turli noto'g'ri yondashuvlar uchraydi. Masalan, Somoniylar sulolasi hukmronligi davrini to'g'ridan-to'g'ri faqat tojik xalqining davlatchiligi boshi qilib ko'rsatishga urinish yillar davomida kuzatilmog'da. Xolbuki, bu davlat o'z davri uchun mintaqada yashovchi xalqlarning boshini birlashtirib, ayni chog'da barcha uchun umumiy davlat hisoblangan. Yana bir misol: G'aznaviylar sulolasining vakili Mahmudning shaxsi bir qator nashrlarda salbiy ruhda talqin qilib kelinadi. Ammo, 32 hokimiyat tepasida turgan Mahmud G'aznaviy yirik davlat arbobi, harbiy sarkarda, ilm-fan, adabiyot homiysi sifatida umuman yetarli baholanmagan. Bunday misollar tarixda juda ko'p va ular o'zlarining xolisona talqinlarini va umume'tirof mohiyatlarini topmoqlari zarur.

Turkman xalqi tarixining metodologik konsepsiyasini ham tubdan o'zgartirishga urinish bugun hammaga ma'lum. Masalan, aslida mifologik mohiyatga ega bo'lgan O'g'izxonni turkman xalqining bosh ajdodi qilib ko'rsatish, uni naq besh ming yillik turkmanlarning Anau imperiyasining imperatori qilib ko'rsatishgacha borib yetildi. Qozoq tarixshunosligida esa, etnik genetik asosni o'ta qadimiylashtirishga, xususan, millatning sak-skif dunyosiga bog'liq ildizlarini dalil isbotsiz asoslashga urinish mavjud. Xolbuki, qozoq xalqi turkiy dunyoning qipchoq tarmog'iga mansub yirik etnosdir.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ariylarning o'rni haqidagi masala ham bugungi kunda ayrim milliy tarixlarning talqinida alohida o'ringa qo'yilmoqda. Hatto, to'g'ridan to'g'ri ariylarning avlodi maqomiga da'vo darajasiga yetmoqda. Biroq, ariylar miloddan avvalgi 2 ming yillik o'rtalarida ulkan migratsion (ko'chkinchilik) jarayonini boshdan kechirib, bir tarmog'i Hindiston yarim orolining shimoliga, ikkinchi tarmog'i esa, Hozirgi Eron platosiga joylashib yangi etno-madaniy, hududiy jarayonlarga asos solishgan. O'rta Osiyoda "cho'kib" qolgan ariylar mahalliy xalqlar bilan qorishib, kelgusida prototurkiy va eroniyzabon xalqlar tarkibiga singib ketgan. Shu sababli, bugungi kunda to'g'ridan-to'g'ri ariylik da'vosi ko'rko'rona milliy shovinizmdan boshqa narsa emas. Bu faktni milliy tarixga singdirishga urinish esa, noxolislikning yaqqol misolidir.

Tarixnavislikning yana bir zamonaviy nuqsoni mintaqamizda qaysi xalqning tarixiy mavqeyi yetakchiligi haqidagi baxsdir. Jumladan, turkiy xalqlarning o'g'uz, qarluq, qipchoq tarmoqlari orasida turkman tarixnavisligi o'g'uzlarni yetakchilikka qo'yadi, qozoq tarixchilari esa, qipchoqlarni turkiy xalqlarning eng ulug'i qilib ko'rsatishadi. Aslida esa, turkiy xalqlarning umumiy ildizlari va umumturkiylik

g'oyasi birlamchi asos bo'lib xizmat qilmog'i va bu chiziqda barcha tarmoqning tengligi nazariy jihatdan birgalikda asoslanmog'i lozim. Shu qatorda ayrim uyg'ur tarixchilari (Qosim Masimov va boshqalar) ham o'z millatlarini eng qadimgi va eng, eng... sifatida ko'rsatishga urinadilar. Hatto, salkam neolit davrida uyg'urlar allaqanday Mu imperiyasini tuzishgani haqida lof uradilar. Bu imperiyaning hududlariga, emishki, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Uzoq Sharq va hatto, Tinch okeani arxipelaglari ham kirga deb hisoblashadi. Ularning fikricha, o'sha qadimiyatda arxipelag butun quruqlik yer bo'lgan va parchalanib orollarga aylanish keyin ro'y bergan emish. Bu kabi da'volar tarixiy haqiqatdan yiroq ekanligi o'z-o'zidan ravshan, biroq tarixni qadimiylashtirishga urinish kasali hamon davom etmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini yozishdek mas'uliyatli ishga ayrim davlat rahbarlarining bevosita muallif sifatida kirib kelishi ham milliy tarixlarni metodologik berk ko'chalarga kirib qolishiga sabab bo'lmoqda. Misol uchun S.Niyozovning "Ruhnoma" asari o'z davrida muqaddaslashtirish darajasiga olib borildi. Yoki, A.Akaevning "Manas va qirg'iz davlatchiligi" nomli kitobida qator tarixchilikka xos bo'lmagan masalalar o'rta qo'yilgan. Shu kabi Tojikiston Prezidenti Emomali Raxmonovning tojik xalqi tarixiga bag'ishlangan ishi ham milliy tarixshunoslikda "yo'riq"qa aylantirildi. Bu esa, tarixga tor milliy qarash kabi nuqsonli yondashuvga sabab bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ariylarning o'rni haqidagi masala ham bugungi kunda ayrim milliy tarixlarning talqinida alohida o'ringa qo'yilmoqda. Hatto, to'g'ridan to'g'ri ariylarning avlodi maqomiga da'vo darajasiga yetmoqda. Biroq, ariylar miloddan avvalgi 2 ming yillik o'rtalarida ulkan migratsion (ko'chkinchilik) jarayonini boshdan kechirib, bir tarmog'i Hindiston yarim orolining shimoliga, ikkinchi tarmog'i esa, hozirgi Eron platosiga joylashib yangi etno-madaniy, hududiy jarayonlarga asos solishgan. O'rta Osiyoda "cho'kib" qolgan ariylar mahalliy xalqlar bilan qorishib, kelgusida prototurkiy va eroniyzabon xalqlar tarkibiga singib ketgan. Shu sababli, bugungi kunda to'g'ridan-to'g'ri ariylik da'vosi ko'rko'rona milliy shovinizmdan boshqa narsa emas. Bu faktni milliy tarixga singdirishga urinish esa, noxolislikning yaqqol misolidir.

Tarixnavislikning yana bir zamonaviy nuqsoni mintaqamizda qaysi xalqning tarixiy mavqeyi yetakchiligi haqidagi bahsdir. Jumladan, turkiy xalqlarning o'g'uz, qarluq, qipchoq tarmoqlari orasida turkman tarixnavisligi o'g'uzlarni yetakchilikka qo'yadi, qozoq tarixchilari esa, qipchoqlarni turkiy xalqlarning eng ulug'i qilib ko'rsatishadi. Aslida esa, turkiy xalqlarning umumiy ildizlari va umumturkiylik g'oyasi birlamchi asos bo'lib xizmat qilmog'i va bu chiziqda barcha tarmoqning tengligi nazariy jihatdan birgalikda asoslanmog'i lozim. Shu qatorda ayrim uyg'ur tarixchilari (Qosim Masimov va boshqalar) ham o'z millatlarini eng qadimgi va eng, eng... sifatida ko'rsatishga urinadilar. Hatto, salkam neolit davrida uyg'urlar allaqanday Mu imperiyasini tuzishgani haqida lof uradilar. Bu imperiyaning hududlariga, emishki, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Uzoq Sharq va hatto, Tinch okeani arxipelaglari ham kirga deb hisoblashadi. Ularning fikricha, o'sha qadimiyatda arxipelag butun quruqlik yer bo'lgan va parchalanib orollarga aylanish keyin ro'y

bergan emish. Bu kabi da'volar tarixiy haqiqatdan yiroq ekanligi o'z-o'zidan ravshan, biroq tarixni qadimiylashtirishga urinish kasali hamon davom etmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida milliy tarixlar tarixshunosligi masalasi ham bugungi kunda bir qator muammolarni o'rta qo'ymoqda. Qo'shni qardosh xalqlar tarixini yaratish jarayonida haqqoniy tarixni tiklashga urinish bilan barobar ayrim metodologik noto'g'ri yondashuvlar ko'zga tashlanmoqda. Bularning asosida ayrim olingan xalqlarni, ularning davlatchiligi tarixini mubolag'a darajasida, xatto besh ming yillik qadimiy qilib ko'rsatish, tarixiy hudud, madaniy ustunlik, haqidagi da'volar, ayrim o'rinlarda mifologik tasavvurlarga haqiqiy tarix "kiyimini kiygazish" (O'g'izxon boshchiligidagi "Anau imperiyasi" kabi) va boshqa metodologik og'ishlar yotadi.

## **21-mavzu. Markaziy Osiyoda Kushonlar imperiyasi: siyosiy-ijtimoiy va madaniy-tarixiy jarayonlar (Afg'oniston, Tojikiston va O'zbekiston hududlaridan topilgan arxeologik manzilgohlar tahlili)**

### **Reja:**

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyoda Kushonlar imperiyasi
- 3) Kushonlar imperiyasi tarixiga oid arxeologik va yozma ma'lumotlar tahlili

**Tayanch so'z va iboralar:** Guysuan oilasi, Kanishka, Talibarzu, Xolchayon, Dalvarzintepa, shumi, xyumi, shuanmi, Vasudeva, yozma manbalar- sorx kotal.

Kushon podsholigi: Podsho Kanishka I o'zidan oldingi davlat boshqaruvi an'analarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Ma'lum viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilar edi. Bunday noiblar podsho tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan. Ular oliy hukmdorga, ya'ni, podshoga so'zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o'lponlar tulab turganlar. Kushonlar davrida mahalliy aholidan yig'iladigan soliq tartibi haqida ma'lumotlar bizgacha saqlanmagan bo'lsa-da, bunday tartib mavjud bo'lganligi aniq.



Kushon podsholigi ruhoniylar qo'lidagi davlat bo'lib bu davlatda podsho hokimiyatini boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Podsholik satrapiyalarga bo'lingan bo'lib, ularning noiblari podsho tomonidan tayinlangan. Kushon podsholigi markazlashgan davlat hisoblanib, davlatda qishloq jamoalari- ning ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan.

Kushon podsholigi ruhoniylar qo'lidagi davlat bo'lib bu davlatda podsho hokimiyatini boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Podsholik satrapiyalarga bo'lingan bo'lib, ularning noiblari podsho tomonidan tayinlangan. Kushon podsholigi markazlashgan davlat hisoblanib, davlatda qishloq jamoalari- ning ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan.



So‘nggi yillarda olib borilgan ko‘plab arxeologik tadqiqotlar Kushon davri O‘rta Osiyo xalqlarining moddiy madaniyatini o‘rganish bo‘yicha boy materiallar berib, keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mil.avv. I ming yillikning oxiri-milodning dastlabki asrlari O‘rta Osiyoda xo‘jalik va madaniy hayot darajasining ko‘tarilgan davri bo‘ldi. Janubiy Turkmaniston va Xorazm, Buxoro va Samarqand, Surxon vohasi, Vaxsh, Qashqadaryo va Farg‘ona vodiysidan topilgan shu davrga oid arxeologik topilmalar sug‘orma dehqonchilikning anchagina rivojlanganligidan dalolat beradi. Dehqonchilikning rivoji tufayli keng hududlar o‘troq aholi tomonidan jadallik bilan rivojlanadi. Misol uchun, E.V.Rtveladzening tadqiqotlariga ko‘ra, faqatgina Shimoliy Baqtriyada (Surxon vohasi) 120 dan ziyod



kushon davriga oid aholi shahar va qishloqlari aniqlangan. Bu davrda dehqonchilik nafaqat tekisliklarda balki tog‘li hududlarga yoyiladi. Zarafshon va Qashqadaryoning yuqori oqimidagi tog‘li hududlardan dehqonchilik manzilgohlari topib o‘rganilgan. Bu davrda shuningdek, Xorazmda, Zarafshonda, Surxon vohasida ilgari davrdagiga nisbatan anchagina murakkablashgan sug‘orish inshootlari barpo etiladi. Dehqonchilik qurollarida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Samarqand yaqinidagi Talibarzu yodkorligidan II-III asrlarga oid yer haydaydigan omochning temir uchi topilgan.

qonchilik qurollarida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Samarqand yaqinidagi Talibarzu yodkorligidan II-III asrlarga oid yer haydaydigan omochning temir uchi topilgan.

Bu davrda O‘rta Osiyo shaharlari ham yuqori darajada rivoj topadi. Kushon davri ko‘pgina viloyatlar va vohalarda o‘tgan davrlarga nisbatan yirik shahar markazlari, kichik shaharchalar va shahar tipidagi manzilgohlar soning ancha ko‘payganligi ko‘zatiladi. Kushon davri shaharlari viloyatlar, ayrim vohalar va tumanlarning ma‘muriy-siyosiy markazlari hisoblanib, ularning saqlanib qolgan xarobalarida qal’alar alohida ajalib turadi. Bunday qal’alar Samarqanddagi Afrosiyobda, Marvdagi Govurqal’ada, Qarshi vohasidagi Yerqurg‘onda, Eski Termizda, Dalvarzintepa va boshqalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.



Shuningdek, Kushon davri shaharlari diniy-mafkuraviy markazlar vazifasini ham bajarib, ularda yirik-yirik topinish joylari va diniy marosimlar o‘tkaziladigan

inshootlar joylashgan. Xorazmdagi Tuproqqal'a, Balxdagi budda majmuasi, Termizdagi budda ibodatxonalari, Quvadagi budda saroyi shular jumlasidandir.

O'z gullab-yashnagan davrida Kushon davlati ko'plab xalqlar va elatlar yashab turgan hududlarni egallagan edi. Ushbu xalqlar va elatlar turli tillarda gaplashganlar, yozuvning turli tartibidan foydalanganlar hamda turli diniy e'tiqodlarda bo'lganlar. Moddiy madaniyat buyumlarida ham ayrim farqlar ko'zatiladi. Shunga qaramasdan Kushonlar davri madaniyatiga ko'pgina umumiylik seziladi. Ammo, butun Kushon davlatida yagona madaniyat hukm surganligi haqida fikr aytib bo'lmaydi. Bu ulkan davlatning har bir viloyati qaysidir tomonlari bilan o'ziga xos bo'lgan madaniyatga ega bo'lgan.



Avvalambor, Shimoliy Baqtriya (Surxon vohasi) haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu viloyat Kushon davlatining eng yirik viloyatlaridan biri bo'lib, madaniyati yuksak darajada rivojlangan edi. Ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyoda buddizmning yoyilishi milodning birinchi asridan boshlab aynan Baqtriya-Toxariston hududlaridan boshlangan. Hozirgi kunda bu hududlardan undan ziyod budda ibodatxonalari, yuzdan ortiq budda haykal-lari aniqlanib o'rganilgan. Ulardan eng mashhurlari Termiz yaqinidagi Qoratepa ibodat-xonalari, Zartepa va Ayritom topilmalari, Dalvar-

zintepa ibodatxonalari hisoblanadi. Shimoliy Baqtriyaning o'ziga xos madaniyati me'morchilik sana'tida (binolar ustunlari va peshtoqlarining bezatilishi), shahar-sozlik madaniyatida, kulolchilik va zargarlik buyumlarida ham o'z aksini topadi.

Kushon davri Xorazm madaniyati ham o'ziga xos edi. Bu hududlarda buddizmning izlari aniq ko'zatilmasa-da, ayol xudolarga sig'inish aniqlangan va ko'plab terrakota haykalchalar topilgan. Kushon davriga oid Xorazmdagi nafaqat me'morchilik, balki moddiy va badiiy madaniyat namunasi mashhur Tuproqqal'a hisoblanadi. Bu yerda ikkita yirik saroy majmuasi, sig'inish, harbiylar va podshohlar zallari hamda ko'plab moddiy madaniyat buyumlari ochib o'rganilgan. Xorazm kulolchilik buyumlarida ham ko'pgina o'ziga hosliklar aniqlangan. Kushonlar davrida Sug'd kichik mulklarga bo'lingan edi. Madaniy jihatdan bu viloyatni uch qismga – Samarqand Sug'di (Zarafshonning yuqori va o'rta oqimi), Buxoro Sug'di (Zarafshonning quyi oqimi) va Qashqadaryo Sug'di (Qashqadaryo vohasi)ga ajratiladi. Bu hududlardagi diniy inshootlar Sangzor daryosi vohasidan, Kindikli tepa va Yerqo'rg'ondan, Setalk I (Buxoro)dan, Samarqand yaqinidagi Qo'rg'ontepadan topib tadqiq etilgan.



Umuman, Kushonlar davrida madaniy hayotning yanada yuksalganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, Kanishka davrida

Hindistondan tarqalgan budda dini davlat diniga aylandi. Oromiy va yunon yozuvlari asosida kushon yozuvi mavjud bo'lgan. Shuningdek, bu davrda Sug'dcha va xorazmiycha yozuvlar ham bor edi. Ushbu yozuvlar yodgorliklarida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni aks ettiruvchi ayrim ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shuningdek, Kushonlar davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining quruvchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik kabi sohalarida ham katta yutuqlarga erishilgan. Xorazm, Sug'diyona, Baqtriya, Farg'ona, Choch, Sharqiy Turkiston va Shimoliy Hindistondan ochilgan ko'plab madaniy yodgorliklar yuqoridagi hududlardagi madaniy hayot o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqanligidan dalolat beradi.



Qadimgi Xitoy manbalari Baqtriyani yuechji qabilalari bosib olganligi haqida ma'lumot beradi. Mil. avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani mil.avv. 172-161 yillar oralig'ida deb belgilaydilar) yuechjilar xunlardan mag'lubiyatga uchraganidan so'ng O'rta Osiyoning shimoliy hududlarida ko'chib yuradilar. Bu qabilalar Xitoy manbalarida "Da-yuechji" – "Buyuk" yoki "Katta yuechji" deb eslatiladi. Chjan Szyan ma'lumotlariga ko'ra, yuechjilar xunn qabilalaridan mag'lubiyatga uchragach O'rta Osiyoning janubiga tomon harakat qilib, Dahya (Baqtriya)ni bosib oladilar va Guyshuy (Amudaryo)ning shimoliy

tomonida joylashadilar. Katta Xan uyi tarixida ham yuechjilar Guyshuy daryosining shimoliy tomonidan o'z poytaxtlariga asos solganliklari ta'kidlanadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, yuechjilar mil.avv. 140-130 yillar oralig'ida Baqtriyaga bostirib kirganlar. Oradan ko'p o'tmay Baqtriyada Katta yuechji davlati tashkil topadi. Kichik Xan uyi tarixi ma'lumotlariga ko'ra, Katta yuechji hukmdorlari qo'l ostida beshta xokimlik (Xi-xeu) bor bo'lib, ular Xyumi, Shaunmi, Guyshuan, Xise va Dumilardan iborat edi. Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan ko'pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun yuechji davrini uch bosqichga bo'ladilar:

1. Mil.avv. 139-125 yillar – Katta yuechji Dahya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan shimol tomonda edi.

2. Mil.avv. 25 yilga qadar – Katta yuechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Davlatning poytaxti Amudaryodan shimol tomonda bo'lib, janubiy chegarasi Gibin atroflarida (Kashmir yoki Qandahor) edi. Yuechjilar bo'ysundirgan hududlar Xise, Shaunmi, Guyshuan, Xyumi, Dumi mulklaridan iborat bo'lib, ular xi-xou (yabg'u) tomonidan birlashtirilgan.

3. Mil.avv. 25 yildan keyin Katta yuechji davlatining inqirozi va yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo'lishi. Kushon (Guyshuan) yabg'usi Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to'rta mulkni birlashtirib Kushon davlatiga asos soldi.

Ta'kidlash lozimki, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixga nisbatan Kushon davlatining siyosiy tarixi kam o'rganilgan masala hisoblanadi. Kushonlarning hokimiyat tepasiga kelish sanasi, ushbu davlat tarixini davrlashtirish ayrim kushon yozuvlari, tangashunoslik ma'lumotlari, qisman Xitoy manbalari, buddaviy ma'lumotlar va ilk o'rta asrlar manbalariga asoslanadi. Tadqiqotchilar Kushon davlati tarixini quyidagi uchta bosqichga ajratadilar:

1. Yunon-Baqtriya podsholari hukmronligining tugatilishi hamda O'rta Osiyo va Shimoliy Afg'oniston hududlarida bir nechta alohida davlat uyushmalarining tashkil topishi (mil.avv. II asrning oxiri – I asr).

2. Buyuk Kushon davlatining paydo bo'lishi va gullab yashnashi (milodiy I-III asrlar).

3. Ko'chmanchilarning tinimsiz urushlari natijasida Kushon davlatining inqirozi va qo'lashi (III asr oxiri – IV asr).

Kushon davlatining paydo bo'lishi haqida ko'proq Xitoy manbalari va tangashunoslik ma'lumotlari xabar beradi. Umuman, Kushonlar saltanatining paydo bo'lishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida bahslarga sabab bo'lgan bo'lsada, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu masalaga juda ko'plab aniqliklar kiritish imkonini bergan tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, 1961 yil Londonda o'tkazilgan xalqaro simpozium, 1968 yil Do'shanbeda YuNeSKOning konferensiyasi, 1970 yil Qobuldagi xalqaro anjuman Kushon davlati masalalariga bag'ishlangan bo'lib, undan keyin ham bu masala bo'yicha ko'plab xalqaro anjumanlar bo'lib o'tdi.

Mil.avv. I asrning oxiri – mil. I asrning boshlariga kelib, Guyshuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib Qobuliston va Qandahorni zabt etadi. Natijada bu davrga kelib dastlabki poytaxti Surxon vohasidagi Dalvarzin ko'hna shahri harobalari bo'lgan Kushon davlati o'z ahamiyatiga ko'ra antik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim saltanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy manbalaridagi "Guyshuan hokimi Kiotszyukyu", ilk Kushon davriga oid topilma tangalar aks ettirilgan "Kushon podshosi Kujula Kadfiz"ga aynan mos to'shadi.

Tangashunoslik ma'lumotlariga tayangan tadqiqotchilarning fikricha, Kujula Kadfiz yoki Kadfiz I 80 yildan ziyodroq umr ko'rib 50-60 yil davlatni boshqarib, taxminan milodiy 35 yilda vafot etadi. O'zining hukmronligi davrida Kadfiz I Baqtriyadagi uncha katta bo'lmagan yuechji mulklari hukmdoridan Baqtriyadan tashqari G'arbiy va Janubiy Afg'oniston va Shimoliy Hindistonni o'z tarkibiga olgan qudratli davlatning podshosi darajasiga ko'tariladi. Ammo, manbalarning guvohlik berishicha Kadfiz I davrida Kushon davlati to'la shakllanib bo'lmagan edi. Har holda, bu davrda Kushonlar o'z tangalariga ega bo'lmay, Kadfiz I Rim imperatorlariga (Avgust va Tiberiyga) taqlid qilib tanga zarb ettirgan.

Manbalarning dalolat berishicha, Kujuladan keyin taxtga uning o'g'li Vima (Gima) Kadfiz (Kadfiz II) o'tiradi. Xitoy mualliflari Kadfiz II taxtga o'tirganidan so'ng "Tyanchju (Markaziy Hindiston)ni zabt etdi va u yerga o'z sarkardalaridan

birini boshqarish uchun qoldirdi. Shu davrdan boshlab yuechji kuchli va boy davlatga aylandi”, deb xabar beradilar. Bu xabarni tangashunoslik ma'lumotlari ham ta'kidlaydi. Kadfiz II zarb ettirgan tangalarning o'ng qirg'oq Baqtriyadan, Tojikiston va O'zbekistonning janubiy tumanlaridan topilishi bu hududlarning Kushon davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. Tangashunoslarning so'nggi yillardagi tadqiqotlariga ko'ra, Kadfiz II zarb ettirgan “Shohlar shohi – buyuk xaloskor” degan yozuv bor tangalar Hindiston, Afg'oniston va O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Bunday tangalar Ashxobod, Xorazm, Toshkent vohasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Panjikent hududlaridan ham topilgan. Kadfiz II ning Rim saltanati bilan aloqalar o'rnatganligi haqida ma'lumotlar bor.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida Kushonlar saltanati gullab-yashnashining yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Kanishka davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo'shib olinadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, davlatning poytaxti Dalvarzindan Peshovar (Afg'oniston) atroflariga ko'chiriladi. Bu davrda (mil. II asr) mamlakatning hududi Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy Turkmanistondan iborat edi. Syuan Szyanning yozishicha, “Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon shuxrati qo'shni mamlakatlarga yoyildi. Mamlakatning harbiy qudrati ko'pchilik tomonidan tan olindi. Xitoyning g'arb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimiyatini tan olib, unga o'z garovga qo'ygan odamlarini yuborar edilar”.

Kushonlar sulolasi yozma manbalar asosida va tangashunoslik tadqiqotlari orqali o'rganilgan. Kushonlar davrida chiqarilgan ilk tangalarning bir tomonida Yunon-Baqtriyaning so'nggi podshosi Germey tasviri, ikkinchi tomonida esa “kushonlar yabg'usi Kujula Kadfiz” degan so'zlar bor. Demak, dastlab Kushon hokimlari o'z nomlarini “podsho”, “shoh” tushunchalari bilan bog'lamaganlar. Ammo, Kushon davlati hududining kengayishi va siyosiy-harbiy ahamiyatining ortib borishi bilan birga tanga pullarda “shoh”, “shohlar shohi” atamasi ko'plab uchraydi. Bunday o'zgarishlar Xitoy muallifi bergan ma'lumotlarni ya'ni, davlatning harbiy qudrati ko'pchilik mamlakatlar tomonidan tan olinganligini isbotlaydi.

Podsho Kanishka I o'zidan oldingi davlat boshqaruvi an'alarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Ma'lum viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilar edi. Bunday noiblar podsho tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan. Ular oliy hukmdorga, ya'ni, podshoga so'zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o'lponlar tulab turganlar. Kushonlar davrida mahalliy aholidan yig'iladigan soliq tartibi haqida ma'lumotlar bizgacha saqlanmagan bo'lsa-da, bunday tartib mavjud bo'lganligi aniq.

Kushon podsholigi ruhoniylar qo'lidagi davlat bo'lib bu davlatda podsho hokimiyatini boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Podsholik satrapiyalarga bo'lingan bo'lib, ularning noiblari podsho tomonidan tayinlangan. Kushon podsholigi markazlashgan davlat hisoblanib, davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan.

So'nggi yillarda olib borilgan ko'plab arxeologik tadqiqotlar Kushon davri O'rta Osiyo xalqlarining moddiy madaniyatini o'rganish bo'yicha boy materiallar berib, keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil.avv. I ming yillikning oxiri-milodning dastlabki asrlari O'rta Osiyoda xo'jalik va madaniy hayot darajasining ko'tarilgan davri bo'ldi. Janubiy Turkmaniston va Xorazm, Buxoro va Samarqand, Surxon vohasi, Vaxsh, Qashqadaryo va Farg'ona vodiysidan topilgan shu davrga oid arxeologik topilmalar sug'orma dehqonchilikning anchagina rivojlanganligidan dalolat beradi. Dehqonchilikning rivoji tufayli keng hududlar o'troq aholi tomonidan jadallik bilan rivojlanadi. Misol uchun, E.V.Rtveladzening tadqiqotlariga ko'ra, faqatgina Shimoliy Baqtriyada (Surxon vohasi) 120 dan ziyod kushon davriga oid aholi shahar va qishloqlari aniqlangan. Bu davrda dehqonchilik nafaqat tekisliklarda balki tog'li hududlarga yoyiladi. Zarafshon va Qashqadaryo-ning yuqori oqimidagi tog'li hududlardan dehqonchilik manzilgohlari topib o'rganilgan. Bu davrda shuningdek, Xorazmda, Zarafshonda, Surxon vohasida ilgari davrdagiga nisbatan anchagina murakkablashgan sug'orish inshootlari barpo etiladi. Dehqonchilik qurollarida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Samarqand yaqinidagi Talibarzu yodkorligidan II-III asrlarga oid yer haydaydigan omochning temir uchi topilgan.

Bu davrda O'rta Osiyo shaharlari ham yuqori darajada rivoj topadi. Kushon davri ko'pgina viloyatlar va vohalarda o'tgan davrlarga nisbatan yirik shahar markazlari, kichik shaharchalar va shahar tipidagi manzilgohlar soning ancha ko'payganligi ko'zatiladi. Kushon davri shaharlari viloyatlar, ayrim vohalar va tumanlarning ma'muriy-siyosiy markazlari hisoblanib, ularning saqlanib qolgan xarobalarida qal'alar alohida ajalib turadi. Bunday qal'alar Samarqanddagi Afrosiyobda, Marvdagi Govurqal'ada, Qarshi vohasidagi yerqurg'onda, Eski Termizda, Dalvarzintepa va boshqalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, Kushon davri shaharlari diniy-mafkuraviy markazlar vazifasini ham bajarib, ularda yirik-yirik topinish joylari va diniy marosimlar o'tkaziladigan inshootlar joylashgan. Xorazmdagi Tuproqqal'a, Balxdagi budda majmuasi, Termizdagi budda ibodatxonalari, Quvadagi budda saroyi shular jumlasidandir.

Kushon davri shaharlari hunarmandchilik va savdo-sotiqning ham markazi edi. O'rta Osiyoning barcha hududlaridan juda ko'p sonli hunarmandchilik buyumlari, sopolchilik xumdonlari, metalni qayta ishlashning izlari, zargarlik buyumlari, harbiy va xo'jalik qurol-yarog'lari topib o'rganilgan.

Kushon davlatida tashqi va ichki savdo ham taraqqiy etadi. Kushonlar buyuk ipak yo'lining sharqiy qismi nazoratini o'z qo'llariga olgan edilar. Chetdan keltirilgan ipak, mo'yna, bronza ko'zgular, muhrlar, shisha idishlar, haykalchalar tashqi savdo taraqqiyotidan dalolat bersa, ko'plab hunarmandchilik buyumlari hamda kumush va bronza tetradraxmlar (tangalar) ichki savdo rivojlanganligini isbotlaydi.

O'z gullab-yashnagan davrida Kushon davlati ko'plab xalqlar va elatlar yashab turgan hududlarni egallagan edi. Ushbu xalqlar va elatlar turli tillarda gaplashganlar, yozuvning turli tartibidan foydalanganlar hamda turli diniy e'tiqodlarda bo'lganlar.

Moddiy madaniyat buyumlarida ham ayrim farqlar ko'zatiladi. Shunga qaramasdan Kushonlar davri madaniyatiga ko'pgina umumiylik seziladi. Ammo, butun Kushon davlatida yagona madaniyat hukm surganligi haqida fikr aytib bo'lmaydi. Bu ulkan davlatning har bir viloyati qaysidir tomonlari bilan o'ziga xos bo'lgan madaniyatga ega bo'lgan.

Avvalambor, Shimoliy Baqtriya (Surxon vohasi) haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu viloyat Kushon davlatining eng yirik viloyatlaridan biri bo'lib, madaniyati yuksak darajada rivojlangan edi. Ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyoda buddizmning yoyilishi milodning birinchi asridan boshlab aynan Baqtriya-Toxariston hududlaridan boshlangan. Hozirgi kunda bu hududlardan undan ziyod budda ibodatxonalari, yuzdan ortiq budda haykallari aniqlanib o'rganilgan. Ulardan eng mashhurlari Termiz yaqinidagi Qoratepa ibodatxonalari, Zartepa va Ayritom topilmalari, Dalvarzintepa ibodatxonalari hisoblanadi. Shimoliy Baqtriyaning o'ziga xos madaniyati me'morchilik sana'tida (binolar ustunlari va peshtoqlarining bezatilishi), shaharsozlik madaniyatida, kulolchilik va zargarlik buyumlarida ham o'z aksini topadi.

Kushon davri Xorazm madaniyati ham o'ziga xos edi. Bu hududlarda buddizmning izlari aniq ko'zatilmasa-da, ayol xudolarga sig'inish aniqlangan va ko'plab terrakota haykalchalar topilgan. Kushon davriga oid Xorazmdagi nafaqat me'morchilik, balki moddiy va badiiy madaniyat namunasi mashhur Tuproqqal'a hisoblanadi. Bu yerda ikkita yirik saroy majmuasi, sig'inish, harbiylar va podshohlar zallari hamda ko'plab moddiy madaniyat buyumlari ochib o'rganilgan. Xorazm kulolchilik buyumlarida ham ko'pgina o'ziga hosliklar aniqlangan. Kushonlar davrida Sug'd kichik mulklarga bo'lingan edi. Madaniy jihatdan bu viloyatni uch qismga – Samarqand Sug'di (Zarafshonning yuqori va o'rta oqimi), Buxoro Sug'di (Zarafshonning quyi oqimi) va Qashqadaryo Sug'di (Qashqadaryo vohasi)ga ajratiladi. Bu hududlardagi diniy inshootlar Sangzor daryosi vohasidan, Kindikli tepa va yerqo'rg'ondan, Setalk I (Buxoro)dan, Samarqand yaqinidagi Qo'rg'on-tepadan topib tadqiq etilgan.

Umuman, Kushonlar davrida madaniy hayotning yanada yuksalganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan budda dini davlat diniga aylandi. Oromiy va yunon yozuvlari asosida kushon yozuvi mavjud bo'lgan. Shuningdek, bu davrda Sug'dcha va xorazmiycha yozuvlar ham bor edi. Ushbu yozuvlar yodgorliklarida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni aks ettiruvchi ayrim ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shuningdek, Kushonlar davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining quruvchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik kabi sohalarida ham katta yutuqlarga erishilgan. Xorazm, Sug'diyona, Baqtriya, Farg'ona, Choch, Sharqiy Turkiston va Shimoliy Hindistondan ochilgan ko'plab madaniy yodgorliklar yuqoridagi hududlardagi madaniy hayot o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqanligidan dalolat beradi.

Kushonlar davrida binokorlik va me'morchilik ham shaklan ham mazmunan rivoj topganligi ko'zatiladi. Chunki, bu davrdagi ma'muriy, diniy, ishlab chiqarish, turar-joy, mudofaa inshootlari, Sharq me'morchiligi bilan ayrim o'xshashliklar

topsada, o'ziga hos tomonlari ustunlik qiladi. Me'morchilikning o'ziga hos namunalari Dalvarzin, Xolchayon, Eski Termiz, Kampirtepa, Fayoztepa, Qoratepa kabilardan o'rganilgan bo'lib, ular jahon miqyosida mashhur bo'lgan obidalaridir.

Kushon davlatining inqirozga uchrashi Gerk-Baqtriya va Rim saltanati tarixiy taqdiriga ancha o'xshab ketadi. Bu davlatlarning barchasi qo'lash arafasida tinimsiz yurishlar olib borishga majbur bo'lganlar. Tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniish uchun ichki va tashqi sabablarga ko'ra, zaiflashgan yirik davlatlarda yetarli harbiy imkoniyat topilmadi. Milodiy IV asrga kelib Kushon podsholigi o'zining asosiy hududlaridan mahrum bo'ldi. Bu podsholikning ayrim mulklari Shimoliy Hindistonda saqlanib qoldi.


Shunday qilib, Kushon podsholigi o'z tarkibiga ko'pgina hududlar va ko'plab xalqlar va elatlarni birlashtirgan bo'lsada, uning tarixi o'zbek xalqi davlatchiligi tarixi bilan o'zviy bog'liq bo'lgan. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixida Kushon davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ayniqsa, madaniy hayot va tashqi aloqalar sohasida ulkan yutuqlarga erishilgan davr bo'lib kirdi.

## 22-mavzu. Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo siyosiy, iqtisodiy, madaniy, hayotidagi o'rni

### Reja:

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo tarmoqlari
- 3) Buyuk ipak yo'li tarixiga oid tadqiqotlar

**Tayanch so'z va iboralar:** Buyuk ipak yo'li, radonitlar.



Insoniyat tarixida qit'alar, mintaqala, mamlakatlar, ularda yashaydigan turli xalqlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy munosabatlarni ko'p asrlar davomida uyg'unlashtirib turgan noyob tarixiy xodisa - "Buyuk ipak yo'li" nomi bilan ataladi. Bu yo'lning shakllanishi va davomiy ravishda amal qilishi Sharq va g'arb



munosabatlari mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi. Buyuk ipak yo'li orqali qit'alararo mol ayirboshlash, savdo-sotiq munosabatlari iqtisodiy ma'nosidan tashqari turli madaniyatlar, ma'naviy dunyoqarash tizimlari o'rtasidagi aloqalar uchun muqim vositaga aylandi.

Buyuk ipak yo'lining asosiy bo'g'ini Markaziy Osiyo edi. Binobarin, Buyuk ipak yo'lining dastlabki bosqichida ayni Markaziy Osiyo hududlariga yo'nalgan g'arbiy-siyosiy diplomatik munosabatlar sharqdan g'arbga, g'arbdan sharqqa Markaziy Osiyoda yuzma-yuz kelgan.

Buyuk ipak yo'li Sharq va g'arb o'rtasida sivilizatsiya o'choqdarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muloqot doirasiga tortgan o'z davri uchun global ahamiyat kasb etgan noyob tarixiy madaniy hodisa edi. Zamon va makon tushunchalarini bu xodisa shu qadar o'zgartirib yubordiki, oqibatda kunchiqardan kunbotargacha yuzlab el-yurtlar, xalqlar va mamlakatlar yangi sifat darajasidagi taraqqiyot yo'liga kirdilar. Buyuk ipak yo'li dunyoning turli sivilizatsiya o'choqlarini o'zaro yaqinlashtirdi.

Mil.av. 138 yilda Xitoy imperatori Vu Di o'z o'g'li Chjan Szyanni davlat xavfsizligiga daxl qilayotgan xunlarga qarshi ittifoqchi topish uchun elchi qilib Farg'ona vodiysiga jo'natadi. Yo'lda u xunlar qo'lga asir tushadi va u erda 10 yil davomida yashashga majbur bo'ladi. U tutqunlikdan qochishga muyassar bo'ladi, hamda Tyan'-Shanning baland dovonlaridan o'tib, Issiq ko'lga, so'ngra Norin daryosi bo'lab Farg'ona vodiysiga etib kelishga musharraf bo'ladi. Farg'onaga etib kelgach, bu erlik hukmdorni xunlarga qarshi kurashga davat etadi. Biroq ular, faqat savdo ishida hamkorlik qilishlari mumkinligini e'tirof etadilar. Chjan Szyan o'z yurtiga qaytadi va bu erga borish uchun qulay savdo yo'llarin ko'rsatib beradi. Imperator uning xizmatlari evaziga unga "Buyuk sayohatchi" unvonini beradi. Chjan Szyan Farg'onadan faqat otlarni emas balki, ularni parvarish qilish uchun as qotadigan emi sulini ham olib ketadi. Natijada Xitoyning ko'p joylarida suli etishtirish boshlanadi. Asta sekinlik bilan Xitoy bilan savdo aloqalari yaxshilana boshlaydi. Har yo'li imperator xonadoni bu erga 5-6 marotaba savdo karvonlarini jo'natib, unda asosan ipak va zargarlik mahsulotlarini jo'natgan. O'z navbatida Farg'onadan nefrit, ot va boshqa mahsulotlarga ayribosh qilib ketishgan. Xitoydan keltirilgan mahsulotlar o'z navbatida eron orqali boshqa mamlakatlarga tarqalgan. (Mark Kras mag'lubiyatida ipak bayroqning o'rni)

Xitoydan yo'lga chiqqan karvon dastlab Tyan-Shan' tog'idan o'tib, O'rta Osiyoni kesib o'tgan, so'ngra Xuroson orqali ikki daryo orag'iga unda O'rta er dengizi shaharlariga borgan. Buyuk Ipak yo'lining uzunligi 12 ming kilometrdan iborat bo'lgan. Shu boisdan ham ko'p savdogarlar bu yo'lni to'laligicha bosib o'tmaganlar. Savdo asosan karvon saroylarda amalga oshirilgan. Mil. av. I asrda O'rta Osiyoda Kushon davlatining yuzaga kelishi Buyuk ipak yo'lining yanada taraqqiy etishiga sabab bo'ldi. Bu davrda O'rta Osiyodan jun gazlamalar, gilam, taqinchoq, lal va yoqut kabi qimmatbaho toshlar, zotdor otlar; Xitoydan ipak gazlamalar, temir, nikel', mo'yna, choy, qog'oz, porox; Xindistondan ziravorlar keltirilgan.

Asosiy karvon yo'li quyidagi shaharlardan o'tgan: Dun'xuan, Xami, Turfon, Qashg'ar, O'zgan, O'sh, Quva, Andijon, Qo'qon, Samarqand, Buxoro va Marvdan o'tgan. Marv shahriga kelganda yo'l tarmoqlarga ajragan. Birinchi tarmoq – Xorazmda Volga bo'lab, Sharqiy Evropaga, Kiev, Novgorod, Moskva shaharlariga borgan. Ikkinchi tarmoq – Balx orqali Afg'oniston va Hindiston erlariga borgan. Uchinchi tarmoq – Bog'dod orqali O'rta er dengizi shaharlariga yo'l olgan. Ushbu yo'lda savdo asosan ayriboshlash orqali amalga oshirilgan.

Qadimda O'rta va Yaqin Sharqda Badaxshon la'lisi (lojuvardi, qizil yoquti)ga bo'lgan ehtiyoj tufayli Yaqin Sharqni Baqtriya bilan bog'lagan «lojuvard yo'li» vujudga kelgan. Mil.av. VI—IV asrlarda esa Axomaniylar davlati poytaxti Persepol shahrini Bobildan Baqtriyagacha bo'lgan hududlarni bog'lagan «shoh yo'li» tarkib topgan. Bu yo'l orqali Badaxshon la'lisi mamlakatlar osha Mesopotamiya va Misrga yetkazilib podshoh saroylari-yu ibodatxonalarni bezashda va zebi-ziynatlar yasashda keng ishlatilgan.



Bir necha ming yillar davomida Sharq bilan G'arbni bir-biri bilan bog'lagan qadimgi yo'llardan yana biri tarixda «ipak yo'li» nomi bilan shuhrat topgan. Chunki bu karvon yo'li orqali tashkil topgan xalqaro savdo mahsulotlarining asosi va ularning nominal baholari ipak va ipak mato bilan belgilangan.

Xitoy xoqonlari ipak yo'li orqali G'arb mamlakatlari bilan savdo va elchilik aloqalar olib borganlar. Ular sovg'a-

salomlar bilan o'z elchilarini O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya va Kichik Osiyo davlatlariga yuborganlar. Masalan, Xitoy sayyohi Gan In mil. 97 yilda G'arbiy dengiz (O'rta dengiz)gacha borib yetgan. Makedoniyalik May Tisian esa 100 yilda Lanchjougacha yetib borgan.

Shunisi e'tiborliki, ipak yo'li bo'ylab ustunlik qilish uchun Eron, Parfiya, O'rta Osiyo hukmdorlari va Xitoy o'rtasida hamma vaqt kurash borgan. Ayniqsa bunday raqobatli kurash mil. III asrdan boshlab Eron va O'rta Osiyo davlatlari hamda Eron bilan Parfiya o'rtasida keskin tus olgan.

Bu yo'l fanga «ipak yo'li» nomi bilan faqat XIX asrning 70-yillaridan boshlab nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofen tomonidan kiritildi. U o'zining «Xitoy» nomli asarida bu termini asoslab bergan. Unga qadar bu yo'l «G'arbiy meridional yo'l» deb atalar edi. Fanda ipakning vatani Xitoy deb tan olingani bejiz emas. Ammo hind olimi Mukerji Hindistonda ipakni paydo bo'lganligini isbotlashga harakat qiladi.

O'rta Osiyo orqali Xitoydan G'arbgaga o'tgan savdo karvon yo'llari doimo sug'dlar nazoratida bo'lgan. Sug'd savdogarlari savdo yo'lidagi ustunlikni saqlab qolish uchun Sharqiy Turkistonda, Yettisuvda, Oltoydan to Enasoy (Yenisey) sohillariga qadarli hududlarda, Shimoliy Xitoyning Shansi viloyatida, Dunxuan kabi

karvon yo‘li yoqalarida joylashgan qator shaharlarda o‘z karvonsaroylari va qishloqlarini barpo etganlar. Masalan, Dunxuan shahrida III-IV asrlarda ming xo‘jalik (5 ming aholi)ga ega Sug‘d qishlog‘i qad ko‘targan.

Ipak yo‘li orqali Xitoydan O‘rta Osiyo va G‘arb mamlakatlariga, asosan, ipak va shoyi matolar, ilk o‘rta asrlardan boshlab qog‘oz olib chiqilgan bo‘lsa, G‘arb davlatlaridan Xitoyga shisha, jun matolar, gilam, palos, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho toshlar: qizil yoqut, feruza, serdolik, shuningdek, dorivorlar, tulpor otlar olib borilgan. Savdo yo‘li orqali Xitoyning jez ko‘zgulari va o‘rtasi kvadrat teshikli tangalari Farg‘ona vodiysi va Choch (Toshkent) viloyatida keng tarqalgan. Shunday qilib, Ipak yo‘li O‘rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Biroq, bu ipak yo‘li aftidan uzoq vaqt mavjud bo‘lmagan, chunki VI asrning 2-yarmida Xitoy ipak ishlab chiqarish bo‘yicha monopol huquqdan mahrum bo‘lgan, asr oxirida esa Vizantiya shu qadar ko‘p miqdorda ipak yetishtirar ediki, uni Xitoydan keltirishga hech qanday ehtiyoj qolmagan. Vizantiya ipak sanoatini barpo etilishi va uni asta-sekin Zakavkaze va O‘rta dengiz mamlakatlariga tarqalishi bilan Buyuk ipak yo‘lining tarixi tugaydi.

### **23-mavzu. Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asrlardagi migrasion jarayonlar (avtohton, prototurk aholi va ko‘chmanchilar o‘rtasidagi munosabatlar. Xioniyalar va kidarlar davlati)**

#### **Reja:**


- 1) Mavzuning o‘rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyoda avtohton, prototurk aholi va ko‘chmanchilar
- 3) Xioniyalar va kidarlar davlati

**Tayanch so‘z va iboralar:** Kidariylar, xioniyalar, eftaliylar, ichki va tashqi kurashlar, Kidar, Piro, “oq xunlar”, Prokopiy Kesarskiy, tegin, xoqon, Lazar Parbskiy, massagetlarning yetakchi urug‘i, “Madinat-at-tujjor”, qal‘ali istehkomlar. Devori qiyomat, Kampirak, Rivdad, Kushoniya, Arqud, “kamoni chochiy”, ma‘muriy markaz, Zahariq, Darg‘om, “kadivar”lar, shahanshoh Pero‘z, xalqaro savdo, buddaviylik, xristianlik, moniylik, yepiskoplik, metropoliya, turk el, turkash, tukyu.

Milodning IV-V asrlari O‘rta osiyo qadimgi tarixining muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Ulkan Kushonlar davlati ichki va tashqi kurashlar natijasida bir qancha mustaqil davlatlarga bo‘linib ketadi. O‘rta Osiyoning janubida uning tarixidan Toxariston va Marv ajralib chiqadi. Ulardan shimolda esa Sug‘d alohida bo‘lsa, uning sharqiy tomonida Ustrushona joylashadi. Ustrushonaga tutash hududlarda Farg‘ona, O‘rta Osiyoning shimoliy hududlarida Choch va Xorazm mulklari mustaqil edi.

Bu davrda O‘rta Osiyoda bo‘lib o‘tgan siyosiy jarayonlar ko‘p sonli ichki va tashqi urushlar bilan bog‘liq edi. Shuningdek, milodiy IV-V asrlar o‘rta Osiyo hududlariga ko‘chmanchi qabilalarning kirib kelishi, qabilalar ittifoqi yuzaga

kelishi, yangi siyosiy kuchlardan biri Kidariylar bo'lib, ular haqidagi asosiy ma'lumotlar Xitoyning Beyshi Solnomasida hamda g'arb muallif tarixchilaridan biri Prisk Paniyskiy ma'lumotlarida uchraydi.



Tadqiqotchilarning fikricha, kidariylarning dastlabki, vatani Sharqiy Turkiston edi. Beyshi solnomasida berilishi, yuechjilar humdori Sidolo jujanlar hujumi tufayli o'z qarorgohini Bolo (Balxga) ga ko'chirgan. Yana shu manba xabar berishicha, Kidar Shimoliy Hindistonga yurish qilib Gandxardan shimoldagi 5 ta davlatni o'ziga bo'ysundirgan. Ayrim tadqiqotchilar, kidariylar Sharqiy Turkistondan ko'chishni boshlagan so'ng ular ikki qismga bo'linib, katta qismi shimoli-g'arbiy Hindistonga, kichik qismi esa O'rta Osiyoga joylashadilar, degan fikrni ilgari suradilar. Kidariylarning O'rta Osiyoga joylashuvi masalalari bilan shug'ullangan. S.K.Kabanovning fikricha, ularning markazi Balx emas balki Qarshi atroflaridagi yerqo'rg'on ko'hna shahri bo'lgan. Bu fikrni L.N.Gumilyov ham qo'llab-quvvatlaydi. Ammo, bu fikrni ko'pchilik olimlar e'tirof etmaydilar va balki Qarshi atroflarida kidariylarning kandaydir kichik guruhlari joylashgan bo'lishi mumkin degan fikrni bildirdilar.

Tadqiqotchilar Kidar hukmronlik qilgan davrni IV asrning ikkinchi yarmi va V asrning birinchi choragi bilan belgilaydilar. Kidar (yoki Kidara) avval boshda Eron shohi Shopur II ga bo'ysungan. Oq xunlar bostirib kelishi bilan o'z o'g'li Pironi Peshovarda qoldirib Shimolga yo'l olgan. Oq xunlar bilan kurash manbalarda 400-yillarga to'g'ri kelishi ta'kidlangan. Kidar Shopur II (309-379 yy)ning zamon-doshi bo'lib, avvalambor kushonlar hokimiyatining davomchisi sifatida ularga bo'ysunib kelgan hamda xioniylar yordamida Baqtriyada kushonlar hokimiyatiga chek qo'ygan.

Kidariylar tez orada Amudaryo o'ng va chap qirg'oq havzasi hamda Sug'dning katta qismini egallaydilar. Manbalarning guvohlik berishicha, kidariylar Eron sostoniyalari bilan ko'pmartalab urushlar olib boradilar. Bu urushlar ayniqsa sostoniy podsholari Varaxran V (420-438 yy.) va Yozdigard II (438-457 yy.)

davrlarida ayniqsa avjiga chiqadi. 456 yilda bo‘lib o‘tgan navbatdagi harbiy to‘qnashuvlardan so‘ng katta talofatga uchragan kidariylar qayta o‘zlarini o‘nglab ololmadilar. Bu voqyeadan keyin kidariylar haqida ma'lumotlar deyarli yo‘q. Faqatgina ular Hindistonda Gupta davlatini egallab bu yerda 75 yil hukumronlik qilgani, 477 yilda Gandxardan Xitoyga elchilar yuborgani ma'lum xolos.



IV asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo yerlariga shimoli sharqdan xion qabilalari bostirib kiradilar. Tarixda xioniylar nomi Bilan mashhur bo‘lgan bu qabilalarning asli vatanini ayrim tadqiqotchilar Orol bo‘yida deb hisoblaydilar. Xioniylar xun qabilalariga qon-qarindosh bo‘lganliklaridan bo‘lsa kerak, g‘arb tarixchilari ularni “oq xunlar” deb ataydilar. IV asrning o‘rtalarida ancha kuchaygan xioniylar janubga tomon harakat qilib sosoniylar bilan to‘qnashadilar. Bu to‘qnashuvlar hamda xioniylar yo‘lboshchisi Grumbat, ularning Suriyadagi Umda shahrini

qamal qilganliklari haqida Ammian Marsellin ma'lumotlar beradi. Dastlabki harakatlarda xioniylar mag‘lubiyatga uchrasalarda, keyinroq ular sharqqa tomon yurishlar qilgan sosoniylar shohi Shopur II ga qattiq zarbalar beradilar. K.Treverning fikricha, xioniylar IV asrning 70-yillarida o‘zining kuchaygan pallasiga kiradi. O‘rta Osiyoda kidariylar va eftalitlar hukmronligi o‘rnatilgach xioniylarning siyosiy ahvoli o‘zgaradi va ular eftalitlarga tobe bo‘lib qoladi. Afsuski, xioniylar va kidariylarning davlat boshqaruvi tizimi haqidagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan.

Xioniylar va kidariylarga nisbatan eftalitlar haqidagi ma'lumotlar nisbatan ko‘proq saqlangan. Shunga qaramadan eftalitlarning kelib chiqishi haqidagi olimlarning fikrlari turlicha. Misol uchun, S.P. Tolstov, A.N.Bernshtom, K.V.Trever kabi olimlar eftalitlarning ilk vatani Sirdaryoning quyi oqimi deb hisoblasalar, A.Mandelstam, R.Grishman, L.Gumilyov, K.yenoki kabi olimlar esa eftalitlar vatanini Badaxshon deb hisoblaydilar. B.Litvinskiy va K.Inostransevlar eftalitlarning ilk vatani Farg‘onaning tog‘ oldi hududlari bo‘lganligi haqidagi fikrni ilgari suradilar. Ularning turkiy halqlar bo‘lganligi haqidagi masala o‘zil-kesil yechimini topmagan.

## **24-mavzu. Markaziy Osiyoda eftaliylar davlati**

### **Reja:**

- 1) Mavzuning o‘rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyoda eftaliylar davlati
- 3) Eftaliylar davlati tarixi haqidagi ma'lumotlar, manbalar tahlili

**Tayanch soʻz va iboralar:** Kidariylar, xionylar, eftaliylar, ichki va tashqi kurashlar, Kidar, Piro, “oq xunlar”, Prokopiyy Kesarskiy, tegin, xoqon, Lazar Parbskiy, massagetlarning yetakchi urugʻi, “Madinat-at-tujjor”, qalʼali istehkomlar. Devori qiyomat, Kampirak, Rivdad, Kushoniya, Arqud, “kamoni chochiy”, maʼmuriy markaz, Zahariq, Dargʻom, “kadivar”lar, shahanshoh Peroʻz, xalqaro savdo, buddaviylik, xristianlik, moniylik, yepiskoplik, metropoliya, turk el.

Eftalitlar turli manbalarda turlicha nomlanadilar. Misol uchun, xitoy manbalarida ular “ida, ieda, idan, idyan” deb, suriya va lotin manbalarida esa “eplalit, eftalit, abdal” arab va fors mualliflarida “haytal, yaftal, yeftal” degan nomlar bilan eslatiladi.

Xitoy manbalari eftalitlarni turklar (tukyue) bilan bogʻliq ravishda taʼriflaydilar.

Vizantiyalik tarixchilar, masalan, Prokopiyy (VI asr) eftalitlarni xunlardan deb koʻrsatar ekan, “ular (yaʼni eftalitlar) xunlardandir, tanalari esa oq” deb eslatadi. Eftalitlarning kuchaygan davri V asrning oʻrtalariga (456-457 yy.) yaʼni ular Xitoyga birinchi marta elchi yuborgan davrga toʻgʻri keladi. Maʼlumotlarga koʻra, shu davrdan to 531 yilga qadar eftalitlar Xitoyga 13 marta elchi joʻnatadilar. Kuch-qudrat jihatdan mustahkamlangan eftalitlar Oʻrta Osiyo va Shimoliy Hindistondagi kata yerlarni ishgʻol etishga kirishadilar.

Eftalitlarning janubdagi asosiy raqiblari Eron sosoniylari edi. Eftalitlar asta-sekin janubiy hududlarni oʻzlariga boʻysundirar ekanlar, ularning sosoniylar bilan munosabatlari keskinlasha boradi. Eftalitlar va sosoniylar oʻrtasidagi kurashlar podsho Peroʻz (459-484 yy.) davriga toʻgʻri keladi. 484 yilda eftalitlar va sosoniylar oʻrtasida Marv yaqinida boʻlib oʻtgan jangda sosoniylar magʻlubiyatga uchraydilar. Eftalitlar 467-473 yillarda Sugʻdda mustahkam oʻrnashib olgan boʻlsalar, 477-520 yillar mobaynida Gandxarni ishgʻol etib, u yerdan kidariylarni siqib chiqaradilar. 490 yilda eftalitlar Urumchini, 497-509 yillar orasida Qashgʻarni bosib, deyarli butun Sharqiy Turkistonda oʻz hukmronliklarini oʻrnatadilar.

Shunday qilib, VI asrning boshlariga kelib, eftalitlar anchagina katta hududlarni egallagan edilar, koʻpchilik manbalar eftalitlarning dastavval koʻchmanchi xalqlar boʻlib, keyinchalik oʻtroqlashganligi haqida maʼlumot beradi. Shuning uchun ham ayrim tadqiqotchilar ularni koʻchmanchilar deb hisoblasa, ayrimlari ularni shahar va qishloqlarda yashaganligini taʼkidlaydilar. Eftalitlarning poytaxti Balx shahri edi. Koʻpchilik tadqiqotchilarning eʼtirofi etishlaricha, eftalitlar davlati unchalik ham mustahkam emas edi va shuning uchun ham uzoq yashamadi.

Eftalitlar oʻzlariga tobe boʻlgan xalqlar hayotiga juda chuqur taʼsir etmasdan, oʻlpon va soliqlar undirish bilan cheklanganlar. Eftalitlarning Oʻrta Osiyodagi hukmronligi asosan harbiy kuchlarga tayanar edi. Shuning uchun ham Oʻrta



Osiyo xalqlari ularning turklar bilan bo'lgan kurashda qo'llab-quvvatlamaganlar. Eftalitlar davlati yarim asrga yaqin yashagan bo'lsada O'rta Osiyo xalqlari tarixida muhim rol o'ynadi.

Eftalitlarning etnik kelib chiqishi masalalari ancha murakkab hisoblanadi. Bu murakkablik shu bilan izohlanadiki, arab manbalari va tangashunoslik ma'lumotlarida eftalitlar podsholari faqat turklarga xos bo'lgan unvon-tegin, xoqon unvonlari bilan tilga olinadi. Shu bilan birgalikda tangalarda aks etgan podsholar aniq yevropoid irqini beradi. Bu holatlar ayrim tadqiqotchilarning eftalitlarni turkiy xalqlar deb hisoblashlariga sabab bo'ldi.

Prokopiyy Kesarskiy eftalitlar haqida shunday ma'lumot beradi: "eftalitlar xun xalqlari qabilasi bo'lib, barcha xunlar ichida ular yagona oq tanlidir. Turmush tarzi jihatidan ham ular boshqa xunlarga o'xshamaydilar va boshqa xunlarga o'xshab xayvonlardek yashamaydilar. Ular bitta podsho boshqaruvida turadilar. Bu podsho rimliklar yoki boshqalardan qolishmaydigan holda aholiga g'amxo'rlik ko'rsatadi, o'zaro va qo'shnilar bilan bo'lgan munosabatlarda adolat mezonlariga amal qiladi."

V asrda yashagan Lazar Parbskiy eftalitlarni yetti qabiladan iborat massagetlarning yetakchi urug'laridan biri ekanligi haqida ma'lumot beradi. Xitoy manbalarida eftalitlar yuechjilarning boshqa bir ko'rinishi yoki gaogyuy qabilasining tarmog'i yoki ularning qang'lilarning avlodlari sifatida talqin qilinadi. Undan tashqari, o'zlarini alxonlar deb atagan eftalitlar Baqtriya-Toxariston yerlarida yashab o'tgan azaliy baqtr qabilalaridan chiqqan etnik guruh ekanligi haqidagi fikrlar ham bor. Umuman olganda eftalitlarning turkiy xalqlar ekanligi hamda ularning haqiqiy vatani Baqtriya-Toxariston ekanligini e'tirof etuvchi olimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Xullas, o'z davrida eftalitlar yirik davlat tizimini vujudga keltirdilar. Ular O'rta Osiyo, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos solib, Kushon davlati o'rnida undan ham kattaroq hududlarni birlashtirdilar. Eftalitlar Eronning sosoniylar davlatiga, uning harbiy harakatlariga qarshi tura oldilar hamda sosoniylarning O'rta Sharqdagi hukmronligiga chek qo'ydilar. Eftalitlar sosoniylarning ichki ishlariga ham aralashib turdilar, hatto shohlardan qaysi birini saylash va tayinlash masalasini hal qilish ularning qo'lida edi. Eron davlati har yili ularga katta miqdorda o'lpon to'lab turgan.

## **25-mavzu. Buyuk Turon – Turkiston - Markaziy Osiyoda Turk hoqonligi**

### **Reja:**

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) Markaziy Osiyoda Turk hoqonligi
- 3) Turk hoqonligi tarixiga doir ma'lumotlar tahlili

**Tayanch so'z va iboralar:** Abanbu, Asan, Asyan-shod, Tuu, Bumin, xoqonlar, Katta Xingan tog'lari, siyosiy va madaniy meros, kishkiyalik Zemarx, Bahrom Chubin, Arslon To'ba, G'arbiy Turk xoqonligi, So'yob, yabg'ular,

tudunlar, To‘n yabg‘u, “o‘n o‘q eli”, “shod”, ixshid, ixrid, afshin, budun, tegin, elxon, el, “qora budun”, malikshoh, “daryoning ortidagi yerlar”, Qutayba ibn Muslim, Tarxun, Gurak, Divashtich

## **Turk hoqonligi va uning boshqaruv tizimi. Markaziy hokimiyat va mahalliy hukmdorlar**

### **Reja:**

- 1) Markaziy Osiyoda Turk hoqonligi
- 2) Turk hoqonligi va uning boshqaruv tizimi
- 3) Markaziy Osiyoda mahalliy hukmdorlar

**Tayanch so‘z va iboralar:** Abanbu, Asan, Asyan-shod, Tuu, Bumin, xoqonlar, Katta Xingan tog‘lari, siyosiy va madaniy meros, kishkiyalik Zemarx, Bahrom Chubin, Arslon To‘ba, G‘arbiy Turk xoqonligi, So‘yob, yabg‘ular, tudunlar, To‘n yabg‘u, “o‘n o‘q eli”, “shod”, ixshid, ixrid, afshin, budun, tegin, elxon, el, “qora budun”, malikshoh, “daryoning ortidagi yerlar”, Qutayba ibn Muslim, Tarxun, Gurak, Divashtich



Turk hoqonligida davlatning oliy hukmdori "hoqon" unvoniga ega bo‘lgan. Xitoy manbalari ma‘lumotlariga ko‘ra, turkiylar xonni taxtga o‘tqazishda maxsus marosim o‘tkazishgan. Ya‘ni, amaldorlar bo‘lajak xonni kigizga o‘tqazib, quyosh yurishi buylab 9 marotaba aylantirganlar, ishtirokchilar esa uni qutlab va ulug‘lab turganlar. So‘ngra xonni otga o‘t-

qazib, bo‘yniga ipak mato bog‘laganlar va undan "Siz necha yil xon bo‘lishini aytgan va shu muddat tugagach taxtdan ketgan.

Qadimgi turkiy afsonalarda berilishicha, turklarning tasavvuriga ko‘ra, davlatchilikning markazi, davlatni o‘z qo‘lida birlashtiruvchi shaxs hoqon hisoblangan. Boshqaruvda hoqonlarning hukmron sulolasi asosiy bo‘lib u uchta kuch - osmon (tangri), yer-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyati tufayli yuzaga keltiriladi.

Hoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor “Yabg‘u” (Bahodir) bo‘lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo, yabg‘u taxtga merosxo‘rlik qila olmas edi. Turk xoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo‘lgan uluslarga bo‘linish tizimiga asoslanib belgilanar edi. Ushbu tizimga ko‘ra taxt aksariyat hollarda otadan o‘g‘ilga emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros



qolar edi. Taxt merosxo'ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan. Shahzodalar to taxtga o'tirgunlariga qadar o'zlariga berilgan uluslarni boshqarib turganlar. O'rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, hoqonning nazoratchisi - "tudun" deb atalgan. Turk hoqonligi konfederativ davlat bo'lgan. Turkiylar o'z yurti va davlatini "el" deb atashgan. Birinchi turk hoqoni Buminxon elxon unvoniga ega bo'lganligi bejiz emas.

Xoqonlik tarkibidagi ko'plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarib turish, ulardan ma'lum miqdordagi soliqlar va o'lponlarni o'z vaqtida yig'ib olish maqsadida hoqonlikda maxsus ma'muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Davlatni boshqarishda oliy hukmdorga uning yaqin qarindoshlari, avvalo, hukmron sulola a'zolari hamda ular tomonidan barpo etilgan boshqaruv tizimi yordam berar edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, u to'rtga bo'lingan. Ya'ni, qarindoshlar, hoqonga ittifoqdosh bo'lgan qabila va xalklar; hoqonning o'ng tomonida o'tiruvchi amaldorlar va ma'muriy xodimlar; hoqonning chap tomonida o'tiruvchi amaldorlar va xodimlardan iborat bo'lgan. Hoqonning qarindoshlari - o'g'illari, amakisi, jiyanlari va aka-ukalariga "tegin" unvoni berilgan. Xitoy manbalarida ma'lumot berilishicha, hoqonlikda beshta oliy mansab - yexu (yabg'u), she (shod), dele (tegin), silifa (eltabar) va tutunfa (tudun) qabilar mavjud bo'lib, ularning barchasi meros qilib qoldirilgan.

Turk hoqonligi davlatining asosini yer bilan birga xalq tashkil etar edi. O'z davrida O'rta Osiyoda davlatchilikning mustaqil va an'anaviy shakllarini rivojlantirgan turkiylar davlati mavjud jamiyatning muayyan ijtimoiy tuzilmalariga va qadimgi turklarning davlat tomonidan tashkil etilgan hamda nazorat qilinadigan xo'jalik faoliyatiga tayanar edi. Tarixiy adabiyotlarda berilishicha, bu faoliyatning asosini ko'chmanchi chorvachilik tashkil etgan. Chorvador turklarda urug'-qabilachilik an'analari nihoyatda kuchli bo'lib, qabila va urug jamoalarining asosi katta oilalardan iborat bo'lgan. Ko'chmanchi chorvadorlar xalq ommasini turklar "budun" yoki "kora budun" deb atashgan.

Hoqonlikda keng miqyosda dehqonchilik ham qilinardi. Xitoy manbalari, "garchi turklar doimiy yashash joylariga ega bo'lmasa ham, lekin ularning har birining ajratib berilgan yeri bor"ligi haqida ma'lumot beradi. Aynan mana shunday "ajratib berilgan yer"larda dehqonlar mavjud suv manbalari hamda lalmikor yerlar imkoniyatdan foydalanib asosan donli ekinlar yetishtirganlar. Mevali daraxtlardan bog'-rog'lar yetishtirishga alohida ahamiyat berganlar. Manba tili bilan aytganda, "(mevali) daraxtlar savlat to'kib turgan".



Turklardagi qabila va urug jamoalarining katta oilalarida uy qoʻllari ham mavjud boʻlar edi. Qoʻllarning koʻpayishi bilan sinfiy munosabatlar tarkib topa boshlagan. Lekin qoʻlchilik ijtimoiy hayotga keng kirib kelmagan. Shu bois boʻlsa kerakki, manbalar hoqonlikda qoʻllar mexnatidan keng foydalanish haqida amalda hech kanday maʼlumot bermaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, koʻproq ayollar mexnatidan foydalanilgan va qoʻllar asosan uy ishlari bilan shugʻullanishgan. Koʻpincha jamoada ayollar qoʻl qilib olib ketilar edi. Lekin, qoʻl ayollardan ham ogʻir ishlarda foydalanilmay, balki uy-roʻzgor ishlarida ishlatilinar edi. Qoʻl erkakmi, ayolmi baribir kochib ketavergan. Qochgan qoʻl taʼqib qilinmagan va uning uchun hech kim tovon toʻlamagan. Turk hoqonligining markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirlari (davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va bosh.) bilan mashgʻul boʻlib oʻzlari zabt etgan hududlardagi boshkaruv tizimiga maʼlum darajada erkinlik berilgan. Shuning uchun ham Fargʻona, Sugʻd, Shosh, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qoʻlida boʻlgan. Misol uchun, Sugʻd va Fargʻonada oliy hukmdor - "ixshid" Toxaristonda - "malikshoh", Xorazmda - "xorazmshoh", Keshda - "ixrid", Buxoroda - "xudot", Ustrushonada - "afshin", Choch va Ilokda - "budun" deb atalgan.



Turk xoqonligi davrida Sugʻd hududlariga hozirgi Panjikentdan Karmanagacha boʻlgan yerlar kirgan. Buxoro esa, VII asrdan boshlab mustaqil mulklar ittifoqidan iborat boʻlgan. Sugʻdning mahalliy hokimlari ayrim vaqtlarda Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari birlashar edilar. Bunday yirik siyosiy birlashmalar maʼlum muddatlarda yirik shaharlarda oʻz

qurultoylarini oʻtkazib turganlar.

Fargʻona Sugʻd siyosiy ittifoqiga kirmagan boʻlib, u alohida mustaqil davlat edi. Uni afshin boshqargan boʻlib, Fargʻonaliklar Tyanshan xalqlari bilan oʻzaro aloqada boʻlganlar. Xorazm boshqa mulklarga nisbatan ancha mustaqil edi. Mamlakatni Afrigʻiylar sulolasiga mansub podsholar boshqarib turgan.

Taʼkidlash lozimki, Turk xoqonligi maʼlum darajada toʻliq ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega boʻlgan. Sodir etilgan jinoyat uchun jazoning asosiy turlari - qatl etish odam aʼzolarini kesib tashlash, zararni toʻlash, mol-mulk tarzida tovon toʻlashdan iborat edi. Misol uchun, manbalarning maʼlumot berishicha, oʻlim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon koʻtarish, sotqinlik) hamda nohak yoki qasddan odam oʻldirganlik uchun berilgan. Oʻgʻirlik qilgan yoki boʻzuqlik qilgan shaxsning qoʻli yoki oyogʻi kesilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar yetkazilgan zararni oʻn barobar qilib toʻlash, jarohat yetkazgani yoxud mayib

qilgani uchun mol-mulk tarzida tovon to'lash, qizi, xotinini qo'llikka berish, suyagini sindirganlik uchun esa ot berish yo'li bilan jazolanardi.

O'z davrida Turk hoqonligidagi madaniy jarayonlar Buyuk ipak yo'lidagi keng ko'lamdagi, xalqaro aloqalar tufayli jamiyatdagi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy voqealar bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanib bordi. O'troq dehqonchilik vohalari aholisi va dasht qabilalari o'rtasidagi madaniy aloqalar ayniqsa kuchaydi. Bu davrdagi madaniy hayot moddiy madaniyat buyumlari, me'morchilik va san'at, din va yozuv qabilarda o'z ifodasini topdi.

Ta'kidlash joizki, O'rta Osiyo-ning turk hoqonligi tarkibiga kirgan davridagi moddiy madaniyati o'zida mahalliy o'troq xalqlar va ko'chmanchi turklarning mushtarakligini aks ettiradi. Ularning umumiyliqi qurol-aslaxa, zeb-ziynat buyumlarining o'xshashligida, qimmatbaho metallardan ishlangan buyumlar ko'rinishida o'z aksini topgan. Tadqiqotchilarning fikricha, moddiy madaniyatdagi umumiylik, avvalo, O'rta Osiyo shahar va qishloqlari hamda turk hoqonlari manfaatlarining umumiyliqi bilan bog'liq edi.



Turk hoqonligi davrida O'rta Osiyo xalqlari zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik, shomonlik kabi dinlarga e'tikrd qilgan bo'lsalarda, diniy qarashlarda zardushtiylik yetakchi o'rinda turgan. Zardushtiyning ulug' xudosi Axuramazda (Ormo'z, Xurmo'z) "samo va yerning asoschisi" bo'lib, uning sharafiga qurbonliklar keltirganlar. Bu din ayniksa, Xorazm, Sug'd va Choch viloyatlarida keng tarqalgan edi. Bu davrda Toxariston, Farg'ona, Yettisuv va Sharqiy Turkiston shahar aholisi o'rtasida buddaviylik dini keng tarqalgan edi. Balxdan, Termizdan, Kobadiyondan, Kuvadan ilk o'rta asrlarga oid budda ibodatxonalari qoldiqlari ochib o'rganilgan. Shuningdek, Sug'diylarning Yettisuvdagi ayrim yerlarga borib o'rnashishlari oqibatida zardushtiylik dini bilan Yettisuvga xos shomoniylilik dinlarining bir-biri bilan qo'shilishi yuz beradi.

Turkiylarning dini haqida "Bey-shi" va "Suy-shi" Xitoy yilnomalarida qayd etiladi. Ularda turkiylarning diniy odatlari haqida quyidagi ma'lumotlar bor: 1) Hoqon qarorgohiga Sharq tomondan kirilgan va bu bilan kun chiqish tarafga xurmat ma'nosi ifodalangan hamda ayni paytda quyoshga sihinishni ham bildirgan. 2) Xar yili hoqon o'z amaldorlari bilan g'orga borib, ota-bobolari ruhiga qurbonlik keltirgan. 3) Har yilda 5 marta hoqon oy chiqishida yaqinlarini yig'ib, daryo buyiga borgan va osmon ruhi (Tangri)ga qurbonlik keltirgan. Qabilalar uchun yagona asosiy xudo bo'lib, unga doimiy ravishda qurbonlik keltirib turganlar. Ular ruh abadiyligi, narigi dunyo borligiga ishonganlar.

Turk hoqonligi davri O'rta Osiyoda ko'plab yirik shaharlar mavjud edi. Katta va kichik shaharlarda hunarmandchilik, me'morchilik, rassomlik, haykaltaroshlik

qabilar rivojlanadi. Ularning ayrim namunalari o'sha davrda bunyod etilgan kasr va saroylarni bezagan devoriy suratlar va ganchkor naqshlar, haykallar va haykalchalar, tangalarda zarb etilgan ramzlar sifatida bizning kunlarimizgacha saklanib kelgan. Ularda o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o'zgarishlar o'z aksini topgan. Surxon vohasidagi Bolaliktepa, Zarafshon vodiysidagi Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg'onadagi Quva xarobalaridan topilgan devoriy suratlar manzaralari shular jumlasidandir.

Bu davrda ulkan hududlarda yashagan turli xalklarning til va yozuvlari birbirlariga ta'sir o'tkazgan edi. Arab yozuviga qadar turk-runiy, uyg'ur, moniy, sug'd, braxma, kxaroshtiy, xorazmiy va suryoniy yozuvlari mavjud edi. Sug'd, Xorazm va Toxariston axolisining alohida-alohida yozuvlari bor edi. Sug'd va Xorazm yozuvlari oromiy yozuvi asosida paydo bo'lgan bo'lsa, bu yozuvlar asosida toxariston yozuvi paydo bo'ladi. Sug'd yozuvlari keng hududlarga tarqilgan bo'lib, bu jarayon Sug'diylarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoliyati va savdogarlarning ipak yo'lidagi sa'yi-xarakatlari bilan bog'liq edi. Shu bois bo'lsa kerakki, Sug'd tilidagi yozma yodgorliklar O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mug'uliston hududlaridan topib tekshirilgan. Sug'd yozuvi ish yuritishda, savdo va madaniy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi uyg'ur, mug'ul va manjurlar yozuvlari paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

## **27-mavzu. V-VIII asrlarda Turk-So'g'd madaniy, ijtimoiy simbiozi**

### **Reja:**

- 1) Mavzuning o'rganilganlik darajasi
- 2) V-VIII asrlarda Turk-So'g'd madaniy munosabatlari tarixi
- 3) Turk-So'g'd madaniy munosabatlari tarixi oid manbalar

**Tayanch so'z va iboralar:** Katta Xingan tog'lari, siyosiy va madaniy meros, Arslon To'ba, G'arbiy Turk xoqonligi, So'yob, yabg'ular, tudunlar, To'n yabg'u, "o'n o'q eli", "shod", ixshid, ixrid, afshin, budun, tegin, elxon, el, "qora budun", malikshoh, "daryoning ortidagi yerlar", Qutayba ibn Muslim, Tarxun, Gurak, Divashtich.

Sug'diylar kolonial harakatining keyingi bosqichida Oltoy, Sharqiy Turkiston, Mo'g'uliston va shimoliy-g'arbiy Xitoy hududlarida savdo manzilgohlarining vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Bu hududlardagi ilk savdo yo'llari, turkiy qavmlar va ularga borib qo'shilgan sug'diylarning manzilgohlari, ularning tarixiy taqdiri masalasi xitoy manbalarida atroflicha yoritilgani bois xitoyshunos olimlar bu masalaga alohida urg'u berganlar. Xitoyshunoslar, xitoy manbalaridagi ma'lumotlar asosida sug'diylarning shimoli-sharqiy yo'nalishdagi kolonial harakatining sivilizatsion ta'sir darajasi, Turk xoqonliklari va Xitoy tarixida sug'diylarning faol ishtirokini izchil yoritib o'tganlar. Ular qator ma'lumotlarni qiyoslab, sug'diylarning

turkiylar ichiga kirib borishi mintaqa taraqqiyotiga ijobiy o'zgarishlarga olib kelganligini ta'kid etganlar.

Turkiy davlatchilik masalalariga oid tadqiqotlar mavzu tarixshunosligining to'rtinchi guruhini tashkil etadi. Ilk o'rta asrlarda sug'diylar Markaziy Osiyoda kechgan siyosiy jarayonlarda, turkiy davlatchilikning shakllanishi va rivojida ham faol ishtirok etganlar. Ushbu masalalarda ko'plab olimlar Markaziy Osiyo xalqlari taqdirida turkiylar va sug'diylarning tarixiy o'rnini xitoy manbalari asosida o'rganib, ular Turk xoqonligi tarixini sug'diylar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmasligini yana bir bor isbot edilar. Ularda turkiylar va eroniylar (sug'diylar)ning Xitoy tarixida tutgan o'rni ham o'zining ob'ektiv bahosini topdi.

Ilk o'rta asrlardagi turk-sug'd munosabatlarida Turk xoqonligi va Sug'dning Buyuk ipak yo'li bo'ylab Eron va Vizantiya bilan olib borgan siyosiy va iqtisodiy aloqalari muhim o'rin tutadi. Sosoniylar Eroni va Turk xoqonliklari o'rtasidagi murakkab vaziyat, Vizantiya bilan Turk xoqonliklari o'rtasidagi ittifoqchilik, masalalar turli davr va maktablarga masub olimlar tomonidan ishlandi.

Mintaqada ko'chmanchi aholi davlatlarining vujudga kelishi va bu jarayonga o'troq vohalar ta'siri ham sug'dshunoslar e'tibor qaratgan masaladir. Bu jarayonda o'troq va ko'chmanchi davlatchilik an'alarining sintezlashuvi Turk xoqonligi va turkiy davlatchilik an'anasi misolida ko'zga tashlanishi tadqiqotlarda tarixda mavjud turkiy davlatlar tarixi va mafkurasiga bag'ishlangan asarlar doirasida o'z aksini topdi.

Ilk o'rta asrlar tarixini yoritishda qator olimlar turk-sug'd aloqalari faol kechgan G'arbiy Turk xoqonligi mavzusiga ko'p marotaba murojaat etganlar. Ular turkiy davlatchilik sug'diylar ishtirokisiz amalga oshmaganini e'tirof etadilar. Ammo bu masalaning Markaziy Osiyo siyosiy tarixidagi ahamiyatini yanada izchil o'rganish talab etiladi.

Mavzu tarixshunosligining navbatdagi beshinchi guruhini arab istilosi davri turk-sug'd munosabatlariga oid nashrlar tashkil etadi. Bu guruhga kirgan adabiyotlarda Sug'dning Choch, Farg'ona, Sharqiy va G'arbiy Turk hamda Turkash xoqonliklari bilan birgalikda arab istilosiga qarshi kurashini o'rgangan tadqiqotlar salmoqlidir. Xususan, Arab xalifaligining O'rta Osiyoga yurishining ilk bosqichlaridagi harbiy harakatlar, joriy etilgan noiblik boshqaruvi, o'zaro shartnomalar, sug'diy va turkiylarning istiloga qarshi kurash jarayonlari tadqiqotlarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Turkiy va sug'diy ma'naviy yaqinlik, diniy bag'rikenglik masalalarini aks ettirgan nashrlar muammo tarixshunosligining oltinchi guruhini tashkil etadi. Sug'diylar Markaziy Osiyoning nafaqat tujjor, mohir diplomat, harbiy sarkarda, balki diniy bag'rikeng - tolerant aholisi vakillari ham edi. Ular mintaqa tarixiy-madaniy o'zlarining azaliy dinlari zardushtiylikdan tashqari, buddaviylik, xristianlik va moniylik kabi dunyo dinlarini olib kirdilar. Xususan, zardushtiylik masalalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan va manbaviy va arxeologik tadqiqotlari natijalarini e'lon qilgan.

Buddaviylik dinining mintaqadagi o'rnini masalasi shu kunga qadar dolzarbdir. Soha tadqiqotchilari, Markaziy Osiyoda buddaviylikning tarqalishi, uning arxeologiyasi, san'ati va madaniyati masalalari bilan jiddiy shug'ullanganlar. Mintaqaga xristianlik dinining kirib kelishi, tarqalishi va yodgorliklarini o'rganish masalalari ham tadqiqotlarning muhim jihati bo'lib, turk-sug'd munosabatlari tarixshunosligida o'z o'rniga ega.

Moniylik ta'limotining shakllanishi, tarqalishi, targ'iboti va diniy-falsafiy merosi masalalari qator olimlar tomonidan samarali o'rganilgan. Ular moniy ta'limotining turkiylar va muhojir sug'diylar orasida qabul qilinishi va moniy ta'limoti adabiyoti masalalariga alog'ida urg'u berganlar.

Mavzu tarixshunosligining yettinchi guruhini yozuv madaniyatiga oid asarlar tashkil etadi. Mintaqada yozuv madaniyatining shakllanishi tarixi, rivojlanish bosqichlari va mahalliy yozuvlarning taraqqiyoti bir necha tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ularning tadqiqotlarida yozma madaniyatining sivilizatsion ahamiyati ochib berilgan.

Turk xoqonligida rasmiy maqomga ega bo'lgan sug'diy til va yozuvining ahamiyati nafaqat numizmatik materiallarda, balki so'nggi yillarda topilgan Kultepa yodgorligi misolida, sug'diy tilli va yozuvli tangalari tadqiqotida, Bug'ut yodgorligi tadqiqotlarida izchil o'rganilgan. Mualliflar turk-sug'd siyosiy va etnomadaniy aloqalarni xolis ko'rsatib o'tdi. Mintaqa hayotida ro'y barcha jarayonlarni tadqiq etgan, turkiy davlatchilik va unda sug'diylar ishtiroki, turk-sug'd munosabatlarni manbalar asosida xolis yoritgan.

Garchi, turkiy davlatchiligida sug'd yozuvi rasmiy ahamiyat kasb etsa-da, turkiy madaniyati – qadim “runiy” yozuvining shakllanishiga sug'd yozuvi muayyan darajada ta'sir etdi. Mazkur yozuv bo'yicha tadqiqotlar turk “runiy” yozuvining shakllanishi, tarixiy ahamiyati masalalarini ochib beradi. Keyingi davr tadqiqotchilari esa, yettisuv vodiylaridan topilgan turk-runiy va sug'diy yozuvlarning mintaqa hayotida tutgan o'rnini xolis baholaganlar.

O'zbekistonda nafaqat sug'diy yozuv namunalari, balki ko'plab turkiy yozma yodgorliklar topilayotgani misolida mintaqadagi turk-sug'd madaniy mushtarakligining yana bir jihatini o'z ilmiy ishlarida aks ettirmoqdalar.

Sug'diy til va yozuvning mintaqaga ta'siri natijasida VI–VII asr boshlaridan to VIII asrgacha uyg'ur yozuvi shakllanib, o'z takomiliga erishdi. Mazkur yozuv va sug'diylarning madaniy ta'siri XIV asrda sug'diy yozuvdan tarmoqlangan uyg'ur yozuvi negizida mo'g'ul va XVI asrda manjur yozuvlari vujudga keltirgan tadqiqotlarda tahlil etilgan.

Etnik jarayonlar va uning turk-sug'd munosabatidagi o'rnini masalasiga oid nashrlar sakkizinchi guruh adabiyotlarini tashkil etadi. Markaziy Osiyo mintaqasidagi etnik jarayonlarni, ko'chmanchi va o'troq madaniyat vakillarining o'zaro integratsiyasini o'rganish, etnogenezi masalalari, turkiy etnoslar va ularning qo'shni etnik komponentlar bilan munosabatlari, mintaqadagi siyosiy va etnik jarayonlarining ilk o'rta asrlardagi bosqichini tahlil qilish, olimlarning asarlarida turk-sug'd munosabatlari haqida ijobiy fikrlar va ma'lumotlar sifatida uchraydi. Mintaqadagi

etnik jarayonlarda muhim o‘rin tutgan, turkiy va sug‘diy etnoslarning shakllanishida ishtirok etgan kushonlar, xioniylar va eftallar masalasiga alohida e‘tibor bergan va turkiy qabilalarning kelib chiqishi va “turk” atamasini izohlashgan olimlar o‘z asarlarida turk-sug‘d munosabatlarining ildizlari masalasini ochiq qoldirganlar.

O‘rta Osiyo arxeologiyasi, tarixi, etnogenezi tadqiqotchilari etnogenez muammolariga bag‘ishlangan asarlarida O‘rta Osiyodagi etnik jarayonlarda qadimiy va ilk o‘rta asrlar qatlamining uzviyligini ilmiy asoslash harakat qilib, sharqiy eroniy va turkiy xalqlarning shu zaminda avtohton xalqlar ekanligiga ishora berganlar.. Ular o‘z asarlarida turk-sug‘d munosabatlariga maxsus to‘xtamasalar-da, bu ikki etnosning hamjihat va hamyurt ekanligini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlar diqqatga sazovordir. Keyingi yillarda o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar O‘rta Osiyo nafaqat sharqiy eroniy, balki turkiy qavmlarning ham azaliy vatani ekanligi haqidagi fikrlar o‘z tasdig‘ini topmoqda.

So‘nggi yillarda o‘zbek olimlari tomonidan ilgari surilayotgan konsepsiyalarda o‘zbek xalqi etnogenezining asosini turkiy qatlam tashkil qilgani holda, xalqning shakllanish jarayonida O‘rta Osiyoning sharqiy eroniy tilli, jumladan, sug‘diy etnik komponentining salmoqli o‘rni borligini asoslab berilmoqda.

Markaziy Osiyo uchun ko‘p tillilik muhim xodisa bo‘lib, tadqiqotlarda yuechjilar, toxarlar, eftaliylar tili masalasi bahs-munozalarga sabab bo‘lmoqda. Ulariga ko‘ra, mintaqa xalqlarining shakllanishidagi turli etnik komponentlar ishtirokini mintaqadagi polietnik va polilingvistik xodisa siqatida baholash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ilk o‘rta asrlar turk-sug‘d munosabatlariga oydinlik kirituvchi ilmiy zahirani o‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahliliy va tanqidiy o‘rganishni talab qiladi.

## **28-mavzu. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning mahalliy davlatlari**

### **Reja:**

- 1) Ilk o‘rta asrlarda Choch va Iloq
- 2) Ilk o‘rta asrlarda Toxariston, Farg‘ona
- 3) Buxoro, Ustrushonada mahalliy hukmdorlar

**Tayanch so‘z va iboralar:** Sug‘d va Farg‘onada oliy hukmdor -"ixshid" Toxaristonda - "malikshoh", Xorazmda - "xorazmshoh", Keshda –“ixrid”, Buxoroda - "xudot", Ustrushonada - "afshin", Choch va Iloqda – “budun”.

Iloq – Toshkent vohasining janubiy qismidagi o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan tarixiy viloyat. Ohangaron daryosi (13-asrgacha Iloq daryosi) havzasida joylashgan. Qurama tog‘larining g‘arbiy tarmog‘i, Janubiy Chatqol tog‘lari, Chirchiq va Ohangaron daryolari oralig‘idagi hududni qamragan. Poytaxti – Tunkat.

Ilk o‘rta asr (5–7-asrlar)da mustaqil davlatga aylangan, hukmdorlari – dehqonlar katta iqtisodiy va siyosiy kuchga ega bo‘lgan. 8-asrda Iloq Chochga

qo‘shilgan va keyinchalik tarixiy manbalarda uning tarkibiy qismi sifatida tilga olinadi. Iloq aholisi dehqonchilik (bug‘doy, arpa, sholi), tog‘li joylarda chorvachilik, ma‘dan qazib olish, hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. O‘rta asrlarda Iloq Sharqda foydali qazilma konlari (oltin, kumush, rangli metallar, temir va feruza) bilan mashhur bo‘lgan. Konlarda qazish ishlari miloddan avvalgi 2-asrdan boshlangan, milodiy 6–10-asrlarda juda rivojlangan. 6–8-asrlarga oid manbalarda moviy tosh qazib olinganligi tilga olinadi. Beruniy 11-asrda Iloqdagi feruza konini eslatib o‘tgan. Iloqdagi eng yirik va mashhur kumush konlari – Ko‘hisim, Lashkarak, Koni Mansur, Konjo‘l; oltin konlari -Qizilolma, Ko‘chbuloq, Oltintopgan; feruza konlari – Ungurlikon, Oqturpoq. Iloq konlaridan kumush va oltinning ko‘plab qazib chiqarilishi tanga zarb qilinadigan maxsus korxonalar tashkil qilinishiga imkon yaratgan.

Hunarmandchilikning rivojlanishi shahar madaniyatining o‘shishiga olib kelgan. 9-10-asrlarda Iloqda 17 shahar – Tunkat, Nukat, Obrlig‘ (O‘rbaliq), Namudlig‘, Dahkat, Ko‘hisim, Tukkat, Xas (Xash), Biskat, Somsarak, Xumrak, Garjand, Sakokat (Shavkat), Panjxash, Boloyon, Xarjankat, Sikat bo‘lgan. Savdo karvon yo‘llari Iloqni Choch va Farg‘ona bilan bog‘lagan. 10-asr oxirida Iloq Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan. 13-asr boshida Iloq Muhammad Xorazmshoh davlati tarkibiga qo‘shib olingan

Urbanizatsiyaning ilk bosqichlarida Yuni mulkining nisbatan yirik ilk shaharlari Qanqa, Shohruhiya kabilar bunyod etiladi. Yuni mulkining poytaxti Yuynichen shahrini ayrim tadqiqotchilar hozirgi Toshkent o‘rnida joylashtirsalar, ayrimlari YoshaYaksart vohasidagi Qanqa o‘rnida deb biladilar. Fikrimizcha, ikkinchi taxmin to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Chunki yozma manbalar ham bu davrga oid shu hududlardagi yagona shahar markazi haqida ma‘lumotlar beradi. Aynan mil. avv. I asrdan boshlab, bu ko‘hna shahar kengayib boradi va Qovunchi madaniyati davriga kelib, maydoni 150 gektarga yetadi. Qanqa Baqtriya va Sug‘dning shaharlari kabi chunonchi, quyi va o‘rta Sirdaryo havzasidagi eng yirik shaharlardan biri edi.

Ayrim tadqiqotchilar Qanhani Qang‘ hukmdorlarining qishki qarorgohi bo‘lgan deb hisoblaydilar. Xan sulolasi Xitoy solnomalari ma‘lumot berishicha, “Qang‘ hukmdori Qanqaga tez-tez tashrif buyurishdan mamnun bo‘lgan”.

Sosoniylar davri manbalarida Toshkent vohasi Choch (Chochiston) nomi bilan tilga olinadi. Bu voha ko‘p qirrali iqtisodiyot va urbanizatsiya jarayonlarining rivoji uchun qulay hudud hisoblangan. Shu bilan birga muhim savdo-iqtisodiy aloqalar va etnik ko‘chishlar chorrahasida joylashgan. Mintaqa tog‘lari turli foydali qazilmalar va ma‘danlarga, avvalo, oltin va kumush hamda foydali minerallarga nihoyatda boy edi.

Arxeolog M.I. Filanovich yozma va moddiy ma‘lumotlarni qiyosiy o‘rganishi asosida mil. avv. I asr oxirlarida Toshkent o‘rnida shahar mavjud bo‘lganligi haqida xulosa chiqaradi. Uning fikricha, bu davrda shahar Mingo‘rik hududlaridan chiqib, ancha kengayadi. Poytaxt ko‘chishining asosiy sabablaridan biri – Buyuk ipak yo‘li asosiy tarmoqlaridan biri yo‘nalishining shimol tomonga o‘zgarishi hisoblanadi. Xitoy manbalarida hozirgi Toshkent o‘rnidagi shahar Shi nomi bilan



tilga olinadi. Manbalardan ma'lumki, bu mulk kelib chiqishi mahalliy qabilalardan bo'lgan zodagonlar tomonidan boshqarilgan.

Shi dastavval Qang' tarkibiga kirgan bo'lib, III-VI asrning boshlarida bu davlat kichik mulklarga bo'linib ketgach, Shi-Choch uncha katta bo'lmagan mustaqil davlatga aylanadi. Ammo, oradan ko'p o'tmasdan O'rta Osiyo hududlarida ulkan davlatga asos solgan eftalitlar tomonidan bosib olinadi.

Choch vohasining qadimgi ajralmas qismi va mulki Ohangaron vodiysidagi Iloq edi. Mustaqil siyosiy uyushma sifatida Iloq ilk o'rta asrlar, ya'ni VII asrga oid manbalarda eslatiladi. 630 yilda Choch orqali o'tgan Xitoy missioner-buddaviysi SyuanSzyanning ma'lumot berishicha, Iloqda "o'z harbiy guruhlariga ega bo'lgan zodagonlar vakillari ko'p, ular o'zaro urushlar olib boradilar va asosan Turk xoqoniga bo'ysunadilar". Aftidan, aynan mana shu davrdan boshlab, Iloqdagi "hukmron dehqon"larning salohiyati iqtisodiy hayotda, birinchi galda, oltin va kumush konlariga safarbar etiladi. Ilk o'rta asrlar Ohangaron vodiysida tog'-kon ishlarining jadal rivojlanishi shaharsozlik madaniyatiga ham ta'sir etdi.

Ma'danlar qazib olishning keng ko'lamda bo'lishi Arab xalifaligi uchun ham muhim edi. Chunki arablar Movarounnahrni fath qilgach, VIII asrdayoq mulklardan markaziy hokimiyat foydasiga maxsus soliqlar joriy etilgan. Qizig'i shundaki, ushbu mulklar orasida Choch-Iloq va uning kumush konlari alohida soliq to'lovchi mulk sifatida ajratilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Choch mulki 180 ming dirham soliq to'lagan bo'lsa, uning konlari uch marta ortiqcha, 607 ming dirhamgacha soliq to'lagan. Asosiy konlar Ohangaron daryosi havzasida joylashgan bo'lib, ulardagi qazilmalar Iloq tog'-kon hunarmandchiligining asosini tashkil etgan.

IX-X asrlarga oid arab geograflarining asarlarida Iloqning Chochdan mustaqil siyosiy viloyat bo'lganligi nisbatan aniqroq kuzatiladi. Ammo, har ikkala viloyat ushbu manbalarda birgalikda, yagona tarixiy-madaniy va siyosiy uyushma sifatida eslatiladi. Bular orasida X asrning birinchi yarmida yashab o'tgan yirik arab geograflaridan biri Istaxriyning ma'lumotlari ayniqsa, diqqatga sazovordir. Uning ta'kidlashicha, Movarounnahrda Choch va Iloq viloyatlari mavjud bo'lib, har ikkala viloyatning hududi 2-3 kunlik yo'l va "butun Movarounnahrda aholi soniga ko'ra bu viloyatlarga teng keladigan viloyat yo'q". Istaxriy asarining arab tilidagi matnida berilishicha, "bu viloyatlarda qishloqlar, o'zlashtirilgan yerlar va jome' masjidleri (arablarda machitlar shaharlarning asosiy belgilari hisoblangan – M.M.) juda ko'p va ular tekislikda joylashmagan, yaylovlari va chorvalari ham juda ko'p. Chochda (arabchada – Shosh) va Iloqda darvozalari, devorlari rabotlari va qal'alari bo'lgan shaharlar ko'p, kanallar shaharlar ichidan oqib o'tadi".

Istaxriy o'z asarida har ikkala viloyatning umumiy chegaralarini berib, barcha shaharlarni sanab o'tadi va Turkistonda Shoshdan katta viloyat yo'qligini ta'kidlaydi. Uning yozishicha, "Shosh va Iloq qo'shilgan bo'lib, ular o'rtasida hech qanday bo'linish yo'q. Qurilishlar, bog'lar, bo'stonlar Iloqdan to Choch vohasigacha (fors matnida) uzluksiz cho'zilib boradi. Iloqda oltin va kumush konlari joylashgan". Oradan yarim asr o'tgach, bu mintaqani yaxshi bilgan yana bir arab geografi Abulqosim ibn Havqal Istaxriy ma'lumotlarini deyarli to'liq takrorlaydi.

Choch va Iloq haqida gapirar ekan Ibn Havqal bu viloyatlarda boy shaharlar ko'pligini ta'kidlaydi. Choch-Iloqning shahar madaniyati rivoji asosan, tog'-kon metallurgiyasi ishlab chiqarishi bilan bog'lanadi. Vohadagi shaharlarning nisbatan to'liq ro'yxati va ularning tasnifi, shahar madaniyatining gullab-yashnashi X asr geograflari tomonidan (10 dan 17 tagacha shahar markazlari) eslatiladi. Tadqiqotchilar tomonidan ayrim shahar markazlari Tunket, Abrlig', Namudlig', Kuxisim kabilarni o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar o'tkazilgan.

Ayrim shaharlar tadqiqotchi mintaqadagi kon markazlari haqida olingan yangi ma'lumotlar natijasida Iloq shaharsozligini yangi asoslarda o'rganish va uni Choch – Iloq urbanizatsiyasi rivojlanishidagi o'rnini belgilash imkonini berdi.

Iloqda tanga pul zarb qilish uchun Tunkat shahrida qurilgan korxonalar (8-asr). Iloq konlaridan oltin va kumushning ko'p qazib chiqarilishi tanga zarb qilinadigan maxsus korxonalar tashkil qilish zaruratini tug'dirgan. Iloqda 8–9-asrlarda «Ma'dan ush-Shosh» zarbxonasida ko'plab kumush dirhamlar zarb etilgan. Tangalarda sof kumushning ko'pligi sababli Iloq tangalari 9-asrda boshqa mamlakatlarga ham tarqalgan. Arxeologik qazishlarda shimolda Shvesiya va Norvegiyadan tortib janubda Armanistongacha bo'lgan hududda Iloq tangalari xazinalari topilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, 10-asrda Movarounnahrda davlat zarbxonalari faqat Samarqandda va Iloqning poytaxti Tunkatdagina bo'lgan. Iloq zarbxonasida pullar mahalliy muomalalar uchun misdan, umumdavlat xazinasi uchun qimmatbaho metallardan zarb qilingan. Iloq zarbxonasida chiqarilgan oxirgi tangalar 11-asrning 2-yarmiga oid.

Arab geograflari Iloq viloyatini Shosh viloyatiga qarashli, ba'zan esa o'ziga mustaqil deb bilganlar va uni Shosh bilan Farg'ona o'rtasida joylashganligini yozadilar. Iloq viloyatiga Ohangaron daryosi vodiysining deyarli barchasi va Chirchiq daryosi chap qirg'og'ining bir qismi kirgan. Iloq dehqoni X asrda somoniylar davlatidagi eng quvvatli zodagonlardan biri hisoblangan. X asrda Iloq okrugining kumush, qo'rg'oshin konlari Afg'onistonning mashhur Panjxir konlaridan qolishmas edi, desa bo'ladi. Bundan tashqari bu yerda tog'larda gilvata, o'tga chidamli oq loy (kaolin), achchiqtosh, feruza, ofit (serpantin), ametist kabi qazilma boyliklari ham bo'lgan.

Toshkent viloyatining Qoramozor mavzesida qadimgi Iloq konlarining qoldiqlari saqlangan. Bu yerdagi Ko'xi Sim koni o'sha paytda juda mashhur bo'lgan. Arxeolog M.E.Massonning aytishicha, bu konning qoldiqlarini Konimansur koni yaqinidagi Dalon qishlog'i o'rnidan topgan. Kumush-qo'rg'oshin rudalari juda ko'p chiqarilganligi uchun Iloqda Movarounnahrning uchinchi pul zarb qilinadigan zarbxonasi ochilgan edi (biri Samarqandda, ikkinchisi Buxoroda bo'lgan). "Shosh koni" so'zlari (Iloq zarbxonasi shunday atalgan) bitilgan eng qadimgi tangalar abbosiylar halifasi Xorun ar-Rashid (786-809 yillar), o'sha paytdagi Xuroson noibi Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid zamonlariga mansubdir. Xorun ar-Rashid nomidan zarb qilingan dirhamlardan birida "Shosh konida 189 hijriy yilda (805 yil) zarb qilindi", boshqa birida esa – 190 (805-806) yilda, degan so'zlar bor.

Xulosa o'rnida Iloq Sharqning mashxur tarixiy viloyati bo'lib, o'zining feruza, oltin, mis, kumush konlari bilan dong'i ketgan ilk o'rta asrlar davri viloyatidir. Sharq geograflari Iloq konlarini «yangi panjshir» kon nomi bilan atashlari bejiz emas. Zero, Iloq o'zining feruza ya'ni g'alabvlar toshi bilan mashhur bo'lgan.



**Seminar mashg‘uloti-I. “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” fani manbalari**

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” fanining boy yozma merosi mavjud bo‘lib, ular asosan arab, fors va turkiy tillarda yozilgan. Qadimgi yunon olimi Klavdiy Ptolemeyning “Geografiyadan qo‘llanma”, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning “Kitob surat al-arz”, Abu Zayd Balxiy, al-Istaxriy va Ibn Havqal qalamiga mansub “Kitob al-masolik va-l- mamolik”, muallifi no‘malum “Hudud-ul-olam”, Najib Bakronning “Jahon-noma”, Sam‘oniyning “Kitob al-ansob”, Hamdalloh Mustavfiy Qazviniyning “Nuzhat al-qulub” (XIV), Hofizi Abruning “Geografiya” (XV), Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” (XVI), Amin Muhammad Roziyning “Haft iqlim” (XVI), Sulton Muhammad Balxiyning “Majma’ al-g‘aroyib” (XVI), Abulg‘oziyning “Shajarayi tarokima” va “Shajarayi turk” (XVII), Muhammad Tohirning «Ajoib at-tabaqot» (XVII), Mahmud ibn Valiyning “Bahr-ul-asror” (XVII), Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammadning “Dil g‘aroyib” (XIX), Muhammad Solihxo‘janing “Tarixi jadidayi Toshkand” (XIX) kabi asarlari ana shular jumlasidandir.



Shu bilan birga, tarixiy tadqiqotlar uchun tarixiy va boshqa mavzularga oid asarlar ham foydalidir. Chunonchi O‘rta Osiyoning XIV-XV asrlardagi tarixiy-geografiyasigi oid ma’lumotlar o‘sha davrda yozilgan tarixiy-geografik, tarixiy va boshqa asarlar, hujjatlar, tazkiralar, maqomotlar, insho-yozishmalar kabilardan o‘rin olgan. Yaxlit yozma manbalar - Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Muiniddin Natanziyning “Muntaxab at-tavorix”, Hofizi Abruning “Geografiya” va “Zubdat at-tavorixi Boysung‘uriy”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Fasih Ahmad Xavofiyning “Mujmali Fasihiy”, Ibn Arabshohning arab tilida yozilgan “Ajoyib al-maqdur fi navoib Temur”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa‘dayn”, Mirxondning “Ravzat as-safo”, Xondamirning “Habib as-siyar”, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarlaridir. Shu davrda Samarqandga Ispaniyadan elchi bo‘lib kelgan Rui Gonsales de Klavixoning kundaligida ham qimmatli tarixiy-geografik ma’lumotlar bor.

“Xvadaynamak” (“Podshohnoma”, “Xvaday” so‘zi yangi fors tilida “xo‘jayin”, “janob” ma’nosini anglatadi) – Solnoma. Eronning qadimgi afsonaviy podsholari zamonidan to 627 yilgacha bo‘lgan tarixidan bahs yurituvchi katta asar. Pahlaviy tilida yozilgan. Uning qachon yozila boshlangani noma’lum. Lekin uni yozish Xusrav Parvez (590/628) va so‘nggi Sosoniy podshosi Yazdigard III (632/651) davrida ham davom ettirilgani ma’lum. 632/651 yillar orasida Donishvar

ismli shaxs yozib tamomlaganligi taxmin qilinadi (Ye.E.Bertels “Istoriya persidsko-tadjikskoy lit-ri. S. 193).

“Xvadaynamak” Eronning Ahamoniylar, Ashkoniylar va Sosoniylar zamonidagi tarixi bo‘yicha muhim manba hisoblanadi.

“Kornomayi Artashir Papakan” (“Ardasher Bobakonning hayoti) Sosoniylar sulolasining asoschisi Artashir Papakanga (226/241) bag‘ishlangan. 600 y. atrofida pahlaviy tilida, Xusrav I (531/579) davrida yozilgan. Muallifi noma’lum. Uning bir necha qo‘lyozma nusxalari bizning zamonimizgacha yetib kelgan. Eng yaxshi nusxasi XVII asrda tarixshunos Sanjen (hind) tarafidan ko‘chirilgan nusxa hisoblanadi. Asar mashhur nemis sharqshunosi Teodor Noldeke (1836/1930) tarafidan zarur izohlarni qo‘shgan holda 1878 y. Gotingenda chop etilgan. Asarda keltirilgan ma’lumotlardan Abulqosim Firdavsiy ham keng foydalangan.

“Matakdan hazar dotaston” (“Bir ming nafar yuridik ajrim”). Pahlaviy tilida VIII asrda yozilgan. Asar Eronning Sosoniylar zamonidagi ijtimoiy hayoti va davlat tuzilishi haqida, xususan, vasiylik, oila va nikoh, qullar va quldorlik, oldi-sotdi va boshqa masalalar haqida qimmatli ma’lumot beradi.

Asarning faqat ayrim qismlarigina saqlanib qolingan. Mitropolit Ishobaxt (VIII asr)ning suryoniycha tarjimai saqlangan. S.Y.Bulsari qilgan inglizcha tarjimai ham bor (1937 y. Bombayda chop etilgan). “Oyinnamak” (“Rasm-rusumlar haqida kitob”). Pahlaviy tilida yozilgan. VIII asrda yuqorida nomi zikr etilgan Ibn Muqaffa tarafidan arab tiliga tarjima qilingan va “Kitob ar-rusum” deb nomlangan. Lekin bu tarjima ham bizning zamonimizgacha yetib kelmagan. “Oyinnamak” haqidagi ayrim ma’lumotlar Ma’sudiyning asarlarida saqlangan. Uning aytishicha, mazkur asar mansab va lavozimlar xususida yozilgan turli kitoblar majmuasidir. Bular orasida “Gohnamak” degan kitob ham bor. “Gohnamak” Sosoniylar davrida amalda bo‘lgan mansab va lavozimlar haqidagi risola bo‘lib, unda 600 mansab va lavozim haqida so‘z boradi. “Oyinnamak”dan ayrim parchalar mashhur tilshunos va tarixchi olim Ibn Qutayba (828/889) ning “Uyyun al-axbor” (“Xabarlar bulog‘i”) asarida saqlangan. Asar to‘rt jildda Karl Brokelman (1868/1956) tarafidan 1900/1909 yillari Berlin va Strasburgda chop etilgan. Uning bir qismi, xususan, Sosoniylarning harbiy mahorati haqidagi kitobi mashhur rus sharqshunos olimi K.A.Inostransev (1876/1941) tarafidan rus tilida nashr qilingan.

### **Topshiriqlar variantlari:**

1) Mavzuni o‘rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma’lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e’tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma’lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **“Case study”**

*«Markaziy Osiyoda ibtidoiy davr tarixi» mavzusi doirasida mintaqaning antropogenligi haqida bahsli fikrlar paydo bo'ldi. Bu haqda tahmin va farazlarning ilmiy asoslari bormi. Shu munosabat bilan jahon miqyosidagi antropogen mintaqalar haqida ma'lumot bering va Markaziy Osiyoning bu masala bo'yicha manfiy va musbat jihatlarini yoritib bering. Antropogenlik talablariga Selungur yodgorligi javob bera oladimi? Paleolit davrining boshqa yodgorliklaridan topilgan antropologik materiallar bu masala talablariga mos keladimi?*

### **Nazorat savollari:**

1. “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” fanining mazmuni va mohiyatini nimalar tashkil yetadi?
2. Tarixni davrlashtirish g'oyasi va sivilizatsion yondashuv o'rtasida qanday farq yoki ziddiyat bor?
3. “Markaziy Osiyo”, “O'rta Osiyo” tushunchalari farqini tushuntiring.
4. Markaziy Osiyoning qadimiy nomlarini bilasizmi?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ходжыев А. Марказий Осиё халқлари тарихга оид маълумотлар, Т., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg'uloti-II. Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa davri**

1980 yillarda o'zbek olimlari Farg'ona vodiysidagi Selung'ur g'orida olib borgan izlanishlari natijasida insonlar bu yerda Ashel davrida yashaganlar degan fikrga keldilar. Kishilik tarixida insonning yer yuzida paydo bo'lgan davridan to ilk davlatlar va shaharlar paydo bo'lgungacha davri ibtidoiy jamoa tuzumi davri deyiladi. Bu davr eng uzoq vaqt davom etgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi moddiy madaniyat (arxeologiya) yodgorliklari asosida o'rganiladi. Tadqiqotchilar o'sha davr odamlari yaratgan mehnat qurollari va ularga ishlov texnikasiga qarab, ibtidoiy jamoa tuzumini quyidagi davrlarga bo'lganlar: 1. Paleolit (qadimga tosh asri, eramizdan avvalgi 1mln.yillardan – eramizdan avvalgi 12 ming yilliklargacha); 2. Mezolit (o'rta tosh asri, eramizdan avvalgi 12-7 ming

yilliklar); 3. Neolit (yangi tosh asri, 7-5 ming yilliklar); 4. Eneolit (mis tosh asri, 4-3 ming yilliklar); 5. Bronza (3-1 ming yilliklar).

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy, madaniy mintaqa sifatida ibtidoiy davrlardan boshlab umumiy xususiyatlar atrofida turli etnoslarni birlashtirib kelgan. Shu munosabat bilan mintaqadagi arxeologik madaniyatlar majmuini turli mahalliy xususiyatlar va belgilar asosida o'rganish, shu bilan birga o'rganish ob'ektiga beriladigan tarixiy baho masalasida ayni ob'ektning o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiquvchi xulosalarga borish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo antropogen mintaqalar qatorida quyi paleolitdan boshlab inson uchun makon vazifasini o'tab kelgan. Bugungi arxeologik tadqiqotlar o'lkada insoniyat tarixini bir million yil atrofida belgilash imkonini bermoqda. Biroq bunday xulosa bir-ikki topilma asosida chiqarilishi yetarli darajada asosli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli mazkur muammoni to'g'ri hal qilish uchun bugungi tarix va arxeologiya fanidagi texnik tashxis imkoniyatlarini ishga solmoq lozim bo'ladi. Masalan, bir million yil avval mintaqaning iqlim sharoiti va geografik landshafti masalasini paleogeografik asosda tekshirmasdan turib xulosa chiqarish qiyin. Shu sohada qilingan tadqiqotlar Selungur g'orida hayot davom etgan davr uchun mo'tadil subtropikal iqlim sharoiti mavjudligini ko'rsatdi. Bundan tashqari million yillik da'voni asoslash uchun radiokarbon tahlili, chirindi kukunlarni mikroskopik o'rganish (pilseviy analiz), g'ordan topilgan odam bosh chanog'i suyagining rentgenologik tahlili singari ilmiy tekshirish usullari ishga solindi. Qolaversa, Selungur g'orining quyi paleolit qatlamidan topilgan tosh qurollarga berilgan texnik ishlov izlari jahon miqyosidagi shunga teng yoshda bo'lgan yodgorliklardagi ishlov usulidan farq qilmaydi. Bular asosan qo'l cho'qmori yirik uchurindilar ajratish hisobiga paydo qilingan qirradan foydalanish imkonini beruvchi qurollar edi. Bu kabi dag'al ishlov usullari jahonda mashhur quyi paleolit yodgorliklari bilan umumiy qonuniyatlarga ega ekan. Demak, o'sha qadimiyatdagi ibtidoiy odamning toshga ishlov berish imkoniyatlari deyarli bir xil bo'lgan.

Markaziy Osiyoda paleolit davrining o'rta bosqichi miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. O'rta paleolitda neandertal odam paydo bo'lgan. Markaziy Osiyoda o'rta paleolitga oid yodgorliklar ellikdan ortiq joyda topilgan. Fan olamida ayniqsa Teshiktosh, Obirahmat, Omonquton, Uchtut, Qorabura, Tossar, Georgiy do'ngligi kabi yodgorliklar juda mashhur. O'zbekiston hududida joydashgan Teshiktosh yodgorligi nafaqat Markaziy Osiyoda balki, jahonning shu davri yodgorliklari ichida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yodgorlikni o'rganish o'sha davr kishilari hayotida ovchilik muhim o'rin egallaganligini va ularda diniy tasavvurlar shakllana boshlaganini ko'rsatadi.

### **Topshiriqlar variantlari:**

- 1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

#### **“Case study”**

*Obirahmat g'ori fanda yuqori paleolit davri yodgorligi deb qabul qilingan. Biroq, keyingi o'n yilliklarda olib borilgan arxeologik qazish ishlari bu tasavvurlarni o'zgartirib yubordi. Xususan, undagi tosh industriyasining hususiyatlari hamda antropologik materiallar Obirahmatni muste davri bilan yuqori paleolit davrilar oralig'iga, ya'ni 70-40-ming yilliklarga mansub yodgorlik deb hisoblashga asos bermoqda. Shu bahsli va munozarali vaziyatning ilmiy asoslarini toping va izohlab bering.*

#### **Nazorat savollari:**

1. Marg'iyona bronza davri ilk shaharlari (Gonurdepe, Janubiy Gonur, To'g'aloq)
2. Sarazm bronza davrining Sug'd hududlaridagi protoshahar
3. Janubiy Turkmaniston ilk shahri Oldindepe
4. Turkmaniston ilk shaharsozligining xususiyatlari

#### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayeov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

#### **Seminar mashg'uloti-III. Markaziy Osiyoda qadimgi tosh davri manzilgohlari tahlili**

Vatanimiz sarhadlari nafaqat O'rta Osiyo, balki ko'hna Sharq miqyosida kishilik tarixining qadimgi madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. Xususan, bu mintaqa insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlari madaniyati va mazkur hududda sodir bo'lgan sivilizatsiyaning ko'hna ildizlarini ifodalovchi tarixiy-madaniy yodgorliklarga nihoyatda serob o'lkadir. Bu tarixiy-madaniy yodgorliklarni tadqiq etish esa ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga ko'shgan hissasini idrok etishda muhim ahamiyat kasb yetadi. Ayni kunlarda, mustaqil Respublikamiz



rivojining barcha jabhalari jahon miqyosiga chiqayotgan bir paytda boy madaniy merosimizni jahon hamjamiyati oldida isbotlab berish dolzarb masaladir. Vatanimizning asl, haqqoniy tarixini bilish, xalqimizning boy madaniy merosini to‘laqonli o‘rganishga keng imkoniyatlarning yaratilishi Respublikamiz mustaqilligi ne‘matlaridan biri hisoblanadi.

Haqqoniy tarix faqatgina manbalarga tayanib yozilishini yurtboshimiz mamlakatning taniqli tarixchi olimlari bilan bo‘lgan uchrashuvida (1998 yil yozida) alohida ta‘kidlab, tarixchilar zimmasiga manba bilan ishlashdek ma‘suliyatni qo‘ygan edi. Shu nuqtai nazardan, keyingi yillarda O‘zbekiston arxeologiyasi fani qo‘lga kiritayotgan yutuqlar ham ahamiyatlidir. Vatanimiz sarhadlari Er kurrasi miqyosida antropogenez jarayoni ro‘y bergan mintaqalar sirasiga kirganligining isbotlanishi (Sel-Ungur g‘or makoni, «Farg‘ona odami»), kishilik tarixi tosh asri taraqqiyoti barcha bosqichlarida uzliksiz mahalliy madaniyatlar negizida, vorisiylik asosda madaniyat yaratilib kelinganligining aniqlanishi kabi masalalar shu yutuqlar jumlasiga kiradi. Mazkur tadqiqot ham shu nuqtai nazardan qaraganda dolzarb bo‘lib, unda mintaqamiz miqyosida tosh asrining so‘nggi, yakunlovchi bosqichi bo‘lgan neolit davri jamoalari madaniyatini yangi manbalar asosida yoritib berishga e‘tibor karatildi,

Geologik jihatdan davrlashtirilganda neolit davri, asosan, golotsen davriga to‘g‘ri keladi va bu davr o‘z tabiati, iqlim sharoiti, o‘simlik va hayvonot dunyosiga ko‘ra nisbatan hozirgi zamonga yaqinligi bilan xarakterlanadi. Shu nuqtai nazardan mintaqamiz sarhadlarida mezolit davri oxiri va neolit davrida odamzod yashashi uchun qulay ekologik muhit yuzaga kelgan («Lavlakon namgarchiligi») va u odamzod tomonidan jadal o‘zlashtirilgan. Natijada aholi soni oshgan va ular turli tabiiy, ekologik muhitlarga duchor bo‘lganki, bu holat ular turmush tarzini atrof-muhitga moslashishi zaruratini keltirib chiqargan. Oqibatda bu jarayon neolit davri jamoalarining turli, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan madaniyatlari mazmunida namoyon bo‘lgan.

Hozir Amudaryo va Zarafshon daryosi quyi yetaklari, Qizilqum hududlarida Kaltaminor tarixiy-madaniy jamoalari, Farg‘ona vohasida Markaziy Farg‘ona, O‘rta Zarafshon vohasida Sazog‘on hamda Ustyurt neolit jamoalari madaniyati tadqiq etilmokda. Bu tadqiqotlar natijalari neolit davri paleogeografik, paleoekologik va iqlim sharoitlari, jamoalar madaniyati o‘ziga xos xususiyatlari, jamoalar turmush tarzi va ma‘naviy kechinmalari, ijtimoiy munosabatlari, xo‘jalik mashg‘ulotlari, o‘zaro qo‘ni-qo‘shnichilik madaniy aloqalari hamda eng muhimi mazkur madaniyatlar kelib chiqish ildizlari borasida qimmatli ma‘lumotlarni bermoqtsa. Ushbu tadqiqot ham yangi arxeologik manbalar tahlili asosida shu masalalar echimiga bag‘ishlangan. Shuningdek, tadqiqotimizda mazkur neolit jamoalarining o‘zlariga xronologik jihatdan tengdosh bo‘lgan qo‘shni hududlarda yashagan joyitun, hisor jamoalari bilan yaqindan madaniy aloqada bo‘lib yashashganliklari masalasi ham imkoniyat darajasida yoritilgan. Neolit davrining o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat? Arxeologik davrlashtirish bo‘yicha bu davr tosh asrining so‘nggi yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Mazkur davrda ona urug‘chilik tuzumi gullab-

yashnagan boʻlib, tosh, suyak va yog oʻchlarga ananaviy ishlov berilish texnologiyasining takomillashgani va yuksaklikka erishganligi bilan xarakterlanadi. Toshni silliklash, parmalab teshish kabi yangi texnologiyalar kashf etilib, kemasozlik, toʻqimachilik, tikuvchilik, kulolchilik sohalarining paydo boʻlishi va rivojlanishi mazkur davr jamoalari oʻz turmush tarzida erishgan muhim yutuqlari sanaladi. Kishilik tarixi rivojining neolit davri bilan bogʻliq boʻlgan eng muhim kashfiyotlaridan biri neolit jamoalarining xoʻjalik mashgʻulotlarida ishlab chiqarish iktisodiyotiga oʻtganligi va tom maʼnoda dehqonchilik va xonaki chorvachilikning vujudga kelganligi bilan izohlanadi.

### **Topshiriqlar variantlari:**

1) Mavzuni oʻrganishda turli adabiyotlarda mavjud maʼlumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga eʼtibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida maʼlumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **“Case study”**

*Markaziy Osiyo tarixiy geografik mintaqasida tosh asri kompleks oʻrganilmagan. Turli yodgorliklarning alohida tadqiqotlari boʻyicha maʼlumotlarni ilmiy jurnallardan, maxsus monografik nashrlardan topish mumkin. Shular asosida Markaziy Osiyo mintaqasi tosh asri haqida yaxlit maʼlumotlar majmuini yarating va taqdimot tayyorlang.*

### **Nazorat savollari:**

1. Ibtidoyi jamoa tuzumining asosiy davrlari va xususiyatlarini gapirib bering?
2. Markaziy Osiyoda paleolit davri yodgorliklari toʻgʻrisida nimalarni bilasiz?
3. Markaziy Osiyo va Hindiston paleolitini oʻxshashlik taraflari nimada?
4. Paleolit davri jamoalari turmushida oʻzgarishlar nima asosida sodir boʻlgan deb oʻylaysiz?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar roʻyxati:**

1. Xodjayeov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid maʼlumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.

## **Seminar mashg'uloti-IV. Markaziy Osiyoda eneolit va bronza davri yodgorliklari. Ilk shaharchilik**

Bu masalalarda A.Asqarov, E.Rtveladze, A.Sagdullaev, T.Shirinov, B.Abdulloyev, U.Raxmonov, E.Sayko, Sh. Shaydullaev kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Ushbu tadqiqotlar natijasida bronza va ilk temir davri o'lkamiz janubiy hududlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot masalalari va ayniqsa, ushbu hududlarda ilk shaharlarning paydo bo'lish asoslari va rivojlanish bosqichlari, ilk davlatchilikning paydo bo'lishi jarayonlariga ko'plab aniqliklar kiritildi. Ushbu masalalar bo'yicha juda ko'p yangi ma'lumotlar fanga joriy etildi va etilmoqda.

Zamonaviy tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Baqtriya yerlari bu -Afg'onistonning shimoliy-sharqiy qismini, Janubiy-G'arbiy Tojikiston va O'zbekistonning janubidagi (Surxon vohasi) yerlarni o'z ichiga olgan. Undan tashqari zamonaviy tarixiy adabiyotlarning barchasi hozirgi kunda Surxondaryo viloyati, Tojikistonning Ko'lob va Qo'rg'ontepa viloyatlarini o'z ichiga olgan yerlarni shimoliy Baqtriya sifatida e'tirof etadilar.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, neolit davriga kelib «hisorlik» ovchilar kichik va yirik daryolar vohalarini, Boysuntog' va Kuhitanggacha bo'lgan tog' va tog' oldi hududlarini o'zlashtiradilar. Bronza davriga kelib esa bu hududlarda boshqa ko'rinishga ega bo'lgan hamda o'ziga xos xo'jalik shaklidagi yangi madaniyatlar shakllana boshlaydi.

Ushbu madaniyat sohiblari yashagan maskanlardan biri Sopollitepa bo'lib, bu yodgorlik Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududida, Kuhitangtog'dan oqib tushuvchi kichik daryoning qadimgi irmog'i bo'yida joylashgan. Sopollitepa paydo bo'lgan soy mahalliy aholi orasida O'lanbuloqsoy deb ataladi. Janubiy O'zbekiston hududlarida hozirgi kunga qadar aniq bo'lgan eng qadimgi o'troq dehqonchilik jarayonlari, tadqiqotchilarning fikricha, quyidagi beshta asosiy bosqichga bo'linadi:

1. Sopolli bosqichi -mil. avv. 1700-1500 yy.
2. Jarqo'ton bosqichi -mil. avv. 1500-1350 yy.
3. Ko'zali bosqichi -mil. avv. 1350-1200 yy.
4. Molali bosqichi - mil. avv. 1200-1050 yy.
5. Bo'ston bosqichi – mil.avv. 1050-900 yy.

Ushbu bosqichlarning sanalari tadqiqotchilar tomonidan maxsus tahlil etilib ilmiy jihatdan asoslangan (A.Asqarov).

Tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, Shimoliy Baqtriyaning qadimgi shaharlari uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar va turli: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tabiiy-geografik omillarning ta'siri natijasida shakllanib kelgan. Qadimgi Sharq va mahalliy ko'rinishdagi urbanistik madaniyatning uyg'unlashuvi qadimgi Baqtriya shaharsozligining asosini tashkil etadi. Keyinroq esa o'ziga xos bo'lgan shahar madaniyati mustaqil ravishda rivojlanadi.

### **Topshiriqlar variantlari:**

1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

#### **“Case study”**

*Markaziy Osiyo tarixiy geografik mintaqasida tosh asri kompleks o'rganilmagan. Turli yodgorliklarning alohida tadqiqotlari bo'yicha ma'lumotlarni ilmiy jurnallardan, maxsus monografik nashrlardan topish mumkin. Shular asosida Markaziy Osiyo mintaqasi tosh asri haqida yaxlit ma'lumotlar majmuini yarating va taqdimot tayyorlang.*

#### **Nazorat savollari:**

1. Markaziy Osiyo neoliti yodgorliklarini kimlar o'rgangan?
2. Joytun madaniyatining yetakchi xossasi nima?
3. Kaltaminor neolit qabilalarining turmush tarzi qanday kechgan?
4. Neolit tosh qurollarining umumiy ta'rifini bering.

#### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

#### **Seminar mashg'uloti-V. Markaziy Osiyoda bronzo davri manzilgohlari tahlili**

Bronza davrida dehqonchilik vohalarida alohida-alohida aholining joylashish tuzumi shakllandi. Aynan shu narsa shahar tipidagi aholi punktlarining shakllanishiga shart-sharoitlarni yaratdi. Shahar tipidagi aholi punktlari yuzaga kelish omillarini bilish ham muhim ahamiyatga egadir. Birinchi omil - aholi zichligi va konsentratsiyalashuviga olib kelgan oziq-ovqat yetishtirish usulidir. Dehqonchilik vohalarida aholi zichligi ovchilik va termachilik davriga qaraganda deyarli 100

barobar zichroq bo'lgan. Shu sababli dehqonchilik jamiyatlarining ilk bosqichli-ridagiga nisbatan yirik aholi markazlari paydo bo'ladi. Masalan, Turkmaniston miloddan avvalgi 4-3 ming yillardayoq aholisi 2000 yoki undan ortiq dehqonchilik qishloqlari mavjud bo'lgan .

Ikkinchi omil - hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi. Ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ayrim aholi punktlari asosan maxsus ishlab chikarish, ya'ni hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan aholi to'plana boshladi. Hunarmandchilikning ajralishi jarayoni bilan shaharlarning paydo bo'lishi jarayoni bir vaqtda borgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, dastlabki shahar tipidagi aholi punktlarida aholi hunarmandchilikdan ko'ra ko'proq dehqonchilik bilan shug'ulanganlar. Shaharlarning asta sekin rivojlanib borishi bilan hunarmandchilik shahar hayotida toboro muhim mavqe' uynay boshlagan. Hunarmandchilikning yangi sohalari paydo bo'la boshlagan. Umuman shahar va hunarmandchilik bir birlarining yuksalishiga sharoit yaratgan.

Uchinchi omil - jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish va shakllanib borgan boshqaruv organlaridir. To'rtinchi omil - o'zaro aloqalarning rivojlanishidir.

Beshinchi omil - esa diniy tushunchadir. Sababi turli ilohlarga atab qurilgan ibodatxonalar hamma aholi punktlari uchun markaz bo'lgan shaharlarda qad ko'targan. Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda janubiy Turkmanistonda birinchi loydan ishlangan g'ildiraklar paydo bo'lgan. Transportning rivojlanishi shaharlarga qishloq xo'jaligi tumanining markazi, qo'shimcha mahsulot to'planadigan va taqsimlanadigan markaz vazifasini o'tash imkonini ham yaratdi. Shaharlarning tashkil topishi va rivojlanishi sivilizatsiyaning tarkibiy qismidir. Ma'lumki, sivilizatsiya kishilik jamiyati rivojining ma'lum davrida paydo bo'ladi. Sivilizatsiyaning yuzaga kelishida va rivojlanishida shahar yetakchi rol o'ynaydi. Sababi, shaharlar sivilizatsiya paydo bo'lishi va rivojlanishini ta'minlagan barcha jarayonlar kechgan markaz rolini bajargan. Shu sababli sivilizatsiya iqtisodiy, madaniy asoslarining va ilk tabaqaviy jamiyatlarning tashkil topishi shahar tipidagi aholi punktlarining tashkil topishi va rivojlanish bilan birga bog'liq jarayon sifatida qaraladi. Bu jarayon fanda «shahar inqilobi» deb ataladi.

### **Topshiriqlar variantlari:**

1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **“Case study”**

*Insoniyat tarixining neolit davri sivilizatsion jarayonlarning boshlanishi deb hisoblanadi. Unga qadar ibtidoiy davrlarga nisbatan madaniyat tushunchasi shartli ravishda qo‘llanadi. Jahon miqyosida sivilizatsiyaning ilk o‘choqlari haqida ilmiy va ko‘plab ilmiy ommabop adabiyot yaratilgan. Shu jumladan O‘rta Osiyo va kengroq ma‘noda Markaziy Osiyo ilk sivilizatsiyasi haqida ham adabiyot yetarli. Shular asosida jahon sivilizatsiyasi o‘choqlari va Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining qiyosiy tafsilotini yarating.*

### **Nazorat savollari:**

1. Bronza davriga kelib insonlar qanday kashfiyotlarni amalga oshirishdi?
2. Shaharlar vujudga kelishining ijtimoiy, iqtisodiy asoslarini tushuntirib bering.
3. “Shahar inqilobi” atamasi qanday ma‘noni bildiradi?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ходжыев А. Марказий Осиyo xalqlari tarixiga oid ma‘lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg‘uloti-VI. Markaziy Osiyoning eng qadimgi shahar-davlatlari**

O‘rta Osiyo hududidagi dastlabki podshohliklar Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya podshohliklari shu tariqa eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda paydo bo‘lgan. Ular O‘rta Osiyoning kattagina qismini o‘z ichiga olgan. Ushbu davlatlar mustaqil rivojlanish jarayoni ahmoniylar bosqini natijasida eramizdan avvalgi VI asrda barham topadi.

Bu podshohliklar darsliklarda hanuz tariximizdagi eng qadimgi davlatlar deb kelinmoqda. Biroq, biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, ular davlatchilik tariximizning ikkinchi bosqichiga tegishli davlatlardir. Ularning tarixi biroz yozma manbalarda yoritilgan bo‘lsada, biroq ularning yechilmagan muammolari anchagina. Biz quyida ularni atroflicha ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Yunon mualliflari (Gerodot, Gekatey)ning xabariga ko'ra, bu zaminda qabilalar konfederatsiyasi asosida tarkib topgan dastlabki davlatlar mavjud bo'lgan. «Katta Xorazm» va «Baqtriya podsholigi» harbiy demokratik prinsiplar asosida tarkib topgan. Afsuski, yozma manbalarda ular haqida uzun-yuluq va juda qisqa ma'lumotlar uchraydi. Ularning ba'zilari esa afsonaviy xarakterda, zardushtiylik dinining bosh islohotchisi Zaratushtra nomi bilan bog'liq xolda eslatiladi.

«Avesto» berilgan ma'lumotlarni mashhur xorazmshunos olim S.P.Tolstov, Yevropa olimlaridan V.Xenning hamda I.Gershovichlar arxeologik izlanishlar va tarixiy-geografik ma'lumotlarni solishtirib, «Katta Xorazm» davlati haqidagi o'z qarashlarini bayon etganlar. Masalan, S.P.Tolstov fikricha, «Avesto»da Zaratushtraning vatani Aranem Vayjo mamlakati bo'ylab oqib o'tgan Daitya daryosi – hozirgi Amudaryodir. Natijada qadimgi Xorazm Amudaryo xavzasida joylashgan viloyat ekan, Zaratushtra o'z ta'limotini shu zamindan chiqib boshqa viloyatlarga tarqatgan, degan xulosaga keladi. Biroq I.I.Xlopin «Katta Xorazm»ning yirik siyosiy birlashma sifatida ahamoniylardan oldingi davrda mavjud bo'lganligi va Oksning Tajan-Xerirud daryosi bilan bir ekanligi haqidagi fikrni asossiz deb hisoblanishni shubha ostiga olgan. Oksni Atrek daryosiga to'g'ri keladi deb hisoblagan. Uning fikricha, «Ahamoniylardan oldingi davrda Markaziy Osiyo hududida xalqlarning xorazmiylar boshchiligida hech qanday ilk davlat birlashmalari yo'q edi». Shu bilan bir qatorda u ahamoniylardan oldingi davrda Markaziy Osiyoning janubida «bir nechta uncha katta bo'lmagan markazlar», shu jumladan, Baqtriya mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. Ammo «Katta Xorazm» Markaziy Osiyoning bapoyon kengliklarini, ya'ni Oroldan Tajan (Xerirud) daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarni qamrab olgan, Markaziy Osiyodagi ilk davlatlardan biri, siyosiy birlashma bo'lganligiga hech qanday shudha bo'lishi mumkin emas. Masalan, «Avesto»da «Katta Xorazm»ga tegishli viloyatlar sanab o'tiladi. Bunga ko'ra, Markaziy Osiyoning deyarli katta qismi «Katta Xorazm» tarkibiga kirganligini ko'rishimiz mumkin.

### **Topshiriqlar variantlari:**

- 1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **“Case study”**

*Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining, shu jumladan o‘zbek xalqining davlatchilik tarixi masalasi fanda ataylab xas po‘shlab, e’tiborga olinmay kelar edi. O‘zbekiston va mintaqadagi qo‘shni xalqlar SSSR deb atalgan mustabid davlat tarkibidan chiqib, o‘z mustaqilliklarini qo‘lga kiritishi sababli mintaqada har bir xalq o‘z davlatchiligi asoslarini o‘rganishga, bu sohadagi tarixiy tajribalarini qayta tiklashga ehtiyoj seza boshladi. Tarixning bu muhim masalasida SSSR davri mafkurasi asosida ishlab chiqilgan konsepsiyaga ko‘ra “ulug‘ millat” tarixidan yorqinroq va qadimiyroq ko‘ringan har qanday haqiqat ataylab buzib ko‘rsatilar yoki kamsitilar zdi. Biroq, mustaqillik davrida tarixga xolisona munosabatni shakllantirish o‘rniga qo‘shni mamlakatlardagi hozirgi tarixshunoslikda radikal reaksiyon milliy xudbinlik, ulug‘millatchilik, davlatchilikning “o‘ta qadimiylikgi, “sof” millatlik, asl tubjoylilik, tarixiy hudud da’volari kabi turli noilmiy qarashlar ko‘zga tashlanmoqda. Shu masala bo‘yicha mavjud adabiyotlarni topish, ularni tarixshunoslik nuqtai nazaridan baholash, turli qarashlarni qiyoslab, xolisona baho chiqarish payti keldi. Vaziyatni tahlil qiling, tegishli xulosalar chiqaring.*

### **Nazorat savollari:**

1. Bronza davridagi insonlarni turmushi haqida nimalarni bilasiz?
2. Bronza davriga kelib insonlar qanday kashfiyotlarni amalga oshirishdi?
3. Shaharlar vujudga kelishining ijtimoiy, iqtisodiy asoslarini tushuntirib bering.
4. “Shahar inqilobi” atamasi qanday ma’noni bildiradi?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma’lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.



## **Seminar mashg'uloti-VII. "Avesto"- Markaziy Osiyoning qadimgi yozma manbasi**

Avesto Sharq xalqlari qadimgi davrini tadqiq etishda hozircha muhim manba bo'lib, u o'zining bu ahamiyatini bundan buyon ham saqlab qoladi. Bu kitob dastavval, e'tiqodlar, tillar va dinlar, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy hayot rivojlanishi bosqichlari haqidagi ilk to'plam hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, bu jarayonlar davlatchilik va iqtisodiy rivojlanishning umumiy doirasida bo'lib o'tgan.

Avesto davri turli qabila va elatlar, jamoalar e'tiqodlarining mukammal jahon dini darajasidagi din bilan almashayotgan davr edi. Shuningdek bu davr tub iqtisodiy o'zgarishlar va ishlab chiqarishda sifatiiy o'lg'a siljishlar davri bo'lganligi bilan ham izohlanadi-ki, bu holat ierarxik to'zumga ega bo'lgan davlatchilik hamda urbanizatsiyaning yangi bosqichga ko'tarilishiga, kasbiy hunarmandchilik, birinchi galda, metallurgiyaning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratgan edi. Mis, bronza keyinroq esa temirning paydo bo'lishi ishlab chiqarishdagi katta o'zgarishlarga, jumladan, hunarmandchilikning maxsus tarmoqlarga ajratilishiga va mahsulot ayirboshlashga olib keldi-ki, bu jarayon shaharlarning shakllanishi hamda rivojlanishiga, dehqonchilik va chorvador aholi turmush tarzida tub o'zgarishlar bo'lishiga imkon yaratdi.

Avestoda ilk davlat uyushmalari hisoblangan bir qator tarixiy-madaniy viloyatlar sanab o'tiladi. Ular orasida Aryanam Vayjo (oriylar tekisligi), Gava Sug'da, Mouru, Bahdi, Nisaya kabilar bo'lib, fikrimizcha, ular O'rta Osiyo, Janubiy Uraloldi va Markaziy Qozog'iston hududlarida joylashgan. Bu ulkan mintaqada muhim polimetallar makonlari, Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimlarida keng yaylov hududlar, Baqtra, Mavr, Niso va Sug'dda urbanizatsiyalashgan markazlar mavjud edi. Avesto madhiyalarida ma'lum ijtimoiy bosqichlardagi izchillik va ierarxiyani ko'zatish mumkin. Shuningdek, Avestoda ilk shaharlar shakllanishi bosqichlari Axuramazda farmoni bilan dastlabki odam Yima tomonidan mustahkamlangan «vara» bunyod etishi misolida ko'zatiladi. Bunday «vara»lardan biri arxeologlar tomonidan Janubiy Ural-Qozog'iston «shaharlar o'lkasi»dan topilgan bronza davriga oid Arkaim yodgorligida bo'lishi mumkin. Arkaim yodgorligi bir necha mustahkamlangan manzilgohlardan iborat bo'lib, handaqlar va ko'p qatorli mudofaa devorlari bilan o'rab olingan, kirish qismi himoyalangan. Yodgorlik murakkab va aniq tuzilishga ega. Yodgorlik hududlaridan hunarmandchilikning avvalo, metall eritish va unga ishlov berishning izlari, bronzadan yasalgan buyumlar topilgan. Avesto madhiyalarida eslatilgan «vara» shaklidagi himoyalangan inshootlar bunyod etilishi shahar madaniyati belgilarini, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning yuqori darajasini, nom davlatlar ko'rinishidagi shaharlar shakllanishini o'zida aks ettiradi. Bu jarayonning bosqichma-bosqich rivojlanishi esa O'rta Osiyoning janubiy va markaziy hududlarida ko'zatiladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O'rta Osiyoda eng qadimgi davlatlarning shakllanish jarayoni dehqon-chorvachilik iqtisodiyoti, ixtisoslashgan hunarmandchilik va shahar markazlarining paydo bo'lishi bilan o'zviy bog'liqdir.

Hozirgi kunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bu hududlarda ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning ayrim muhim masalalarini yangi asosda izohlashga imkoniyat yaratadi. Ammo, shunga qaramasdan bu masala to'liq ʻyechimini topmagan bo'lib, xususan, O'rta Osiyo eng qadimgi davlatlari tipologiyasi va xronologiyasi, davlatchilik taraqqiyotida ilk shaharlarning ahamiyati muammosi shular jumlasidandir.

### **Topshiriqlar variantlari:**

1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **“Case study”**

*Zardushtiylik dini va Avesta kitobining vatani haqida ilmiy bahs haligacha (avestashunoslik yuz yillab tarixga egaligiga qaramasdan) oxiriga yetgan emas. Avesta kitobini chuqur tadqiq etish, Zardushtning shaxs sifatidagi hayot yo'lini tahlil etish bu masalada O'rta Osiyo foydasiga ba'zi aniq fikrlarni olg'a surish imkonini bermoqda. Bu vaziyatni tahlil qiling, masala bo'yicha ilmiy va ommabop adabiyot bilan tanishib, o'qilgan ma'lumotlar asosida holis fikr yuritib, zarur xulosalar chiqarishga harakat qiling.*

### **Nazorat savollari:**

1. Ilk temir asrida diniy tasavvurlar va tushunchalar to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Zardushtiylik dinining kelib chiqishi va asoslarini gapirib bering?
3. “Avesto” to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Zardushtiylik dinining vatani to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Zardusht kim bo'lgan?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ходжыев А. Марказий Осиё халқлари тарихига оид ма'lumotlar, Т., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.

## **Seminar mashg'uloti –VIII. Ilk temir asri yodgorliklari, MO temir asri madaniy qatlamlari tahlili**

Ilk temir davri O'rta Osiyoning janubida xususan Sug'diyonada, alohida hududiy tartib guruhida bo'lib, markaziy vazifani bajaragan bir nechta manzilgohlar turlari mavjud edi. Bular maydoni 5 gektardan 15 gektargacha bo'lib, tuman-voha markazi vazifasini bajaruvchi Daratepa, Konimex, Chordara kabilardir. Maydoni 20 gektardan 80 gektargacha bo'lgan viloyat markazlari vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan O'zunqir, Yerqo'rg'on, Xo'ja Bo'ston kabilar hamda bir necha viloyatlar markazi vazifasini bajaruvchi va maydoni 100 gektardan ziyod bo'lgan Afrosiyob, Buxoro shular jumlasidandir.

Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, hunarmandchilik muassasalari yirik manzilgohlar ichida markazlashib qolmasdan, ularning atrofida ham to'planib boradi. Bu manzarani Afrosiyob topilmalari tasdiqlaydi. Bunday manzilgohlar asta-sekinlik bilan hunarmandchilik, savdo va madaniy markazlarga aylanib boradiki, bu jarayonda qadimgi yo'llar nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlab o'tishimiz joizdir. Afrosiyob, O'zunqir, Yerqo'rg'on kabi qo'hna shaharlar O'rta Osiyoning qadimgi yo'llari ustida joylashgan.

Arxeologik manbalarning ma'lumot berishicha miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib O'rta Osiyoning janubida ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar anchagina murakkablashadi. Bu o'rinda Qadimgi Baqtriya ma'lumotlarini keltirib o'tish joizdir. Yozma manbalarda Baqtriya O'rta Sharqdagi muhim viloyat – «o'lka» (Ktesiyda) sifatida Ossuriya podshosi Ninning va Kir II ning (Gerodotda) harbiy rejalariga qarshi chiqqanligi hamda Aleksandr Makedonskiy qo'shinlariga qattiq qarshilik ko'rsatganligi ta'kidlanadi.

Kir II ning O'rta Osiyoga yurishi – Ahamoniylarning Baqtriya va sak-massaget uyushmasi kabi jiddiy raqiblari mavjud bo'lganligining dalilidir. Forslar O'rta Osiyo janubiy viloyatlarini bosib olganlaridan keyingina miloddan avvalgi 530 yilda sak-massagetlar ustiga yurish boshlaydilar. Demak, bu paytga kelib Baqtriya harbiy-siyosiy uyushmasi tarkibida Baqtriyadan tashqari Marg'iyona va Sug'diyona ham mavjud edi.

Bizning nazarimizda, O'rta Osiyo hududlarida ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishida ilk shaharlar va harbiy-siyosiy omillardan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ham katta ahamiyatga ega edi. Chunki, siyosiy jihatdan shakllangan davlat yoki uyushma boshqaruv tartibi va iqtisodiyotsiz taraqqiyot bosqichiga ko'tarila olmaydi.

Bizga ma'lum tarixiy manbalar hozirgi O'zbekiston hududlarida eng qadimgi siyosiy uyushmalardan bo'lgan «Katta Xorazm» haqida ma'lumot bersada, arxeologik tadqiqotlar natijalari boshqacharoq xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xususan, miloddan avvalgi IX-VII asrlarga oid Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyona topilmalari (qishloqlar, qo'hna shaharlar qoldiqlari, moddiy madaniyat buyumlari va hok.) janubiy hududlarda rivojlanish jarayoni birmuncha ilgariroq ro'y berganidan dalolat beradi. Eng so'nggi arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil etar ekanmiz,

Kuchuktepa, Qiziltepa (Surxondaryo), Yoztepa (Turkmaniston), O‘zunqir, Yerqo‘rg‘on (Qashqadaryo), Afrosiyob, Ko‘ktepa (Samarqand) kabi qo‘hna shahar va manzilgohlar sopol buyumlari bir-biriga nihoyatda o‘xshash ekanligining guvohi bo‘lamiz. Demak, yuqorida eslatilgan hududlar o‘rtasida hech bo‘lmaganda, tarixiy-madaniy birlik mavjud edi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, tarixiy-madaniy birlikdan tashqari, bir-biriga o‘xshash moddiy madaniyat buyumlarini bir guruh ustalar, hech bo‘lmasa, ularning shogirdlari tayyorlashi mumkinku, degan savol tug‘ilishi tabiiy hol.

### **Topshiriqlar variantlari:**

1) Mavzuni o‘rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma’lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e’tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma’lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **“Case study”**

*Insoniyat tarixining temir davri sivilizatsion jarayonlarning boshlanishi deb hisoblanadi. Unga qadar ibtidoiy davrlarga nisbatan madaniyat tushunchasi shartli ravishda qo‘llanadi. Jahon miqyosida sivilizatsiyaning ilk o‘choqlari haqida ilmiy va ko‘plab ilmiy ommabop adabiyot yaratilgan. Shu jumladan O‘rta Osiyo va kengroq ma’noda Markaziy Osiyo ilk sivilizatsiyasi haqida ham adabiyot yetarli. Shular asosida jahon sivilizatsiyasi o‘choqlari va Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining qiyosiy tafsilotini yarating.*

### **Nazorat savollari:**

1. «Katta Xorazm» davlati to‘g‘risida qadimgi mualliflar qanday fikrlar yozib qoldirganlar?

2. Qadimgi Baqtriya va «Katta Xorazm» yerlari hozirgi paytda qaysi hududlarga to‘g‘ri keladi?

3. Qadimgi Baqtriya hududidan qanday yodgorliklar topilgan?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma’lumotlar, T., 2014

2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.

4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.

## Seminar mashg'uloti-IX. Markaziy Osiyoning qadimgi davr tarixshunosligi

Tarixshunoslik tarix ilmining muhim va asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, tarix fanining taraqqiyot yo'llari, tarixiy kitoblarda bayon etilgan voqealarni tanqidiy yondashish bilan o'rganish, ma'lum tarixiy maktablar masalan,

1) diniy (sakral) ideologiyasini (yuz bergan hodisalarni oldindan qandaydir ilohiy kuch belgilagan, degan nuqtai nazarni) tartib qiluvchi maktab;

2) Uyg'onish davri (Sharqda X,XV, G'arbda XV, XVI asrlar) maktabi. Uning namoyandalari (Sharqda Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek va boshq.; G'arbda G.Grasiy, Gabs va boshq.) – tarixiy jarayonlarni davlat va hokimiyat tepasida turgan siyosiy guruhlar harakatlantirganlar, deb aytganlar va diniy aqidalar va mulkchilik tartiblarini tanqid qilganlar;

3) dvoryan romantizmi maktabi. Bu maktab namoyandalari O'rta asr tartiblarini ilohiylashtiradilar, tarixdagi to'ntarishlarni ilohiy nuqtai nazardan asoslaydilar, tarixni rasional tushuntirishni rad etadilar (yirik namoyandalari N.M.Karamzin, M.P.Pogodin va boshq.) Boshqacha qilib aytganda, tarixshunoslik ilmi insoniyat jamiyati taraqqiyotiga oid aniq bilimlarni umumlashtirish, baholash bilan shug'ullanuvchi ilmdir.

Biz talqin etayotgan mintaqa tarixshunosligiga kelsak, u hali ham kam o'rganilgan. Undagi oqimlar, maktablar hali aniqlanmagan. Shuning uchun ham darsni manbashunoslikdan boshlash maqsadga muvofiqdir, chunki manbashunoslik tarixshunoslikning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

### Topshiriqlar variantlari:

1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### “Case study”

*Qang' (Kangyuy) davlati, uning tarixiy geografiyasi, ijtimoiy hayoti, qo'shni Xorazm, Sug'd, Farg'ona va boshqa davlatlar bilan munsabati, Xitoy va Qang' hamda bir qator boshqa masalalar bo'yicha fanda turli qarashlar, qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bu muammoga oid ma'lumotlar bo'yicha ilmiy va ommabop adabiyot bilan ishlab, ma'lumotlar to'plang, tahlil qiling, xulosalar chiqarishga harakat qiling. S.P. Tolstov, K. Shoniyozov, P. Zohidovlvrning fikrlarini solishtirib ko'ring. Qozog'iston olimlarining Kangyuy davri (va davlati) tarixiga munosabatini tanqidiy o'rganib, zarur ilmiy xulosalar chiqarishga harakat qiling.*

### **Nazorat savollari:**

1. «Katta Xorazm» davlati to'g'risida qadimgi mualliflar qanday fikrlar yozib qoldirganlar?
2. Qadimgi Baqtriya va «Katta Xorazm» yerlari hozirgi paytda qaysi hududlarga to'g'ri keladi?
3. Nima sababdan antik olimlar Ktesiyning Baqtriya haqidagi fikrlariga qo'shilmaganlar?
4. Qadimgi Baqtriya hududidan qanday yodgorliklar topilgan?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg'uloti-X. Miloddan avvalgi I ming yillikning 2-yarmida Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Oltoy**

Markaziy Osiyoning tarkibiy qismi bo'lgan Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo'g'iliston hududlarida bronza davrida taraqqiyot qay darajada bo'lganligini ko'rib chiqish mavzumizning asosiy vazifasidir.

Bronza davrida Oltoy hududi bronza davrini o'rganishda olimlar asosan ikki qismga bo'lishni taklif qilishgan: Birinchisi, Tog'li-Oltoy hududi bo'lib, unga asosan Ob daryosining janubi-sharqiy irmoqlari atrofidagi hududlar kiradi. Ikkinchisi, Oltoy vodiysi bo'lib, bunga Oltoy vodiysi, Shimoli-sharqiy Qozog'iston kiradi. Tog'li Oltoy hududida "Afanasev madaniyati" keng tarqalgan. Afanasev madaniyatning o'ziga xos jihati bu hududlarda bronzaga qaraganda tosh buyumlari keng tarqalgan. Oltoy vodiysida esa ko'proq "Andronova madaniyati" ta'siri sezilib turadi. Bu yerlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha bronzadan yasalgan buyumlar ko'plab topilgan. Shu bilan birgalikda ko'pdan ko'p qabrlar ham uchraydi. Sharqiy Turkistonda bronza davrini o'rganish bo'yicha olimlar keng ko'lamli izlanishlar olib borganlar. Natijada mintaqaning madaniyat va xo'jalik shakllarini chuqur o'rganishdi. 1947 yili mazkur hududda arxeologik tadqiqotlar olib borgan olim A.N.Berneshtam shunday yozgan edi: "Bu hududdagi qadimgi madaniyat o'zining keramik buyumlarga boyligi bilan alohida xarakterga ega. Sharqiy Turkiston chegaralari shimolda Oltoy hududi va Irtish daryosi, janub va sharqda Xitoy hududi, G'arbda Ili daryosining sharqiy irmoqlarigacha cho'zilgan. Sharqiy Turkistonda bronza davrida "Andronova madaniyati" keng tarqalgan. Miloddan avvalgi II ming yillik oxiri

va I ming yillikning boshlariga oid manzilgohlardan topilgan keramik buyumlar Qozog‘iston va Farg‘ona vodiysigacha bo‘lgan hududlarda Andronova madaniyati rivojlanganligini ko‘rsatadi”. Bundan tashqari Markaziy Osiyoning sharqiy qismlari, shimoliy Pomir, Markaziy Tyan-Shan hududlarida ham mazkur madaniyat izlarining mavjud bo‘lganligini ko‘ramiz. Mo‘g‘ilistonda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu hududda “Karasuk madaniyati” tipi mavjud bo‘lganligi aniqlandi. Karasuk madaniyati Markaziy Osiyoda sak qabilalaridan oldingi davrda milloddan avvalgi II ming yillik o‘rtalarida shakllangan madaniyat shakli hisoblangan. Bu madaniyag Markaziy Osiyoning Sharqiy Turkiston, Tuva, Baykalgacha bo‘lgan yerlarda va yuqori, quyi Mo‘g‘iliston hududlarida keng tarqalgan. Janubiy Sibir, Qozog‘iston va Markaziy Osiyoda ilmiy izlanishlar olib borgan olim M.P.Gryaznov fikricha, Karasuk madaniyati Andronova madaniyatidan oldin Janubiy Sibir hududlaridan kirib kelgan. S.V.Kiselyov birinchi bo‘lib Mo‘g‘iliston muzeyidagi bronza qurollarini turlarga bo‘lgan va Shimoliy Xitoy hududidan topilgan bronza buyumlarini o‘rgangan. Sibir hududida vujudga kelgan Karasuk madaniyatini Mo‘g‘ilistonning janubiy-sharqiy hududi bilan aloqadorligini aniqlagan.

#### **Topshiriqlar variantlari:**

- 1) Mavzuni o‘rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma’lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e’tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma’lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

#### **“Case study”**

*Qang‘ (Kangyuy) davlati, uning tarixiy geografyasi, ijtimoiy hayoti, qo‘shni Xorazm, Sug‘d, Farg‘ona va boshqa davlatlar bilan munosabati, Xitoy va Qang‘ hamda bir qator boshqa masalalar bo‘yicha fanda turli qarashlar, qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bu muammoga oid ma’lumotlar bo‘yicha ilmiy va ommabop adabiyot bilan ishlab, ma’lumotlar to‘plang, tahlil qiling, xulosalar chiqarishga harakat qiling. S.P. Tolstov, K. Shoniyozov, P. Zohidovlvrning fikrlarini solishtirib ko‘ring. Qozog‘iston olimlarining Kangyuy davri (va davlati) tarixiga munosabatini tanqidiy o‘rganib, zarur ilmiy xulosalar chiqarishga harakat qiling.*

#### **Nazorat savollari:**

1. Bronza davrining o‘ziga xos xususiyatlarini gapirib bering?
2. Bronza davriga oid Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Mo‘g‘iliston hududlaridagi manzilgohlar haqida ma’lumot bering?
3. Aholining turmush tarzi va mashg‘ulotlari qanday bo‘lgan?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg'uloti –XI. Qirg'iz hoqonligi va usunlar davlati tarixiga oid ma'lumotlar tahlili**

“Xanshu”, “Xan sulolasi tarixi”: “G'arbiy mamlakatlar tazkirasi-96-bob, seykjung xoni janubga chekinib, Kashmirni egalladi, saklar tarqalib ketib, bir necha xonlikka ajralishdi. Suli (Qashg'ar), Syusyun (Erkeshtom) va Jyundu (Ulug'jot) kabi joylarning hammasini saklar egallagan.”

“Asuen (Usun) davlati yerlari aslida seyklarga tegishli edi.” “Dayruzie g'arbiga yurish qildi, seklarning hukmdorini yengib, ularni yerini tashlab ketishga majbur qildi. Seklar hukmdori Shyandu (Hindiston)ga borib joylashdi. Asuen hukmdori Kunmuo dayruzielarni yengib, odamlariga yerlarni bo'lib berdi. Dayruzielar Baqtriyani egallashdi.” “Tungdyan” “qonun-qoidalar va urf-odatlar bayoni” ham yuqoridagi ma'lumotlar takrorlangan. Saklar-asuenlar bir xil kiyinishadi. “Tayping xuanyuy-ji”-Tinchlik o'rnatilgan zamin bayoni ham yuqoridagi ma'lumotlar aynan takrorlangan.

«Usun» qadimgiturkiy tilda «o'n urug' eli» (us- rod, un -desyat). Ko'plab tarixiy ma'lumotlarni tahli etish natijasida olimlar usunlarni ko'k-ko'z va malla soqol odamlar bo'lishiga qaramay qadimgi turkiy elat deb hisoblashadi. Mil.avv. 5-3 asrlar. A.Xodjaev, “Shiji”: “Asuen-uysunlar tilga olingan”. Bugun qozoqlarda sariq-uysun, qirg'izlarda uysun urug'i mavjud. Asuen davlati Dayuandan shimoli-sharqda, Kankiyadan janubi-sharqda joylashgan, Issiqko'l atrofi, Ili bo'ylari, Tangritog' o'rtalarida. Asuenlar Ili atrofida mil.avv. 2 asrda joylashganlar. Asuenlar-120 ming oila, 630 ming kishilik davlat. Asuenlarning ruzie (g'uzer, og'uz) bilan bir necha janglari yozilgan. Bu mamlakatda ot ko'p boqiladi, boy asuenlarda 4-5 ming ot mavjud. Asuenlar hukmdori Kunmuo xunlar bilan ittifoqchi bo'lib, ruzielarni janubga chekintirgan. Davlat markazi Chigu-cheng, Norin yuqori oqimida, Qizilsoy degan ma'nosi. Davlat xunlar ta'sirida, o'lpon to'lab turgan. Sukuluk shahar xarobasi-Usunlarning Chuy kanali bo'yidagi shahri (Qirg'iziston). A.Xodjaev: qadimgi xitoy tarixchisi Shyue Zungchjen «jegesi-qirg'izlar dingling (qadimgi turklar) va saklarning aralashuvidan paydo bo'lgan elat deydi.» V.V. Bartold “qirg'izlarni O'rta Osiyoning eng qadimgi xalqlaridan biri”-deb atagan. Ular tualiklar, boshqirdlar, o'zbeklar shakllanishiga ta'sir etgan. “Qirg'iz” so'zi etimologiyasi- Abulg'ozzi Bahodurxon



“Shajarai Turk”da Og‘uz xonning jiyani ismi deydi. Yoki “qirq og‘uz”, “tog‘li og‘uz”, “qirq qiz” geneologiyasini bog‘lovchi mifologiya qizlar. «Yuan shi» («Yuan sulolasi tarixi»; 14-asr.), Us vodiysi 40 qizi tarixi bilan bog‘liq. (us-ugus - oguz). Qirg‘izlar manbalarda mil.avv 3 asrdan Enasoyda yashagani aytiladi. Xirxis-nur ko‘li (Mo‘g‘uliston) atrofidan. Aslida ular mil.avv. 9-7 asrlardan yashagan. Xitoy tarixchisi Ban Gu (er avv. 1 asr) o‘zining «Xan shu»sida: «Tangri-kutdan (xunlar sardori) 7 ming li sharqroqda joylashgan»- deyilgan.

### **Topshiriqlar variantlari:**

1) Mavzuni o‘rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma‘lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e‘tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma‘lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **Nazorat savollari:**

1) Efemer davlatchilik jarayonlarini tushuntiring?

2) Markaziy Osiyoda ilk shaharlar paydo bo‘lishining tarixiy shart-sharoitlari haqida nima bilasiz?

3) Ilk shaharlarning ko‘rinishi va tuzilishi qanday bo‘lgan?

4) Qirg‘iz hoqonligi va qozoqlarning usun davlatchiligi masalasi?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xodjayeov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma‘lumotlar, T., 2014

2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.

4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.

5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg‘uloti-XII. Markaziy Osiyoning qadimgi yozuvlari, arxeologik topilmalar**

1) Mavzuni o‘rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma‘lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e‘tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma‘lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **“Case study”**

*Qang‘ (Kangyuy) davlati, uning tarixiy geografiyasi, ijtimoiy hayoti, qo‘shni Xorazm, Sug‘d, Farg‘ona va boshqa davlatlar bilan munosabati, Xitoy va Qang‘ hamda bir qator boshqa masalalar bo‘yicha fanda turli qarashlar, qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bu muammoga oid ma‘lumotlar bo‘yicha ilmiy va ommabop adabiyot bilan ishlab, ma‘lumotlar to‘plang, tahlil qiling, xulosalar chiqarishga harakat qiling. S.P. Tolstov, K. Shoniyozov, P. Zohidovlarning fikrlarini solishtirib ko‘ring. Qozog‘iston olimlarining Kangyuy davri (va davlati) tarixiga munosabatini tanqidiy o‘rganib, zarur ilmiy xulosalar chiqarishga harakat qiling.*

### **Nazorat savollari:**

1. Markaziy Osiyoning qadimgi yozuvlari kelib chiqishi va asoslarini gapirib bering?
2. “Avesto” to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. So‘g‘d yozuvi, issiq yozuvi?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma‘lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg‘uloti-XIII. Markaziy Osiyo xalqlarining ozodlik uchun kurashi**

- 1) Mavzuni o‘rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma‘lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e‘tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma‘lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **“Case study”**

*Ikki talaba o‘zaro bahslashib, Yunon-Baqtriya davlatinin gsiyosiy va ijtimoiy mohiyatini tahlil qilishmoqda. Ularning biri mazkur davlat mahalliy xalqqa begona, Iskandar(Aleksandr) makdoniyali bosib olgan hududlarning sharqiy qismida yunon hukmdorlari tashkil qilgan davlat deb ta’riflansa, ikkinchisi Yunon-Boxtar davlati mahalliy an’analarga muvofiqlashgan tarzda moslashgan podsholik edi deydi. Bu bahs yuzasidan to’g’ri xulosa chiqarish uchun qanday fikr yuritish talab qilinadi? Yunon-Boxtar davlati qanday jamiyatni boshqargan edi? Siyosiy hokimiyat son jihatdan ozchilik etnos qo’lida, jamiyat esa boshqa etnoslardan tashkil topgan davlat Yunon-Boxtar davlati misolida tipologik jihatdan qanday nomlanishi mumkin?*

### **Nazorat savollari:**

1. Ahamoniylar qanday g’oya asosida dunyoga hukmronlik qilish rejasini tuzganlar?
2. Nima uchun Kichik Osiyoga Kirning o‘zi emas balki ishonchli qo‘mondoni Garpog yurish qilgan?
3. Nega o‘zga xalqlar Ahamoniylar tarixini o‘rganishda ularni aynan Ahamoniylar deb emas, balki Midiyaliklar deb o‘rganishgan?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ходжыев А. Марказий Осиёо халқлари тарихгаoid ма’lumотлар, Т., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg‘uloti-XIV. Ellinizmning Markaziy Osiyoga ta’siri**

- 1) Mavzuni o‘rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma’lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e’tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma’lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **“Case study”**

*Ikki talaba o‘zaro bahslashib, Yunon-Baqtriya davlatinin gsiyosiy va ijtimoiy mohiyatini tahlil qilishmoqda. Ularning biri mazkur davlat mahalliy xalqqa begona, Iskandar(Aleksandr) makdoniyali bosib olgan hududlarning sharqiy qismida yunon hukmdorlari tashkil qilgan davlat deb ta’riflansa, ikkinchisi Yunon-Boxtar davlati mahalliy an’analarga muvofiqlashgan tarzda moslashgan podsholik edi deydi. Bu bahs yuzasidan to’g’ri xulosa chiqarish uchun qanday fikr yuritish talab qilinadi? Yunon-Boxtar davlati qanday jamiyatni boshqargan edi? Siyosiy hokimiyat son jihatdan ozchilik etnos qo’lida, jamiyat esa boshqa etnoslardan tashkil topgan davlat Yunon-Boxtar davlati misolida tipologik jihatdan qanday nomlanishi mumkin?*

### **Nazorat savollari:**

1. Makedoniyalik Iskandar saltanatining tashkil topishi haqida gapirib bering.
2. Iskandar hokimiyat tepasiga qay tarzda keldi?
3. Makedoniyalik Iskandarning harbiy yurishlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Iskandar saltanati nega parchalanib ketdi?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma’lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg‘uloti- XV. Ellin davlatlari**

- 1) Mavzuni o‘rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma’lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e’tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma’lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **Nazorat savollari:**

- 1) Ellinizmning mazmun-mohiyatini tushuntiring
- 2) Bu davrda shaharsozlik qanday rivojlandi?
- 3) Yunon-Baqtriya davlatining tuzilishi haqida gapiring

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg'uloti- XVI. Qadimgi Parfiya davlati, ma'lumotlar tahlili**

- 1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **Nazorat savollari:**

1. Grek madaniyatining Markaziy Osiyoga ta'sirini nimalarda ko'rish mumkin?
2. Nima sababdan o'troq hayot kechirayotgan xalqlar ko'chmanchi xalqlarga aylanib qoldi?
3. Qaysi omil tufayli ko'chmanchilarning deyarli hammasi yer sharining janubidan ko'ra shimol tomonida istiqomat qilganlar?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

## Seminar mashg'uloti –XVII. Qang' davlati ijtimoiy iqtisodiy ahvoli. Madaniy hayot. Diniy munosabatlar

1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### “Case study”

*Qang' (Kangyuy) davlati, uning tarixiy geografiyasi, ijtimoiy hayoti, qo'shni Xorazm, Sug'd, Farg'ona va boshqa davlatlar bilan munosabati, Xitoy va Qang' hamda bir qator boshqa masalalar bo'yicha fanda turli qarashlar, qarama-qarshi fikrlar mavjud. Bu muammoga oid ma'lumotlar bo'yicha ilmiy va ommabop adabiyot bilan ishlab, ma'lumotlar to'plang, tahlil qiling, xulosalar chiqarishga harakat qiling. S.P. Tolstov, K. Shoniyozov, P. Zohidovlarning fikrlarini solishtirib ko'ring. Qozog'iston olimlarining Kangyuy davri (va davlati) tarixiga munosabatini tanqidiy o'rganib, zarur ilmiy xulosalar chiqarishga harakat qiling.*

### Nazorat savollari:

1. Qang' etnik tushunchami yoki siyosiy?
2. Qang'lar haqida S.P.Tolstov va A.N.Bernshtam fikrlariga qanday qaraysiz?
3. Bu davrda Markaziy Osiyodagi tarixiy vaziyat qanday edi?
4. Qang'larning boshqa xalqlari bilan aloqalari qay tarzda bo'lgan?
5. Kang' davlati madaniyatiga hissa qo'shgan omillar haqida nima deya olasiz?

### Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

## **Seminar mashg'uloti –XVIII. Qadimgi Davan, Choch va Ustrushona tarixi tahlili**

1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **Nazorat savollari:**

1. Farg'ona davlati chetda qaysi davlatlar bilan aloqalar olib borgan ?
2. Markaziy Osiyo xalqlari bilan ular o'rtasidagi aloqalar nimalarda ko'rinadi?
3. Xunlar va xalqlarning buyuk ko'chishlari va uning oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Yuechjilar Xunlarni o'ziga bo'ysundirishiga nima to'sqinlik qildi ?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

## **Seminar mashg'uloti-XIX. Xalqlarning buyuk ko'chish davrida Markaziy Osiyo**

1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **Nazorat savollari:**

1. Xunlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Markaziy Osiyo xalqlari bilan ular o'rtasidagi aloqalar nimalarda ko'rinadi?
3. Xunlar va xalqlarning buyuk ko'chishlari va uning oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Yuechjilar Xunlarni o'ziga bo'ysundirishiga nima to'sqinlik qildi ?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg'uloti-XX. Turkiy xalqlarning Markaziy va O'rta Osiyoda ko'chish jarayonlaridagi o'rni**

- 1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

#### **“Case study”**

*Kushanlar saltanatining etnik, siyosiy, ijtimoiy zaminini nimalar tashkil etgani haqidagi masala seminar soatiga qo'yildi. Kushanlar haqidagi ilmiy adabiyot, o'quv nashrlarida kushanlar, ularning etnik kelib chiqishi, manbalarda bu haqdagi ma'lumotlar tahlili bo'yicha fanda va ta'limda aniq bir fikrga kelingan emas. An'anaviy o'quv adabiyoti kushanlarning asl makonini Sharqiy Turkiston va uning atroflari bimlan bog'laydi. Ularni Yuehji qabila uyushmasidan ajralib chiqqan deb hisoblaydilar. Kushanlarning tili haqida ham fikrlar aniq emas. Kimdir ularga eroniy tilni yopishtirishga harakat qilsa, kimdir kushanlar turkiy etnik uyushma deb hisoblaydi. Eroniylik haqidagi fikrni kushanlar davriga oid yozma yodgorliklar eroniy boxtar tilida ekani bilan asoslashga urinib kelinadi. Aslidachi?*

#### **Nazorat savollari:**

1. Nima sababdan o'troq hayot kechirayotgan xalqlar ko'chmanchi xalqlarga aylanib qoldi?
2. Qaysi omil tufayli ko'chmanchilarning deyarli hammasi yer sharining janubidan ko'ra shimol tomonida istiqomat qilganlar?



3. Sak va massagetlarning orasida qanday o'xshashlik va qanday tafovut mavjud?

4. Nima uchun saklarning bizga ma'lum to'rt guruhi birlashib yagona markazlashgan davlat tuzmadi?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma'lumotlar, T., 2014

2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.

4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.

5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg'uloti –XXI. Kushonlar davrida pul, din va boshqa sohadagi islohotlar**

Kushon podsholigi: Podsho Kanishka I o'zidan oldingi davlat boshqaruvi an'alarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Ma'lum viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilar edi. Bunday noiblar podsho tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan. Ular oliy hukmdorga, ya'ni, podshoga so'zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o'lponlar tulab turganlar. Kushonlar davrida mahalliy aholidan yig'iladigan soliq tartibi haqida ma'lumotlar bizgacha saqlanmagan bo'lsa-da, bunday tartib mavjud bo'lganligi aniq.

Kushon podsholigi ruhoniylar qo'lidagi davlat bo'lib bu davlatda podsho hokimiyatini boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Podsholik satrapiyalarga bo'lingan bo'lib, ularning noiblari podsho tomonidan tayinlangan. Kushon podsholigi markazlashgan davlat hisoblanib, davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan.

So'nggi yillarda olib borilgan ko'plab arxeologik tadqiqotlar Kushon davri O'rta Osiyo xalqlarining moddiy madaniyatini o'rganish bo'yicha boy materiallar berib, keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil.avv. I ming yillikning oxiri-milodning dastlabki asrlari O'rta Osiyoda xo'jalik va madaniy hayot darajasining ko'tarilgan davri bo'ldi. Janubiy Turkmaniston va Xorazm, Buxoro va Samarqand, Surxon vohasi, Vaxsh, Qashqadaryo va Farg'ona vodiysidan topilgan shu davrga oid arxeologik topilmalar sug'orma dehqonchilikning anchagina rivojlanganligidan dalolat beradi. Dehqonchilikning rivoji tufayli keng hududlar o'troq aholi tomonidan jadallik bilan rivojlanadi. Misol uchun, E.V.Rtveladzening tadqiqotlariga ko'ra, faqatgina Shimoliy Baqtriyada (Surxon vohasi) 120 dan ziyod kushon davriga oid aholi shahar va qishloqlari aniqlangan. Bu davrda dehqonchilik

nafaqat tekisliklarda balki tog‘li hududlarga yoyiladi. Zarafshon va Qashqadaryo-ning yuqori oqimidagi tog‘li hududlardan dehqonchilik manzilgohlari topib o‘rganilgan. Bu davrda shuningdek, Xorazmda, Zarafshonda, Surxon vohasida ilgarigi davrdagiga nisbatan anchagina murakkablashgan sug‘orish inshootlari barpo etiladi. Dehqonchilik qurollarida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Samarqand yaqinidagi Talibarzu yodkorligidan II-III asrlarga oid yer haydaydigan omochning temir uchi topilgan.

Bu davrda O‘rta Osiyo shaharlari ham yuqori darajada rivoj topadi. Kushon davri ko‘pgina viloyatlar va vohalarda o‘tgan davrlarga nisbatan yirik shahar markazlari, kichik shaharchalar va shahar tipidagi manzilgohlar soning ancha ko‘payganligi ko‘zatiladi. Kushon davri shaharlari viloyatlar, ayrim vohalar va tumanlarning ma‘muriy-siyosiy markazlari hisoblanib, ularning saqlanib qolgan xarobalarida qal‘alar alohida ajalib turadi. Bunday qal‘alar Samarqanddagi Afrosiyobda, Marvdagi Govurqal‘ada, Qarshi vohasidagi Yerqurg‘onda, Eski Termizda, Dalvarzintepa va boshqalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

### **Topshiriqlar variantlari:**

- 1) Mavzuni o‘rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma‘lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e‘tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma‘lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

#### **“Case study”**

*Kushanlar saltanatining etnik, siyosiy, ijtimoiy zaminini nimalar tashkil etgani haqidagi masala seminar soatiga qo‘yildi. Kushanlar haqidagi ilmiy adabiyot, o‘quv nashrlarida kushanlar, ularning etnik kelib chiqishi, manbalarda bu haqdagi ma‘lumotlar tahlili bo‘yicha fanda va ta‘limda aniq bir fikrga kelingan emas. An‘anaviy o‘quv adabiyoti kushanlarning asl makonini Sharqiy Turkiston va uning atroflari bimlan bog‘laydi. Ularni Yuechji qabila uyushmasidan ajralib chiqqan deb hisoblaydilar. Kushanlarning tili haqida ham fikrlar aniq emas. Kimdir ularga eroniy tilni yopishtirishga harakat qilsa, kimdir kushanlar turkiy etnik uyushma deb hisoblaydi. Eroniylik haqidagi fikrni kushanlar davriga oid yozma yodgorliklar eroniy boxtar tilida ekani bilan asoslashga urinib kelinadi. Aslidachi?*

#### **Nazorat savollari:**

1. Kushonlar sulolasining asoschisi va hukmdorlarini keltiring?
2. Kushonlar sulolasi hukmronligi O‘rta Osiyoning

davlatchiligiga qanday ta'sir etdi?

4. Kushonlar davrida pul islohotlari o'tkazildimi?
5. Guyshuan oilasi qay tarzda hukmronlikni qo'liga oldi ?
6. Qaysi Kushon hukmdori birinchi marta tanga zarb ettirgan ?
7. Qaysi Kushon hukmdori birinchi marta oltin tangani joriy etgan?
8. Kanishka davrida Budda dinining davlat diniga aylantirishidan ko'zlangan maqsad nima edi?
9. Sizningcha "nomsiz tangalarni" qaysi Kushon hukmdori zarb qildirgan?

#### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

#### **Seminar mashg'uloti –XXII. Markaziy Osiyodan qadimgi yo'llar: la'l yo'li, rodanilar, shoh yo'li**

- 1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

#### **Nazorat savollari:**

- 1) Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo tarmoqlari haqida nimalar bilasiz?
- 2) Buyuk ipak yo'li tarixiga oid tadqiqotlar?
- 3) MO xalqlarinin boshqa xalqlar bilan aloqalari qay tarzda bo'lgan?

#### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.

5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg‘uloti-XXIII. Xioniyalar va kidariylar davlati tarixiga oid ma’lumotlar tahlili**

1) Mavzuni o‘rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma’lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e’tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma’lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

#### **Nazorat savollari:**

1 Kidariylar, xioniyalar davlatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli?

2. Kidariylar, xioniyalar qachon va qaerda tashkil topdi?

3. Ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoning shaharsozlik tizimi qanday rivojlandi?

#### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma’lumotlar, T., 2014

2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.

4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.

5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg‘uloti-XXIV. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat**

1) Mavzuni o‘rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma’lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e’tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma’lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

#### **“Case study”**

*Buyuk Ipak yo‘li va uning taraqqiy etishida Markaziy Osiyo xalqlari va Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyatini tarixiy dalillar bilan tushuntiring.*

### **Nazorat savollari:**

1. Eftalitlar davlatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli?
2. Eftalitlar davlati qachon va qaerda tashkil topdi?
3. Eftalitlar davlatidagi boshqaruv tizimini yoriting?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.
5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

### **Seminar mashg'uloti-XXV. Turk hoqonligi davri manbalari**

- 1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

#### **“Case study”**

*Turk hoqonligi saltanatining etnik, siyosiy, ijtimoiy zaminini nimalar tashkil etgani haqidagi masala seminar soatiga qo'yildi. Turk hoqonligi haqidagi ilmiy adabiyot, o'quv nashrlarida turklar, ularning etnik kelib chiqishi, manbalarda bu haqdagi ma'lumotlar tahlili bo'yicha fanda va ta'limda aniq bir fikrga kelingan emas.*

### **Nazorat savollari:**

1. Turk xoqonligi qachon va qaerda tashkil topdi?
2. Xoqonlikdagi boshqaruv tizimini yoriting?
3. Turk xoqonligi va mahalliy hokimiyat o'rtasida munosabatlar
4. qanday bo'lgan?
5. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoning shaharsozlik tizimi qanday rivojlandi?
6. Markaziy Osiyoda Turk hoqonligi
7. Ilk o'rta asrlarda Choch davlati iqtisodiy hayoti haqida nimalarni bilasiz ?
8. Eloq davlati madaniy hayoti xususida so'z yuriting.

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.

### **Seminar mashg'uloti-XXVI. G'arbiy va Sharqiy Turk hoqonliklari**

Turk hoqonligida davlatning oliy hukmdori "hoqon" unvoniga ega bo'lgan. Xitoy manbalari ma'lumotlariga ko'ra, turkiylar xonni taxtga o'tqazishda maxsus marosim o'tkazishgan. Ya'ni, amaldorlar bo'lajak xonni kigizga o'tqazib, quyosh yurishi buylab 9 marotaba aylantirganlar, ishtirokchilar esa uni qutlab va ulug'lab turganlar. So'ngra xonni otga o'tqazib, bo'yniga ipak mato bog'laganlar va undan "Siz necha yil xon bo'lmoqchisiz?" deb so'raganlar. U necha yil xon bo'lishini aytgan va shu muddat tugagach taxtdan ketgan.

Qadimgi turkiy afsonalarda berilishicha, turklarning tasavvuriga ko'ra, davlatchilikning markazi, davlatni o'z qo'lida birlashtiruvchi shaxs hoqon hisoblangan. Boshqaruvda hoqonlarning hukmron sulolasi asosiy bo'lib u uchta kuch - osmon (tangri), yer-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyati tufayli yuzaga keltiriladi.

Hoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor "Yabg'u" (Bahodir) bo'lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo, yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Turk xoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo'lgan uluslarga bo'linish tizimiga asoslanib belgilanar edi. Ushbu tizimga ko'ra taxt aksariyat hollarda otadan o'g'ilga emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Taxt merosxo'ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan. Shahzodalar to taxtga o'tirgunlariga qadar o'zlariga berilgan uluslarni boshqarib turganlar. O'rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, hoqonning nazoratchisi - "tudun" deb atalgan. Turk hoqonligi konfederativ davlat bo'lgan. Turkiylar o'z yurti va davlatini "el" deb atashgan. Birinchi turk hoqoni Buminxon elxon unvoniga ega bo'lganligi bejiz emas.

Xoqonlik tarkibidagi ko'plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarib turish, ulardan ma'lum miqdordagi soliqlar va o'lponlarni o'z vaqtida yig'ib olish maqsadida hoqonlikda maxsus ma'muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Davlatni boshqarishda oliy hukmdorga uning yaqin qarindoshlari, avvalo, hukmron sulola a'zolari hamda ular tomonidan barpo etilgan boshqaruv tizimi yordam berar edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, u to'rtga bo'lingan. Ya'ni, qarindoshlar, hoqonga ittifoqdosh bo'lgan qabila va xalklar; hoqonning o'ng tomonida o'tiruvchi amaldorlar va ma'muriy xodimlar; hoqonning chap tomonida

o'tiruvchi amaldorlar va xodimlardan iborat bo'lgan. Hoqonning qarindoshlari - o'g'illari, amakisi, jiyanalari va aka-ukalariga "tegin" unvoni berilgan. Xitoy manbalarida ma'lumot berilishicha, hoqonlikda beshta oliy mansab - yexu (yabg'u), she (shod), dele (tegin), silifa (eltabar) va tutunfa (tudun) qabilar mavjud bo'lib, ularning barchasi meros qilib qoldirilgan.

Turk hoqonligi davlatining asosini yer bilan birga xalq tashkil etar edi. O'z davrida O'rta Osiyoda davlatchilikning mustaqil va an'anaviy shakllarini rivojlantirgan turkiylar davlati mavjud jamiyatning muayyan ijtimoiy tuzilmalariga va qadimgi turklarning davlat tomonidan tashkil etilgan hamda nazorat qilinadigan xo'jalik faoliyatiga tayanar edi. Tarixiy adabiyotlarda berilishicha, bu faoliyatning asosini ko'chmanchi chorvachilik tashkil etgan. Chorvador turklarda urug'-qabilachilik an'analari nihoyatda kuchli bo'lib, qabila va urug jamoalarining asosi katta oilalardan iborat bo'lgan. Ko'chmanchi chorvadorlar xalq ommasini turklar "budun" yoki "kora budun" deb atashgan.

### **Topshiriqlar variantlari:**

1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.

2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.

3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **Nazorat savollari:**

1) Turk xoqonligi qachon va qaerda tashkil topdi?

2) Xoqonlikdagi boshqaruv tizimini yoriting?

3) Turk xoqonligi va mahalliy hokimiyat o'rtasida munosabatlar qanday bo'lgan?

4) Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoning shaharsozlik tizimi qanday rivojlandi?

5) Ilk o'rta asrlarda Choch davlati iqtisodiy hayoti haqida nimalarni bilasiz?

6) Eloq davlati madaniy hayoti xususida so'z yuriting.

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma'lumotlar, T., 2014

2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.

4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.

5. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.

## **Seminar mashg'uloti –XXVII. V-VIII asrlarda Turk-So'g'd madaniy, ijtimoiy simbiozi**

Turkiy davlatchilik masalalariga oid tadqiqotlar mavzu tarixshunosligining to'rtinchi guruhini tashkil etadi. Ilk o'rta asrlarda sug'diylar Markaziy Osiyoda kechgan siyosiy jarayonlarda, turkiy davlatchilikning shakllanishi va rivojida ham faol ishtirok etganlar. Ushbu masalalarda ko'plab olimlar Markaziy Osiyo xalqlari taqdirida turkiylar va sug'diylarning tarixiy o'rnini xitoy manbalari asosida o'rganib, ular Turk xoqonligi tarixini sug'diylar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmasligini yana bir bor isbot edilar. Ularda turkiylar va eroniylar (sug'diylar)ning Xitoy tarixida tutgan o'rni ham o'zining ob'ektiv bahosini topdi.

Ilk o'rta asrlardagi turk-sug'd munosabatlarida Turk xoqonligi va Sug'dning Buyuk ipak yo'li bo'ylab Eron va Vizantiya bilan olib borgan siyosiy va iqtisodiy aloqalari muhim o'rin tutadi. Sosoniylar Eroni va Turk xoqonliklari o'rtasidagi murakkab vaziyat, Vizantiya bilan Turk xoqonliklari o'rtasidagi ittifoqchilik, masalalar turli davr va maktablarga masub olimlar tomonidan ishlandi.

Mintaqada ko'chmanchi aholi davlatlarining vujudga kelishi va bu jarayonga o'troq vohalar ta'siri ham sug'dshunoslar e'tibor qaratgan masaladir. Bu jarayonda o'troq va ko'chmanchi davlatchilik an'alarining sintezlashuvi Turk xoqonligi va turkiy davlatchilik an'anasi misolida ko'zga tashlanishi tadqiqotlarda tarixda mavjud turkiy davlatlar tarixi va mafkurasiga bag'ishlangan asarlar doirasida o'z aksini topdi.

Ilk o'rta asrlar tarixini yoritishda qator olimlar turk-sug'd aloqalari faol kechgan G'arbiy Turk xoqonligi mavzusiga ko'p marotaba murojaat etganlar. Ular turkiy davlatchilik sug'diylar ishtirokisiz amalga oshmaganini e'tirof etadilar. Ammo bu masalaning Markaziy Osiyo siyosiy tarixidagi ahamiyatini yanada izchil o'rganish talab etiladi.

Mavzu tarixshunosligining navbatdagi beshinchi guruhini arab istilosi davri turk-sug'd munosabatlariga oid nashrlar tashkil etadi. Bu guruhga kirgan adabiyotlarda Sug'dning Choch, Farg'ona, Sharqiy va G'arbiy Turk hamda Turkash xoqonliklari bilan birgalikda arab istilosiga qarshi kurashini o'rgangan tadqiqotlar salmoqlidir. Xususan, Arab xalifaligining O'rta Osiyoga yurishining ilk bosqichlaridagi harbiy harakatlar, joriy etilgan noiblik boshqaruvi, o'zaro shartnomalar, sug'diy va turkiylarning istiloga qarshi kurash jarayonlari tadqiqotlarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Turkiy va sug'diy ma'naviy yaqinlik, diniy bag'rikenglik masalalarini aks ettirgan nashrlar muammo tarixshunosligining oltinchi guruhini tashkil etadi. Sug'diylar Markaziy Osiyoning nafaqat tujjor, mohir diplomat, harbiy sarkarda, balki diniy bag'rikeng - tolerant aholisi vakillari ham edi. Ular mintaqa tarixiy-madaniy o'zlarining azaliy dinlari zardushtiylikdan tashqari, buddaviylik, xristianlik va moniylik kabi dunyo dinlarini olib kirdilar. Xususan, zardushtiylik masalalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan va manbaviy va arxeologik tadqiqotlari natijalarini e'lon qilgan.



Buddaviylik dinining mintaqadagi o'rnini masalasi shu kunga qadar dolzarbdir. Soha tadqiqotchilari, Markaziy Osiyoda buddaviylikning tarqalishi, uning arxeologiyasi, san'ati va madaniyati masalalari bilan jiddiy shug'ullanganlar. Mintaqaga xristianlik dinining kirib kelishi, tarqalishi va yodgorliklarini o'rganish masalalari ham tadqiqotlarning muhim jihati bo'lib, turk-sug'd munosabatlari tarixshunosligida o'z o'rniga ega.

Moniylik ta'limotining shakllanishi, tarqalishi, targ'iboti va diniy-falsafiy merosi masalalari qator olimlar tomonidan samarali o'rganilgan. Ular moniy ta'limotining turkiylar va muhojir sug'diylar orasida qabul qilinishi va moniy ta'limoti adabiyoti masalalariga alog'ida urg'u berganlar.

Mavzu tarixshunosligining yettinchi guruhini yozuv madaniyatiga oid asarlar tashkil etadi. Mintaqada yozuv madaniyatining shakllanishi tarixi, rivojlanish bosqichlari va mahalliy yozuvlarning taraqqiyoti bir necha tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ularning tadqiqotlarida yozma madaniyatining sivilizatsion ahamiyati ochib berilgan.

Turk xoqonligida rasmiy maqomga ega bo'lgan sug'diy til va yozuvining ahamiyati nafaqat numizmatik materiallarda, balki so'nggi yillarda topilgan Kultepa yodgorligi misolida, sug'diy tilli va yozuvli tangalari tadqiqotida, Bug'ut yodgorligi tadqiqotlarida izchil o'rganilgan. Mualliflar turk-sug'd siyosiy va etnomadaniy aloqalarni xolis ko'rsatib o'tdi. Mintaqa hayotida ro'y barcha jarayonlarni tadqiq etgan, turkiy davlatchilik va unda sug'diylar ishtiroki, turk-sug'd munosabatlarni manbalar asosida xolis yoritgan.

#### **Topshiriqlar variantlari:**

- 1) Mavzuni o'rganishda turli adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga e'tibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida ma'lumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

#### **“Case study”**

*Turk hoqonligi saltanatining etnik, siyosiy, ijtimoiy zaminini nimalar tashkil etgani haqidagi masala seminar soatiga qo'yildi. Turk-So'g'd madaniy, ijtimoiy simbiozi doir ma'lumotlarni tahlil eting.*

#### **Nazorat savollari:**

- 1) V-VIII asrlarda Turk-So'g'd madaniy munosabatlari tarixini bilasizmi?
- 2) Turk-So'g'd madaniy munosabatlari tarixi oid manbalar qaysilar?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma'lumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.

### **Seminar mashg'uloti-XXVIII. Ilk o'rta asrlarda Choch, Поq va Tohariston**

Geografik jihatdan qulay, iqlimi mo'tadil bo'lgan Chirchiq va Ohangaron vodiylarida uzoq o'tmishdayoq chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan aholi yashagan. Arxeologik yodgorliklarnint guvohlik berishicha, miloddan avvvalgi Ikkinchi ming yillikning oxiri va birinchi ming yillikning boshlarida ko'chmanchi chorvador aholining o'troqlashuvi kuchayib, dehqonchilik kengaya boshlagan.

Hali sug'orma dehqonchilik va irrigatsiya inshootlari qurish imkoniyati bo'lmagan Toshkentning dastlabki dehqonlari, garchi daryoning asosiy oqimidan suv bog'lab olishga qurbilari kelmagan bo'lsada, lekin, daryo toshqinlari va adirlardan kelgan suvlardan hosil bo'lgan irmoqlar bo'yida, tabiiy zaxob yerlarda dehqonchilik qilganlar.

Hozirgi Toshkentning Qorasuv, Salor va Jo'n arig'idan sug'oriladigan janubiy qismida shunday ibtidoiy dehqonchilik madaniyati tashkil topgan. Toshkentning bu ibtidoiy dehqonchilik madaniyatining izlari dastavval shahardan 30 km janubida Burganlisoy yoqasida topilib, tadqiq etilgani tufayli tarix fanida u Burganli madaniyati nomi bilan mashhur bo'lgan.

Miloddan avvvalgi 6-4 asrlarda Qorasuv, Salor va Jo'n arig'i yoqalarida dastlab ilk qishloqlar qad ko'targan. Shulardan biri Jo'n arig'i bo'yidagi Shoshtepaning ostki qatlamidan qazib ochilgan qal'a xarobasidir. 1980-82 yillarda olib borilgan qazish ishlari uning mil. av. 6-4-a.lar va 2-1-asrlardagi rivojlanish bosqichlarini aniqlashga imkon berdi. Bir tomoni Jo'n arig'iga yondoshgan bu qadimgi joy atrofi dastavval tuproq, marza bilan o'ralib, qal'a, istehkom qiyofasini olgan.

Shoshtepaning qadimgi aholisi chorvachilik (qoramolchilik, yilqichilik, qo'ychilik hamda tuyachilik) bilan shug'ullangan. Qadimgi shoshtepaliklar jez va temirdan qurol-yarog' va asboblari yasashni, kulolchilik hamda to'qimachilikni yaxshi bilgan. Shubhasiz, bu qishloqlarda, keyinchalik Toshkent vohasida shahar madaniyati shaqllanib, qadimgi Toshkentning asta-sekin qad ko'tarishiga zamin bo'ldi. Mil. av. 2-1-asrlarda Shoshtepada qadimgi shahar belgilari paydo bo'ddi. Qadimgi qishloq xarobalari ustida atrofi qalin aylanma devor bilan o'rab olingan doira shaklidagi qal'a (qo'rg'on) qad ko'tardi. Mil. 1-2-asrlarda suyakdan yasalgan

yoʻzuv tayoqchasi (stil) qadimgi Shoshda yasali b ishlatilgan. 15 smli bu suyak qalamning bir tomoni yoʻzish uchun uchli qilib, ikkinchi oʻchirgich tomoni esa qiyshiq koʻp burchak shaklida kurakcha qilib yasalgan. Bu topilma milod boshlaridayoq Toshkent vohasida ham xattotlik mavjudligidan guvohlik beradi.

Shoshtepadagi arxeologik obidalar shaharning mustahkam mudofaa devori, hashamatli meʼmoriy majmuoti, hunarmandchilik buyumlari, xatsavod va savdodan dalolat beruvchi topilmalar milod boʻsagʻasida Toshkent vohasida shahar madaniyati rivojlanib, Shoshtepadagi qadimgi qishloq shahar qiyofasini ola boshlaganini koʻrsatadi. Shoshtepani oʻrganish Toshkent hududidan shahar madaniyati tarixi huddi shu davrdan boshlangan, yaʼni uning yoshi 23 asrdan kam emas deb baholashga imkon berdi. Milodning 1-asriga kelib Chirchiq, Salor, Qorasuv boʻylaridagi vohaning qariyb yarmidan koʻprogʻi oʻzlashtirilib obod etilgan. Salor yonida joylashgan Choch shahri bu davrda har tomonlama yetakchi mavqega ega boʻlib, uni muarrixlar haqli ravishda milodning boshlaridagi Toshkentning asosi deb hisoblaydilar. Buyuk ipak yoʻlida joylashgan Toshkent Yevropa mamlakatlarning Hindiston va Xitoy bilan olib borgan turli aloqalarida muhim rol oʻynagan.

### **Topshiriqlar variantlari:**

- 1) Mavzuni oʻrganishda turli adabiyotlarda mavjud maʼlumotlarni jamlash, tahlil etish birinchi savolning asosiy mazmunini ochib berishga eʼtibor qaratish.
- 2) Ikkinchi va uchinchi asosiy savol mohiyati haqida maʼlumotlar, faktlar berish, voqea-hodisaning sabablarini ochib berish lozim.
- 3) Tarixiy voqeani qiyoslash va solishtirish, tahlil etish orqali mustaqil fikr va xulosalar tayyorlash.

### **“Case study”**

*Ilk oʻrta asrlarda Choch, Iloq va Tohariston tarixiga doir maʼlumotlarni tahlil eting.*

### **Nazorat savollar:**

- 1) Ilk oʻrta asrlarda Choch, Iloq haqida nimalar bilasiz?
- 2) Ilk oʻrta asrlarda Toxariston, Fargʻona
- 3) Buxoro, Ustrushonada mahalliy hukmdorlar kimlar?

### **Xorijiy va mahalliy adabiyotlar roʻyxati:**

1. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixigaoid maʼlumotlar, T., 2014
2. Алимова Д.А., Анарбаев А.А. Археология и история Центральной Азии. Самарканд. 2004.
3. History of civilizations of Central Asia. Volume I-VI. Harmatta J. (Ed.) — Paris: UNESCO Publishing, 1996/2005. — 573 pp.
4. Di Cosmo N., Frank A.J., Golden P.B. (eds.) The Cambridge History of Inner Asia. Cambridge University Press, 2009. — 488 pp.

## MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

Mustaqil ta'lim "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" kafedrasida o'qitiladigan har bir fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, talabalarning mustaqil bilimni o'zlashtirish, muayyan ko'nikmalar hosil qilish, izlanishlari natijasi hisoblanadi. Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlardan foydalanib konspekt qiladi, berilgan uy vazifasini tayyorlaydilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi va testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Uyga vazifani bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarining darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas. Mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan bo'lib, ular quyidagi mavzulardan tashkil topgan.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasida mustaqil ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, asosan, talabalarga birinchi manbalar haqida ma'lumot berish, ularni o'qish, o'rganish, tahlil qilish va konspekt olish asosida tashkil etiladi. Mustaqil ta'lim har reyting davomida talabalar tomonidan topshiriladi.

Joriy nazoratdagi mustaqil ish 5 ko'rinishda bo'lib, ular o'quv fanlarining ishchi dasturlarida belgilangan shaklda va talabalar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi. Mustaqil ishlar har reytingda 10 ballik tizimda baholanadi. Mustaqil ish turlari quyidagilar:

- Berilgan mavzu buyicha slayd-prezentatsiya tayyorlash;
- Berilgan mavzu buyicha kompleks ish tayyorlash;
- Berilgan mavzu bo'yicha movie maker dasturi asosida video tayyorlash;
- Berilgan mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar asosida 3 tilda (o'zbek, rus, ingliz tillarida) glossariy tuzish;
- Berilgan mavzu bo'yicha qiyosiy tahlilni amalga oshirish.

### Mustaqil ta'lim topshiriqlari

3-4-semestrlar			
1	Markaziy Osiyoda datslabki diniy tasavvurlarning shakllanishi	10 ta test tuzish	Slaydlar taqdimoti
2	Markaziy Osiyo ilk	xarita tuzish	Xarita taqdimoti

	shaharlarning paydo bo'lishi		
3	“Avesto” – zardushtiylarning muqaddas kitobi	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
4	Markaziy Osiyo xalqlarning ozodlik kurashlari	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
5	Markaziy Osiyoda o'troq madaniyatning shakllanishi	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
6	Sharqiy Turkiston tarixiy hudud sifatida	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
7	Yunon-Baqtriya davlati	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
8	Kushonlar davrida madaniy hayot	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
9	Kushonlar davrida etnik jaroyonlar	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
10	Eftalitlar davrida yer egaligi	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
11	Turk hoqonligi davrida etnik jarayonlar	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
12	Tuproqqal'a	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
13	Afrasiyob – noyob tarixiy yodgorlik	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
14	Markaziy Osiyoda datslabki diniy tasavvurlarning shakllanishi	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti
15	Markaziy Osiyo ilk shaharlarning paydo bo'lishi	Daftarga konspekt yozish	Slaydlar taqdimoti

## GLOSSARIY

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma’nosi
<b>Akinak</b>	akinak (sword)	акинак (меч)	Miloddan avvalgi 1 ming yilliklarda qadimgi forslar va skif (sak)lar ishlatgan uzunligi 40-60 santimetr keladigan kalta temir qilich, hanjar. Qo‘l jangida sanchuvchi qurol sifatida ishlatilgan.
<b>Aleksandriya</b>	Alexandria	Александрия	Aleksandar Makedonskiyning Sharqqa yurishlari oqibatida bosib olingan hududlarda barpo etilgan shaharlar. Aleksandriya nomidagi shahar Sharqning bir qancha mamlakatlarida mavjud bo‘lib, ular qadimda Aleksandriya (Misrda), Aleksandriya Esxata (Chekka Aleksandriya), Aleksandriya Marg‘iyona (Turkmanistonda), Oks Aleksandriyasi, Aleksandriya Ariya (Eronda) deb nomlangan.
<b>Amir</b>	emir (military commander)	эмир (полководец)	(ar. - amir, ya’ni hokim, amir) - Islom dinini qabul qilgunga qadar arablarda amir so‘zi qabila boshlig‘i, harbiy boshliq degan ma’nolarni bildirgan. Arablar ko‘p joylarni bosib olib, o‘z dinlarini o‘tkazganlaridan so‘ng, Arab xalifaligiga qaram bo‘lgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimni, qo‘shin qo‘mondoni va yirik lashkar-boshilarni amir deb atashgan. Mo‘g‘ul istilosidan so‘ng Oltin O‘rdada, keyin O‘rta Osiyo va Eronda mo‘g‘ul va turk qabilalari birlashmasi-ulus boshlig‘ining unvoni ham amir deb yuritilgan. Sohibqiron Amir Temurning unvoni ham amir deb atalgan. Hozirda Amir unvoni arab podsholarining o‘g‘illariga beriladi (masalan Saudiya Arabistonida). Makkaga ziyorat uchun boruvchi katta guruh yo‘lboshchilari ham Amir deb ataladi.
<b>Avtokratiya</b>	autocracy	Автократия	(yunon. – <i>autos</i> –o‘zim va <i>cratos</i> – hokimiyat so‘zlari birikmasidan

			tashkil topgan) – alohida sub'ekt tomonidan hokimiyatni cheklanmagan, nazorat qilinmaydigan va uni to'liq egallab olgan holda boshqarish.
<b>Agressiya</b>	aggression	агрессия	(lot. aggres – hujum qilmoq). Hozirgi kunda A. so'zi inson faoliyatining juda ko'p qirralarini ifodalaydi: tahdid qilish unsurlaridan tortib, to jismoniy ta'sirgacha bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi.
<b>Anarxiya</b>	anarchy	анархия	(yunon. anarchia – bosh-boshdoqlik, hokimiyatsizlik) –ijtimoiy–siyosiy ta'limot bo'lib, shaxsni har qanday nufuzlar va turli-xil iqtisodiy, siyosat va ma'naviy ta'sirlardan ozod qilishni maqsad qilib qo'yadi. Davlat A. uchun salbiy manba bo'lib, uni zo'ravonlik, inqilobiy yo'llar bilan yo'q qilishi kerak.
<b>Avangard</b>	avant-garde	авангард	(fr. oldindagi qo'riqchi) - harbiy safar vaqtida asosiy kuchlarni qo'riqlash uchun oldinda boruvchi askariy qism. Avangardning vazifasi asosiy kuchlarga dushman tomonidan bexosdan qilinadigan hujumlarga yo'l qo'y-maslik va asosiy kuchlarning jang qilishi uchun sharoit yaratishdan iborat bo'lgan. Avangard ba'zi o'zbek harbiy qismlarida hirovul, avang'or, mo'g'ul lashkarlarida esa manqlay, mang'lay deb ham yuritilgan.
<b>Avtohton</b>	autochthon	АВТОХТОН	(yun. - mahalliy, shu joyga xos, tub joy aholisi) - geologiya, biologiya, etnografiya fan sohalarida ishlatiladigan tushuncha. Etnografiyada o'zga hududlardan ko'chib kelmay ma'lum bir hududda azaldan yashab kelayotgan mahalliy yer egasi bo'lgan tub joy aholisi.
<b>Baqtra</b>	Bactrim (historical town)	Бактр	Qadimgi shahar. Baqtriyaning markazi, Afg'onistondagi Vazirobod (Balx) shahri yaqinida joylashgan. Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan ma'lum. Rivoyatlarga ko'ra, zardushtiylik tarqalgan joy, keyinchalik kushonlar saltanati davrida Markaziy Osiyoda

			buddizmning yirik markazlaridan biri bo'lgan.
<b>Begor</b>	biggar (compulsory service)	бигар (принуди- телная служба)	(f. - majburiy va bepul xizmat) - O'rta Osiyoda o'rta asrlarda mavjud bo'lgan majburiy ishlab berish majburiyati bo'lib, mehnatkash xalq xon va mahalliy hukmdorlar tarafidan davlat va feodal-larning turli qurilishlarida tekinga 12 kunlik ishlab berish majburiyati (hashar). Begor O'rta Osiyo va Eronda VIII asrdan, Hindiston va Afg'onistonda esa X asrdan mavjud. Begor majburiyati XVIII-XIX asrlarda ham bo'lgan. Begomi o'rta asr Yevropasidagi barshchinaga qiyoslash mumkin.
<b>Vaqf</b>	Waqf (property at the disposal of religious organization)	Вакуф	(ar. - xayriya maqsadlarida vasiyat qilingan mulk, vaqfiy mulk) - o'rta asrlarda masjid, mozor, xanaqo, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar. Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltirilar edi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar hammasi vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar edi. Vaqf mulklarini mutavallilar boshqarganlar.
<b>Veto</b>	veto	ВЕТО	(lot. ta'qiqalayman) - 1) davlat huquqida davlat hokimiyatining biror organi tomonidan qabul qilingan qarorning uning boshqa bir organi (davlat boshlig'i) tomonidan bekor qilinishi. Veto tartibi Qadimgi Rimda vujudga kelgan. Hozirgi zamon davlatlarida, odatda, davlat boshlig'iga parlament qabul qilgan qonunlarga nisbatan veto qo'yish huquqi beriladi; 2) BMTning Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zolarining BMT ustavida ko'zda tutilgan huquqi. Ustav ularning Xavfsizlik Kengashida muhokama etilayotgan masala yuzasidan bir fikrda bo'lishini talab qiladi; doimiy a'zoldan



			birortasi muhokamadagi masala yuzasidan qaror qabul qilinishiga rozilik bildirmasa, qaror rad etilgan, ya'ni unga veto qo'yilgan hisoblanadi.
<b>Gipparx</b>	Hipparchus	Гиппарх	Iskandar Zulqarnayn davrida Ahmoniyalar davlatidagi satrap o'rniga tayinlangan viloyat hokimi.
<b>Girkan dengizi</b>	Hyrceanus Sea	Гирканский море	Tarixiy manbalarda Kaspiy dengizining qadimgi nomi. O'rta asrlarda esa Jurjon, Harkon dengizi deb yuritilgan. Dengizning janubiy sohillaridagi tarixiy viloyat esa Girkaniya (Jurjoniya) deb atalgan.
<b>Gominidlar</b>	hominids	гоминиды	(lot. - odam) - primatlar turkumiga mansub oila. Zamonaviy qiyofadagi odamlar (neoantrop) va ulardan oldin o'tgan ibtidoiy odam vakillari (arxantrop, paleoantrop) ning fandagi umumiy nomi.
<b>Dabiriston</b>	Dabiristan	Дабиристан	1) Podsholik huzuridagi mirzaxona. Bu yerda maxsus kotiblar, ya'ni dabirlar tomonidan davlat maktubi, xujjatlari tuzilgan va tahrir qilingan; 2) O'rta asrlar davrida Movarounnahr shaharlaridagi eski maktab. Bunday maktablarda bolalar ozmi-ko'pmi dunyoviy fanlardan umumiy ma'lumot olishgan. Odatda mashhur shoirlarning devonlarini o'qib chiqishgan, yozish va hisoblashni o'rganganlar.
<b>Davlat</b>	state	государство	Sinfiy jamiyatda asosiy ishlab chiqarish vositalari egalarning umumiy manfaatlarini ta'minlovchi va uni himoya qiluvchi siyosiy tashkilotdir. Ibtidoiy jamiyatda insoniyat jamiyati urug'-qabilachilik munosabatlari, urf-odat, rasm-rusmlari kabi axloqiy me'yorlar bilan boshqarilgan bo'lsa, sinfiy jamiyatda jamiyat a'zolari davlatning (hukmron sinfnig) yozma erki bo'lgan (yozib qo'yilgan) huquq-qonunlar orqali boshqariladigan bo'ldi. Demak, davlat bu jamiyatni boshqaruvchi siyosiy mexanizmdir. Davlat o'z faoliyatini

			davlat organlari (amaldorlar apparati, sud, qo'shin va h.k.) orqali yuritadi.
<b>Darik</b>	darik (gold coin)	дарик (ЗОЛОТАУЯ МОНЕТА)	Qadimgi Eron oltin tangasi. Darikning paydo bo'lishini Ahamoniylar podshosi Doro I (mil. avv. 522-486) nomi bilan bog'laydilar. Bir darik (og'irligi 8,4 g) 5,6 g og'irligidagi 20 ta kumush tanga qiymatiga teng bo'lgan. Bu xildagi tangalarining mamlakatimiz hududidan ham topilganigi qadimdan O'rta Osiyo bilan Eron o'rtasida savdo aloqalari mavjudligini ko'rsatadi.
<b>Darxon</b>	tarhan (title)	тархан (ТИТУЛ)	(mo'g'. - temirchi, kosib, ozod kishi) - 1) Chingizxon va uning vorislari tomonidan hukmron sinf vakillariga, oddiy xalq orasidan chiqib, hokimlarga alohida xizmat ko'rsatgan kishilarga berilgan unvon. Darxonlik imtiyoziga ega bo'lgan kishi har qanday soliq va majburiyatlardan ozod qilingan, ulug' xon huzurida bo'lish huquqidan ham foydalangan. Darxonlarning 9 marta qilgan jinoyatlari kechirilgan. Bu unvon mo'g'ullar, temuriylar va shayboniylar davrida Movarounnahr va Yaqin Sharqda keng tarqalgan; 2) O'rta asrlarda turkiy xalqlardagi yer egasi - feodal; 3) O'rta Osiyo xonliklarida feodallarning davlat soliqlaridan ozod qilingan yer-suv, mol-mulklari.
<b>Dashti Qipchoq</b>	Great steppe	Великий степ	Sirdaryoning quyi oqimi hamda Tyanshanning g'arbiy yonbag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan xududlarning XI-XVI asrlardagi nomi. Bu yerlarda ko'chmanchi qipchoq qabilalari yashagani uchun shunday nom olgan.
<b>Derbiklar</b>	derbik (nomadic tribes)	Дербикы (КОЧЕВЫЕ ПЛЕМЕНА)	massagetlar siyosiy uyushmasi (konfederatsiyasi)ga kiruvchi sak qabilasi. S.P.Tolstovning fikricha, derbiklar Amudaryoning o'rta oqimida hozirgi Chorjuy bilan Buxoro oralig'ida yashaganlar. Tarixchi Ktesiyning ma'lumotlariga ko'ra ahamoniylar shohi Kir II miloddan avvalgi 530-yilda derbiklar bilan bo'lgan jangda halok

			bo'lgan.
<b>Dizak</b>	Dizak	Дизак	(sug'd. - kichik qal'a) - Jizzax shahrining o'rta asr tarixiy manbalaridagi nomi. X asrda Dizak Faknon rustoqining tekislikda joylashgan shahri bo'lib, Ustrushonaning Panjikent va Zomindan keyingi uchinchi shahri bo'lgan. Dizak shimoldagi ko'chmanchi qabilalarga qarshi kurashuvchi islom g'oziyarlari to'planadigan yer sifatida mashhur bo'lib, ular uchun bu yerda ko'plab mehmonxona va rabotlar kurilgan.
<b>Ding</b>	ding (minaret)	ДИНГ (МИНАРЕТ)	Movarounnahrning dehqonchilik hududlarini ko'chmanchilar bosqini va talonchiligidan saqlash maqsadida chegara hududlarida qurilgan kuzatish minoralari.
<b>Etno- madaniyat</b>	ethnic culture	ЭТНО-КУЛЬТУРА	millatga tegishli bo'lib, uning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan urf, odat, an'ana, qadriyatlar, udum, marosimlari, kiyimlar, moddiy va ma'naviy merosi, tafakkuri, ongi, g'oyaviy hamda axloqiy jihatdan o'ziga xosligini ifodalovchi ma'naviy boyligidir.
<b>Etnos</b>	ethnos	ЭТНОС	(yunon. ethos – guruh, qabila, xalq) etnik birlik, ijtimoiy tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan odamlar ijtimoiy guruhining bir turi. E. urug', qabila, elat va millat shakllarida namoyon bo'ldi. Etnos tushunchasi 1921-1923 y.da S.M.Shirokogorov tomonidan chuqur tahlil qilingan. U e.ni insoniyat lokal guruhi mavjudligining asosiy shakli deb hisoblagan. Uning asosiy belgilari deb esa, - «kelib chiqish, urf-odatlar, til va turmush tarzi birligi» deb bilgan.
<b>Илоқ</b>	Илак	ИЛОК	Eloq - tarixiy viloyat. Hozirgi Toshkent viloyatining janubi, Ohangaron daryosi havzalariga to'g'ri keladi. V asrdan mustaqil davlat sifatida ma'lum. Iloq hukmdorlari "Iloq dehqonlari" unvoni bilan yuritilib, katta iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo'lishgan. VI-VII asrlarda

			Chochga qo'shilgan. Iloq nomi XIV asrdan manbalarda uchramaydi. Iloqning poytaxti Tunkat shahri bo'lgan.
<b>Ixshidlar</b>	ikhshid (title)	ихшиды (титул)	1) ilk o'rta asrlarda (V-VIII a.) Sug'd va Farg'ona hukmdorlari unvoni. Ilk o'rta asrlarda Movarounnahr hududlari 15 dan ortiq mayda hokimliklarga bo'linib ketgan edi. Ular ichida Sug'd ixshidlari eng qudratlisi sanalgan. Samarqand shahri ularning poytaxti bo'lgan; 2) 935-969 yillarda Suriya va Misrda hukmronlik qilgan Arab xalifaligidan yarim mustaqil bo'lgan sulola vakillarining unvoni.
<b>Ichan Qal'a</b>	Ichan-kala (palace)	Ичан кал'а (дворец)	Xiva xonligining poytaxti Xiva shahrining ichki qal'asi; Shahrison. Ichan qal'ada xon saroyi, aslzodalar yashaydigan maskan, maqbara, madrasa, masjidlar joylashgan. Uning umumiy maydoni 26 gektar. Devorining uzunligi 2200 metr. Tashqi shahardan Ichan qal'aga 4 ta darvoza (Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Ota darvoza, Tosh darvoza) orqali kirilgan. 1961 yilda Ichan qal'a ansambli me'moriy yodgorlik sifatida muhofazaga olinib, muzeyga aylantirilgan. 1990 yildan Ichan qal'a Butun jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan. 1997 yilda Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan asosiy yo'nalishdagi yodgorliklar qayta ta'mirlandi.
<b>Jabg'u</b>	jabu (heir)	жабу (наследник престола)	yabg'u - 1) Kushonlar davrida (1-1V a) oliy unvonlardan biri; 2) Turk xoqonligida (551-VIII a) qag'an va tegin (xon-zoda, taxt vorisi) kabi ma'muriy-harbiy mansablardan keyin turadigan unvon. Harbiy sarkarda sifatida ko'shinning o'ng tomoniga rahbarlik qilgan. Bu mansabni egallashga faqat hoqon urug'i Ashinadan chiqqan shaxslargina haqli bo'lgan. Turk xoqonligiga asos solinganidan so'ng Buminga xoqon (qag'an), Istemiga esa (yabg'u) unvoni berilgan; 3) Ug'uzlar va qarluqlar hukmdori ham jabg'u deb yuritilgan.
<b>Javshan</b>	zhavshan	жавшан	(f.-sovut, zirh) - qadimda va o'rta asrlarda

	(bulletproof vest)	(кольчуга)	jangchining badanini jarohatlanishdan saqlash maqsadida kiyiladigan sovutning bir turi. Javshan jubbaga nisbatan og'ir. Dastlabki vaqlarda u jez (bronzadan, keyinchalik temir va po'latdan ishlangan. Javshan bargsimon temir parchalaridan mayin xalqa simlar yordamida to'qilgan. Jang paytida otlarga ham javshan yopishgan.
<b>Jiyba</b>	jiba	жыба	jiba, jeva - o'rta asrlarda jangchilarning temir yoki po'latdan yasalgan urush kiyimi.
<b>Kadivar</b>	kadivar	кадивар	O'rta asrlarda qishloq ziroatkor jamoasining feodal dehqonlarga qaram bo'lib qolgan, yersiz, qullik asoratiga tushirilgan qismi. Zamindorlar qishloqlarda o'z ta'ziy qishloqlarini kengaytirib, bora-bora ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlagan. Shuning uchun ham ular ilk o'rta asrlarda "dehqon" ya'ni "qishloq hokimi" deb atalgan. Ularga qaram kishilar "kadivar", ya'ni "qishloq qo'rg'onlarida yashovchilar" deyilgan.
<b>Kenotaf</b>	cenotaph	кенотаф	(yun. - bo'sh qabr) - murda qo'yilmagan bo'sh qabr. Qadimda o'liklarni dafn etish mumkin bo'lmagan (bedarak yo'qolgan, musofirlikda vafot etgan va hakoza.) hollarda ramziy qabr sifatida marhumning buyumlari ko'mib qo'yilgan.
<b>Ko'shk</b>	kiosk	киоск	to'rt ustunli, tomi qubbali, asosan, yog'ochdan qurilgan yengil inshoot. Kelib chiqishi jihatdan oddiy o'tovga borib taqaladi. Dastlab ko'chmanchilar ko'chib yurish uchun qulay bo'lishi uchun uy (ko'chik)lar qurishgan. Arava ustiga o'rnatilgan ko'shklar ham bo'lgan. Keyinchalik ko'shklar badavlat kishilar, hukmdorlar uchun bezakdor qilib, bog'lar ichida qurilgan. Ko'shk Sharq mamlakatlaridan G'arbga "kiosk" shaklida kirib kelgan.
<b>Maymurg'</b>	Maymurg	Маймург	(sug'd. "mayn" - qishloq, murg' - o'tloq, sero'tloq qishloq)-Samarqanddan janubiy sharqda joylashgan, qadimgi sug'diyonaning mulki -rustoq markazi hozirgi Quldortepa shahar xarobasi o'rni-

			da joylashgan. IV-X asrlarda Sug'd tarkibida bo'lgan. Dastlab Maymurg' tarkibiga Panjikent ham kirgan, lekin VII asrda u mustaqil mulk sifatida ajralib chiqqan. Ilk o'rta asrlarda Maymurg'ning nihoyatda ahamiyatli ekanligi uning hududida Samarqand vohasining asosiy sug'orish tizimlari boshlangan to'g'on - Varagsarning joylashganligi edi. Maymurg'ni hokim emas, sug'd hukmdorlari xonadoniga mansub shahar boshlig'i idora qilgan.
<b>Mezana</b>	mizan (higher part minaret)	мизана (верхний част минарет)	(ar.) - minoraning yuqori qismi, muazzin azon aytadigan joy. Biror bino (peshtoq, darvozaxona) ustiga qurilishi mumkin. Mezana aylana shaklida va ko'p qirrali bo'ladi. Ko'pincha ravoqsimon darchalar qatoridan iborat. Mezananing teppasi gumbazcha (qubba) bilan yopiladi. Ba'zan ochiq ham bo'lishi mumkin.
<b>Miyonchi</b>	objective judge	судья	o'tmishda o'zaro nizolashib qolgan kishilar o'rtasiga tushib, yarashtirib qo'yuvchi shaxs. Miyonchi ko'pincha nufuzli din arboblardan bo'lgan. Masalan, 1485 yilda temuriylardan Sulton Ahmad (Samarqand hokimi) va Umarshayx (Farg'ona hokimi, Boburning otasi) Toshkent va Shohruh-yani talashib urush boshlaganlarida, Xoja Ubaydulla Ahror ular o'rtasida miyonchi bo'lgan. Fiqh (diniy huquq) ilmida "miyoncha-shariat" lavozimi (holis sudya) ham bo'lgan.
<b>Miyonqol</b>	Miyankol	Миянкол	Miyonkol - O'zbekistondagi Okdaryo va Qoradaryo oralig'idagi joy. Qadimda Samarqand Sug'di, Nim Sug'd (yarim Sug'd), Sug'di Xurd (kichik Sug'd) nomlari bilan mashhur bo'lgan. Miyonqol dehqonchilik uchun qulay bo'lib, Xatirchi, Payshanba, Qal'ai Dabus va boshqa shahar va qishloqlarni o'z ichiga olgan. Keyinchalik Zarafshon vodiysining Samarqand bilan Xatirchi oralig'idagi yerlari Miyonqol deb

			atalgan.
<b>Mozandaron Dengizi</b>	Sea Mazandaran	Море Мазандаран	O'рта asrlarda Kaspiy dengizining nomlaridan biri.
<b>Mohondaryo</b>	Mohan River	Река Мохан	Zarafshon daryosining Buxoro viloyatidagi quruq o'zani. Zarafshon qadimda shu o'zandan oqib, Amudaryoga quyilgan. Uzunligi 58 km (qum bosgan sohili bilan 150 km) bo'lgan bu o'zan bo'ylaridan neolit davriga oid 40 dan ortiq, bronza davriga oid 20 dan ortiq yodgorliklar topib tekshirilgan. Zarafshon daryosidan yirik sug'orish kanallari chiqarilib, daryo suvining ekin dalalariga taralishi natijasida Mohondaryo suvsizlikdan qurib qolgan.
<b>Naddof</b>	naddaf (comber)	наддаф (чесалщик)	(ar - taramoq, titmoq) - o'рта asrlarda paxta yoki jun tituvchi, savalovchi kishi. Naddoflar mehnati, asosan, kalavachilik - ip yigiruvchilarga paxtani chigitdan ajratib, savalab berishdan iborat bo'lgan. Naddoflar shahar aholisining eng kambag'al tabaqasi hisoblanib, bosqinchilik zulmiga qarshi qo'zg'olonlarda asosiy kuchni tashkil etganlar. Jumladan, Samarqandda mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan Sarbadorlar qo'zg'oloniga (XIV asrning 60-yillari) naddoflar mahallasining oqsoqoli Abu Bakr Kuluiy (Kalaviy) Naddof boshchilik qilgan edi.
<b>Nasaf</b>	Nesef	Несеф	Naxshab - Qarshi vohasida, Qashqadaryoning quyi oqimi bo'ylarida joylashgan o'рта asr shahri va viloyati nomi. Qarshi shahridan 8 km shimoliy-g'arbdagi Shulluktepa shahar xarobasi o'rnida bo'lgan. VII-VIII asrlarda Nasaf mahalliy hokimlari mis tangalar (fals) zarb qildira boshlaganlar. Arablar istilosidan so'ng Nasaf viloyatining ma'muriy markazi bo'lib, bu davrda mudofaa devorlari bilan o'ralgan mustahkam shaharga aylangan. XIV asrda Nasaf Qarshi nomini olgan.
<b>Ostadon</b>	assuary	ассуарий	assuariy - zardushtiylarning dafn marosimiga tegishli odam suyaklari saqlanadigan sopol idish, sandiqcha.

<b>Paleoantrop</b>	paleoantrop	палеонтроп	(yun. – qadimgi odam) - qadimgi davr odamlari. Paleontropolar asosan oʻrta paleolit davrida (100-40 ming y.y.) yashaganlar. Neandertal odamlari paleontropolar deb ham yuritiladi.
<b>Parak</b>	Parak (name of river)	Парак (названия река)	Chirchiq daryosining ilk oʻrta asrlardagi nomi
<b>Rabot</b>	Rabat (downtown)	рабат (центральный част город)	(ar. - musofirxona, karvonsaroy) – Oʻrta asrlarda arablarning mustahkamlangan qarorgohi. Tuzilishi toʻrtburchak shaklida, devorlarida minoralari boʻlgan. Dastlab islom dini tarqala boshlagan davrda gʻoziyarga moʻljallab qurilgan maxsus bino. Oʻrta Osiyoda VIII-X asrlarda koʻchmanchi aholi yashaydigan hududlar chegarasida koʻplab rabotlar qurilgan. Ularning eng mashhuri Raboti Malikdir. Keyinchalik rabot faqat qoʻrgʻon, istehkom maʼnosidagina emas, balki mehmonxona (karvonsaroy) mazmunida ham tushunilgan. Zohidlar ham maxsus rabotlarda yashaganlar. Rabotlar XI-XII asrlarda Oʻrta Osiyo shaharlarining mustahkam qismiga aylangan. XIII asr boshlarida moʻgʻullar istilosi natijasida koʻplab shaharlarning arki va shahristoni xarobaga aylangan boʻlsada, rabotlarda hayot davom etgan.
<b>Ravoq</b>	decoration	украшение	(ar. - peshtoq, peshayvon; yopiq yoʻlak, bezakdor chodir) - tokning bir turi; bino devorlaridagi deraza va eshik oʻrinlarining yuqori qismiga qoʻyiladigan mehrobiy yoysimon qurilma.
<b>Registon</b>	Registan	Регистан	(f. mayda tosh toʻshalgan joy) - Oʻrta Sharq mamlakatlari shaharlaridagi markaziy maydon. Turli maqsadlarda odamlar toʻplanadigan joy boʻlgan registon koʻp hollarda shahar yoki hokimlar saroylari yonida barpo etilgan hamda ular maʼmuriy siyosiy ahamiyatga ega boʻlgan. Yogʻingarchilik paytida botqoqlikka aylanishdan saqlash maqsadida kumtoshlar yotqizilgan. Shu xususiyati bilan boshqa ochiq joylardan farq qilgan.



			Keyinchalik davrlar o'tishi bilan Registon atrofida mahobatli jamoat binolari qurilgan, hovuz, daraxtlar bilan obodonlashtirilib hashamatli ko'rinish olgan.
<b>Rixtagarlik</b>	metalworker	металлист	(f.-toj. - metall eritmoq) - xunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri. Rangli metall (asosan, mis, bronza, qalay)dan turli buyumlar quyish kasbi.
<b>Sart</b>	settled population	оседлый население	(sanskrit. - zagtau'a - karvonboshi, savdogar) - 1) VI asr o'rtalarida Turk xoqonligi O'rta Osiyoni bosib olgach, shaharlarda istiqomat qilayotgan fors-tojik tilida gaplashuvchi aholini shunday atashgan; 2) XII-XIII asrlarda mo'g'ullar yurtiga savdogarchilik bilan kelgan, asosan aksariyat musulmon savdogarlariga qo'yilgan umumiy nom; 3) XVI asrda Dashti Qipchoqdan kelib, Temuriylar davlatini egallagan ko'chmanchi o'zbeklar mahalliy shaharlik va o'troq aholiga bergan umumiy nom. Sart atamasi etnik nom emas. Bu hakda fanda turli qarashlar mavjud, ammo uning muayyan bir etnosga tegishli ekanligi ma'lum emas. Sovet davri tarixshunosligida bu masalada V.V.Bartold qarashlari e'tiborda bo'lib keldi. Uningcha sart atamasi tojik ma'nosini beradi. Ammo u kelib chiqishi jihatdan turkiylashgan sug'diylar bo'lib, tojik va o'zbeklarga tegishli muqim yashovchi, savdo-sotiq va hunarmandchilik ahlining yig'indi nomi ekanligi tarixiy haqiqatdir. O'rta Osiyodan Sharqiy o'lkalarga savdo karvoni bilan borgan savdogarlar kelib chiqishi qaysi etnosga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, ular sartlar deb atalgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asarida sart qadimgi turkchada savdogar ma'nosida berilgan. Dastlab sartlar forsiy va turkiyda so'zlashgan bo'lsalar, XVI-XVII asrlardan ular faqat turkiyda, eski o'zbek tilida so'zlasha

			boshlaganlar. Endi bu atama ko'proq Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi va Xorazmda turgun yashovchi o'zbeklarga nisbatan qo'llaniladigan bo'ldi. Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgach, rus olimlari va tadqiqotchilari asarlari va xronikalarida ham Turkiston o'troq aholisi shu nom bilan yuritilgan.
<b>Seyiston</b>	Sistan	Сеистан	Sakiston - Eronning Afg'oniston bilan chegaradosh sharqiy viloyati. Miloddan avvalgi II asrda ko'chmanchi sak qabilalari shimoldan Xerirud va Gilmand daryolari oralig'idagi viloyatlarga kelib joylashishgan va shundan boshlab bu hududlar Sakiston (Seyiston) deb yuritiladigan bo'lgan.
<b>Tamaddun</b>	Civilization	Цивилизация	(lot. civilis-fuqaroviy, ijtimoiy) serqirra va murakkab mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy-falsafiy tushuncha. S. tushunchasini shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergusson (1723-1816) jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun, fransuz ma'rifatparvarlari aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat degan ma'noda ishlatgan edilar.
<b>Soqa</b>	metal shield	металлический щит	(ar. - poya, palak; orqadan boruvchi) - 1) harbiy yurish yoki harbiy amaliyotlar chog'ida asosiy kuchlar ortidan soqchilik qilib boruvchi, zarur vaqtlarda madadga keluvchi maxsus suvoriy qism. 2) jang paytida dushmanning qilich, nayza singari qurollaridan saqlanish maqsadida tizza va tirsaklarga kiyiladigan metall qalqoncha; 3) Xorazm va Qoraqalpogistonda kanal boshi ma'nosida ishlatiladigan atama. Bu so'z tarixiy manbalarda ko'p uchratilib, joy nomlarida saqlangan (mas. Toshsoqa).
<b>Tabarzin</b>	ax	табарзин (топор)	(f. - "tabar" -bolta) - qadimgi qurol turi, dastasi oddiy boltaga nisbatan uzunroq bo'lgan oybolta. O'rta asrlarda otliq askarlarning asosiy qurollaridan hisoblanib, ot egarining old tomoniga osib qo'yilgan.

<b>Talant</b>	coin unit of measurement	талант (единицы измерения монета)	Qadimgi Yunoniston, Misr, Mesopotamiya, Suriya va Eronda ishlatilgan og'irlik va yirik pul o'lchov birligi bo'lib, 1 talant 6 000 dirhamga teng bo'lgan. Og'irlik o'lchov birligi sifatida talantning miqdori turli mamlakatlarda turlicha bo'lgan. Masalan, qadimgi Yunonistonda 1 talant 26.2 kg bo'lsa, Eronda 1 talant 33,655 kg ga to'g'ri kelgan.
<b>Tanais</b>	Tanais (old name of Don River)	Танаис (старые названия река Дон)	1) Miloddan avvalgi III asr - milodiy V asrlarda Don daryosining quyi oqimida Bospor podsholigi tarkibida bo'lgan antik shahar; 2) yunon tarixchilari Don va ba'zan Sirdaryoni shu nom bilan ataganlar.
<b>Tegin</b>	The title of heir	титул наследника	Takin (turk. - shahzoda) - 1) xunlar davrida yabg'udan keyingi ikkinchi oliy darajali mansab; 2) Turk hoqonligida (VI-VIII a.) hukmdor -xoqon (qag'an)dan keyingi ikkinchi oliy lavozim, ya'ni taxt vorisi. Ayni chog'da davlat boshlig'i farzandlari ismiga ko'shib aytiladigan sharafli unvon. (mas. Qultegin, Io'llug'tegin va b.); 3) qoraxoniylar saltanatida tegin - xonzoda muayyan mulkka egalik qilgan, harbiy harakatlarda qo'shinni boshqargan; 4) somoniylar, g'aznaviylar va saljuqiylar lashkarida uzoq muddat xizmat qilish evaziga yuksak martabalarga erishgan qul, g'ulom. Xususan, Mahmud G'aznaviyning otasi - Sabuqtegin qullikdan lashkarboshi darajasiga ko'tarilgan. Xorazmshohlar shajarasining boshchisi Anushtegin dastlab, saljuqiy Bilgateginning g'ulomi (quli) bo'lgan.
<b>Terrakota</b>	terracotta	терракота	(it. - yer, soya - pishirilgan) - pishirilgan sof loydan yasalgan badiiy san'at buyumlari, sopol haykalchalar.
<b>Totemizm</b>	Totemism	Тотемизм	Ibtidoiy tasavvur shakllaridan biri bo'lib, borliqdagi o'zgarishlarni va rivojlanishlarni tushunishda hayvonlarning g'ayritabiiy ta'siriga ishonish.
<b>Uyg'onish</b>	The	Эпоха	Yangi davr arafasida o'ziga xos qadri-

<b>davri</b>	Renaissance	возрождения	yatlarga ega bo'lgan g'oyaviy va madaniy rivojlanishni o'z ichiga olgan tarixiy jarayondir.
<b>Ustrushona</b>	Ustrushan	Уструшана	Sug'dning sharqiy tomonida joylashgan ilk o'rta asrlardagi tarixiy viloyat. Ushbu viloyatning g'arbiy qismini Uzbekistonning Jizzax va Sirdaryo viloyatlari tashkil etadi. Uning sharqiy qismi esa Tojikistonning Sug'd viloyati hududlariga to'g'ri keladi. Ilk o'rta asrlarda Ustrushona viloyati 18 ta tuman (rustak)dan tashkil topgan bo'lib, ular tepasida turgan hukmdorlar afshinlar deb atalgan. Dastlab Ustrushona nomi ilk o'rta asr Xitoy manbalarida uchraydi. Bunga ko'ra Ustrushona IV-V asrlardayoq mustaqil hokimlik sifatida tilga olinadi. Arab geograflarining xabarlariga qaraganda, Ustrushonaning bosh shahri Bunjikat (hozirgi Shahriston) bo'lgan. Ustrushona dastlab eftaliylar, so'ngra VI asrning ikkinchi yarmidan Turk hoqonligi tasarrufiga kiritilgan.
<b>Yettisuv</b>	Semirechye	Семиречья	Tarixiy-geografik viloyat. Hozirgi Qozog'iston Respublikasining janubiy-sharqi, Balxash va Issiqko'l oralig'idagi hudud. Tyanshan va Oloy tog' tizmalaridan boshlanib, Balxash ko'lga quyiladigan yettita daryo (Ili, Qorator, Biyon, Oqsuv, Lepsa, Baskon, Sarkand)ning havzasi bo'lganligi uchun shunday nom olgan. Yettisuvda saklar, keyinchalik usunlar yashaganlar. Yettisuv o'lkasi ko'chmanchi turkiy qabilalarning azaliy yurti hisoblanib, Chig'atoy ulusining markazi ham Yettisuv bo'lgan. XVI asrda Yettisuvda qozoqlarning Katta juzi tashkil topgan. XIX asrning o'rtalarida Rossiya tomonidan bosib olingan.
<b>Yombi</b>	a piece of precious metal	кусок драгоценный металл	(turk. "yuan bao" - boylik to'plashning boshlanishi) - yaxlit quyma oltin yoki kumush.
<b>Zinjantrop</b>	Zinjanthropus	Зинжантроп	(Zinj - Sharqiy Afrikadagi qishloq va yun. - odam) - "ishbilarmon odam", u odamzodning ilk ajdodlaridan bo'lib,

			uning suyak qoldiqlari 1959 yili arxeolog Lui Liki tomonidan Sharqiy Afrikadagi Tanzaniyaning Olduvoy darasidan topilgan. Odanzodning kelib chiqishi shajarasida zinjantrolar avstralopiteklar bilan pitekantrolar orasini to'ldiruvchi bo'g'in deb xisoblanadi. Zinjantrolar bundan taxminan 2 mln. yil algari yashagan deb taxmin qilinadi.
--	--	--	---

## **ILOVALAR:**

1. Fan dasturi- (diskda ilova qilinadi);
2. Ishchi fan dasturi -(diskda ilova qilinadi);
3. Tarqatma materiallar- (diskda ilova qilinadi);
4. Testlar- (diskda ilova qilinadi);
5. Ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar- (diskda ilova qilinadi);
6. Fanni o'ziga xosligiga qarab o'rganish bo'yicha boshqa materiallar keltirilishi mumkin- (diskda ilova qilinadi);
7. O'UMning elektron varianti- (diskda ilova qilinadi).